

A woman with long, wavy brown hair, wearing a white long-sleeved dress with lace sleeves and a wide-brimmed straw hat, stands on a sandy beach looking out at the ocean. In the background, a white lighthouse with a black top and a red stripe stands on a rocky outcrop. The sky is a soft, hazy orange, suggesting sunset or sunrise. The overall mood is contemplative and serene.

Har bir qizning **vasvasasi**

JINSIYLIK BILAN TO'LIB-TOSHDAN
DUNYODA AQLIMIZ, QALBIMIZ
VA TANAMIZNI QANDAY ASRASHIMIZ MUMKIN?

Шеннон Этридж Стивен Артерберн

Shennon Etridj Stiven Arterbern

Har bir qizning vasvasasi

JINSIYLIK BILAN TO'LIB-TOSHGAN DUNYO'DA AQLIMIZ, QALBIMIZ VA TANAMIZNI QANDAY
ASRASHIMIZ MUMKIN?

Originally published in English under the title: **EVERY YOUNG WOMAN'S BATTLE**
By Shannon Ethridge & Stephen Arterburn Copyright © 2004

Published by WaterBrook Press a division of Random House, Inc. ISBN 1-932247-99-8

12265 Oracle Boulevard, Suite 200 Colorado Springs, Colorado 80921 USA

Russian edition B© 2008 Hope of Salvation Mission

PO Box 5022, Vancouver WA 98668 USA

#книги #искушениекаждойдевушки @lyubovneperestayot искушение каждой девушки

www.spasenie.org

Bizning dunyoimiz jinsiy aloqaga oid axborotlar bilan to'lib-toshgan. Biroq qizlarda shundan kelib chiqqan vasvasalar haqida ochiq gapirilmaydi. Juda kam hollarda kimdir uni tushunib, foydali maslahat bera oladigan dugona-etakchini topishi mumkin. Ko'pincha qizlar vasvasalar bilan mustaqil tarzda kurash olib borishga urinadilar va buning oqibatida ruhiy kurash dalasida mag'lubiyatga uchraydilar. Shennon Etridj va Stivena Arterbernning "Har bir qizning vasvasasi" nomli kitobi - bu sizga doim etishmagan, yashirin bo'lgan gaplar haqida gaplashish uchun uzoq kutilgan imkoniyatdir. Agar sizni aybdorlik hissi azoblayotgan bo'lsa, vasvasalarni engi olmayotgan bo'lsangiz, boshi berk ko'chaga kirganday va Xudo sizdan yuz o'g'irganday tuyulayotgan bo'lsa, - bu asar aynan siz uchun. Siz bu yerda siz kabi vaziyatlarga tushgan qizlarning guvohliklarini topasiz.

Sizga gunoh yurakka qaysi yo'llar bilan kirib olishi va tana bilan kurashda qanday qilib g'olib chiqish haqida so'zlab beradilar. Agar siz jinsiy aloqa haqidagi xayollar - bu sizni begunohligingizcha qoldiradigan va ruhiy hayotingizga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydigan zararsiz mashg'ulot deb o'ylasangiz, "Har bir qizning vasvasasi" kitobida bu chuqur adashish haqida nima deyilganini bilib oling. Vasvasalarga duch kelmasdan avval bu asarni o'qishlari kerak, toki gunohga to'lib-toshgan jamiyatda qanday qilib pok bo'lib qolish kerakligi haqidagi malumot bilan qurollanib olinsin.

“Har bir qizning vasvasasi” kitobi haqidagi fikrlar

«Men Shennondan rostgo‘yligi va to‘g‘riso‘zligi uchun minnatdorman - chunki faqat shu tufayli u shunday kitobga aylandi... Xudoning qo‘lidagi bu kuchli kitob judayam ko‘p g‘aroyib shifolarning quroliga aylanadi!.. Yashirmayman - u meni ham o‘zgartirdi, chunki unda aniq qilib, Isoning Kimligi, Jamoatni tashkil qiluvchilar - Uning kelini bo‘lgan bizlarning kimligimiz va nima uchun biz Unda boshqa hech kim bera olmaydigan narsani topa olishimiz haqida gapirilgan».

Betani Dillon, qo‘shiqlar muallifi va ovoz rejisseri

«Bugungi o‘smir qizlarning ongiga jinsiy aloqa haqidagi noaniq va sayoz tushuncha, xuddi tomir ichiga dori yuboradigan tomizg‘ich kabi, bir maromda va uzluksiz singdirilmoqda. Kimdir ularga poklikni saqlash nima uchun zarurligini tushuntirishi juda muhim. Aynan shunday tushuntirishlarni Shennon Etridj o‘zining qiziqarli kitobida keltiradi. Bu kitobni har bir qiz va qizi bor bo‘lgan har bir ona o‘qishi shart».

Sheron Xersh, “Ona, men shunaqa semizman” va “Ona, men o‘zimdan nafratlanaman” nomli kitoblarning muallifi

«Har bir o‘smir qiz o‘qishi uchun tavsiya etiladi. Ochiq-oydin, muhim malumotlar bilan to‘lib-toshgan bu kitob nafaqat yaxshi yozilgan, balki bugungi o‘smir duch kelishi mumkin bo‘lgan deyarli barcha jinsiy vaziyatlarni qamrab olgan ko‘plab maslahatlarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy pop-madaniyat yoshlarga taqdim etayotgan jinsiy aloqa haqidagi buzuvchi tasavvurlarga qarshi ajoyib qarshi vositadir. Shunday davom eting, Shennon!»

Melodi Karlson, “O‘smir-qiz kundaligi” turkumi va “Enayotgan mashala” hamda “Yirtib tashlanagn bo‘yama rasmlar” kitoblarining muallifi

«Shennon ochiq va to‘g‘riso‘zlik bilan yozadi, lekin shuningdek, odob va jinslar o‘rtasidagi munosabat haqidagi tasavvurlarini odob, nazokat, vazminlik va oqillik bilan ifoda etadi. Xudoning oldida pok bo‘lib qolishga harakat qiladigan har bir qiz bu kitobni o‘qib chiqishi kerak. Yaqin orada bu kitob kichik guruhlarda o‘rganiladigan eng asosiy kitobga aylanishiga aminman».

Fred Stoker, “Har bir o‘smirning kurashi” nomli kitobning mualliflaridan biri

«Bu ajoyib kitob! Albatta uni xarib qilib, uni o‘zim o‘qitadigan qizlar bilan birga o‘qib chiqaman. Mening yoshligimda bunday kitobning bo‘lmaganligidan juda afsusdaman!»

Adrienna Freas, uy bekasi va «Campus Crusade for Christ» harakatining xodimi

«Ommaviy axborot vositalari, musiqa, kinofilmlar va zamonaviy jurnallar orqali madaniyatimizning yomon tasiriga tushib qolgan har bir o‘smir qizga bu kitobni o‘qib chiqishlarini qat’iy tavsiya qilaman. Ko‘p yillardan beri o‘smir qizlar xizmati bilan shug‘ullanuvchi inson sifatida Shennonning bu ishga samimiyat va pok yurak bilan yondoshganini hamda yosh qizlar duch keladigan nozik muammolarni hal qilishga urinishini munosib baholayman. Muallif o‘z ishini alo darajada ado etgan va zamonaviy madaniyatning xudosiz fel-atvorini fosh qilgan, shu bilan bir qatorda bugun yoshlarning qarshisida turgan savollarga Xudoga manzur bo‘lgan javoblarni taqdim qilgan».

Viki Kortni, “Oriyat va iffat” xizmatining asoschisi, “Sizning qizingiz, yoki qanday qilib nopok dunyoda diyonatli qizni tarbiyalash kerak” kitobining muallifi

Mundarija

Djosh Makdauelldan soʻzboshi
Bagʻishlovlar va minnatdorchiliklar
Ota-onalarga
Kirish soʻzi (Stiven Arterbern)

I-qism: Vasvasangizni tushunish

1. Oʻzimizga haqiqatni aytishga jazm etamiz
2. Boshida aytilgan rejaga qaytib
3. Iffatli va oriyatli hayot
4. Vasvasalarimizni kuchaytiruvchi afsonalar

II-qism: Oʻz-oʻzini halok qilishdan saqlanish

5. Jinsiy aloqaga nisbatan istagimizni kuchaytirganimizda
6. Koʻzgu doʻstimizga aylanganida
7. Haqiqatga taqqoslanib
8. Buzuq doirani uzish

III-qism: Boshqalarni vasvasaga tushirmaslik

9. Hukmronlik qilishga tashna boʻlganimizda
10. Taassurot uygʻotish uchun kiyinamizmi?
11. Noz-karashma qilish yoki qilmaslik?

IV-qism: Oʻz ongingizni himoya qilish

12. Ong jangida gʻolib chiqish
13. Davolovchi ochlik
14. OAV va u bilan qanday kurashish kerak

V-qism: Oʻz qalbingizni himoya qilish

15. His-tuygʻular bilan kurashda gʻolib chiqish
16. Ketish mumkin!
17. Ehtiyotkorlik bilan harakatlanish
18. Qayerda toʻxtashni bilish!

VI-qism: Oʻz tanangizni himoya qilish

19. Oʻz tanangiz ustidan gʻolib kelish
20. «Texnik» bokiralik
21. “Tormozsiz” jinsiy aloqa
22. «Axir bir-birimizni sevamiz!»

VII-qism: Muhabbatni kerakli joydan izlang

23. Sizga kerak boʻlgan Zot
24. Unga kerak boʻlgan qiz boʻlish
25. Isoga oshiq boʻlish

Xotima

Djoshia Makdauelladan so'zboshi

Jumboqlar to'plamidagi labirintda adashib, umidsizlikka tushganingiz esingizdami? Vazifa unchalik murakkab emasdek - uzluksiz chiziqlarni kesib o'tmasdan kirish joyidan chiqish joyigacha bo'lgan yo'lni topish go'yo qiyin emasdek.

Biroq ko'plab boshi berk ko'chalar bu sayohatni sabr-toqat va diqqatni jamlash uchun haqiqiy imtihonga aylantiradi.

Endi esa futbol maydoniga teng keladigan juda katta labirintni tasavvur qiling. Tasavvur qilaylik, kimdir sizga uni boshidan oxirigacha o'tib olish uchun to'rt daqiqa borligini aytib, mukofotiga esa sizga o'ng ming dollar vada qildi. Omadingizni sinab ko'rishni istarmidingiz? Albatta, ha! Xo'sh, labirintga kirdingiz va u yerda baland devorlardan boshqa hech narsa ko'rinmayapti! Sizga yo'l ko'rsatishi mumkin bo'lgan na bir jadval bor. Qaysi burchakdan keyin berk yo'lak borligini topishning ilojisi yo'q. Omad imkoniyati nolga yaqin. Sizga bu labirint bilan yaxshi tanish bo'lgan ishonchli odamning yordami juda zarur.

Agar qizim shunday vaziyatga tushib qolib, mendan maslahat so'rasa, bilasizmi nima qilgan bo'lar edim? Men ikkita baland narvonni va ikkita mobil telefonni olar edim. Bir telefonni qizimga berar edim, ikkinchisi bilan esa narvonning eng tepasiga chiqib, labirintni yuqoridan ko'rib chiqardim. O'sha yerdan turib qizimga yo'l ko'rsatib turar edim. Men uni bexosdan boshi berk ko'chaga kirib qolmasligi uchun o'z vaqtida ogohlantirib qo'yishim, qayerda o'ngga, qayerda chapga burilish kerakligini aytib berishim mumkin edi.

Endi esa sizdan shuni so'ramoqchiman: nima deb o'ylaysiz, qizim o'zining ichki hissiyotlari uni to'g'ri yo'ldan olib chiqishiga ishonib, otasining maslahatlarini inobatga olmagan bo'larmidi? Aslo! U mening har bir so'zimni ilib olardi, chunki men u ko'rmayotgan narsalarni ko'rib turganimni, menga ishonish mumkinligini, uni juda yaxshi ko'rishimni va unga omad tilashimni bilardi.

Èshlarning barchasi shu kabi sinovlarga duch kelishadi, faqat buning bahosi arzimagan o'n ming dollardan ancha qimmatga tushadi. Buning bahosi - ularning sog'ligi, baxti, tinchligi va yurak xotirjamligidir. Ularga esa o'zini nikoh uchun saqlagan holda, munosib umr yo'ldosh topganda va ajoyib farzandlarni dunyoga keltiribgina erishish mumkin.

Menda shunday farzandlardan to'rtta bor. O'ttiz yillik turmushim va otalikdan so'ng shuni aytishim mumkinki: meni bu dunyoda hech narsa oilamchalik quvontirmaydi. Balki siz vaqt o'tishi bilan oila qurmoqchi bo'layotgan 93% va farzandli bo'lishga umid qilgan 91% yoshlar qatoriga kirarsiz. Agar shunday bo'lsa, bilingki, sizning butun kelajagingiz, shu jumladan, turmush qurish va farzand ko'rish imkoniyati ko'plab qarorlardan iborat. Bu qarorlar sizni nimaga olib kelishi mumkinligini har doim ham oldindan ko'ra olmaysiz.

Hikmatlar kitobi 14:12 da shunday deyiladi: "Shunday yo'l borki, insonga to'g'ri bo'lib ko'rinadi, ammo oxiri o'limga olib boradi". Butun dunyo bo'ylab yoshlar o'zlari uchun to'g'riday tuyulgan noto'g'ri qarorlarni qabul qiladilar. Gap nima haqida ketmasin - ular ko'radigan filmlar haqidami, ota-onalariga so'zlaydigan yolg'on haqidami, yoki ular uchrashib yuradigan inson bilan qanchalik yaqin munosabat qurmoqchi bo'lishganidami - ularning ko'pchiligi o'zlariga shunday deydilar: "Hechqisi yo'q... Hamma shunday qilyapti... Men shu ishim to'g'ri deb hisoblayman". Ular to'g'ri va noto'g'rining o'rtasida farqni ko'rmaydilar, chunki ularda mutlaq haqiqat yo'lga yo'naltiruvchi axloqiy kompas yo'q.

Sizning ko'pgina tengdoshlaringiz, qanday yo'nalishda ketayotganlarini tushunmasdan, ularni to'laqonli, quvonchga boy hayotga emas, balki o'z-o'zini yo'q qilishga va hatto o'limga olib boradigan qarorlarni qabul qilishadi. Har kuni Qo'shma Shtatlarda

- 4.219 o'smir jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarga chalinmoqda, shuning oqibatida ularning ko'pchiligi hayotdan erta ko'z yummoqdalar;
- 1.106 o'smir qizlar abort qildirmoqdalar;
- 6 o'smir o'z joniga suiqasd qilmoqda. Ko'pincha buning sababi baxtsiz sevgi yoki nikoh qurishdan avval bo'lgan jinsiy aloqani tufayli aybdorlik hissi sababdir.

Mana shunday qilib, har kuni biz bebaho jonlarni qo'ldan chiqaryapmiz. Hammasiga esa - qachondir o'ylamasdan, shoshib qabul qilingan noto'g'ri qaror sababchi! Oqilona bo'lib tuyulgan qadamlar, oxir-oqibat ularni boshi berk ko'chaga olib kirib qo'ydi.

Endi esa o'zingiz hal qiling, jinsiy poklik masalasida o'z fikringizga tayanishingiz kerakmi yoki ishonish mumkin bo'lgan dono va yaxshi maslahatchini izlagan maqulmi. Baland narvonga chiqib olib, sizning qo'ng'irog'ingizni kuta olmasamda, shuni bilishingizni istardim: sizda hayotning butun labirintini ko'rib turuvchi Osmondagi Otangiz bor. Qaysi burilishlar sizni boshi bekr ko'chaga kiritishi mumkinligini biladi va sizni g'alabaga olib boruvchi yagona yo'lni ko'rib turadi. Xudo hamma narsadan xabardor, shuning uchun insonning u yoki boshqa qarori qanday natijaga olib kelishini doim yaxshi biladi.

Ishayo kitobi 30:21 da shunday deyiladi: "Sizlar o'ngga yoki chapga burilganingizda, shunday ovozni eshitasizlar: "Mana yo'l, shu yo'ldan yuringlar." Buning manosi osmondan ovoz kelib hammaga eshitaladigan ovozda sizga murojaat qilishini anglatmaydi. Biroq Iso Masih sizni hayotning ayyorona tuzilgan labirintidan o'tkazib qo'yishiga ishongan holda Uning ovozini yuragingizda eshita olasiz. Buning uchun esa dunyoning lazzatlaridan uzilib, Uning nasihatlariga quloq tutish lozim. U sizni muhtoj paytingizda tashlab qo'ymaydi. Unga to'lig'icha ishonish mumkin. U sizni juda qattiq yaxshi ko'radi va sizda hammasi yaxshi bo'lishini xohlashiga shubha yo'q.

Xudo doim to'g'ri yo'lni tanlashingizni istagani uchun sizni yo'l xaritasi (yani Muqaddas Kitob) bilan taminladi va ishonchli maslahatchini (Muqaddas Ruhni) berdi, toki U sizning yo'l ko'rsatuvchingiz bo'lsin. Siz, ehtimol, Xudoni hayot quvonchini zaharlash uchun bir talay taqiqlarni o'ylab topgan qandaydir koinotga xos bezori deb tasavvur qilsangiz kerak? Aslida Xudoning amrlari bizga muhim ko'rsatmalarni - yoki mo'ljallarni - beradi. Biz hayotda ular bilan boshqarilishimiz kerak. Ko'rsatmalar ikki tomonlama rolni o'ynaydi: ular sizni himoya qilib, kerakli narsalar bilan taminlaydi. Bu ko'rsatmalarni soyabon sifatida tasavvur qiling. Uni boshingiz ustida ushlab turganingizda u sizni yomg'irdan himoya qiladi va qulaylik bilan taminlaydi. Soyabondan tashqariga chiqishingiz bilan bu qadamingizning yoqimsiz oqibatlarini o'sha zahoti his qilasz. Hayotingizning intim tomoni bilan ham xuddi shunday: iffatingiz haqida qayg'urgingizda va uni Xudo buyurganiday saqlaganingizda jinsiy aloqa orqali yuqadigan kasalliklardan, istalmagan homiladorlikdan, nosog'lom munosabatlardan va ruhiy zarbalardan himoyalangan bo'lasiz. Xotirjamlik, xavfsizlik va yorqin kelajak uchun umid kafolatlangan bo'ladi. Agar siz Xudoning buyruqlariga bepisandlik qilib, Uning himoyasidan tashqariga chiqsangiz, ertami kechmi bu ishingizning azobli oqibatlariga duch kelasiz.

Oxirgi qirq yil davomida men dunyoning sakson to'rt mamlakatida yashovchi yetti million yoshlarga "Nima uchun haqiqiy sevgi shoshmaydi," "Nima to'g'ri-yu, nima noto'g'riligini farqlash" haqida gapirib kelmoqdaman, yaqinda esa "Ishonishdan etiqodga o'tish" haqida ham gapira boshladim. Menga eng ko'p savollarni o'smirlar berishadi va ular asosan sevgi, jinsiy aloqa va yigitlar va qizlar o'rtasidagi uchrashuvlar haqida. Siz va tengdoshlaringiz qarama-qarshi jins vakillari bilan yolg'iz qolganingizda qanday vasvasalarga duchor bo'lishingiz meni juda tashvishga soladi. Ammo jinsiy tomonlama jozibadorligingiz va Xudoning poklikni saqlash haqidagi buyrug'i haqida fikringiz meni ko'proq tashvishga soladi. Shuning uchun ham hozir qo'lingizda ushbu kitob borligidan chin dildan xursandman. Ishonchim komilki, tez orada siz unda bebaho yordamchini topasiz, u sizni aqlni yangilash, ruhiy kuch, qalb pokligi, jismoniy salomatlik va bir-biringiz hamda Xudo bilan ajoyib munosabatlar sari yaxshi yo'lga boshlaydi. Bu yerda yozilgan har bir so'zni yuragingizga qabul qilishingiz, yozilgan qoidalarni har kuni qo'llashingiz va Xudo sizga orzu qilgan mukofotga - haqiqiy to'laqonli hayotga olib borishiga imkon berishingiz uchun ibodat qilaman.

Agar bu kitobni ota-onalardan biri ushlab turgan bo'lsa, uni qizingizga nafaqat topshirishingizni, balki u bilan birga o'qishni va bu dolzarb mavzuni u bilan birgalikda behijolat muhokama qilishingizni tavsiya qilaman. Qizingiz jinsiy aloqa haqida gaplashishni istamayotganday tuyulyaptimi? Xudosa qilishga shoshmang! Ehtimol u sizdan jinsiy aloqa haqida gaplashishni so'ramayotgan bo'lishi mumkin, lekin shuni bilingki, o'nta o'smir qizdan yettitasi (bu 69% degani) agar ular ota-onalari bilan bu mavzuda ochiq, samimiy suhbatlasha olganlarida, jinsiy faollikni kechiktirish va erta homiladorlikdan qochish ancha osonroq bo'lardi, deb hisoblashadi. Yana shuncha qizlar ota-onalarining fikriga ko'ra, hali ularning quloqlari uchun mo'ljallanmagan narsalarni tinglashga tayyor ekanliklariga ishonishadi. 78% oq tanli va 70% afro-amerikan o'smir qizlar erta tug'ilishning sababi - qiz va uning ota-onasi o'rtasidagi muloqotning yo'qligi muammosi deb hisoblashadi. O'smirlarning 31 foizi jinsiy faollik bilan bog'liq qarorlariga do'stlari emas, balki ota-onalari ko'proq tasir ko'rsatadi, deb hisoblaydi.

Hamma aytgan gaplarni umumlashtiramiz. Qizingizning intim hayoti haqida gap borganida u o'ylaganingizdan ham ko'proq tarzda siz tomondan boshqariluvga muhtoj. Uning o'zi bu haqida gap ochishini kutmang. Ehtimol, qizingiz bu haqida hech qachon gap ochmas. Siz oldinroq buning harakatini qiling. Qizingizga iffatni saqlash kerakligi haqidagi shaxsiy qat'iyatni rivojlantirishga yordam bering. Uni ishonchli axloqiy kompas bilan taminlang. Xudo xohlasa, bir kun kelib, sizning boshqaruvingiz, sevgingiz va sadoqatingiz sharofati bilan, har bir qiz olib borayotgan jinsiy va hissiy poklik uchun kechadigan kurashdan qizingiz g'olib bo'lib chiqishini ko'rasiz.

Djosh Makdauell

Bag'ishlovlar va minnatdorchilik

Shennon Etridjan: Erniga bag'ishlanadi.

Siz hayotimizga ifoda etib bo'lmaydigan quvonchni olib kirmoqdasiz.

Sizning Xudoga nisbatan otashin intilishingiz va poklikni saqlash istagi siz bilan birga gullab-yashnashi uchun ibodat qiling

Stiven Arterberndan: Medelinga bag'ishlanadi.

Men sening otang bo'lishdan baxtliman. Osmondagi Otang izidan yurishingda yordam berish uchun doim yoningda bo'laman.

Doimgiday, birinchi bo'lib bu kitobni yozish fikrini bergan Iso Masihga minnatdorchilik bildiraman. Rabbim, bu kitob, aynan Sen xohlaganingday bo'lishi va uni kim uchun mo'ljallagan bo'lsang, ularga tasir o'tkazishi uchun ibodat qilaman.

Turmush o'rtog'im va eng yaxshi do'stim Greg, qilgan har bir ishingiz, men va farzandlarimiz uchun qanchalik muhim ekanligingiz uchun sizdan minnatdorman. Siz eng zo'r do'st va otasiz, men sizni qattiq sevaman.

Mening jaji (bo'yi deyarli men bilan barobar bo'lgan) qizalog'im Erin, yozayotganimiz urfdan qolib ketgan uslubda ifoda etilmayaptimi deb tekshirib turib, biz bilan ishlaganing uchun rahmat. Sen juda zo'r yordamchi va eng yaxshi qiz farzandsan.

Mister Mattster Monstr, onajoning bu kitobni ustida ishlagunicha sen aqlli bola bo'lib ulg'ayib ham qolding. Uy ishlaridagi yordaming va bizni shunchalik xursand qiladigan kulgili imo-ishoralaring uchun rahmat. Sensiz hayot ancha zerikarli bo'lgan bo'lardi!

Meni juda qo'llab-quvvatlagan ota-onamdan minnatdorman. Sizlardan menga ko'rsatilgan sabr-toqatingiz va menga kuch berib turgan ibodatlaringiz uchun cheksiz minnatdorman.

Men Rokin-Si-Renchdagi do'stlaringiz va mening yozuvchilik faoliyatim uchun qulay joylarni taqdim etgan barchaga minnatdorchilik bildiraman - iliq mehmondo'stligingiz, Xudo va kompyuterim bilan yolg'iz qolishim mumkin bo'lgan qulayliklar uchun sizga rahmat.

Treysi Kartes, sen men va bu kitob uchun chinakam marhamatga aylanding. Azizam, seni juda-juda yaxshi ko'raman!

Ron va Ketli Lyus, Deyv Xash va ushbu kitobning yaratilishiga hissa qo'shgan Faxriy akademiyaning ko'plab stajyorlari "Teen Mania Ministries" tashkilotida siz bilan birga xizmat qilish imkoniyatiga ega bo'lganim uchun chin qalbimdan minnatdorman. Buni hayotimdagi eng katta marhamatlardan biri deb bilaman.

Adrienna va Brayan Freas, ushbu kitobni tayyorlashning yakuniy bosqichida Muqaddas Ruhga sizni o'zining mo'jizaviy quroliga aylantirishga ruxsat berganingiz uchun tashakkur. Darhaqiqat, sizlar Xudoning qo'lidagi tanlangan qurol-aslahalarsiz va men hamda ushbu kitobni o'qiydigan ko'plab qizlar uchun haqiqiy marhamatsiz.

Don Peyp, Laura Barker va Uoterbruk Pressdagi barcha yigitlar, biz bilan hamkorlik qilganingiz uchun rahmat. Birgalikda biz ajoyib jamoamiz!

Liz Xeni, mening ajoyib muharririm, ushbu loyihani donoligingiz va bilimingiz bilan boyitganingiz uchun minnatdorman. Barcha "kichik muharrir"larimizga - o'g'il va qiz bolalarga samimiy minnatdorchiligimni bildiraman. Sizlar shunchalik ko'psizki, hammaning ismini aytib bo'lmaydi, lekin kimligingizni bilasiz, Xudo ham biladi. Bizga beminnat yordam berganingiz uchun U sizlarni marhamatlashini so'rab ibodat qilaman.

Va nihoyat, Stiv Arterbern, Fred Stoker, Kenni Lak va Mayk Yorkka alohida minnatdorchilik bildiraman. Sizlar bilan hamkorlik qilish men uchun katta sharaf va quvonchdir. "Har bir erkakka" nomli turkumingiz bilan ushbu kitobga shunday mustahkam poydevor qo'yganingiz uchun tashakkur.

Shennon Etridj

Ota-onalarga

Bu kitobda biz iffat yoki hozirgi til bilan aytganda jinsiy poklik haqida so'z yuritamiz. Biz buni hissiy, psixik, ruhiy va jismoniy nuqtai nazardan muhokama qilamiz. Maqsadimiz - jinsiy aloqa haqidagi malumotlar to'lib toshgan dunyoda ong, yurak va tanani qanday qilib saqlash kerakligini o'quvchiga o'rgatish. Biz oddiy, zamonaviy til bilan yozishga harakat qildik va uni birinchi navbatda o'smir qizlarga va yosh qizlar uchun mo'ljalladik.

Ehtimol, siz bu suhbat qanchalik ochiq bo'lishi va bu kitob qizingiz hayotining hozirgi davrida mos keladimi, deb qiziqayotgandirsiz. Xo'sh, agar qizingiz muntazam ravishda televizor ko'rsa, pop-musika tinglasa yoki o'smirlar uchun jurnallarni o'qisa - bu kitobdagi hech narsa uni hayratlantirmaydi va shok holatiga tushirib qo'ymaydi. Yana takrorlaymiz: biz qizingiz har kuni duch keladigan tasvirlarni masihiylik nuqtai nazaridan tasavvur qilishni va bu uning foydasi uchun ishonchli tarzda amalga oshirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Boshqa tarafdin, agar siz qizingiz iffatini qat'iyat bilan saqlaydigan qiz deb bilsangiz yoki hali bunday mavzuda ochiq gaplashishga tayyor emas deb o'ylasangiz, "Har bir qizning vasvasasi" kitobini qizingizga berishdan avval ko'rib chiqishingizni tavsiya qilamiz. Nozik savollar haqida so'z yuritishda biz imkon qadar ehtiyotkorlik qilishga va Xudo har bir qizni iffatli tarzda ko'rishni xohlashini takidlagan holda taqdim qilishga harakat qildik. Esh kitobxon qizlarimizga yordam berishga intilish bizdan samimiylilik va to'g'riso'zlikni talab qilmoqda va biz umid qilamizki, bunday yondoshuv qizingizning intim hayotiga tegishli ko'pgina to'g'ri qarorlarni chiqarishiga yaxshi zamin yaratadi.

Muqaddima

(Stiven Arterbern)

Ko'p yillar avval, mening yoshlik chog'larimda yigitlar qizlarga istemolchilik nuqtai nazaridan qarardilar. Ular o'z "men"larini tasdiqlash uchun ularni turli yo'llar bilan manipulyatsiya qilishar va his-tuyg'ulariga "bosim" o'tkazishardi.

Bu yigitlar uchun yana "o'sha ish bo'lganini" anglashdan ko'ra yoqimliroq narsa yo'q edi, shuning uchun ular barcha "o'yin-kulgi va klublar"da astoydil qatnashib, qarshi bo'lmagan har qanday qizdan o'zlari xohlagan narsani qo'lga kiritish uchun bor kuchlari bilan harakat qilishardi. Bu yigitlar qizlarni odam o'rnida ko'rishmasdi: ular qizga faqat vaqti-vaqti bilan foyda keltiradigan va faqat o'zlarining huzur-halovatlarini uchun mo'ljallangan qandaydir ikkinchi darajali buyum sifatida qarashardi. Ular qizning tana azolariga, nimalarni ko'z-ko'z qilganiga va qanchalik yon berganiga qarab baho berishdi. Ular qiz nimani his qilishi yoki o'ylashi mumkinligi bilan kamdan-kam qiziqishardi; ular o'zlariga nima kerakligini aniq bilishardi va agar qiz xohlasa "munosabatlar" davom etardi, u o'zidan talab qilingan narsani bajarishga majbur edi. Bu yigitlarning fikricha, qizlar yigitning o'zini "haqiqiy erkak" deb his qilishiga yordam berish uchun mavjud bo'lgan.

Men yuqori sinflarda, keyinroq kollejda o'qiganimda, har bir qiz "beradi - bermaydi" nuqtai nazaridan baholanardi. Yigitlar bir-birlari bilan o'z taxminlari bilan bo'lishardilar - "U kim bilandir jinsiy aloqada bo'lganmi yo bo'lmaganmi?" - va har yerda o'zlarining jinsiy aloqa borasidagi g'alabalri bilan maqtanib yurardilar. O'zlarining ko'ngilchanligi bilan mashhur bo'lgan qizlar talash bo'lar edilar: ularni tez-tez uchrashuvlarga taklif qilishardi, ammo ularda yigitlar bilan yaxshi va sog'lom munosabatlar o'rnatilmasdi. Yigitlar ularga qaragisi, ushlab ko'rgisi, quchoqlagisi kelar, ammo bunday qizlar bilan biror jiddiy munosabat o'rnatish hech kimning xayoliga kelmasdi. Ulardan olish mumkin bo'lgan narsani

olishardi, ularga bo'lgan qiziqish so'nganda esa keyingi jinsiy maqsadga o'tilardi.

Mening davrimdagi yosh yigitlar ko'ngli tusagan qizning tanasini qo'lga kiritish uchun hamma narsaga tayyor edi. Masalan, unga: "Men seni sevaman" yoki "Sen ajoyibsan!" yoki "Men sen kabi qizni ilgari uchratmaganman" deyishi qiyinchilik tug'dirmas edi. U qizni restoran va kinoteatrlarga olib borardi, chunki u shu yo'l bilan oqshom oxirida o'zini mukofot bilan taminlashiga ishonardi. U qizga mehr va g'amxo'rlik ko'rsatardi, chunki bu orzuga erishishning eng to'g'ri yo'li edi. Ammo bu yigitlar olgan narsalarini boshqa hech qachon qaytarib bermasdilar. Har gal qiz bilan jinsiy aloqaga kirishar ekanlar, uning qalbining bir parchasini tortib olishardi.

Nega bu haqda sizga gapiryapman? Chunki ko'pchilik yigitlar aslida kim ekanliklarini bilishingizni istayman. Afsuski, bunday yoshlarni hatto masihiylar orasida ham uchratish mumkin. Bugun ham ayolga nisbatan munosabat o'zgargani yo'q. Ahvol zarracha yaxshilanmadi. Aksincha, u ko'p jihatdan yanada yomonlashdi. Sizdan foydalanishlarini, sizni sharmanda qilishlarini istamayman. Sizlar Xudoning ajoyib farzandisiz va Xudo sizni qizimni sevganimdan ham ko'proq sevadi. U sizga faqat yaxshilik tilaydi, men ham qizimga yaxshilik tilaganim kabi. Xudo sizdan birov foydalanishini yoki siz birovdan foydalanishingizi istamaydi. U siz uchun jinsiy va hissiy iffatni istaydi.

Oldingizda uzoq, ajoyib hayot turibdi. Uni siz uchun Xudo tayyorlab qo'ygan, agar iffatli bo'lib yashay olsangiz, u amalga oshishi mumkin.

Siz jinsiy iffat va poklik hech qanday qiymatga ega bo'lmagan madaniyat sharoitida ulg'ayayapsiz. Zamonaviy jamiyat har qanday yo'l bilan erishish kerak bo'lgan bir lahzalik lazzat va zavqlarni hamma narsadan ustun qo'yadi. Bazilaringiz bu qadriyatlarni allaqachon qabul qilgansiz. Siz qalbingizning tubida yaxshi va to'g'ri deb bilgan g'oyalardan voz kechgangiz. Siz ichki ovozga quloq solmay qo'ygansiz, u esa sizga o'z pokligingizni saqlashingiz va o'zingizni hurmat qiladigan va o'z qadr-qimmatini biladigan shaxs sifatida yashashingiz kerakligini doim aytadi. Balki siz yigitlarning jinsiy shilqimliklariga qarshilik qilmay qo'ygandirsiz, balki o'zingiz ham tajovuzkor bo'la boshlagandirsiz.

Ehtimol, siz yosh yigitlarga tegajog'lik qilayotgandirsiz va jinsiy axloqingiz bilan Xudoni, oilangizni va o'zingizni sharmanda qilayotgandirsiz. Agar shunday bo'lsa, ushbu kitob sizni sog'ayish yo'liga yo'naltiradi va Xudo bilan yarashish uchun yana bir imkoniyat beradi. Agar siz iffatli bo'lsangiz, u sizga o'zingizni, obro'yingizni va Xudo siz uchun xohlagan turmush tarzini qanday himoya qilishni o'rgatadi. Ikkalamiz ham ushbu kitobni o'qib chiqishingizni va bu yerda muhokama qilinadigan Xudoning haqiqatlariga muvofiq yashashingizni so'raymiz.

Hammuallifim Shennonning murojaatini o'qishdan oldin, men sizga o'z davrimdagi yoshlar bilan nima sodir bo'lganini aytib bermoqchiman. Hammamiz ulg'aydik, lekin hammamiz ham aqlli bo'lib qolmadik. So'nggi o'n yil ichida madaniyatimiz juda o'zgardi. Internet, televidenie, kino va reklamalar, afsuski, ayollarni oxir-oqibat istemol predmetiga aylantirib qo'ydi. Ilgari yoshlar o'z shahvoniy hirslarini qizlar yordamida qondirgan bo'lsalar, endi ularni istalgan joyda: reklama taxtalarida, ichki kiyimlarni reklama qiluvchi bukletlarda, maxsus jurnallarda, kabel televideniesi orqali, soni ikki milliondan ortiq bo'lgan pornografik saytlarda ko'rish mumkin bo'lgan shahvoniy suratlar yordamida qondirmoqdalar... Ular rasmlarga - haqiqiy hayotni soxtalashtirishga mukkasidan ketishgan. Qayoqqa qarama, huzur-halovat obekti bo'lgan ayolni ko'radi. Menga ishoning, bugungi kunda erkaklar ko'pincha ayollarga ularning ko'ngil ochishi uchun mo'ljallangan istemol buyumi sifatida qarashadi. Erkak kishi uchun ayolga bo'lgan qarashini o'zgartirish va uni to'g'ri tomondan ko'rish juda og'ir. Ko'pchilik bir umr shu bilan kurashadi.

Yigit kishi pornografiyani qanchalik ko'p ko'rsa, unga va ochiqdan-ochiq shahvoniy xarakterga ega bo'lgan boshqa tasvirlarga qanchalik tez-tez murojaat qilsa, u shunchalik chuqurroq kirishga intiladi. U, buning hech qanday yomon joyi yo'q, erkak zoti shunaqa, hamma shunaqa qiladi, deb o'zini ishontirmoqchi bo'ladi. U o'ziga-o'zi: "Bu mutlaqo normal holat!" yoki "Bu kimga ham zarar etkazardi?" - deydi va ayni paytda uning etibori atrofidagi haqiqiy ayollardan tobora uzoqlashib, maqsadi va manosi har

qanday yo'l bilan jinsiy lazzatni taminlash bo'lgan beqaror, xayoliy dunyoga tobora chuqurroq sho'ng'iydi. Ko'pgina erlar va afsuski, ko'pincha masihiylar ham bundan mustasno emas! Ular muntazam ravishda jinsiy lazzat va uyatning shaxsiy dunyosiga qamalib oladilar. Ko'pchilikni nikohdagi jinsiy munosabatlar qoniqtirmay qo'yadi, chunki ular allaqachon o'zgaruvchan madaniyatimiz taklif qilayotgan jinsiy aloqa tushunchasi bilan zaharlangan.

Ko'p erkaklar bu zararli doiradan chiqishni xohlashadi, lekin buni qanday qilishni bilmaydilar. Fred Stoker va men erkaklarga orzu qilingan ozodlik yo'lini ko'rsatish va ularga o'zlari bilan bo'lgan kurashda g'alaba qozonishga yordam berish maqsadida "Har bir erkakning kurashi" nomli kitob yozganimizga yaqinda uch yil to'ladi. U katta mashhurlikka erishdi va bugungi kungacha bestsellerlar ro'yxatida qolmoqda. Otalar uni o'qib, o'g'illari ham shunday kitob o'qishini xohlashdi, shuning uchun Fred Stoker va men "Har bir yigitning kurashi" kitobini yozdik. U bestsellerlar ro'yxatida ham o'z o'rniga ega bo'ldi. Fred ikkovimiz yoshlardan yuzlab xatlar ola boshladik. Ularda bu kitob ularning jinsiy aloqa va ayollarga bo'lgan qarashlarini o'zgartirgani va biz yozganimizdek, pok jinsiy hayot kechirishni xohlashlari aytilgan edi.

O'shanda mana bunday voqealar sodir bo'la boshladi. Bizga ayollardan xatlar kela boshladi. Ularda o'zlari uchun ham jinsiy iffat haqida kitob yozilishini istashgan. Ular ham Xudoning meyorlariga muvofiq yashashni istashardi. Keyin "Har bir ayolning vasvasasi" kitobining o'quvchilari qizlariga biror narsa yozib berishni so'rashdi. Shunday qilib, Shennon va men qo'lingizdagi kitobni yaratishga qaror qildik. Umid qilamizki, u sizning jinsiy aloqangiz haqidagi ochiq suhbatga bo'lgan ehtiyojningizni qondiradi va sizni Xudoning yo'lidan chalg'itishga intiladigan madaniyat sharoitida yashashni o'rgatadi.

Oldingizda jiddiy ish turibdi, sizning xavfsizligingiz va kelajagingiz uning natijasiga bog'liq. U nimadan iborat? Siz jinsiy hayotingizni boshqa barcha tarkibiy qismlari bilan muvaffaqiyatli bog'lashingiz kerak. Biz juma kuni kechqurun - yakshanba kuni ertalab jamoatga borganingizda qanday bo'lsangiz, shunday bo'lishingizni istaymiz. Biz kattalar oldida o'zingizni namunali masihiy deb ko'rsatishingizni, yigitlar davrasida esa o'zingizni butunlay boshqacha tutishingizni istamaymiz. Ikkiyuzlama hayot yaxshilikka olib kelmaydi: u faqat xo'rlik, aybdorlik, ko'pincha umidsizlik hissini uyg'otadi.

Biz buni sizga ravo ko'rmaymiz. Biz sizning sog'lom jinsiy hayot kechirishingizni istaymiz. Jinsiy aloqa - Xudo yaratganidek ajoyib narsa ekanligiga ishonishingiz uchun va uni to'liq his qilish uchun turmush qurishni kutish juda muhimdir. O'zingiz bilan yolg'iz qolganda ham, boshqa odamlar bilan muloqotda ham o'zingizni xotirjam va ishonchli his qilishingizni, uyat yoki aybdorlik hissini sezmasligingizni tilaymiz. Biz sizga faqat yaxshilik tilaymiz va umid qilamizki, ushbu kitobni o'qib, siz yangi, yaxshiroq hayotga intila boshlaysiz, uni topasiz va undan zavq olasiz.

I-qism

VASVASANGIZNI TUSHUNISH

1-BOB

O'zimizga haqiqatni aytishga jazm etamiz

Shu vaqt Iso Unga ishongan yahudiylarga dedi: – Agar Mening kalomimga rioya qilsangizlar, haqiqiy shogirdlarim bo'lasizlar. Sizlar haqiqatni bilib olasizlar, haqiqat esa sizlarni ozod qiladi.

Yuhanno 8:31,32

"Haqiqat yoki jasorat" Ehtimol, sinfdoshlaringizdan birining uyida "tungi qizlar bazmi"ga to'planib, dugonalarigiz bilan bu o'yinni o'ynagan bo'lsangiz kerak? Balki siz ota-onangizdan eshitgandirsiz, ular sizni bu o'yinni aslo o'ynamasligingiz haqida ogohlantirishgandir? O'yinning mohiyati shundaki, boshqa o'yinchi sizga topshirgan har qanday vazifani u qanchalik qiyin yoki yoqimsiz bo'lmasin, bajarishingiz kerak, yoki savolga samimiy javob bering, u siz uchun qanchalik nozik yoki kamsituvchi javob talab qilmasin.

Qiz bolaligimda bu o'yindan hech qachon qochmaganman. Undan voz kechish mumkinligi xayolimga ham kelmagandi. Dugonalarim men uchun eng dahshatli va bemani topshiriqlarni o'ylab topishardi, masalan: ketchup, xantal va mayonez surtilgan buterbrodni eyish; bir shisha gazli ichimlikni tez-tez ichib, keyin dugonamning akasi oldida baland ovozda kekirish; yoki dugonam "Polaroid"da bu sahnani suratga olayotganda o'zining maymunchasini ehtiros bilan o'pish. Shunga qaramay, men odatda "jasorat"ni tanlardim, chunki savollarga javob berishni xohlamasdim. Ular taxminan quyidagicha edi: "Seningcha, maktabdagi eng yoqimtoy bola kim?"

"O'g'il bolalar bilan necha marta o'pishgansan?," "O'g'il bola bilan munosabatlarda qanchalik chuqurlashding?" Yo'q, bazi narsalar haqida ochiqchasiga gapirgandan ko'ra, biror jirkanch narsani eb qo'yganim yoki o'zimni g'irt ahmoq qilib ko'rsatganim yaxshiroq edi.

Haqiqat bazan juda yoqimsiz bo'ladi, shuning uchun uni o'zimizda saqlashimiz osonroq. Bazida yashirgan narsamiz bizga shunchalik azob beradiki, haqiqatga tik qarashga o'zimiz ham jurat eta olmaymiz. Bizning sirlarimiz, agar ular haqida o'ylamasak yoki boshqalar bilan gaplashmasak, asta-sekin o'z-o'zidan "so'rilib ketadigandek" tuyuladi. Aslida esa bunday emas. Sharmandali sirlar barmoqqa chuqur sanchilgan tikan kabi yallig'lanish va yiringlash xususiyatiga ega, shuning uchun o'z vaqtida narsalarni o'z nomi bilan atash va kimdandir yordam so'rash ancha yaxshi. Jarohat bitishi uchun yiringni ochib, tozalash kerak.

Ushbu kitobda yosh qizlar qo'rqmasdan yosh (o'n ikki yoshdan yigirma yoshgacha) aytib bergan ko'plab hikoyalarni o'qiysiz. Ular o'zlarining vasvasalari va aqli, qalbi hamda tanasini jinsiy gunohdan saqlash uchun olib borgan kurashlari haqida haqiqatni aytishga jurat etishdi. Umid qilamizki, siz ularning misolida ko'p narsani o'rganasiz va og'ir xatolarga yo'l qo'ymaysiz. Umid qilamizki, siz jinsiy pokligingizni himoya qilishda boshdan kechirayotgan vasvasalaringizni vijdonan tan olasiz va ularni qanday engish mumkinligini tushunasiz.

Bilimsizlik va axloq bir narsa emas.

Bu yerda hikoya qilingan bazi voqealar shu paytgacha bilmagan narsangizga ko'zingizni ochishi yoki sizni hayratga solishi mumkin. Iltimos, biz sizni jirkanishingizni, shokka tushirishni yoki pokligingizga putur etkazishni istayapti deb o'ylamang. Biz sizning bu dunyoning urf-odatlarini yaxshi bilishingni va ulardan saqlana olishingni istaymiz

Bilimsizlik - bu ruhiy inom emas va u axloqqa teng emas. Hamma narsani bilish va shu bilan birga poklikni saqlash mumkin. Biz sizni yo'lingizda vasvasalar paydo bo'lganda masuliyatli qarorlar qabul qilishga o'rgatmoqchimiz.

Yuqorida tilga olingan vasvasalarning ko'pchiligiga hayotingizda duch kelgansiz yoki duch kelasiz. Havoriy Pavlus shunday deb yozgan:

“Shuning uchun mahkam turibman, deb o'ylagan odam ehtiyot bo'lsin, tag'in qoqilib yiqilmasin.” (1 Korinfliklarga 10:12).

“Shuning uchun fikr-zikringiz ishda bo'lsin, hushyor bo'linglar. Iso Masih osmondan tushib zohir bo'lganda sizlarga nasib bo'lajak inoyatga mutlaqo umid bog'langlar. Gapga ko'nadigan bolalar kabi bo'linglar, ilgarigi g'aflat paytida sizlarni qamragan ehtirolarga qaytmanglar. Sizlarni davat etgan Xudo qanday muqaddas bo'lsa, sizlar ham butun yurish-turishingizda shunday muqaddas bo'linglar. Xudo: «Muqaddas bo'linglar, zero Men muqaddasman», deb aytgani yozilgan.” (1 Butrus 1:13-16).

“Sizlarning orangizda fahsh, zinokorlik, ifloslik yoki xasisligu ochko'zlik hatto tilga ham olinmasin. Bular Xudoning azizlariga munosib emas.” (Efesliklar 5:3).

Endi esa vasvasalari va jinsiy poklik uchun kurashlari haqida haqiqatni aytishdan qo'rqmagan tengdoshlaringizning shaxsiy hayotiga nazar tashlaylik.

Mollining shaxsiy jangi

Molli uchun jang bir marta tasodifan pornografik teleko'rsatuvga duch kelganida boshlangan, keyin esa unga yana... yana... va yana duch kela boshlagan.

"Bilaman, bu juda yomon bo'lgan edi va o'shandan beri hamma narsa teskari bo'lib ketdi, lekin men nafaqat o'zim pornografiya bilan shug'ullanganim uchun, balki bu ishga ikkita eng yaxshi dugonamni ham jalb qilganim uchun million baravar ahvolim yomonroq. Ulardan biri ota-onasiga hamma narsani aytib berishga o'zida kuch topdi. Ota-onam bu haqda eshitib, juda hayratda qolishdi - ularni qanday ayblash mumkin? Ular hatto bizning teledasturimizni hech qanday pornografiya tushmasligi uchun qayta tuzgan odamni topishdi, shuning uchun endi bu kanal bizda bo'sh.

Bir muncha vaqt hammasi joyida bo'ldi, men ko'rganlarimni xayolimdan chiqarib tashlashga harakat qildim va bunga malum darajada muvaffaq bo'ldim ham. Ammo yaqinda menda bunday rasmlarni ko'rganimda masturbatsiya qilish odati paydo bo'ldi va men bundan qutula olmayapman. Bilaman, bu yomon, bu ishni qilganimdan keyin xuddi loyga belangan odamday o'zimni juda yomon his qilaman, yana o'zimni aybdor sezaman. Xudo oldida gunohlarimni tan olib, iqror bo'ldim, lekin bu etarli emasga o'xshaydi. Buni hech kimga aytishni istamayman, chunki aytsam hamma mendan nafratlana va jirkana boshlaydi".

Ishonchimiz komilki, Molli pornografiya unga tobe bo'lib qolish xavfini tug'dirishini bilgan va u bu xavfdan oldindan qochishi mumkin edi. Pornografiya yoki masturbatsiya odati hayotingizni jiddiy ravishda murakkablashtirayotgan bo'lsa, bu kitob jinsiy iffatingiz va ruhiy xotirjamligingizga xalaqit beradigan bu ehtirolardan xalos bo'lishingizga yordam beradi.

Lorenning shaxsiy jangi

Loren o'rta maktabda jinsiy tarbiya darslariga qatnadi va nikohdan oldin jinsiy aloqadan voz kechishi haqida o'ziga vada berdi. Endi u yuqori sinflarga o'tdi va dugonalarining xatti-harakatlari uni doim chalg'itadi. Loren o'ziga bergan vadasining ustidan chiqishiga ishonishi mumkinmi, degan savolni berishdan boshqa iloji yo'q edi.

"Maktabimizda raqs kechasi bo'lib o'tdi va ko'plab do'stlarim xuddi hammaning ko'z o'ngida echinmasdan jinsiy aloqa qilayotgandek raqsga tushishdi va turli xil bemani tana harakatlarini qilishdi - qizlar o'g'il bolalar bilan, qizlar qizlar bilan... Shu bilan birga, ularning ko'rinishi juda quvnoq edi. Ular tinimsiz meni o'zimni bo'sh qo'yishga undar va yonlariga chaqirishardi. Yana ikkita dugonam "haqiqat yoki jasorat" o'yinini o'ynashdi va avtobus oxiridagi bolalar bilan oral jinsiy aloqa qilishga rozi bo'lishdi. Endi bu qizlar o'g'il bolalar orasida juda mashhur bo'lib ketgandilar. Men, albatta, bu intilishga arziydigan mashhurlik emasligini o'zimga eslatishga harakat qilaman, lekin bazida o'zimdan so'rayman: balki men juda uyatchandirman va hamma bu bilan shug'ullanayotgan bir paytda eng qiziqarli va yoqimli narsalarni o'tkazib yuborayotgandirman?"

Bilamizki, ko'pchiligingiz, - bizning yosh o'quvchilarimiz, jinsiy poklikni saqlashni xohlaysiz, lekin Lorenga o'xshab, o'zingizni o'sha qizlarning orasida ajralib turgan "oq qarg'alar"dek his qilmoqdasiz va bu umuman mumkinligiga shubha qilasiz. Ruhingizni tushirmang. Bu nafaqat mumkin, balki biz ishonamizki, jinsiy aloqani faol dam olish turiga aylantirishdan ko'ra, Xudo nikohda siz uchun tayyorlagan intim munosabatlardan bahramand bo'lish uchun bir necha yil kutish ancha yaxshiroqdir. Kitobni o'qishda davom eting va biz sizga buning uchun nima qilish kerakligini ko'rsatamiz.

Elaning shaxsiy jangi

Emma ancha vaqtdan beri yoshlar bilan uchrashib yuradi, u o'z tajribasi bilan bo'lishishi va boshqa yosh ayollarni xatolardan ogohlantirishi mumkin. Yoshligida u o'ziga ishonmaydigan qiz bo'lib, hattoki "menga nimadir bo'lyapti" deb o'ylardi, chunki bolalar unga etibor berishmasdi. U ota-onasi bilan munosabatlaridan shikoyat qilmasdi, lekin unga biror yigit xushomad qilishini xohlardi. U birinchi navbatda maktabda tan olingan go'zallarga o'xshash uchun ozishga qaror qildi va buning uchun parhez tutishni hamda jismoniy mashqlar bilan shug'ullana boshladi.

"Ko'p o'tmay, vazn yo'qotish vasvasasi ruhiyatimga jiddiy tasir ko'rsatdi. Yigitlar mening nozik gavdamni payqashlarini juda-juda istardim va men telbalardek ularning maqtoviga tashna edim.

Birorta bola menga xushomad qilsa, xursandligimdan erib ketardim va shundagina o'zimni chindan ham qandaydir odam ekanligimni his qilardim. Ko'rsatilgan etibor uchun minnatdorchilik sifatida men uning ortidan ergashib ketardim; bundan tashqari, bu yo'l bilan men kelajak uchun "garov badali" qo'yayotgandek, uning keyingi maqtovlariga sazovor bo'layotgandek tuyulardi. Men u bilan bemalol noz-karashma qilardim: go'yo do'stona qo'ltig'idan olardim, o'zim esa har bir qulay vaziyatda uning soniga tegib ketardim yoki unga yopishib olardim.

Keyingi uch yil davomida men juda jiddiy deb hisoblagan bir nechta munosabatlarga ega bo'ldim, lekin yigitlarim bunday deb o'ylamagandilar. Men ularga bor-yo'g'imni, shu jumladan, tanamni ham berardim, lekin ertami-kechmi ular meni navbatdagi qizni deb tashlab ketishardi. Har safar navbatdagi uzilishni boshdan kechirganimda, o'zimga o'zim savol berardim: nimaga men bilan shunday bo'lavayapti? Nega endi u meni istamayapti? Balki men etarli darajada jozibador emasdirman? Balki men hali ham semizdirman? Tanamga isnod keltirib, o'zimdan foydalanishga ruxsat berib, yigitlarning etiborini o'zimga qaratishga va ularning ko'z o'ngida yuksalishga harakat qilardim, lekin har safar bu kamlik qilardi."

Nozik qomat uchun kurash, xuddi "yosh yigit" yordamida o'z hissiy ehtiyojlarini qondirishga urinish kabi, cheksiz davom etishi mumkin. Agar siz romantik munosabatlarga shunchalik tashna bo'lsangiz va bazan o'z xatti-harakatlaringizdan uyalib qolsangiz, demak, bu kitob siz uchun. Bu sizga sevimli bo'lishga bo'lgan tabiiy, Xudo tomonidan berilgan istak va xavfli, shahvoniy vaziyatlardan qochish qobiliyatingiz o'rtasida sog'lom muvozanatni o'rnatishga yordam beradi.

To'g'risini aytsam, bu kitob sizning tengdoshingiz bo'lgan va o'z vasvasalarim bilan kurashgan davrimda bo'lmaganidan juda afsusdaman.

Shennonning shaxsiy jangi

Agar o'n ikki yoshimda mendan turmushgachiqquningizcha bokira bo'lib qolishni xohlaysizmi,

deb so'rasha, men: "Albatta!" deb javob bergan bo'lardim.

O'n uchda men: "Ha, deb o'ylayman," degan bo'lardim.

O'n to'rtida esa - "Ehtimol" deb javob bergan bo'lar edim.

O'n besh yoshimda javobim shunday bo'lardi: "Bilmadim, umuman shunday bo'lishi mumkinmi?" Baxtga qarshi, o'sha yili mening bokiraligimdan faqat xotiralar qoldi. Bir yigit bilan uchrashuv vaqtida u meni zo'rladi. Meni urushib berishlaridan qo'rqib, bu haqda uzoq vaqt jim yurdim. Axir, hammasiga o'zim aybdor edim: o'n sakkiz yoshli bu yigitning etiborini tortish uchun u bilan o'ynashadigan bo'ldim va ota-onamdan yashirinch a u bilan yolg'iz qolishga rozi bo'ldim. Shuning uchun hech kimga hech narsa demadim. Sirni ichimda saqlaganim uchun hech kim ruhiy iztirobdan xalos bo'lishimga yordam bermadi va hech kim Xudo oldida hali ham bokira ekanligimni aytmedi. (Bokiralikning mohiyati haqida keyingi bobda gaplashamiz.)

Bir necha oy o'tgach, ota-onam uchrashuvlarga borishimga ruxsat berishdi. Mening bokiraligim baribir allaqachon o'g'irlangan deb hisoblaganim uchun, uchrashgan yigitlarimga jismoniy yaqinlikni rad etishdan mano yo'qdek tuyulardi. Jinsiy aloqa ishqiy munosabatlarimning odatiy qismiga aylandi - buni o'zimga bo'lgan etibor va mehr uchun to'lashim kerak bo'lgan to'lov deb hisoblar edim. Bu kitobni o'qib chiqishingizni istayotganimning yana bir sababi mana shudir. Men bilmagan narsani bilishingizni istayman. Men yana shuni istaymanki, siz yashirin hayot kechirmang va hamma sizning kimligingizni, yigitlar haqida va ular sizdan nimani xohlashlari haqida qanday fikrda ekanligingizni ko'rsin va bilsin.

Shahvoniy vasvasalarga qarshi immunitet ishlab chiqilmaydi

Ehtimol, mening "qorong'i o'tmishim" haqida o'qib, meni yomon oiladan chiqqan va shahar xarobalarida o'sgan qiz yoki masihiy bo'lmagan yoki shunchaki unchalik aqlli bo'lmagan, deb o'ylagandirsiz.

Yanglishyapsiz.

Men Texasning shimoli-sharqida ulg'ayganman, ota-onam o'rta sinfga mansub o'qimishli odamlar bo'lib, bir umr bir-birlariga sodiq qolishgan. Oilamiz qishloqdagi kamtarona uyda yashardi, bu yerda atrof xavfsiz bo'lmasligi mumkinligi hech kimning xayoliga kelmasdi. Onam meni muntazam ravishda jamoatga olib borardi va o'n ikki yoshimda men Iso Masihga ishonishimni tantanali ravishda tasdiqlagandim. Hatto bir necha yil yoshlar guruhiga rahbarlik qilgandim. Maktabda alochi edim va kollejni muvaffaqiyatli tugatdim.

Mening misolim shuni isbotlaydiki, butun hayotingizni ostin-ustun qilib yuboradigan masuliyatsiz qarorlar qabul qilish uchun tarqoq yoki notinch oiladan bo'lish shart emas. "Yaxshi imonli qizlar" ham shahvoniy vasvasalardan xoli emaslar. Hatto sizga o'xshaganlar ham.

Siz yoki dugonalariniz kabi qizlarni go'zal shahzodani kutishdan voz kechib, qurbaqalar bilan o'pishishga nima majbur qilishi mumkin? Siz botib qolgan qurbaqa botqog'idan chiqib ketish mumkinmi? Umuman, bu urushda g'alaba qozonish mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, qanday qilib?

Bu savollarga javobni qo'lingizdagi kitobdan topasiz. U yoshlikning "mina maydoni"dan qanday o'tish, o'zini saqlab qolish va jinsiy hamda hissiy poklik uchun kurashda yutqazmaslik yo'llarini ko'rsatadi. Agar siz quruqlikdagi minalarni chetlab o'tib, bu jangda g'alaba qozona olsangiz, katta hayotga ishonch va maqsad bilan qadam qo'yasiz. Hayotingiz umidsizlikdan xoli bo'ladi va kelajak uchun ajoyib tanlov qila olasiz. Shunda butun dunyo sizga tegishli bo'ladi... lekin avvaliga siz ichki vasvasangiz qanchalik kuchli ekanligini aniqlashingiz kerak, buning uchun esa quyidagi savollarga "ha" yoki "yo'q" deb javob berishingiz kerak:

1. Shahvoniy hazillar aytiladigan yoki behayo sahnalar tasvirlangan teleko'rsatuvlar yoki filmlarni tomosha qilib turasizmi?
2. Tinglayotgan musiqangiz sizni nikohdan tashqari jinsiy istaklar haqida ovoz chiqarib gapirishga undaydimi?
3. Yigitning etiborini haddan tashqari do'stona yoki ochiqchasiga jalb qilishga urinyapsizmi?
4. Yosh yigitni qanday topish yoki ushlab qolish haqidagi fikrlar sizni shunchalik chulg'ab oladiki, malum vaqt boshqa narsaga etibor qaratishingiz ham qiyin bo'ladimi?
5. Turmush qurish haqida o'ylashga hali erta bo'lishiga qaramay, jiddiy ishqiy munosabatlar haqida o'ylaysizmi?
6. Agar siz masturbatsiya bilan shug'ullansangiz, bu siz uchun nimani anglatadi: jinsiy qoniqish olish usulimi yoki boshqa odamlar bilan jinsiy aloqadan tiyilish vositasimi?
7. Og'iz orqali jinsiy aloqa va jinsiy faollikning boshqa turlari mumkin deb hisoblay olasizmi (chunki ular vaginal kirish bilan bog'liq emas va shuning uchun homilador bo'lish mumkin emas)?
8. Bokiraligingiz o'g'irlab ketilgandek his qilasizmi?
9. O'zingizni "Tarbiyali yaxshi yigit" siz bilan qiziqmaydigan "buzilgan mahsulot" deb his qilyapsizmi?
10. Er-xotin nikohsiz birga yashashi mumkin deb o'ylaysizmi?
11. Qayerga ketayotganingiz yoki kim bilan bo'lganingiz haqida ota-onangizga yolg'on gapirishingizga to'g'ri kelganmi, chunki agar siz haqiqatni aytsangiz, ular sizning xatti-harakatlaringizni maqullamaydilar?
12. Ota-onangizga yolg'on gapirib, o'zingizga yoqadigan yigit bilan uchrashishga borishingiz mumkinmi (lekin agar aytsangiz, ular sizni u bilan uchrashishga qo'yishmaydi)?
13. "Vaziyat taqozosi bilan " biror yigit bilan jinsiy aloqa qilganmisiz?
14. Ota-onangiz nazoratidan tezroq chiqib ketishni va erkinlikdan foydalanib, o'zingizga yoqadigan munosabatlarni o'rnatishni xohlaysizmi?
15. Ota-onangiz maqullamaydigan veb-saytlar yoki chatlarga kirib turasizmi?
16. Internetda ota-onangizdan yashirinchalik uchrashgan notanish odamga telefon raqamingiz yoki uy manzilingizni berganmisiz?
17. O'zingizning xatti-harakatlaringiz yoki uzilgan munosabatlaringiz uchun qandaydir qoidalar yoki tamoyillarni o'rnatganmisiz?
18. Ota-onangizdan biror narsani yashirasizmi, masalan, ochiq sevgi xatlari, jurnallar yoki videofilmlarni?
19. Turmush qurib, barcha mushkulotlaringizni bir zumda hal qilib, shahvoniy va hissiy vasvasalardan xalos bo'laman, deb xayol qilasizmi?

Qaysi savollarga ha deb javob bergan bo'lardingiz? Ularning har biri sizning yo'lingizda paydo bo'ladigan jinsiy vasvasalarga berilib, siz tushishingiz mumkin bo'lgan potentsial tuzoqni aniqlaydi. Kim bo'lishingizdan qati nazar - bunda kurashi endi boshlanayotgan yosh qizmi yoki etarlicha tajribali balog'atga etgan qizmi - siz bu jang maydonida qurbon bo'lmaslik uchun o'zingiz uchun eng mustahkam mudofaa chizig'ini qurishingiz mumkin. Cho'kayotgan odam xasga yopishgandek o'z iffatingizni saqlab qolishingiz yoki yigit bilan birga bo'lishingizdan qati nazar, nafaqat yoshligingizda, balki hayotingizning istalgan davrida yo'qotilgan jinsiy iffatni saqlab qolishingiz yoki tiklashingiz mumkin.

Bu yerda eng muhimi, ayol kishining yoshi va oilaviy ahvolidan qati nazar, qoqilib ketishi va vasvasaga tushishiga nima majbur qilishi mumkinligini tan olish va tushunishdir. Aqlingizni, qalbingizni va tanangizni vasvasalardan asrashni o'rganib, jinsiy va hissiy munosabatlarda Xudo sizni qanday ko'rishni xohlashini tushunib, xavfli o'smirlik davridan xotirjam va ishonch bilan o'ta olasiz... va shunda siz hech narsadan afsuslanmaysiz.

Jinsiy inom nima ekanligini yaxshiroq tushunishni boshlaganingizda, sizni chalg'itadigan afsonalar o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketishini ko'rasiz. Quyidagi boblar sizga shularda yordam beradi:

- jinsiy hayotingiz qanchalik murakkabligini va vasvasaga tushishda his-tuyg'ularingiz qanday rol o'ynashini tushunish;
- madaniyatimizda keng tarqalgan shahvoniylikka oid afsonalarni aniqlash va ular jinsiy aloqa bilan bog'liq etiqod va qarorlaringizga qanday tasir ko'rsatishi mumkinligini tushunish;
- nafaqat jismoniy, balki hissiy va ruhiy jihatdan ham iffatli turmush tarzini olib borishga qaror qilish;
- Xudo bilan, o'zingiz va boshqalar bilan sog'lom, qoniqarli munosabatlardan rohatlanish;
- nomaqbul joylarga kirmasdan va bo'lajak turmush o'rtog'ingiz sifatida yigitingizga behuda umid bog'lamasdan, o'zingiz izlayotgan muhabbatni topish;
- nafaqat malum bir vaqtda, balki butun umr davomida o'zidan mamnun bo'lish.

Agar shu paytgacha vasvasalarni engishga muvaffaqiyatli tarzda erishgan bo'lsangiz, sizni asrab qolgani uchun Xudoga shukr qiling va keyingi g'alabalarga tayyorlaning. Agar siz qandaydir vasvasaga qarshi tura olmagan bo'lsangiz, o'zingizni Xudodan ajralgan his qilsangiz yoki hozirgi yoki kelajakdagi munosabatlaringizdan xavotirda bo'lsangiz - bu kitob siz uchun ichki xotirjamlikka yo'l ochadi. Xudodan sizga donolik, jasorat, umid va kuch berishini so'raymiz, toki siz jinsiy va hissiy iffat uchun kurash olib borib, g'alaba qozoning.

“Egamiz to'g'ri odamni eson—omon saqlaydi, to'g'ri yuradiganga O'zi qalqon bo'ladi. Adolatli insonni himoya qiladi, Unga sodiq bo'lganning yo'lini qo'riqlaydi. Shunda sen to'g'rilik, adolat, odillik, yani to'g'ri yo'l nima ekanligini tushunasan. Chunki yuragingga donolik kiradi, ruhing esa bilimdan zavqlanadi. Fahm—farosat seni himoya qiladi, aql—idrok seni qo'riqlaydi” (Hikmatlar 2:7-11)

2-BOB

Boshida aytilgan rejaga qaytib

Shunday qilib, Xudo O'z suratiday qilib yaratdi inson zotini, Erkagu ayol qilib yaratdi ularni.

Xudo buning ajoyib ekanini ko'rdi. (Ibtido 1:27)

Agar kimdir sizdan "Jinsiy aloqa nima?" deb so'rasa, nima deb javob berasiz? Agar siz ko'pchilikka o'xshasangiz, ehtimol, qizarib ketasiz va duduqlanib, tushunarsiz narsalarni g'oldirab gapira boshlaysiz. Ehtimol, siz "penis" va "qin" so'zlarini talaffuz qilib, bolalarning ishlab chiqarish mexanikasini tushuntirib bera olarsiz. Hayron bo'lmang, lekin bunday javob noto'g'ri bo'ladi. Siz shunchaki jinsiy aloqani tasvirlab berdingiz, xolos.

Bizni gaplarga o'chakishyapti deb o'ylayapsizmi? Mayli. Unda ayting-chi, oxirgi marta maktab anketasini to'ldirganingizda "jins" degan ustunga nima deb yozgansiz? Nahotki "bokira" (yoki "bokira emas") deb yozgan bo'lsangiz? Yo'q, albatta! Siz "ayol" deb yozdingiz. Xudo barchani turli jinsda erkak yoki ayol qilib yaratgan. Bizning ayolligimiz yoki erkakligimiz mohiyatimizning ifodasidir. Homila paydo bo'lganidan to'erdagi tanamizni tark etib, samoviy uyimizga yo'l oladigan o'lim vaqtigacha biz jinsiy mansublikka egamiz. Sizning ayol jinsiga mansubligingiz qo'g'irchoqlaringizni yasantirishda ham, kunlardan bir kun oyoqlaringizni qirib tashlashda ham, birinchi muhabbatdan hafsalangiz pir bo'lganida ho'ngrab yig'laganda ham o'z tasirini ko'rsatadi. To'g'risini aytganda, ayni daqiqada ham bu kitobni o'qiyotganingizda ham namoyon bo'ladi! Hayronmisiz? So'zimizga ishonib: u yoki bu jinsga xos faoliyat bilan shug'ullanish jinsiy hayot kechirishni anglatmaydi. Biz azaldan jinsga ega bo'lgan mavjudotlarmiz va bu yerda, aytganlaridek, buni o'zgartira olmaymiz.

Shunga qaramay, sizning jozibadorligingiz (jinsiy mansublik manosida) turli vaziyatlarda shaxsiyatingizda to'liq uyg'unlikda namoyon bo'lmasligi mumkin. Ehtimol, o'z jinsingizdan uyalganingiz uchunmi yoki uning doirasida o'zingizni noqulay his qilganingiz uchunmi, xulq-atvoringizda barqarorlik yo'qdir. Ehtimol, maktabda ham, jamoatda ham siz aql-idrok namunasi bo'lishingiz mumkin, lekin yigitlar davrasida bo'lishingiz bilanoq darhol boshqa odamga aylanib qolarsiz. Ichki noqulaylik, o'ziga ishonchsizlik, yashirinlik yoki uyatchanlik sizni impulsiv va masuliyatsiz harakatlarga undashi mumkin. Biz sizga izchil, o'ziga ishongan, yaxlit va jinsiy jihatdan sog'lom shaxs bo'lishingiz uchun jinsiy tomonlama to'g'ri idrok etishingizga yordam bermoqchimiz.

O'zingiz haqingizda bunday yangilikni eshitganingizda, siz: "Xo'sh, agar Xudo meni jozibador qilib yaratgan ekan, demak U jinsiy aloqa bilan shug'ullanishimni istaydi", - deb o'ylashingiz mumkin. Ammo jinsiy aloqani jinsiy faollik bilan adashtirmang. Bu mutlaqo bir xil narsa emas. Xudoning rejasiga ko'ra, biz umrimizning oxirigacha jinsiy mavjudot (yani erkak yoki ayol) bo'lib qolamiz, ammo Uning mukammal rejasi bizga faqat nikoh doirasidagi jinsiy munosabatlarni nazarda tutadi.

Yoki siz: "Men faqat jinsiy aloqada bo'lganimdagina ayol bo'laman. Ungacha men qiz bo'lib qolaman" deb xato o'ylayotgandirsiz. Bizning jamiyatimiz jinsiy aloqani deyarli balog'atga etish marosimiga aylantirib qo'ygan. Aslida unday emas. Aslida, bu mutlaqo bemanilik.

O'zingiz o'ylab ko'ring. O'n yashar qizaloq jinsiy aloqa qilsa, bundan u ayol bo'lib qoladimi? Statistik malumotlarga ko'ra, ayollarning faqat 80 foizi turmushga chiqadi - nahotki bu qolgan 20 foizi umr bo'yi qiz bo'lib qolishini va hech qachon ayolga aylanmasligini anglatsa?

Nahotki voyaga etgan odam hech qachon jinsiy aloqa qilmagan bo'lsa, bu uning hech qachon erkak yoki ayol bo'lib ulg'aymaganini anglatsa? Albatta, yo'q.

Boshqacha aytganda, sizning jozibadorligingiz nima qilayotganingiz bilan emas, balki

kimligingiz bilan belgilanadi. Xudoning rejasiga ko'ra, ayol jinsiyligi erkak jinsiyligidan farq qiladi, buni oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin.

Vive la diffurence!

(Frantsuzchada: "Yashasin farq!")

Tug'ruqxonadan yangi tug'ilgan o'g'limni olib kelganimda, uch yoshli qizim tez orada: "Oyijon, menda bunday tayoqcha yo'q!" dedi. Bizning jismoniy tanalarimiz o'rtasidagi farq erkaklar va ayollar o'rtasidagi farqlarning boshlanishi xolos.

O'zingizning jinsiy pokligingizni saqlash va boshqalarga ham shunday qilishga yordam berish uchun bu farqlarni yaxshi tushunish juda muhimdir.

Buning uchun biz siz bilan orqaga, dunyoning yaratilishiga xayolan sayohat qilamiz.

Keling, Eram bog'idagi Odam Ato va Momo Havoni ko'z oldimizga keltiraylik. Xudo ularga shunday buyruq beradi: "Uvali juvali bo'lib, yer yuzini to'ldiringlar" (Ibtido 1: 28). Bu buyruq quyidagicha talqin qilinadi: "Jinsiy aloqa bilan shug'ullaning va bolalar tug'ing."

Nima deb o'ylaysiz, agar Odam Ato Momo Havoga shunchalik o'xshagan bo'lsa-yu, u bilan qo'l ushlab, bog'da sayr qilib, gullar terib, ichki his-tuyg'ularini baham ko'rsa, to'liq baxtga erishish uchun jinsiy aloqa qilish qachondir ularning xayoliga kelarmidi? Bo'lishi mumkin emas.

Ammo Xudo Odam Atoni Momo Havoning ajoyib go'zalligini ko'rganda yonib ketadigan qilib yaratgan va u haqiqatan ham "ko'payishni va nasl qoldirishni" xohlagan va shu bilan Xudoning amrini bajargan. U bu ayol gavdasiga ko'z qirini tashlashi bilanoq: "Qani, qizaloq, tezroq mening oldimga yugur!" deb o'ylardi.

Xudo ilk odamlarga ulkan masuliyat - insoniyat naslining ajdodi bo'lish vazifasini yuklagan. Erkak kishi bu ulkan vazifani bajarishga qodir bo'lishi uchun, Xudo unga aynan kerakli narsani, yani lazzat baxsh etadigan jismoniy yaqinlik istagini bergan. Erkak ko'ngli tortgan narsasiga qo'l cho'zishni, unga teginishni, uni erkalashni, quchoqlashni, u bilan muhabbat qo'shib bor kuchini to'kishni istaydi.

Odam Ato Momo Havvoga ilk bor nazar tashlaganidan buyon bu kabi tomoshalar kuchli jins vakiliga hayajonli tasir ko'rsatadi. Bunday vizual stimulyatsiyada erkakda sperma ishlab chiqarilishi keskin ko'tarilib, uning jismoniy aloqaga bo'lgan intilishini shu qadar kuchaytiradiki, u o'z ustidan nazoratni yo'qotishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, Xudoning yordami bilan har bir erkak jinsiy mayllarini jilovlashni o'rganib, hayvon emas, balki erkak ekanini isbotlashi mumkin.

Mulohaza yuritishda davom ettiramiz. Agar Momo Havo xuddi shu tarzda Odam Atoni taqib qilganida, u bilan muhabbatini ko'rsatishga intilganida, dalada ishlaganida va futbol o'ynaganida, u sog'lom, muvozanatli, sezgir bolalarni tarbiyalay olarmidi? Bo'lishi mumkin emas. (Vaqt o'tishi bilan uning o'g'li Qobil kimga aylangani boshqa masala - mulohazalarimiz ipini yo'qotmaylik!)

Ammo Xudo Momo Havoning qalbiga yaqinlari bilan hissiy bog'liq bo'lish, ularni boqish va g'amxo'rlik qilish istagini joylagan. Xudo unga "ko'payishni" va "o'stirishni" buyurdi. U ayolga (u bilan birga barcha ayollarga) insoniyatning boquvchisi bo'lish majburiyatini yukladi va unga buning uchun zarur bo'lgan xususiyatni: hissiy yaqinlik istagini singdirdi. Ayol o'zi sevgan kishisini allalash, erkalash, suhbatlashish, g'amxo'rlik qilish uchun yaratilgan.

Shunday qilib, agar erkaklar ko'rish orqali idrok etgan narsalaridan hayajonlanishlari mumkin bo'lsa, ayollarni odatda eshitgan va his qilgan narsalari qiziqtiradi. Pornografiya tomosha qilish vasvasasi yigit uchun engib bo'lmas tuyulishi mumkin, ammo sizni sevgi romanini o'qish yoki sevimli rok qo'shiqchisining kontsertiga borish istiqboli ko'proq jalb qiladi. Erkak kishi echinayotgan ayolni zavq bilan tasavvur qiladi; siz esa, ehtimol, qo'lingizni avaylab ushlab, qulog'ingizga qandaydir yoqimli narsalarni shivirlayotgan yigitni tasavvur qilsangiz kerak. Erkak qaragisi va ushlagisi keladi, ayol esa hissiy birlashuvni izlaydi.

Yigit jozibali narsani ko'rib, jinsiy vasvasaga tushadi; sizni esa sevishtirishni, istashlarini,

qadrlashlarini va ardoqlashlarini xohlaganingiz uchun yuragingiz siqiladi. Garchi yigit ham aqliy, hissiy va ruhiy aloqaga muhtoj bo'lsa-da, uning jismoniy ehtiyojlari, obrazli qilib aytganda, doimo ruлда o'tiradi, boshqa barcha ehtiyojlar esa yon va orqa o'rindiqlarga joylashtiriladi. Sizda esa buning tamomila aksi. Yosh ayolning his-tuyg'ulari odatda haydovchi o'rnini egallaydi. Yigitlar jinsiy aloqa qilish uchun sevgiga rozi bo'ladi, qizlar esa sevgiga erishish uchun jinsiy aloqaga rozi bo'ladi, deb bejiz aytilmagan. Afsuski, ko'plab yosh xonimlar birinchi marta o'zlarini shunchaki quchoqlashlarini xohlaganlarida jinsiy aloqaga kirishgan.

Shuni bilishingizni xohlar edikki, nikohsiz jinsiy aloqa sizga hech qachon muhabbat ham, siz orzu qilgan munosabatlar ham olib kelmaydi, lekin Xudoning yordami bilan siz o'zingizni ro'yobga chiqarishingiz va sog'lom turmush tarzida qoniqish topishingiz mumkin.

Jinsiy yaqinlik erkakka zavq bag'ishlashi mumkin, bunda uning qalbiga hech qanday tasir qilmaydi va uning xohish-istagi bilan hech qanday ruhiy birlikni keltirib chiqarmaydi. Bu chegaralanishning eng oxirgi darajasidir. Hech qachon: yigitlar xuddi siz kabi his qilishadi, deb o'ylamang.

Sog'lom yosh ayol o'z navbatida tanasini faqat kecha-yu kunduz kim haqida o'ylasa, kim bilan qalban va ruhan qo'shilib ketgan bo'lsa, o'shanga beradi (albatta, bu yerda ham bazi funktsiyalarning buzilishi yoki zararli odatlarga moyillik bilan bog'liq istisnalar mavjud). U aql, yurak va qalb bilan berilganda, odatda, tana ham unga ergashadi. Bu to'rtlik bir-biri bilan juda ko'p va murakkab bog'lanishlar orqali bog'langan. Stiv Fred Stoker bilan hamkorlikda yozgan "Har bir yigitning kurashi" kitobida yoshlar ayolga shahvat bilan qaramaslik uchun ko'zlarini bir zumda boshqa tomonga olib qochishlari qanchalik muhimligi haqida so'z boradi. Garchi siz qayoqqa qarayotganingizni nazorat qilishingiz kerak bo'lsa-da (axir, ayol ham ehtiyotsiz nigohlardan hayajonlanishi mumkin), sizning asosiy tashvishingiz yuragingizni himoya qilish va darhol vasvasa haqidagi fikrlardan qochib, boshqa narsaga etibor qaratishingiz kerak.

2.1-jadvalda biz hozirgina muhokama qilgan farqlarning qisqacha ro'yxati keltirilgan. Keyinchalik biz yigitlar va qizlar o'rtasidagi bazi boshqa farqlar haqida gaplashamiz va hozircha eng muhimi, Xudo erkaklar va ayollarni juda farqli qilib yaratganini tushunishingizdir. Ammo har qancha o'xshamasak ham, bir-birimizga juda mosmiz.

Yigitlar	Qizlar
Jismoniy istaklari bilan boshqariladi	Hissiy istaklari bilan boshqariladi
Jismoniy yaqinlikka tashna	Hissiy yaqinlikka chanqoq
Ko'rgan narsalaridan shahvatlari uyg'onadi	Eshitish va sezish orqali shahvatlari qo'zg'aladi
Жинсий алоқа қилиш учун севгига рози бўлади	Sevgiga erishish uchun jinsiy aloqaga rozi bo'ladi
Тана ақлдан, қалбдан ва рухдан ажралиши мумкин	Tana, aql, qalb va ruh bir-biri bilan chambarchas bog'liq

2.1 Jadval

Bir-biriga uyg'unlashish uchun yaratilgan.

Xudoning mukammal niyatiga ko'ra, biz tanamiz, aqlimiz, his-tuyg'ularimiz va ruhimiz bilan qarama-qarshi jinsga intilamiz, bir-birimizga yaqinlashishga intilayapmiz.

Jinsiy aloqaga intilish "Menga bir nazar sol!" degan iltimosga o'xshaydi. Bu ich-ichimizda qanday bo'lsak, shundayligicha ko'rish va maqullash, xuddi shunday bir-birimizni chinakamiga bilish uchun boshqa odamning tub-tubiga nazar tashlash kabi zerikarli istakdir. Darvoqe, Webster lug'atiga ko'ra, "bilmoq" felining manolaridan biri jinsiy aloqaga kirishishdir.

Xudo bizning tanamizni jinsiy aloqa paytida erkak jinsiy azosi ayol qiniga mukammal joylashadigan qilib yaratgan. Ammo jinsiy yaqinlik shunchaki jismoniy qo'shilish uchun mo'ljallanmagan.

Xudo uni ikki jism, ikki aql, ikki qalb va ikki ruhning qo'shib, bir tanaga aylanishini istagan. Kimki baxtli er-xotinlik doirasida bu birlashuvni his etgan bo'lsa, u osmonning bu tomonida bo'lishi mumkin bo'lgan eng ajoyib va mukammal his-tuyg'ulardan birini boshdan kechirgan bo'ladi. Xudo jinsiy yaqinlikdan xursand bo'lishingizni istaydi. U sizga tananing alohida qismini - klitorni berdi, uning sizga jinsiy lazzat hissini berishdan boshqa vazifasi yo'q.

Bir-birini kutish uchun yaratilgan

Ajoyib, to'g'rimi? Egamiz erkak va ayolni bir-biriga aynan mos keladigan, bir-biri bilan hissiy birlikka intiladigan, bir-birini ko'rganda, ovozini eshitganida, hatto hididan ham shahvati uyg'onadigan, hayajonlanadigan qilib yaratgan. U bizni shunchalik sevadiki, vujudimizning har bir hujayrasini Uning amrini bajarish - ko'payish va nasl qoldirish istagi bilan titraydi. U jinsiy aloqa erkaklar va ayollarga jismoniy, aqliy, hissiy va manaviy jihatdan tariflab bo'lmaydigan zavq bag'ishlashini taminladi.

Biroq, agar jinsiy aloqa juda ajoyib narsa bo'lsa, nima uchun unga tayyor ekanligingizni his qilgan zahoti u bilan shug'ullanishni boshlashingiz mumkin emas?

Xudoning niyatiga ko'ra, siz faqat nikoh quribgina jinsiy aloqadan zavq olishingiz kerak. Xudo jinsiy aloqa odamga qanchalik zavq berishini va juftlikni qanchalik mahkam bog'lay olishini juda yaxshi biladi. Shuningdek, u nikohdan tashqari jinsiy aloqaning jismoniy, aqliy, hissiy va manaviy oqibatlaridan xabardor bo'lib, sizni ulardan himoya qilishni istaydi. Qachondir turmush o'rtog'ingiz bilan o'rnatadigan ajoyib yaqinlik og'riqli oqibatlardan va aybdorlik tuyg'usidan xoli bo'ladi va rostini aytsam, bu uni kutishga arziydi!

Tasavvur qiling, ikki jinsiy pok odam turmush quryapti. U o'z qalbini nikohgacha bo'lgan jinsiy aloqalar va pornografiyadan himoya qildi, shuning uchun u hayotida ko'rgan yagona yalang'och ayol edi. U yigit uchun nimani anglatishini tasavvur qila olasizmi? Uni esa ungacha hech bir yigit quchoqlamagan, shuning uchun unga faqat uning terisining hidi tanish. Uning teginishlari va erkalashlarini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. U qiz uchun nimani anglatishini tasavvur qila olasizmi? Ular zarracha aybdorlik hissi aralashmagan jinsiy aloqa bilan shug'ullanishlari mumkin va buni umrlarining oxirigacha xohlagancha va istagancha qilishlari mumkin. Xudo yaratgan jinsiy aloqa mana shunday bo'ladi. O'xshatishlarsiz. Umidsizliklarsiz. Aybdorlik yoki uyat hissi yo'q. Faqat er-xotin o'rtasidagi yaxshi, sof lazzat.

“Shuning uchun erkak kishi ota–onasidan bo'lak bo'lib, xotiniga bog'lanib qoladi, ikkalasi bir tan bo'ladilar. Odam bilan xotini qip–yalang'och yurardilar, bir–birlaridan uyalish hissini sezmasdilar” (Ibtido 2:24,25).

3-BOB

Iffatli va oriyatli hayot

Sizlar esa, ey azizlarim, qutlug' imoningizga tayanib hayot kechiringlar. Muqaddas Ruh ilhomi bilan ibodat qilinglar. Xudoning sevgisi panohida bo'lib, o'zingizni asranglar. Rabbimiz Iso Masihning kelishini kutinglar. U kelib, O'z marhamati tufayli bizga abadiy hayot ato qiladi.

Yahudo 1:20,21

"Mening xotinim va bolalarim" komediya teleko'rsatuvining epizodlaridan birida Maykl (Deamon Vayans o'ynagan) va Janet (Tisha Kempbell-Martin o'ynagan) voyaga etmagan qizlarini yosh yigit bilan birinchi uchrashuvga qo'yish yoki qo'ymaslik haqida bahslashadilar. Maykl xotiniga shunday deydi: "Men shunchaki bu yigitning qizim bilan chegaradan o'tishini xohlamayman!"

Xotin: "Yana qanaqa chegara?" deb so'rsa, er: "Ichki kiyimining chegarasi!" deb javob beradi.

Afsuski, juda ko'p yosh ayollar jinsiy iffat tugaydigan va xavfli xatti-harakatlar boshlanadigan chegarani ichki kiyimlar chegarasi deb hisoblashadi. Ammo buzuqlik haqiqatan ham shu chegaradan o'tish bilan boshlanadimi? Albatta, biz bunday deb o'ylamaymiz.

Buzuqlikka qarshi iffat

Avvalgi bobda, Xudo bizni jinsiy mavjudot qilib yaratgani va Uning niyatiga ko'ra, jinsiy aloqa quvonchi faqat er-xotinlar o'rtasida bo'lishi mumkinligi haqida gapirgan edik. Ushbu haqiqatlarni yodda tutgan holda iffat haqida gap boshlaymiz. Yaxlit shaxs bo'lish nima degani? Bu shuni anglatadiki, sizning hayotingiz bir butun bo'lib, uning hech bir qismi boshqasi bilan ziddiyatga kirishmaydi. Masihga ishongan va o'zini masihiy deb elon qilgan odam Isoning talimotiga zid bo'lmagan hayot kechirishga harakat qiladi. Agar u buni uddalay olsa, demak, u yaxlit shaxs.

Agar siz iffatli qizni bolalar davrasida kulish va xursandchilik qilishga hech qachon yo'l qo'ymaydigan zerikarli va sovuqqon shaxs deb o'ylasangiz, qattiq adashasiz. U, har biringiz kabi, hayotdan va romantik munosabatlardan zavqlanishga haqli, ammo jinsiy buzuqlik hayotiga olib kiradigan achchiq tamdan xoli bo'ladi.

Buzuqlik iffatga zid narsadir. U sizni ongingiz va qalbingizni Masihdan uzoqlashtiradigan ishlarga undaydi. Odatda buzuqlik mayda-chuyda ishlardan boshlanadi, ammo vaqt o'tishi bilan katta gunohga aylanib, ustingizdan hukmronlik qiladi.

Agar siz iffatli hayot kechirishni istasangiz, poklikni saqlash qaroringizni o'zgartirmang va jinsiy ehtiroslar ustingizdan hukmronlik qilishiga yo'l qo'ymang. O'zingizni boshqarishni o'rganing - shunda siz eringizga to'liq egalik qila olasiz, u bilan chandiqlarsiz, buzuqlikni o'z ichiga olgan og'ir hissiy yuksiz ehtirosli jinsiy aloqadan zavqlana olasiz. Bir o'ylab ko'ring-a, eringiz o'zingizni uning uchun asraganingizni, uni faqat jisman emas, aqlan, yurakdan, qalbdan seva olishingizni bilsa, naqadar baxtiyor bo'ladi!

To'rt oyoqli jinsiy jozibadorlik.

Iffat nima ekanligini yaxshiroq tushunish uchun jinsiy jozibadorlikni stol shaklida tasavvur qiling. Malumki, stol to'rtta oyoqda turadi, bu esa unga barqarorlik beradi. Xuddi shunga o'xshab, bizning jinsiy jozibadorligimiz hayotimizni muvozanatlashtiradigan to'rtta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi. Agar qoziq oyoqli stolning bir oyog'i tushib ketsa yoki sinib qolsa, u osongina muvozanatini yo'qotadi va bir tomonga qiyshayib ketadi.

"Ushbu kitobni o'qiganimda ko'zlarim ochilgandek bo'ldi: aslida, biz yigitlar kabi qizlarda ham jinsiy aloqa borasida oson emas ekan! Yuragini asrab qolish shunchalik qiyin deb o'ylamagandim. Umid qilamanki, endi bir qiz bilan o'ynashmoqchi bo'lganimda, avval to'xtab, yaxshilab o'ylab ko'raman."

Jon

Do'stlarim Kevin va Rut qoziq stolning yorqin namunasini ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu ularning nikoh to'yida sodir bo'ldi. Dasturxon to'shalgan uzun ziyofat stolida ko'p qavatli ajoyib tort, punsh idishlari va billur qadahlar yarqirar, kumush idishlar yaltirar, qordek oppoq, kraxmallangan, monogramkali salftkalar mag'rur turardi. Hamma bala shundaki, stol qo'yayotgan kishi yig'ma oyoqlardan biriga ilgak qo'yishni unutib qo'ygan. Qip-qizil punsh suvlari billur idishga quyilishi bilanoq, bu oyoqcha qiyshayib ketdi va barcha hashamatli dasturxon stol chetiga borib urildi va gumburlab polga tushdi! Tort to'ppa-to'g'ri punsh idishiga tushdi, hamma salftkalar ho'l bo'ldi. Mehmonlar sarosimaga tushib, kelin-kuyovga o'g'irilib, sarosima va dahshat kutishardi. Ammo yangi kelin-kuyovning qah-qah urib kulishlari hammaning ko'nglini ko'tardi.


Jinsiy jozibadorligimizning "oyoq"laridan biri sinib qolganda, vaziyat butunlay boshqacha bo'ladi - bu yerda kulishning ilojisi bo'lmaydi, chunki hayotimiz o'zimizdan norozilik, buzuqlik, o'z-o'zidan jirkanish va hissiy parchalanishga olib keladigan sirpanchiq qiyalikka aylanishi mumkin. Bu sodir bo'lganda, hayotimizga boylik va quvonch olib kirishi kerak bo'lgan Xudoning marhamati ko'proq og'riq va umidsizlikni keltirib chiqaradigan lanat sifatida seziladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, biz jinsiy jozibadorligimiz to'rt jihatdan iborat: jismoniy, aqliy, hissiy va ruhiy. Ushbu tarkibiy qismlarning uyg'unlashuvi Xudo sizga yaratgan yagona shaxsni shakllantiradi. Yana bir bor takrorlaymiz: sizning shahvoniyiligingiz - bu siz qilayotgan narsa emas, bu sizning o'zingiz, sizning tabiatilngiz esa tana, aql, yurak va ruhdan iborat (nafaqat tanadan!). Demak, iffat, yani jinsiy iffat faqatgina jismoniy tiyilishdan iborat emas. U borliqlning barcha jihatlaril - jism, aql, qalb va ruhning pokligilni nazarda tutadi. To'rtta tarkibiy qism mukammal darajada tekislanganda, sizning "stolingiz" (yani sizning jinsiy jozibadorligilngiz) muvozanatni yo'qotmaydi va mustahkam bo'ladi.

Sirpanchiq qiyaliklar

Ko'p qizlar o'zlarilni iffatli deb atashadi, chunki ular jinsiy aloqada bo'lishmagan yoki yigitni ichki kiyimilning chegarasilan o'tishiga yo'l qo'yishmagan. Ular haqmi? Yaxshilab o'ylab ko'raylik:

- Balki siz hech qachon o'g'il bola bilan o'pishmagandirsiz, lekin pornografiya ko'rasiz, behayo romanlar o'qiysiz yoki shahvoniy ruhdagi musiqa tinglaysiz, nikohda bo'lmagan odam bilan jinsiy aloqa qilishni yoki yaqinlikni tasavvur qilasiz... Qo'lingizni ko'ksingizga qo'yib, jinsiy jihatdan pok hayot kechiryapman deb ayta olasizmi? (Bu aqliy murosaga misol bo'la oladi.)
- Balki jismonan bokira bo'lib qolayotgandirsiz, lekin o'zingiz istagan qoniqishni olish uchun doim yigitlar bilan qaltis o'yin o'ynayotgandirsiz? Sizni iffatli hayot kechiryapti, deb aytish mumkinmi? (Bu hissiy murosaga misol bo'la oladi.)
- Balki sizda hech qachon jinsiy yaqinlik bo'lmagandir, lekin siz yigitga qo'lingizni ko'kragilngizga qo'yishiga ruxsat berarsiz yoki "qo'l mehnati" (erkak jinsiy azosilni massaj qilish) bilan shug'ullanasiz yoki "nay chalish" (oral jinsiy aloqa) bilan shug'ullanasiz. Siz shunday qila turib, o'zingizga jinsiy poklikni saqlayapman, deya olasizmi? (Bu jismoniy murosaga misol bo'la oladi.)

Xudo sizdan istaydigan jismoniy, aqliy, hissiy va ruhiy barqarorlikka erishish uchun "stol"ingizni sirpanchiq qiyaliklarga qo'ymaslikka harakat qiling, yani o'zingiz bilan hech qanday murosaga kelmang. Bunga qanday erishish mumkin, deb so'raysizmi? Shubhalanmang: bu kitobni oxirilgacha o'qib chiqib, barcha savollarga javob olasiz.



3.1-rasm: To'rt oyoqli jismoniy jozibadorlik

Turmush qurmagan paytingizda iffatni saqlash, Xudoning niyatiga zid bo'lgan qarama - qarshi jinsdagi kishilar bilan bo'ladigan jismoniy, aqliy, hissiy va ruhiy munosabatlardan o'zingizni asrashni anglatadi. Turmushga chiqmagan qizlar qalb, aql, ruh va tana ehtiyojlarini qondirishni Xudodan so'rashlari kerak.

Qarama-qarshi jinsga qiziqish yoki bir kun kelib turmushga chiqishga, yosh yigit bilan uchrashishga yoki doimiy do'stga ega bo'lishga umuman haqqim yo'q, deb o'ylamang. Bu faqat bir narsani anglatadi: qalbingiz, aqlingiz va tanangizni iffatingizga putur etkazishi mumkin bo'lgan qaltis qadamlardan asrashga harakat qilishingiz kerak.

Turmush qurganingizdan so'ng, jinsiy yaxlitlik siz uchun eringiz bilan jismoniy, aqliy, hissiy va ruhiy birlashuvni anglatadi - va boshqa hech kim bilan, yani nikohdan tashqari hech qanday erkak bilan emas.

Har qanday muros - jismoniy, aqliy, hissiy yoki ruhiy - jinsiy yaxlitligingizni buzadi. Infektsiya bir azodan ikkinchisiga o'tadi, nihoyat, butun tanaga tasir qiladi va sizni Xudo xohlagan jinsiy yaxlitlik va to'liqlikdan mahrum qiladi.

Qonunmi yoki muhabbatmi?

Iffat haqida gap ketganda, ko'pchilik odamlar ularga turli xil "qil" va "qilma," "mumkin" va "mumkin emas," "kerak" va "kerak emas" kabi ro'yxatini berishlariga umid qilishadi. Ular: Qay darajagacha jazosiz harakat qilish mumkin ekanligini bilishni istaydilar. Qancha uzoqqa borish mumkin? "Juda uzoq" degani nima o'zi? Ammo sizni ishontirib aytamizki, bunday taqiqlar va maslahatlar ro'yxati javobning eng yaxshi varianti emas, chunki u faqat tashqi, jismoniy harakatlarga taalluqli. Biz, masalan, qanday kiyinishni yoki u yoki bu vaziyatda o'zimizni qanday tutishni tanlashda ichki istaklarimiz va fikrlarimiz bilan nima qilishimiz kerak? Bizga nafaqat jismoniy xatti-harakatlarimizni, balki aqliy va hissiy xatti-harakatlarimizni ham o'z ichiga oladigan jinsiy yaxlitlik o'lchovi kerak. Aqlimizni ham, qalbimizni ham, tanamizni ham qamrab oladigan qoidalar ro'yxatini ishlab chiqish mumkinmi?

Javob legalizmda emas (va bu so'z "qonun harfiga qat'iy sodiqlik" deb talqin qilinadi), balki masihiy sevgidadir. Qadimgi Ahd davrida mavjud bo'lgan son-sanoqsiz qoida va ko'rsatmalarni Xudo bor-yo'g'i o'nta amrga qisqartirdi.

Keyinchalik, Yangi Ahd paytida Iso bu qonunlarni ikkita asosiy amrga birlashtirdi. Agar sen bu ikki amrga muvofiq yashayotgan bo'lsang, demak, sening hayoting iffat bilan belgilanadi.

Iso: "Qaysi amr eng ulug'?" - degan savolga javob berayotib, bu ikki qonunni tushuntirib berdi.

"Iso unga dedi: — "Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan, butun ongingiz bilan seving." Bu birinchi va eng buyuk amr. Ikkinchisi esa shunga o'xshashdir: "O'zgani o'zingizni sevganday seving." Butun Tavrot va payg'ambarlarning hamma bitiklari* mana shu ikki amrga tayanadi." (Matto 22:37-40).

Iso qonun emas, balki sevgi muhimdir deb aytadi. Kimki Xudoni sevsa, o'z yaqinini sevsa, o'zini sevsa (aynan shu tartibda!), u o'z hayoti bilan har qanday qoidalar yoki ko'rsatmalardan yuqori turadi. Muhabbat ruhi har qanday rasmiy andozalardan xalos etadi.

Isoning "erkinlik va masuliyat" haqidagi takidini havoriy Pavlus ham takrorlaydi:

"Bazilaringiz: "Inson xohlaganini qilishga haqli", deb aytyapsiz. To'g'ri, lekin hamma narsa ham foydali emas. Inson xohlaganini qilishga haqi bor, lekin hamma narsa ham manfaat keltirmaydi. Hamma birinchi

o'rinda o'zining emas, boshqalarning manfaatini ko'zda tutsin." (1 Korinfliklar 10:23, 24).

Havoriy Pavlus shunday degan: " Hamma narsani qilish mumkin, lekin har qanday ish ham sizga yoki boshqalarga foyda keltirmaydi. "Mumkin bo'lgan" narsani emas, balki hamma uchun eng yaxshi bo'lgan narsani qilishga harakat qiling." Bu iffatga qanday taalluqli?

Keling, bir nechta vaziyatlarni olib, ularni "qonun" va "sevgi" filtridan o'tkazamiz:

- Tor kiyim kiyishni taqiqlovchi qonun yo'q, lekin uni kiyishingizdan maqsad nima: yaxshi ko'rinishga intilishmi yoki yigitlar sizni ko'zlari bilan kuzatib qolishlarini xohlaysizmi?
- Mamlakatimizda so'z erkinligi bor, lekin har doim ham yoshlarga aytayotgan gaplaringiz ularning foydasiga ishlaydimi yoki gaplaringiz shunchaki yigitlarni o'z maqsadingizga erishtirish uchun manipulyatsiya qilish vositasimi?
- Muqaddas Kitobda ehtirosli o'pichlar taqiqlanmagan, lekin nikohdan tashqarida qondirilishi mumkin bo'lmagan shahvoniy istaklar bilan yigitning ehtirosini qo'zg'atish yaxshimi?

U yoki bu tarzda harakat qilishdan oldin, har doim yashirin niyatingizni aniqlashga harakat qiling. Shunda siz qonun haqida ortiq qayg'urmaysiz, chunki siz buyukroq qoidaga - sevgi qoidasiga amal qilasiz. 3.2-jadvalda ikki turdagi savollar keltirilgan bo'lib, ularning bazilariga (chapdagi ustun) qiz o'z vijdoni bilan murosaga keladi, boshqalari (o'ngda) unga iffatli bo'lishga yordam beradi. Ular sizning niyatlaringiz va xatti-harakatlaringizni baholashdagi farqni ko'rsatadi, bu ularga qanday qarashga bog'liq: qonun linzasi orqalimi yoki sevgi orqalimi.

<i>Murosaga olib keluvchi savollar</i>	<i>Iffatga olib keluvchi savollar</i>
Bu ishim bilan qonunni buzamanmi?	Bu men tarafdin sevgi namoyon bo'lishi bo'ladimi?
Bu haqida kim bilib qoladi?	Bu ishim uchun keyin uyalib qolmaymanmi?
Kim meni hukm qiladi?	Nahot bu qila olishim mumkin bo'lgan eng munosib ish bo'lsa??
Bu jamiyatimiz tomonidan qabul qilinadimi?	Bu mening e'tiqodimga qarshi emasmi?
Shunchalik ochiq kiyinamanmi?	O'zimga e'tiborni tortadigan tarzda kiyinganmanmi?
Xohlagan narsamga qanday erishishim mumkin?	Istagim nimadan kelib chiqqan?
Aytgan gapim jazosiz qolarmikin?	Ehtimol buni aytmaganim ma'quldir?
Bu kimga ziyon yetkazadi?	Bu kimga foyda keltiradi?

3.2 Jadval

Biz barcha ongli harakatlarimiz uchun Xudo oldida javob beramiz. Agar siz iffatli ayol bo'lishni istasangiz, o'zingizning bazi "erkinliklaringiz" (kiyinish, fikrlash, gapirish va xatti-harakatlar) bilan xayrlashishingiz kerak bo'ladi. Xudo sizga nafaqat iffatli bo'lishni o'rgatadi. Agar siz bu bilimlarni hayotingizga tatbiq etsangiz va masuliyat bilan harakat qilsangiz, U sizga mukofot ham beradi.

Jinsiy jozibadorlik va hissiy yaxlitlik

Shunday qilib, aytilganlarga yakun yasaymiz. Agar siz jinsiy va hissiy jihatdan yaxlitlikka ega ayol bo'lishni istasangiz, fikrlaringiz, so'zlaringiz, his-tuyg'ularingiz va harakatlaringiz ichki go'zallikni, Xudoga, o'zingizga hamda boshqalarga nisbatan samimiy muhabbatni aks ettirishiga etibor bering. Bu, albatta, noo'rin fikrlar, so'zlar, his-tuyg'ular yoki xatti-harakatlardan butunlay xoli bo'lishni kafolatlamaydi - shunchaki siz bu vasvasalarga qarshi turishga va o'z etiqodingizni mahkam ushlashga qattiq harakat qilasiz. Siz muhabbatga bo'lgan chanqog'ingizni qondirish uchun qarama-qarshi jinsning ehtirosini va jinsiy xayollaringizni qo'zg'atmaysiz.

Siz erkaklar etiborini tortadigan tarzda kiyinmaysiz, lekin bu garderobingizni tovongacha tushadigan yubkalar va tomoqqacha yopib turadigan kiyimlar bilan cheklab qo'yishni anglatmaydi. Siz zamonaviy kiyinasiz, ajoyib ko'rinasiz, bazi yigitlarning nazarida esa, ehtimol, jinsiy jozibadorlikka ega bo'lasiz (bu mutlaqo shaxsiy taassurot, shuning uchun bazi yigitlar sizni hatto haddan tashqari kamtarona kiyinsangiz ham, jinsiy tomonlama jozibador deb ham hisoblashadi), lekin shu bilan birga, sizning istaklaringiz g'arazgo'ylik yoki vasvasaga solish niyatidan yiroq bo'ladi. Siz o'zingizni Xudoning nomiga dog' tushirmaslik kerakligini biladigan jozibali yosh ayolday tutasiz.

Ishlaringiz so'zlaringizdan farq qilmasligi kerak. Agar siz o'zingizni Masihning izdoshi deb elon qilsangiz, unda Uning axloqiy talimoti - shahvoniy fikrlar, kiyinish tarzi va behayo suhbatlarga yo'l qo'ymaslik haqidagi talimotini etiborsiz qoldirmaysiz. Siz Xudo buyurganidek yashaysiz va bundan ichki go'zalligingiz yanada yorqinroq porlaydi. Nihoyat, bo'lajak nikoh Xudoni qanday niyat qilgan bo'lsa, aynan shunday bo'lishiga va siz eringiz bilan zavqlanib yashashingiz mumkin bo'lgan jo'shqin jinsiy munosabatlarni olib kelishiga umid qilasiz.

Agar iffatli hayot yo'lida yangi kashfiyotlarga tayyor bo'lsangiz, nafaqat tanangizni, balki aqlingiz va qalbingizni ham qanday asrashni bilishni istasangiz, biz bilan qoling. Hozir biz vasvasalarimizni kuchaytiradigan afsonalarni yo'qqa chiqaramiz.

“Kim Mening bu so'zlarimni eshitib, ularga amal qilsa, uyini tosh ustiga qurgan dono odamga o'xshaydi. Yomg'ir yog'ib, sellar toshib, shamollar esib, o'sha uyni bosib qolibdi. Lekin tosh ustiga o'rnatilgani uchun uy qulamabdi. Biroq kim Mening bu so'zlarimni eshitib, ularga amal qilmasa, o'z uyini qum ustiga qurgan ahmoq odamga o'xshaydi. Yomg'ir yog'ib, sellar toshib, shamollar esib, o'sha uyni bosib qolibdi. Uy qulab, butunlay vayron bo'libdi!”

(Matto 7:24-27)

4-BOB

Vasvasalarimizni kuchaytiruvchi afsonalar

Ana, xalqim Meni bilmagani uchun nobud bo'lmoqda...

Xo'sheya 4:6

Har yili men yuzlab o'smir va talaba qizlarga "muhabbatni noto'g'ri joylardan izlash" moyilligini engishni o'rgataman. Bu yosh ayollarning bazilari ilgari jinsiy aloqada bo'lgan. Har bir kurs oxirida seminar

ishtirokchilaridan quyidagi savolga javob berishlarini so'rayman: "Jinsiy aloqa, sevgi munosabatlari va uchrashuvlar haqidagi qaysi afsonalar sizni xavfli jinsiy vaziyatlarga duchor qilgan yoki nosog'lom munosabatlarga olib kelgan?" Ushbu bobda tasvirlangan yetti afsona men odatda oladigan eng keng tarqalgan javoblarni aks ettiradi.

Garchi bir qarashda u yoki bu noto'g'ri tushunchalar shaxsan sizga hech qanday aloqasi yo'qdek tuyulishi mumkin bo'lsa-da, ular haqida yozilgan hamma narsani diqqat bilan o'qib chiqishni maslahat beramiz. Ko'pincha biz hali duch kelmagan narsalarimiz haqida malum bir fikrga ega ekanligimizni hatto bilmaymiz ham. Ushbu afsonalarning mohiyatini va ular asoslangan yolg'onni tushunib, siz bunday vasvasaga duchor bo'lsangiz, o'zingizni yanada ishonchli himoya qila olasiz.

1-afsona

Qanday kiyinishim mening tashvishim. Xudoga ham, yoshlarga ham buning aloqasi bo'lmasligi kerak.

Garderobingiz bilan Xudoning ishi yo'q, deb o'zingizni ishontirishdan oldin, Muqaddas Kitobdan mana bu parchani o'qib ko'ring - u sizga mos kelmaydimi?

"Iso O'z shogirdlariga yana dedi: "Gunohga etaklaydigan vasvasalar doimo keladi. Ammo vasvasaga sababchi bo'lgan odamning holiga voy! Bu kichiklarning birontasini gunohga boshlaganingizdan ko'ra, bo'yingizga tegirmon toshini osib, sizni dengizga tashlashgani o'zingiz uchun yaxshiroqdir." (Luqo 17:1,2)

Yodingizdami? - biz yigitlarda jinsiy qo'zg'alishni keltirib chiqaradigan narsa haqida aytib o'tgan edik. Ular ko'rib idrok qiladigan narsa! Ular jinsiy jihatdan jozibali biror narsani, masalan, ochiqroq kiyingan yosh ayolni ko'rganlarida, ularning tabiiy reaksiyasi unga jismoniy moyillik hissi va yaqinlik haqidagi doimiy fikrdir. Qolaversa, bu yigit masihiymi yoki yo'qmi, buning hech qanday ahamiyati yo'q. Hatto imonli yoshlar ham bu vasvasaga uchrashi mumkin. Xullas, agar sizlar Masihdagi birodarlaringizni bunday qoqilish va yiqilishdan qutqarishni istasangizlar, kamtarona kiyininglar.

Ko'pgina yosh ayollar, shu jumladan masihiy ayollar ham, ko'kraklarini ko'rsatadigan tor trikotaj maykalar, sport mini-yubkalari yoki tasavvurga hech qanday joy qoldirmaydigan kalta shortilar kiyishadi. Ular kindikdan yuqoriroq kesilgan topik va jinsi shim kiyib olishadi, shim va yubkadan iborat ko'ylak kiyib, belni ochiq qoldirishadi, bazan ichki kiyimlarining cheti tashqariga chiqib turadi. Keyinchalik ular yana shunday deb shikoyat qilishadi: "Bolalar juda qaysar! Biz qizlar ularga qarshi nima bilan kurashishimiz kerakligini yolg'iz Xudoning o'zi biladi!

Biz kollej talabasi Neytdan bu shikoyatga izoh berishini so'radik va u quyidagilarni aytdi: "Agar qizlar bunday ochiq kiyinishmaganida, yigitlar bunchalik qaysar bo'lishmasdi. Qizchani tor ko'ylakda yoki haddan tashqari ochiq holda ko'rganimizda, bizning jinsiy radarimiz haddan tashqari kuchayib ketishi aniq va biz uni etiborga olib qo'miz. Albatta, bunaqalarga uylanish odatda hech kimning xayoliga kelmaydi. Aslida, agar yigit printsiptial bo'lsa, bu fikrdan voz kechadi va unga etibor bermaydi. Bo'lmasa, unga tegajog'lik qila boshlaydi - qanday niyatdaligi albatta tushunarli."

Yaxshi aytdingiz, Neyt! Bu afsonani yo'qqa chiqarishga yordam berganingiz uchun tashakkur!

2-afsona

Begunoh noz-karashmada hech qanday vahimali narsa yo'q.

Ehtimol, sizga har qanday joyda va har kim bilan noz-karashma qilish mumkindek tuyulayotgandir, lekin bu, ehtimol, noo'rin noz-karashma yigitda qanday his-tuyg'ularni uyg'otishi mumkinligini tushunmaganingiz uchundir. Yigitga u bilan jiddiyoq munosabatda bo'lishdan manfaatdor ekanligingni bildirish - bu bir masala, lekin g'ashiga tegish yoki vasvasa qilish istagi sifatida qabul qilinadigan o'ylamasdan noz-karashma qilish - bu

butunlay boshqa masala. Agar siz u bilan munosabat o'rnatmoqchi bo'lmasangiz, yigitni hissiy yoki jismoniy jihatdan qo'zg'atish shartmi? Agar siz aslida uning umidini oqlash niyatida bo'lmasangiz, o'zingizning alohida etiboringiz va yoqtirganingizga ishora qilib, odamga umid berishingiz to'g'ri bo'ladimi? Odamlarga samimiy muhabbat va hurmat bunday xatti-harakatlar bilan muvofiq kelmaydi. Siz o'zingizni yigit bilan jinsiy yaqinlashishdan manfaatdordek tutmasligingiz kerak.

Albatta, so'zdan ish maqul, deb bejiz aytilmagan, lekin so'zning atrofimizdagi odamlarga, qolaversa, shaxsiyatimizga ko'rsatadigan tasirini etibordan soqit qilib bo'lmaydi. Yoqub 3: 5, 6 da shunday deyilgan: "Til ham xuddi shundaydir, til badanning kichkina bir uzvidir, ammo katta muammolarni keltirib chiqaradi. Qara, kichkina bir olov bepoyon o'rmonni yondirib yuboradi! Til ham olovga o'xshaydi. Til — uzvlarimiz orasida bir buzg'unchi dunyo! U butun vujudimizni bulg'aydi. U do'zaxdan alangalanib, butun hayotimizni yondiradi." Agar siz erkakda shahvat olovini yoqishni istamasangiz va o'z ehtirolaringizni o'zingiz boshqarishga intilsangiz, so'zlaringiz va harakatlaringizni taroziga solib ko'ring. O'zingiz yoqtirgan odamga bo'lgan qiziqishingizni nigoh, tabassum, iliq ohang bilan ko'rsatishingiz mumkin - lekin Xudo faqat nikohda qondirishni buyurgan istaklarni uyg'otmaslik uchun o'zingizga ehtiyot bo'ling.

3-afsona

Menga o'zimni "to'laqonli shaxs" deb his qilishim uchun yigitim bo'lishi kerak. Bu mening barcha muammolarimni darhol hal qiladi.

Mana yana bir yangilik! Agar siz yigit kerak deb o'ylasangiz, demak, aslida bunga hali tayyor emassiz. Ha, kinoda har doim bir qahramon ikkinchisiga: "Sen mening borimsan!" degan sahnalarni ko'rish mumkin. Bu so'zlar qanchalik ishonarli bo'lmasin, ularga ishonmang: faqat Xudo to'ldirishi mumkin bo'lgan ruhiy bo'shliqni hech bir inson to'ldira olmaydi. Shunday bo'lsa-da, ko'pgina yosh ayollar o'zlarini hayotning lazzatini his qilishga majbur qiladigan yagona odamni topishga jon-jahdlari bilan harakat qilishadi (xuddi turmushga chiqmagan ayol yashashga ham arzimaydigandek!).

Maslahatimizga quloq soling. O'zingizga yaxshilik qiling - yashashni boshlang! Lekin siz xayolingizga keltirgan ertaknamo hayotda emas - u yerda siz ajoyib yigitni uchratdingiz, sevib qoldingiz va u bilan yashab, boylilik orttira boshladingiz... Siz real dunyoda yashashingiz, Xudo sizni kim qilib yaratganini tushunishingiz va o'zingizni shunday deb tan olishingiz, yani shunday bo'lishingiz kerak.

"Agar o'zimga shu holimcha yoqmasam-chi?" - deb so'rarsiz. Ehtimol, o'zingizni beso'naqay, haddan tashqari uyatchan, hatto xunuk deb hisoblarsiz? Xudoning yordami bilan siz tuzatib bo'lmaydigan narsalarni qabul qilishni o'rganishingiz va o'zgartirish mumkin bo'lgan narsalar ustida ishlashingiz mumkin. Etiboringizni ahamiyatsiz va tez o'tib ketadigan narsalarga - sizning mavjudligingizdan bexabar yigitchaga yoki burningizda paydo bo'ladigan zararli husnbuzarlarga qaratmang. Yaxshisi, bir qadam orqaga chekinib, butun manzarani ko'rib chiqishga harakat qiling. Bu hayotda nimaga erishishni istadingiz? Siz o'z oldingizga qanday talim, martaba, ijtimoiy maqsadlarni qo'yasiz? Jamoatingizda nima qilmoqchisiz? Bu maqsadlarga ishtiyoq va qatiyat bilan amal qiling. Xudo sizni nima uchun yaratganini yaxshiroq tushuna boshlaysiz va shunda albatta, sizni birorta yigit sezib qolishidan va bugun burningizda qancha husnbuzar paydo bo'lganidan qati nazar, o'zingizni sevishtirishni o'rganasiz.

Nima uchun real dunyoda yashash va o'z oldingizga qo'ygan maqsadlarga erishish shunchalik muhim? Chunki er ham, yigit ham sizni hech qachon baxtli qila olmaydi. U qanchalik chiroyli, boy, kelishgan, aqlli, xudojo'y va maftunkor bo'lishidan qati nazar. Hech bir erkak hech qachon ayolni o'zini to'laqonli shaxs deb his qilishga majburlay olmaydi. O'z ahamiyatingizni anglash - Xudoga befarq emasligingizni tushunish va U yaratgan shaxs sifatida o'zingizni anglash bilan birga keladi. Shunday bo'ling - shunda o'zingizni baxtli his qilishingiz uchun erkak nigohiga tashna bo'lishingizga hojat qolmaydi. Buning sizga keragi yo'q, chunki siz o'zingizdan va hayotingizdan mamnun bo'lasiz.

Haqiqat shuki, siz qanchalik munosib shaxsga aylansangiz, shunchalik munosib shaxslar siz bilan qiziq boshlaydilar. Agar siz Xudoni sevsangiz va mazmunli hayot kechirsangiz, xuddi shunday odamlar sizga etibor berishadi. Agar qiziqishlaringiz doirasi qalbingizdagi bo'shliqni to'ldirishga qodir odamni topish bilan cheklansa, xuddi shunday umidsiz yigitni o'zingizga jalb qilasiz. Siz u bilan xuddi bir-birining qonini so'rayotgan itsiz ikki kanaga o'xshab qolasizlar. Agar siz nosog'lom munosabatlarning loyqa suvlarida suzib, o'z qiyinchiliklaringizni hal qilishga urinsangiz, o'zingiz amin bo'lingki, ahvolingiz faqat

yomonlashadi!

Albatta, yolg'izlikning o'ziga yarasha yoqimsiz tomonlari bor. Bazida o'zingizni beparvo his qilasiz. Odamlar siz haqingizda nima deb o'ylashidan xavotirlanasiz. Kelajakka nazar tashlashdan qo'rqasiz, chunki o'zingizni bir umr shunday his qilasiz va yolg'iz qolasiz. Ammo bir gapni aytay: erkak bilan munosabatlar muammolardan butunlay xalos qilmaydi. Shunchaki bir qiyinchiliklar to'plamini boshqasiga almashtirasiz. Kimgadir bog'lanib qolganingizda, erkinlikdan mahrum bo'lasiz. O'z kelajagingizni erkin rejalashtirishning iloji yo'q, chunki har doim boshqa odamni hisobga olishga to'g'ri keladi va siz avvalgidek atrofdagilar siz haqingizda nima deb o'ylashidan xavotirlanasiz.

Sizga yarimta odam bilan yana yarimta odam bir yaxlit munosabatlarga teng bo'ladi deb tuyulishi mumkin, ammo bu noto'g'ri. Nikoh rishtalari bilan bog'langan ikki inson bir-birining ijobiy va salbiy tomonlarini ko'paytiradi. Qalbingiz jarohatlangan bo'lsa, o'zingizni yaxlit emasdek his qilsangiz, xuddi shunday odamni o'zingizga jalb qilasiz va ikkalangiz ham Xudo siz uchun xohlagan narsaning ozgina qismini his qilasiz.

Umid qilamizki, biz go'yo sizning yoshlar bilan har qanday uchrashuvingiz va munosabatlaringizni qoralaymiz, degan taassurot tug'ilmadi. Yo'q, albatta.

O'zaro sog'lom, pok munosabatlar ko'p quvonch keltirishi mumkin, nikoh esa juda go'zaldir. Ammo munosabatlar jarayonida sizga kerakli shaxsni topish emas, balki o'zingizning shakllanishingiz sodir bo'ladi. Sog'lom nikoh - bu o'z qadriyatlarini bir-biriga sarflashga qaror qilgan ikki etuk, to'laqonli insonning ittifoqidir. Sarmoya tikish uchun hech narsasi yo'qligi sababli bir-birini yo'q qiladigan ikki kishi - demak, ular faqat tortib olishlari mumkin - juda va ular juda nosog'lom munosabatlar o'rnatadilar.

4-afsona

Yigitlar ham, umuman olganda, nikohgacha bo'lgan munosabatlardan qizlar kutgan narsani kutishadi.

Agar siz hali ham to'liq tushunib etmagan bo'lsangiz, shoshilmasdan va aniq qilib takrorlaymiz: yigitlar qizlarga qaraganda butunlay boshqacha sabablarga ko'ra harakat qilishadi. Ko'pincha yigit jinsiy aloqa qilish uchun sevgiga rozi bo'ladi; qiz esa sevgiga erishish uchun jinsiy aloqa qilishga rozi bo'ladi. Qanday xavfli kombinatsiya paydo bo'lishi mumkinligini payqadingizmi? Agar haligacha buni ko'rmayotgan bo'lsangiz, yaqqol misol keltiramiz. O'n yetti yoshli Kristel hikoya qiladi:

- Men Deniel bilan bir-birimizni so'zsiz tushunamiz, deb o'ylardim. Men yaqin, juda yaqin munosabatlarga juda intildim, lekin jinsiy aloqa bilan turmush qurgunimcha kutishni xohlardim. Deniel ham shuni xohlayotganini aytdi, lekin bir kuni ikkalamiz yolg'iz qolganimizda, u uzoq o'ylab o'tirmay, maqsadga o'tdi. Birmuncha vaqt men uchun samimiy suhbatlar va bo'salarning o'zi etarli bo'ldi. U yog'iga o'tmoqchi emasdim, lekin asta-sekin u qo'llariga erk bera boshladi va meni shu darajada "qo'zhatdiki" keyinchalik o'zim uyaladigan ishlarni qilishiga yo'l qo'yib berdim. Biz u bilan jinsiy aloqada bo'lmaganmiz, lekin men juda xavfli chegaraga tushib qoldim, chunki u talab qilgan narsani berishim kerakligini his qildim, aks holda u menga bo'lgan qiziqishini yo'qotardi."

Kristel ehtiyotkor bo'lishi va Deniel bilan yolg'iz qolmasligi kerak edi, chunki u allaqachon uni o'zi xohlamagan jismoniy yaqinlikka moyil qila boshlagan edi. Agar siz bunday holatga ko'nikish uchun etarlicha sodda bo'lsangiz (umid qilamizki, bunday emas), tez orada samimiy suhbatlar va hissiy zavq-shavqlar yigitingiz uchun orzularning chegarasi emasligini bilib olasiz. Yigitlarning ko'pchiligi jinsiy ehtiroslarini jilovlay olmasliklarini anglab, Xudo erkaklarni ayollarga qaraganda boshqacha yaratgani haqida gapiradigan bo'lsak, qizlar bilan yolg'iz qolmaslikka harakat qilishadi. Ular ehtirosli tomoshani ko'rganda hayajonlanish uchun yaratilgan. Ularning yakuniy maqsadi jinsiy yaqinlikdir. Ular shunday yaratilgan. Ular hissiy yaqinlikni umuman qadrlamaydilar yoki xohlamaydilar ham emas - ko'pchilik uni qadrlaydi va unga intiladi. Ammo bu ularning yakuniy maqsadi emas.

Boshqa tomondan, ayollar hissiy va ruhiy yaqinlik uchun yaratilgan. Bu - sizning yakuniy maqsadingiz. Siz shunday yaratilgansiz. Nikohdan oldingi yigit sizdan Xudo belgilagan chegaralardan chiqishni talab qila boshlasa, bunday munosabatlar sizga ham, Xudoga ham sharaf keltirmasligini o'zingizga aytish vaqti kelgan bo'ladi.

5-afsona

Mening muhabbatim uni qutqaradi. Men uni boshqa odamga aylantira olaman.

Xatoga yo'l qo'ymang: kimgadir turmush o'rtoq bo'lishidan oldin uning ustida puxta ishlash kerak bo'lgan yigit bilan uchrashmang. Ko'pchilik qizlarni dastlab yigitdagi tiyiqsiz, isyonkor fel-atvor o'ziga tortadi, keyin esa uni tuzatishga va orzusidagi erkakka aylantirishga kirishadi. Sizni xafa qilishni istamayman, lekin siz hech kimni o'zgartirish yoki qutqarishga qodir emassiz. Buni faqat Xudo qila oladi va U buni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda. Ayol muhabbati buzuvchi erkakning xulq-atvoriga hech qanday tasir ko'rsatmasligi azaldan malum. U faqat olovga moy sepadi. Uning muhabbati go'yo unga: "Sen qanday bo'lsang, shundayligingcha yaxshisan!" deyayotgandek bo'ladi.

Yosh ayol do'stining xaloskori bo'lishga harakat qilar ekan, u tez-tez og'riqli umidsizlikka tushib turishga duchor bo'lib qoladi. Bu haqda Gari Kollinz "Masihiy maslahatining Injil asoslari," kitobida "messiya kompleksi" deb ataladigan narsani tushuntirib shunday deydi:

"Messiya kompleksi odamlarga g'amxo'rlik qilish tendentsiyasi bilan bog'liq... yaqinlarini ularning muammolari va qiyin hayotiy vaziyatlardan qutqarishga harakat qiladigan xaloskor bo'lish. Axir qaysi birimiz Iso Masihga o'xshab, odamni notinch oiladan olib ketishni, giyohvandlik yoki ichkilikbozlikdan qutqarishni, zararli turmush tarzidan qaytarishni istamaymiz..."

Ammo odamlar qutqaruvchi bo'lishga harakat qilganda, oxir-oqibat ularni deyarli har doim xafagarchilik va umidsizlik kutadi. Shunga qaramay, vaqti-vaqti bilan biz Masihning rolini o'zimizga sinab ko'rishni xohlaymiz. Bir do'stim shunday degan edi: "Agar men odamlarni og'riqdan qutqarib, ularni qiyinchiliklardan xalos qila olsam yaxshi bo'lardi... lekin har safar bu ishga qo'l urishim kerak bo'lganda, men o'zimning qanchalik o'jiz ekanligimni eslayman va haqiqiy Masih bilan nima sodir bo'lganini o'ylayman. Uni xochga mixlashgan axir"

Agar his-tuyg'ularingizni nobud qilishlarini istamasangiz, najot va tuzatish ishini Xudoga qo'yib bering. O'zingiz esa kimgadir er bo'lishidan oldin hali ancha ulg'ayishi va o'zgarishi kerak bo'lgan yigitlar uchun ibodat qiling.

Yodingizda bo'lsin: kim bilan uchrashib yurgan bo'lsangiz, o'sha sizning eringiz bo'lishi mumkin. Siz munosabatga kirishayotgan yigitning fel-atvori har doim kapital tamirga muhtoj emasligiga ishonch hosil qilishga harakat qiling.

6-afsona

Jinsiy aloqa nima ekanligini sinab ko'rishni juda xohlayman. Ehtimol, men shundoq ham Xudo oldida katta gunoh qilgandirman, shuning uchun qarshilik ko'rsatishdan nima foyda?

Shayton vasvasa va gunoh o'rtasidagi chegaradan o'tishga bizni ishontirib, soxta aybdorlik tuyg'usini qo'llashni yaxshi ko'radi. U, masalan, bizga quyidagi fikrlarni yuboradi:

Uni juda xohlayotganingni inkor etmaysan-ku! Bu lazzatni tatib ko'r!

Sen shundoq ham haddingdan oshib ketding. Ortiqcha qadam hech narsani hal qilmaydi.

U sening kimligingni allaqachon biladi. Endi o'zingni tarbiyali qilib ko'rsatishning hojati yo'q!

Bunday fikrlar yordamida shayton sizni o'zingizni aybdordek his qilishga undaydi, lekin bu yolg'on tuyg'u, chunki o'ylash hali gunoh qilish degani emas. Siz vasvasani boshdan kechirgansiz, lekin hali gunohga botmagansiz.

Iso tanaviy gunoh haqida o'ylash - uni amalga oshirish bilan barobarligini aytganida (Matto 5:27,28), u odamlarning qayta va qayta jinsiy xayollarga beriladigan holatlarni nazarda tutgan. Bazi fikrlar miyamizda shunchaki insoniy tabiatimiz tufayli paydo bo'ladi, lekin biz ularni suniy ravishda qo'llab-quvvatlamasligimiz yoki ularga etibor qaratmasligimiz kerak. Ularni o'zimizdan uzoqlashtirishimiz, biror narsa bilan chalg'itishga harakat qilishimiz kerak - xuddi shu singari, har qanday vasvasaga qarshi tura olamiz. Yigit nomaqbul tomoshadan "ko'zini olib qochishni" o'rganishi mumkin; siz esa to'xtamaslik kerak bo'lgan narsalardan "fikringizni olib qochishni" o'rganishingiz mumkin. Yodingizda tuting: vasvasaga tushishning o'zi gunoh emas. Vasvasaga istisnosiz hamma moyil va bu yerda o'zingizni aybdor his qilishingiz shart emas. Ishonmasangiz, Ibroniylar maktubining muallifi nima deb yozganini o'qing:

«U o'jizliklarimizga hamdard bo'la oladi. Axir, U biz kabi har tomonlama sinalgan, lekin bizga o'xshab gunoh qilmagan. Kelinglar, inoyatli Xudoyimizning taxtiga jasorat bilan yaqinlashaylik.

Shunda U bizga marhamat ko'rsatadi, Uning inoyati zarur vaqtda bizga yordam beradi». (Ibroniylar 4:15-16)

Endi tushungandirsiz? Isoning o'zi ham turli vasvasalarga duchor bo'lgan! "Hatto jinsiy vasvasalarga hammi?!" - deb o'ylarsiz. Nega endi yo'q? Axir U tom manodagi inson edi. Uni chiroyli ayollar o'rab olishgandi. Iso ularga talim berib, vaz qilardi va ularning ko'pchiligi, ehtimol, Uning quchog'ida bo'lishni orzu qilishgandir. Axir bu oyatlarni yozgan kishi: "Tanaviy vasvasasidan boshqa hamma narsaga vasvasa qilingan" demagan-ku. Iso inson bo'lgan va insoniy vasvasalardan qochib qutula olmagan. Ammo U bizga vasvasalarda o'z ehtirolarimizga berilmaslikni o'rgatdi.

7-afsona

Menga qanchalik qiyinligini hech kim tushunmaydi.

Bu afsona shubhasiz mavjud, chunki qizlar mish-mishlardan qo'rqib, o'zlarining jinsiy hayoti haqida bir-birlariga kamdan-kam gapirishadi. Afsuski, bu qo'rquvlar juda o'rinli, chunki achchiq tajriba bolalikda orttiriladi. Masalan, bir qiz dugonasiga sinfdoshini sevib qolganini yashirinch aytadi. U muqarrar ravishda o'z sirini boshqa ikki dugonasiga oshkor qiladi. Agar siz buni boshdan kechirgan bo'lsangiz, o'z sirlaringizni o'zingizda saqlashni va boshqa qizlarga hech qachon oshkor qilmaslikni o'rgangansiz.

Bazi qizlar bolaligidan o'g'il bolalar bilan do'st bo'lib, ularni eng yaxshi do'stlar deb bilishadi, ularga hech bir dugonaga aytib bo'lmaydigan gaplarni ishonish mumkin deb hisoblashadi. Ko'pchilik o'z achchiq tajribasida shunga amin bo'lganki, erkak do'stlarga ishonish dugonalarga qaraganda ancha xavfli bo'lishi mumkin. Ayol sizning siringizni yashira olmasligi mumkin, erkak esa sizning zaifligingizdan foydalanib, agar siz o'z etiqodingizda qat'iy bo'lmasangiz, sizni o'z zo'ravonliklarining navbatdagi nishoniga aylantiradi.

Yosh ayollar o'zlarining jinsiy kurashlari haqida ochiq gapirishga moyil emaslar, chunki sevgiga erishish uchun hamma narsaga rozi bo'lish juda pastkashlikdir. Garchi bazilar u yoki bu yigit bilan jinsiy aloqada bo'lganliklari bilan maqtansalar-da, ko'pchilik ularning qancha jinsiy sheriklari bo'lganligi haqida sukut saqlashni afzal ko'rishadi. Buning sababi shundaki, ayol uchun maqsad muhabbat munosabatlari, jinsiy aloqa esa ular uchun to'lanishi kerak bo'lgan narxdir. Agar narx to'langan bo'lsa-yu, maqsadga erishilmasa, qiz aql bovar qilmaydigan xo'rlikni boshdan kechiradi: axir uning tanasi erkakni qiziqtirish uchun etarli emas edi. Bunday sharmandalikni butun dunyoga ovoza qilishni kim ham xohlardi?

Umid qilamizki, barcha ayollarga xos xususiyatlar haqida bilib olganingizdan so'ng, siz endi jim turmaysiz va o'zingizning vasvasalaringiz haqida etuk masihiy dugonalarigizga ochiq gapira olasiz. Bizning fikrimizcha, ayollarning taxminan 99,9 foizi turli darajadagi jinsiy vasvasalarni boshdan kechiradi.

Havoriy Pavlus Korinfliklarga birinchi maktubida shunday deb yozgan: "Sizlar tushgan vasvasaga boshqalar ham duchor bo'lgan. Ammo Xudo sodiqdir, U kuchingizdan ortiq vasvasaga tushishingizga yo'l qo'ymaydi. Vasvasaga bardosh bera olishingiz uchun kerakli paytda vasvasadan qutulish yo'lini ham beradi". Axir u: "Agar siz shahvoniy vasvasaga tushgan bo'lsangiz, demak, muammo sizda, chunki sizdan boshqa hech kim bunday vasvasaga duchor bo'lmagan," demagan!

Pavlusning aytishicha, vasvasa umuman inson tabiatiga xosdir. Xudo barcha odamlarni (jinsidan, millatidan yoki ijtimoiy mavqeidan qati nazar) jinsiy mavjudotlar qilib yaratgan ekan, bu dunyoda jinsiy va ishqiy vasvasalar eng keng tarqalganiga shubha yo'q.

Vasvasaga qarshi tura olishimiz uchun Xudo odatda qanday "engillik" beradi?

Ehtimol, U barcha his-tuyg'ularingizni "o'chirib qo'yar"? Yo'q. Haqiqiy engillik masihiy etakchining dono maslahati orqali keladi - masalan, yoshlar cho'poni yoki yakshanba maktabi o'qituvchisi yoki sizga yaqin bo'lgan va vasvasaga berilmaslikka yordam beradigan ishonchli do'stingiz. Bunday ishonchli odamga sizga og'ir, juda shaxsiy savollar berishiga ruxsat bering, masalan: "Sen yigitingga ikkalangizdan birortangizda jinsiy istakni qo'zg'atadigan xatti-harakatlar amalga oshirishiga yo'l qo'ydingmi? Sen erkak kishining ehtirolini qo'zg'aydigan so'zlarni ishlatdingmi? O'zingizda shahvoniy xayollarni uyg'otdingmi? Pornografiya ko'rganmisan?

Agar sizda hisob beradigan odam paydo bo'lsa, buni yolg'iz bajarishga harakat qilgandan ko'ra, o'z qalbingiz va aqlingiz holatini o'rganish siz uchun juda oson bo'ladi. Xudoning meyoriga etolmay qolib

ketganingizda, dono ustoz yoki ishonchli do'st sizni to'g'ri yo'lga solishi mumkin.

G'alabaga tayyorlaning

Balki shu paytgacha siz ham shunga o'xshash afsonalarga ishongandirsiz? Xudo xohlasa, ushbu bobni o'qib, siz jinsiy yaxlitlik uchun kurashda olov chizig'ida turganingizni anglaysiz. Iltimos, o'qishda davom eting. Hozir biz sizga bu afsonalarni muvaffaqiyatli ravishda yo'q qilishga yordam beradigan haqiqatlar haqida gaplashamiz va bu jinsiy hayotda aqlingizni, yuragingizni va tanangizni himoya qilishga tayyorlanasiz.

«Iso ularga dedi: “Agar Meni sevsangizlar, amrlarimga amal qilasizlar. Men osmondagi Otaga murojaat qilaman va U sizlar bilan to'ab qoladigan boshqa Homiyni yuboradi. Bu Homiy — Haqiqat Ruhidir. Bu dunyoga tegishli bo'lganlar Uni qabul qila olmaydilar, chunki Uni ko'rmaydilar ham, bilmaydilar ham. Sizlar esa Uni bilasizlar, chunki U sizlar bilan yashamoqda, U ichingizda bo'ladi». Yuhanno 14:15-17

II qism

O'Z-O'ZINI HALOK QILISHDAN SAQLANISH

5-BOB

Jinsiy aloqaga nisbatan istagimizni kuchaytirganimizda

Ey azizlarim, sizlardan o'tinib so'rayman, jonga qarshi kurashadigan nafs ehtirosalaridan saqlaninglar. Axir, sizlar bu dunyoda g'aribu musofirsizlar.

1 Butrus 2:11

Xudo bizga ko'plab ajoyib hadyalar bergan. Shulardan biri olovdir. Uning yordamida uyimizni isitamiz, ovqat pishiramiz, asboblarni sterillaymiz. Sovuq qish oqshomida issiq o'choq yonida o'tirish qanday mazza!

Ammo olov bizga faqat yaxshilik keltirmaydi. Shu bilan birga, u juda xavflidir - yong'inlar tufayli boshpanasiz qolgan odamlardan so'rab ko'ring. Bir tanishimiz hovlidagi barglarni yoqib, jarayonni tezlashtirish uchun ularga benzin sepgan. Portlash sodir bo'lib, - natijada u oyoqlariga qattiq shikast etkazdi va uchinchi darajali kuyish jarohatini oldi. Agar biz olovning halokatli kuchiga etarli baho bermasak va unga beparvolik bilan qarasak, bu ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Nima demoqchiman, deysizmi? Gap bunday: hozir biz Xudodan kelgan yana bir ajoyib va hayratlanarli inom - jinsiy mayl haqida gaplashamiz. Jinsiy aloqa qilishga intilish bir vaqtning o'zida ham yoqimli, ham muhim, ammo unga engil-elpi qaralsa va uni behuda qo'zg'atilsa, unda tahdid va xavf yashiringan bo'ladi. Er-xotinlikda, yani Xudo jinsiy aloqa uchun belgilagan doirada, ayolning jinsiy istaklari uni eriga tortadi, u bilan jinsiy aloqada u bu dunyoda mumkin bo'lgan chuqur hissiy birlik va jismoniy lazzat darajasiga erishadi.

Shunga qaramay, ko'p odamlar vasvasaga berilib, nikohdan ancha oldin, bazan esa hatto har qanday romantik munosabatlardan tashqarida jinsiy istak olovini yoqadilar. Qanday qilib deysizmi? Masturbatsiya, yani o'z-o'zidan lazzatlanish orqali. Tengdoshlaringiz bu haqda nima deyishayotganini eshiting. O'ylaymizki, masturbatsiya jinsiy mayl olovini aslo so'ndirmasligini, aksincha, alanga oldirishini o'zingiz ko'rasiz.

Bir nechta samimiy iqrorlar

Xezer oltinchi sinfda o'qirdi va uning uyida tunagan dugonasi unga masturbatsiya qilishni o'rgatdi. Xezer bu bilan o'n ikki yildan beri davom etib kelayotgan va uning o'ziga bo'lgan hurmatiga tobora putur etkazayotgan ehtirosiga asos solganini xayoliga ham keltirmasdi.

"O'zimni boshqara olmayotganimni his qilyapman va bu meni juda qiynaydi. Men doimo bu haqda o'ylayman va masturbatsiya haqida o'ylashning o'zidayoq "yonib ketaman." Xudo oldida necha marta tavba qildim... Nima qilsam ekan? Bundan o'zingni shunday iflos va pastkash his qilasan, baribir o'zingni to'xtata olmasan."

Bazan masturbatsiya ko'proq jinsiy faollik istagiga aylanadi. Deniz tashqi jinsiy aloqadan qochish uchun ataylab masturbatsiya qilganini tan oladi. Ammo bu hiyla, xuddi alanganing teskari chaqnashi kabi, uning o'ziga qarshi qaratildi.

"Har safar uchrashuvdan oldin masturbatsiya qilganimda, butun oqshom davomida meni dahshatli qoniqmaslik hissi qamrab oldi. Shuning uchun men ko'pincha taslim bo'lardim va shunchaki masturbatsiya tajribalarimdan hafsalam pir bo'lganidan jinsiy aloqaga kirishardim. Keyin ikkalasi ham jonimga tegdi."

Agar siz ilgari jinsiy azolaringizga teginish va ularni qo'zg'atish xavfli ekanligini bilmagan bo'lsangiz bu iqrorlik siz uchun kutilmagan bo'lishi mumkin. Xuddi shu holat Emili bilan sodir bo'ldi, u shunday deb hikoya qiladi:

"Men masturbatsiya qilishni juda erta boshladim. Bu ishda biror yomonlik yoki noto'g'rilik bo'lishi mumkinligini xayolimga ham keltirmagandim. Endi ulg'ayganimda (hozir o'n yetti yoshdaman) bu mening eng yomon ko'rgan odatimga aylandi.

Men hech qachon bu haqda hech kimga aytmaganman, chunki meni buzuvchi deb hisoblashlaridan va men bilan muloqot qilishni to'xtatishlaridan qo'rqardim. Mendan buni hech kim kutmagan edi. Men ajoyib oilada yashayman, mening ajoyib, mehribon ota-onam bor, men ularni juda hurmat qilaman va dunyoda hammadan ko'ra ko'proq sevaman. Maktabda alochi o'quvchi bo'lib, o'z yoshlar guruhimda faol ishlayman. Shunchaki yordam so'rab murojaat qiladigan hech kimim yo'q va men Masihdan tobora uzoqlashayotganimni his qilyapman. Men endi Uning ovozi eshitmayapman, hatto qachonlardir U men bilan gaplashganini ham eslay olmayman. Qanday qilib bu dahshatni to'xtatib, yaxshi masihiy bo'lishim mumkin?"

Xo'sh, Xezer, Deniz va Emilining misolidan nimani o'rganishimiz mumkin?

- Masturbatsiya - bu faqat yoshlar muammosi emas. Qaysidir nuqtada unga ko'pchilik erkaklar ham, ayollar ham duch kelishadi. Qanchalik yaxshi, aqlli, jozibali bo'lmang, qanday farovon oilada voyaga etmang, siz ham boshqa har qanday odam kabi bu vasvasaga moyilsiz. Shu bilan birga, qayerda yashashingiz, bo'sh vaqtingizni qayerda o'tkazishingiz, qaysi maktab va qaysi jamoatga borishingizning hech qanday ahamiyati yo'q - bu vasvasa sizni istalgan vaqtda ushlab olishi mumkin. Istisnalar yo'q va bo'lishi ham mumkin emas.
- Agar sizda masturbatsiya vasvasasi bo'lsa, bu sizning buzuvchi ekanligingizni anglatmaydi. Bu faqat shuni anglatadiki, siz barcha jinsiy istaklar va ehtirolarga ega bo'lgan insonsiz. Agar siz shu paytgacha buni boshdan kechirmagan bo'lsangiz, bu sizda nimadir noto'g'ri ekanligini anglatmaydi. Shunchaki buning uchun Xudoga shukur qiling va bu vasvasaga duch kelsangiz, unga qarshi turishga qat'iylar qaratib qiling.
- Masturbatsiya odatlanishni keltirib chiqaradi va zararli ehtirolga aylanishi mumkin. Masturbatsiyaga engib bo'lmas ishtiyoqni boshdan kechirayotgan odamlar ko'pincha, qanchalik xohlamaslar, bu odatdan voz kecha olmaydilar. Ko'pincha u ulardan kuchliroq bo'lib chiqadi.
- Bu o'z-o'zidan lazzatlanish natijasida paydo bo'ladigan bir lahzalik engillik undan keyin yuzaga keladigan uzoq davom etadigan tushkunlik holatiga arzimaydi. U ko'pincha uyat, o'zidan jirkanish, atrofdagilardan qo'rqish, o'zingda nimadir noto'g'ri bo'layotgandek his uyg'otadi.
- Masturbatsiya jinsiy mayllarni qondirmaydi: u jinsiy mayllarni yanada kuchaytiradi. Agar siz jinsiy olovingizni o'chirish uchun masturbatsiyaga murojaat qilsangiz, o'zingizni nazorat qilish ko'nikmalariga ega bo'lmaysiz. Bironta shirinso'z yigit qulog'ingizga mayda-chuyda gaplarni shipshitib qo'ysa-yu, o'zingizni qo'lga ololmayotgan bo'lsangiz, nimaga umid qilishingiz mumkin?
- O'z-o'zidan qoniqish odati siz va Xudo o'rtasida to'siq qo'yishi mumkin, natijada siz Uning mavjudligini his qilmay qo'yasiz. Garchi Xudo bizni hech qachon tark etmasa-da, gunoh Undan va biz sevgan odamlardan begonalik hissinu uyg'otadi.
- Turmushga chiqqaningizdan so'ng, siz "avtomatik ravishda" masturbatsiyani to'xtatmaysiz. Turmushga chiqmagan ayol sifatida orttirgan odatlarni turmush yotog'ida ham o'zingiz bilan olib yurasiz.

Iltilmos, shuni tushuningki, bir marta jinsiy istaklaringizni uyg'otsangiz (agar siz masturbatsiya bilan shug'ullana boshlasangiz, aynan shunday bo'ladi), ularni yana uxlatish juda qiyin bo'ladi. Bu kichkina maxluqlarni ovqatlantirishni boshlashingiz bilanoq, ularning ishtahasi ochiladi va ular har safar ko'proq ovqat talab qila boshlaydi. Yaxshisi, ularni umuman boqmagan maqul!

G'alaba qozonish mumkin!

Odatiy masturbatsiyadan xalos bo'lish haqiqatan ham juda qiyin, lekin baribir imkoni bor! Kristelning takidlashicha, zararli odatni o'ldirishning yagona echimi uni ochlikdan o'ldirishdir. Qizaloqligidanoq u yaxshi uxlash uchun uyqu oldidan masturbatsiya qilishga odatlangan, ammo keyinchalik o'z ishtiyoqini engishga muvaffaq bo'lgan.

"Avvaliga men shunchaki zavqlanish uchun masturbatsiya qildim, chunki bu yoqimli edi. Taxminan o'n ikki yoshimda men masturbatsiya asabiy taranglikni engillashtiradi, keyin esa bo'shashish va uxlash mumkin degan xulosaga keldim. Bu narsa asta-sekin odat tusiga kirib, meni uzoq yillar taqib etishini xayolimga ham keltirmagandim. Bu haqiqiy ehtirosga aylanganini tushunganimda, Xudo mening bu gunohga qul bo'lib yashashimni xohlamasligini angladim. Men yotoqxonaga vasvasaga qarshi turish niyatida kirardim, chunki men masturbatsiyaga bo'lgan ishtiyoqim uchun o'zimdan nafratlanardim. Yarim kechada o'rnimdan turib, yo'lakka chiqardim-da, soatlab u yoqdan-bu yoqqa yurardim. Men darhol yiqilib, uxlab qolish uchun ataylab o'zimni butunlay holdan toydirishga harakat qilardim. Bazan bunday yurish ertalabgacha davom etardi. Bu menga yomon odatdan xalos bo'lishimga yordam berdi. Oradan bir necha hafta o'tdi, endi bu vasvasaga bo'ysunishga majbur emasligimni aniq bilaman. Xudo menga echimni ko'rsatdi."

Zararli odatga qarshi kurashish og'ir va azobli bo'lishi mumkin, ammo zararli odatga o'z ustingizdan hukmronlik qilishiga yo'l qo'yib bersangiz, yanada og'irroq tuyg'u paydo bo'ladi. Shuning uchun ham Butrus shunday deydi: «Ey azizlarim, sizlardan o'tinib so'rayman, jonga qarshi kurashadigan nafs ehtirosalaridan saqlaninglar» (1 Butrus 2:11).

Tinchlik yo'li va So'z yo'li

Afsuski, biz masturbatsiya jinsiy zo'riqish yoki istakni yumshatishning maqbul usuli sifatida maqullangan dunyoda yashayapmiz. Mana, masalan, Kanzas universiteti tomonidan nashr etiladigan gazetada doimiy rukn muallifi bo'lgan jurnalist Megan Beynemning yozganlari (eh, ha! aytgancha u bir vaqtning o'zida "Pleyboy" jurnalining modeli hisoblanadi):

- Bazan yoningda o'ynashga tayyor sheriging bo'lsa ham, ishni o'z qo'lingga olishdan yaxshisi yo'q... Ammo sizning erotik kechinmangizni istalmagan guvoh, masalan, xonadosh ayol bostirsa, nima qilish kerak? Yotoqxonada masturbatsiya qilish haqiqatan ham qiyin, lekin xohish bo'lsa, yo'l topiladi, deganlaridek amallash mumkin!

Garchi bazi yaxshi niyatli masihiylar bizning nuqtai nazarimizga qo'shilmasa-da, biz masturbatsiya insonni Xudo unga tayyorlab qo'ygan mukammal niyatidan uzoqlashtirishiga qat'iy ishonamiz. Shunday ekan, tengdoshlaringiz yoki boshqa biror kishi bilan maslahatlashishdan oldin Uning fikrini bilib oling. Buning uchun Muqaddas Kitobni o'qish va ibodat qilish kerak.

Mana, masturbatsiya foydasiga tez-tez eshitish mumkin bo'lgan turli xil dalillar. Biz ularni o'z fikrlarimiz bilan kuzatib boramiz:

- *“Jinsiy azolarini o‘rganish” - normal, sog‘lom va mutlaqo begunoh mashg‘ulot.* Ehtimol, yosh bolalar uchun o‘zlarining jinsiy azolarini va ularning taktil stimulyatsiyaga reaksiyasini "aniqlash" odatiy holdir, ammo vaqti-soati kelib (jinsiy etilish davrida yoki biroz kechroq) har bir kishi o‘z jinsiylikiga masuliyatli munosabatda bo‘lishni va o‘zini tuta bilishni o‘rganishi kerak bo‘lgan yosh keladi. *“Jinsiy azolarini o‘rganish”* masturbatsiyaga aylanganda (ayollarda bu ko‘pincha boshqa odamlar haqidagi jinsiy xayollarni, bazan esa pornografiyaga murojaat qilishni o‘z ichiga oladi) u yosh mavjudotni jinsiy poklikdan mahrum qiladigan zararli odatga aylanadi. Shuningdek, biz masturbatsiyani nosog‘lom mashg‘ulot deb hisoblaymiz, chunki u odamni "yolg‘iz uchishga," kim bo‘lishidan qati nazar harakat qilishga o‘rgatadi. Masturbatsiya qilish orqali siz tanangiz va ongingizni malum zavqlarga va orgazmga erishishning malum usuliga o‘rgatasiz. Turmushga chiqqaningizdan so‘ng eringiz sizga siz o‘rganib qolgan lazzatni bera olmaydi. Natijada er-xotinlik yaqinligi sizni xafa qilishi va umidsizlikka tushirishi mumkin. Masalan, Quinn bilan shunday bo‘ldi:

"Turmushga chiqqanimdan so‘ng, jinsiy hayotimizdan ko‘nglim qoldi. Erim ham men kabi sehrli teginish qobiliyatiga ega deb umid qilgandim, lekin u ancha qo‘pol bo‘lib chiqdi. Men unga o‘zimga nima va qanday teginsa yoqishini tushuntirdim, lekin bir kuni kechqurun uni yana bir bor mashq qildirayotganimda, u menga: "Balki, hammasini o‘zing qilarsan, modomiki, mening ishim senga yoqmayotgan ekan," dedi. Bir tomondan, men o‘zimni engil his qilgandek bo‘ldim, chunki nihoyat o‘zimga yoqadigan ishni qilish imkoniyatiga ega bo‘ldim, lekin boshqa tomondan, bu uning izzat-nafsiga tegishi mumkinligini tushunaman - axir uning teginishlari meni o‘zimnikidek ehtiros uyg‘otmaydi"

Aksariyat erlar xotinini orgazm holatiga tushirishdan huzur-halovat topadilar. Agar siz masturbatsiyada muntazam ravishda jinsiy bo‘shashishni topsangiz, bo‘ljak turmush o‘rtog‘ingizni bu lazzatdan mahrum qilish xavfi bor, chunki siz unga "yordam berish" zarurligini his qilasiz.

- *U boshqa odamning ishtirokini nazarda tutmaydi, demak, gunoh hisoblanmaydi.* Garchi masturbatsiya haqiqatan ham sherigining jismoniy ishtirokini talab qilmasa-da, u odatda uning fikriy ishtirokini o‘z ichiga oladi. Orgazmga erishish uchun yolg‘iz ayol masturbatsiya jarayonida odatda turmush qurmagan odamlarni tasavvur qiladi. Bu xayoliy manzaralar sizning iffatingizga xuddi haqiqiy sherik bilan jinsiy aloqada bo‘lganingiz kabi zarar etkazadi, chunki bu bilan siz o‘zingiz uchun qandaydir fikriy ideal yaratasiz, unga hech qanday tirik mavjudot, shu jumladan bo‘ljak eringiz ham tenglasha olmaydi.

- *Muqaddas Kitobda u hatto tilga olinmagan.* Darhaqiqat, Muqaddas Kitobda "masturbatsiya" so‘zi uchramaydi, biroq unda shahvoniy fikrlar va jinsiy axloqsizlikka oid savollarga ko‘p marta murojaat qilingan. Mana, bizning fikrimizcha, masturbatsiya va u bilan bog‘liq aqliy faoliyat haqida Muqaddas Kitobda aytilgan bazi misollar:

Sizlarning orangizda fahsh, zinokorlik, ifloslik yoki xasisligu ochko‘zlik hatto tilga ham olinmasin. Bular Xudoning azizlariga munosib emas. (Efesliklar 5:3)

Shunday ekan, dunyoviy tabiatingizni, yani fahsh–zino, nopoklik, shahvat, yovuz xohishlar va butparastlikka teng bo‘lgan ochko‘zlikni yo‘q qilinglar. Mana shular sababli Xudoning g‘azabi itoatsiz bandalarning boshiga tushadi! (Kolosaliklar 3:5-6)

Sizlarning muqaddas bo‘lishingiz Xudoning irodasidir. Shuning uchun jinsiy axloqsizlik qilmang. Har biringiz muqaddaslik va izzat–hurmatga loyiq tarzda o‘zingizni tuta bilishingiz kerak. Xudoni bilmagan butparastlarday shahvoniy hirsga qul bo‘lmang (1 Salonikaliklar 4:3-5)

Biz munofiq emasmiz va deyarli har bir inson masturbatsiya bilan shug'ullanishini bilamiz. Ammo bundan masturbatsiya qilish foydali degan xulosa kelib chiqmaydi. Agar biz masturbatsiya gunoh emas, chunki u Muqaddas Kitobda tilga olinmagan degan fikrga qo'shilsak ham, baribir Pavlusning maslahatiga qaytgan bo'lamiz: "Inson xohlaganini qilishga haqi bor, lekin hamma narsa ham manfaat keltirmaydi" (1 Korinfliklarga 10:23).

Xulosa: masturbatsiya sizni qul qilib, ustingizdan hukmron bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham bu zararli odatdan umuman voz kechish kerak. Agar masturbatsiya sizni allaqachon egallab olgan bo'lsa, uning kuchli tasirini yumshatish uchun hamma narsani qilish vaqti keldi.

Istaklarni Xudoga topshirish

Ushbu bobning oxirida masturbatsiyaga qarshi so'nggi dalilni keltiramiz: o'z-o'zini qoniqtirish - bu sizning mag'rurligingizning namoyon bo'lishidir. Bu bilan Xudoga: "Sen menga nikohdan oldin jinsiy mayllarni tiyishni o'rgatmoqchisan, men esa buni istamayman. Bu juda uzoq va haddan tashqari kuchli o'z-o'zini nazorat qilishni talab qiladi. Men o'z bilganimni qilaman." Bu so'zlarda mag'rurlikning yaqqol belgisini eshityapsizmi? Ularda Xudoning qudratini va o'zingizni qo'lga olishingizga yordam berishini tan olgingiz kelmayotganini his qilyapsizmi?

Xudo sizning tanangizdagi har bir hujayrani, har bir asabni yaratgan, shunday ekan, sizni qanday his-tuyg'ular chulg'ab olganini U bilmaydimi? Xudo sizni o'zingizdan ham yaxshiroq biladi. U kutish qiyinligini biladi, lekin Uning yo'li eng yaxshi ekanligini ham biladi.

Shahvoniy istaklaringizni Xudoga olib boring va ishni o'z qo'lingizga olish o'rniga, uni Xudoning qo'lga topshiring. Bu tuyg'ular sizga Xudo tomonidan berilgan va U O'zining niyatiga muvofiq holda amalga oshmagunicha ularni ushlab turishingizga yordam berishni xohlaydi. Bir marta bo'lsa ham Unga suyanib ko'ring - shunda o'z-o'zidan qoniqish aslida hech ham qoniqtirmasligini tushunib etasiz. Agar tanangiz, aqlingiz, qalbingiz va ruhingiz pok bo'lishini istasangiz, qoniqishni o'zingizdan emas, Xudodan izlang.

“Kim turishi mumkin Egamizning muqaddas makonida?

Kim chiqishi mumkin Uning tepaligiga?

Qo'li halol, qalbi toza insonlar,

Soxta narsalarga ko'ngil qo'ymaganlar,

Yolg'ondakam ont ichmaganlar” (Zabur 23:3-4)

6-BOB

Ko'zgu do'stimizga aylanganida

Biz hammamiz ochiq yuz bilan Egamizning ulug'vorligini ko'rib turibmiz. Biz o'zgarib borar ekanmiz, yanada ulug'vor bo'lib, Egamizga o'xshagan bo'lamiz. Bularning hammasi Egamizning Ruhi orqali sodir bo'lmoqda.

2 Korinfliklar 3:18

Ko'zguga qaraganingizda kimni ko'rasiz? Do'stnimi yoki dushmani? Yaratgani uchun Xudoga minnatdormisiz yoki Uning ishiga norozilik bilan qaraysizmi? Yuzingiz, sochlaringiz, tana tuzilishingizni tanqid qilishga qancha vaqtingiz va kuchingiz ketadi? Siz o'zingizni jurnal muqovasidagi qizlar yoki dugonalarigiz bilan solishtirasizmi? O'z idealingizga etolmayotganingizni his qilsangiz, umidsizlikka tushasizmi?

Ko'zguda ko'rayotgan narsangiz yuragingizda sodir bo'layotgan voqealarga bevosita aloqador.

Balki siz oynaga tez-tez qararsiz, chunki u yerda ko'rayotgan insoningiz sizga juda yoqar? Ehtimol, boshqalar sizga eta olmaydilar deb o'ylarsiz? Balki bu yerda gap ko'zgudagi qandaydir baxtsiz aksingizda emas, balki sizning shuhratparastligingiz va manmanligingizdadir?

Bu yerda aytilgan gaplarning sizga hech qanday aloqasi bo'lmashligini istardim. Umid qilamizki, ko'zguda ko'rayotganingiz sizga yoqadi, chunki siz Xudoning ajoyib ijodlaridan birisiz. Ammo shu bilan birga, umid qilamizki, o'zingizning go'zalligingizdan boshingiz aylanmaydi. "Tashqi ko'rinishimdan nafratlanaman!" va "Qarang, qanday zo'rman!" o'rtasida nozik bir chiziq bor, siz uni topishingiz va butun umr unga amal qilishingiz kerak. Nega bu shunchalik muhim? Chunki bu ikkalasi ham sizni tez orada jinsiy buzuqlik yo'lga olib chiqadi.

O'z hayotimga nazar tashlar ekanman, bu haddan tashqari holatlar ko'pincha meni noto'g'ri joyda muhabbat izlashga majbur qilganini ko'raman. Esimda, 10-12 yoshlarimda men kichkinagina, beso'naqay mitti qizaloq edim. Men ham, albatta, nozikkina, latofatli sinfdoshlarimga havas bilan qarardim. Lekin yuqori sinfga o'tganimda tanam butunlay o'zgarib ketgandi. Bo'yim bir necha dyuymga o'sdi, ortiqcha vaznim kerakli joyga shunday joylashdiki, qomatim ancha chiroyli ko'rinish oldi. Yangi tanamga bo'lgan etiborim, ayniqsa, katta o'g'il bolalar etiboridan mamnun edim va tez orada shuni angladimki, bu yoqimli shakllarni tegishli kiyimlar yordamida qanchalik ko'p ajratsam, menga shunchalik ko'p etibor qaratilar ekan. Afsuski, o'zimga bo'lgan yangi, dadil ishonchim tanamni juda qadrlaydigan, lekin meni juda kam hurmat qiladigan yigitlar bilan munosabatda bo'lishimga olib keldi. Shunday qilib, mening jinsiy faoliyatim boshlandi. Men ularning etiborini jalb qilish uchun tanamdan foydalanardim va bu etiborni saqlab qolish uchun bundan keyin ham undan foydalanishim kerakligini his qilardim.

Keling vaqtini to'rt yil oldinga o'zgartiramiz... O'rta maktabni tugatib, kollejda o'qish uchun pul yig'ish maqsadida bir harbiy havo bazasiga ishga kirdim. Umumiy tayyorgarlik boshlangan birinchi haftadayoq o'n funt vazn tashlamagunimcha "semiz oyoqchalar" ro'yxatida turishimni bilib, dahshatga tushdim. Seni semiz deb o'ylashlariga chidab bo'lmadi va men unchalik semiz emasligimni tasdiqlovchi dalillarni izlay boshladim. Harbiy havo kuchlariga kirishdan bir necha oy oldin o'zimga jinsiy aloqadan voz kechishga vada bergan bo'lsam-da, to'satdan erkaklar shaxsiy tarkibiga diqqat bilan qarayotganimni sezib qoldim, kimdir menga etibor qaratadi degan umidda edim. Qanday bo'lsin, hali ham jinsiy jihatdan jozibali ekanligimga ishonch hosil qilishim muhim edi. Bir necha haftalik umumiy tayyorgarlik davomida men uchta turli yosh yigitning jinsiy istaklarini rag'batlantirdim, bu men yana jinsiy aloqa qilishni xohlaganim uchun emas, balki ortiqcha vazn ham xalaqit bermaydigan go'zalligimga ishonch hosil qilish uchun edi.

Bu yerda, albatta, faxrlanadigan hech narsa yo'q, lekin men sizga o'zimning sharmandali o'tmishim haqida gapirishimning sababi shundaki, siz juda muhim bir tamoyilni o'zlashtirib oling: na o'zingizga bino qo'yish, na tashqi ko'rinishingiz uchun o'zingizni qiynash yaxshilikka olib kelmaydi - ikkalasi ham jinsiy farovonligingiz uchun bir xil darajada xavfli.

Mukammal go'zallikning yangi qiyofasini chizamiz

Jamiyatimiz ayol go'zalligi haqidagi tushunchalarni qayerdan oladi? "Oyi, men juda semizman!" nomli kitob muallifi Sheron Xersh o'rta maktab o'quvchilaridan yigirma beshta qiz bilan suhbatlashar ekan, ulardan ideal qizni tasvirlab berishni so'radi. Mana ularning javoblari (kamayish tartibida):

- ozg'in
- mallasoch
- etiborga sazovor
- chiroyli
- kelishgan
- ko'kragi katta
- do'sti bor
- o'ziga ishongan
- chiroyli oppoq tishli (qavssiz!)

- o'zining mashinasi bor
- husnbuzarsiz
- o'z mobil telefoniga ega

Biz Sheronning fikriga to'liq qo'shilamiz: bunday tarifga to'liq mos keladigan yagona narsa - bu Barbi qo'g'irchog'idir. Qizig'i shundaki, bolalar o'yinchog'i qiz bolaning "chiroyli" tushunchasi haqidagi tasavvurlarini qanday shakllantirishi mumkin. Ko'plab yosh ayollarning yurak nolalariga o'n to'qqiz yoshli Kim ham qo'shiladi:

"Yoshim ulg'aygan sari ko'zgudagi aksim Barbiga emas, onamga o'xshab borardi. O'z tanam menga sotqin bo'lib tuyuldi, chunki u men istaganimdek bo'lishni istamasdi."

Kim singari, ko'plab qizlar o'z tanasi haqida amalga oshmaydigan umidlar bilan ulg'ayishadi. Go'zallik haqidagi bu soxta tasavvurlarni faqat Barbi qo'g'irchoqlari yaratmaydi. Televizion mashhurlar, kino yulduzlari, yaltiroq jurnallar muqovasidagi modellar, modelerlar va hozirgi pop-madaniyatni tashkil etuvchi boshqa ko'p narsalar ham xuddi shu ish bilan shug'ullanadi.

Lekin aslida go'zallik qayerdan paydo bo'ladi? Keling, Muqaddas Kitobga murojaat qilib, go'zallik qayerdan paydo bo'lishi va undan qanday foydalanishimiz kerakligi haqida Yaratuvchining so'zlarini ko'rib chiqaylik.

Joziba aldamchi, chiroy esa o'tkinchidir,
ammo Egamizdan qo'rqadigan ayol ko'kka ko'tariladi.
(Hikmatlar 31:30)

Sizning jozibangiz o'rilgan sochlar, oltin taqinchoqlar, chiroyli kiyimlar kabi tashqi zeb–ziynatdan iborat bo'lmasin. Ammo qalbingizdagi yuvosh va sokin ruh sizlarning so'lmaydigan ichki go'zalligingiz bo'lsin. Xudoning nazarida bunday go'zallikning qadri yuksakdir. O'tmishda Xudoga umid bog'lagan muqaddas xotinlar ham o'zlari shu yo'sinda bezanib, erlariga bo'ysunar edilar. (1 Butrus 3:3-5)

Bu yerda sochimizni chiroyli turmaklashimiz, zamonaviy kiyimlar yoki taqinchoqlar taqishimiz kerakligi aytilganmi? Albatta, yo'q. Muqaddas Kitobda aytilishicha, bunday go'zallik o'tkinchi va unga umid bog'lashning hojati yo'q. Bu oyatlar jismoniy jozibadorlik uzoqqa cho'zilmasligini, shuning uchun etiborimizni tashqi ko'rinishga qaratmasligimiz kerakligi haqidagi ajoyib eslatma bo'lib xizmat qiladi. Aksincha, Xudoga muhabbat va sidqidildan xizmat qilishda tug'ilgan go'zallik abadiy qoladi va hatto yuzingizni ajinlar qoplaganida ham ko'rinadi. Bunday go'zallik sifatli makiyajdan, eng zamonaviy soch turmagi uslubidan, yangi tortilgan jinslardan kelib chiqmaydi. U ichimizdan, Rabbimizdan xursand bo'lgan qalbimizdan chiqadi.

O'ylab ko'rishga arziydigan yana bir oyat:

"Seni oltinu kumush bilan bezantirdim, ustingga qimmatbaho shoyi, mayin zig'ir matosidan tikilgan liboslaru naqsh solingan ko'ylaklar kiydirdim. Oliy navli undan yopilgan nonlar bilan, zaytun moyi va asal bilan seni boqdim. Sen nihoyatda go'zal bo'lding, haqiqiy malikaga o'xshab qolding. Mislisiz go'zalliging bilan xalqlar orasida dong taratding, chunki Men senga bergan ulug'vorligim go'zalligingni mukammal qilgan edi. Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.

Sen esa go'zalligingga ishonding. Shuhratingdan foydalanib, fahsh yo'liga kirding. O'tgan–ketgan erkakka o'zingni berding, go'zalligingdan ularni bahramand qilding" (Hizqiyol 16:13-15).

Bu yerda gap Quddus haqida ketyapti. Hizqiyol payg'ambar buni quyidagicha takidlagan: "Xudo senga ato etgan ruhiy go'zallikni boshqa xudolarga xizmat qilish uchun ishlatyapsan! Sen boshqa xalqlarga ibrat bo'lish o'rniga ko'nglingga kelgan ishni qilasan! Ushbu parchada bugungi yosh ayollar uchun ham ibrat bor. Xudo (Hizqiyol tilidan) aytadi: " (Sening) jamoling Men senga kiygizgan ajoyib libos bilan mukammal bo'ldi." Boshqacha aytganda, mukammal go'zallik mukammal teridan, oqartirilgan tishlardan yoki jinslardan emas, balki Xudoga ishonganlarning barchasiga Xudodan inom sifatida keladi. Ko'p asrlar oldin bo'lgani kabi, Xudo bizga ruhiy va jismoniy go'zallikni beradi, shunda biz o'zimizga emas, balki Yaratuvchimizga sharaf keltiramiz. Unga jismoniy go'zalligimizga emas, balki o'z istaklarimizga (masalan, sog'lom munosabatlarda etibor va mehrga chanqoqlik) ishonishimiz kerak. U bizni ertami-kechmi tark etadi, Xudo esa hech qachon tashlab qo'ymaydi.

Kimki Xudoni sevgan qallda go'zallik tug'ilishini unutsa, uni jismiga nisbat bergan bo'ladi. Agar tanangiz tasavvuringizda yaratgan go'zallik timsoliga o'xshamasa-chi? Bu sizning o'zingiz haqingizdagi fikringizga, boshqa odamlar bilan munosabatlaringizga qanday tasir qiladi? Ehtimol, Xanna bu savolga bizdan ko'ra yaxshiroq javob bera olar.

Yigitingizning ko'zlaridagi go'zallik

O'n to'qqiz yoshli Xanna ortiqcha vazndan aziyat chekardi va uning so'zlariga ko'ra, u o'zini umuman go'zal his qilmaydi. Biroq, uning yigiti bor va bu holat unga yoqimsiz his-tuyg'ularni engishga yordam beradi. Chindan ham, agar Mitch uni uchrashish uchun etarli darajada chiroyli deb hisoblasa, ehtimol, u chindan ham unchalik xunuk emasdir? Xanna do'stining paydo bo'lishi bilan salbiy fikr va o'zi bilan bog'liq og'riqdan xalos bo'lishiga ishonardi, ammo vaqt o'tishi bilan u adashgani malum bo'ldi. U bizga quyidagilarni aytib berdi:

"Mitch bilan uchrashib yurishimizga taxminan bir yil bo'ldi. Avvaliga u juda mehribon edi va men bilan juda yaxshi munosabatda bo'ldi, lekin keyinchalik bu oltin kunlardan bitta xotira qoldi. Hammasi, agar men uni sevganimda, u bilan birga yotishni xohlardim, degan tasodifiy gapdan boshlandi. Men, albatta, uni sevardim va javoban uning sevgisini juda xohlardim, shuning uchun biz u bilan jinsiy aloqa qila boshladik. Keyin u mendan hisoblarini to'lashda yordam berishimni so'radi, chunki u kollejda o'qirdi, men esa ishlardim. Men yana unga o'z muhabbatimni isbotlashga majbur bo'ldim, buning ustiga u meni sevmay qo'yadi, deb juda qo'rqardim. Keyin u menga tashqi ko'rinishim haqida har xil yoqimsiz gaplarni ayta boshladi: "Agar sen bilan odamlarga ko'rinishimni istasang, o'zingni tartibga sol... Ovqat eyishni bas qil - do'stlarim meni shunday semiz ayol bilan ko'rishsa, xursand bo'laman deb o'ylaysanmi?.. Qanaqa kiyim kiyib olding? Durustroq kiyinmasang, o'zimga boshqa qiz topib olaman. Ehtimol, bularning barchasiga boshqa hech kim menga etibor bermasligidan qo'rqqanim uchun chidagandirman - bunday semiz kimga ham kerak? Xo'sh, agar muhabbatning bahosi shunday bo'lsa, demak, men uni to'layman. Menimcha, usiz yashay olmayman.

Biz Xannadan nima uchun Mitchsiz yashay olmayman, deb o'ylayotganini so'radik. U garchi u unga yomon munosabatda bo'lsa ham o'zining yigiti borligini tan olish juda muhimligini aytdi. Ammo savol tug'iladi: agar Xanna o'ziga bunchalik ishonmaganida, nahotki o'ziga nisbatan bunday munosabatga yo'l qo'ygan bo'lardi? Agar u o'zini Xudoning aziz va go'zal ijodi deb bilganida, sevilish uchun unga o'ynash kerak bo'larmidi? Yo'q.

Albatta, ilgari aytganimizdek, o'ziga past baho berish yosh ayolning jinsiy aloqaga kirishishining yagona sababi emas. Baza uni bunga butunlay qarama-qarshi narsa undaydi.

Go'zallik sirpanchiq yo'lga boshlaganda

Retta bir nechta go'zallar paradida qatnashib, ko'plab sovrinlarni qo'lga kiritdi, ammo o'z ustidan g'alaba qozonishi unga ancha qiyinroq bo'ldi. U yillar davomida asab anoreksiyasidan aziyat chekardi - ovqatlanishning buzilishi, bu odamning etarli tana vaznini saqlashdan bosh tortishi va semirishdan vahimaga tushishdan qo'rqishi bilan ifodalanadi. Retta shunday deb hikoya qiladi:

"Men bolaligimdan go'zallar paradlarida qatnashganman va doimo nozik va nafis bo'lib qolish uchun juda ko'p harakat qilganman. Men ochlikdan o'zimni qiynardim, borgan sari ozib borardim, lekin bularning hammasi etarli emas edi. Ozg'inlik mening ikkinchi "men"imga aylandi va men har doim to'satdan semirishni boshlasam nima bo'lishini o'ylashdan qo'rqardim.

Doim to'yib ovqatlanmaslik odatim menga nafaqat o'zimni to'liq nazorat qilish tuyg'usini berdi, balki ajoyib tashqi ko'rinishim bolalarni o'ziga jalb qilishini ham angladim. Men Josh ismli bir masihiy bola bilan uchrasha boshladim. U meni juda hurmat qilar va hech qachon o'ziga erk bermasdi. Bir kuni do'stlarim bilan toqqa bordik va u yerdan Joshga qo'ng'iroq qilib, uni hamroh bo'lishga taklif qildim.

U yerda mening alohida xonam bor edi va u kelishga vada berganida, eslayman, men uni buning uchun "mukofotlamoqchi" bo'ldim. O'sha paytga kelib biz yarim yildan beri uchrashib yurardik va men o'zimning eng yaxshi holatimda edim - nozikkina va nazarimda, g'ayrioddiy jozibali edim. Men o'sha kechaning o'zidayoq unga bokiraligimni hadya etishga qaror qildim, bu bilan uni ham bokiralikdan mahrum etishimni xayolimga ham keltirmadim. Shunday go'zal tuyg'u tasirida shunday dahshatli ishni amalga oshirish mumkinligiga haligacha ishonmayman."

Rettaning hikoyasi shuni ko'rsatadiki, o'zingizning rad etib bo'lmasligingizni anglash sizni ichki

jozibasizligingizni isbotlovchi xudbin harakatga undashi mumkin - axir qalb go'zalligi tana go'zalligidan ancha muhimroq. Darvoqe, ham ichki, ham tashqi tomonlama go'zal bo'lish mumkin-ku...

Go'zal bo'ling

Avvaliga biz bu bobda yosh ayolning vazni qancha bo'lishi kerakligi ko'rsatilgan jadvalni joylashtirmoqchi bo'ldik, lekin keyin bu fikrdan qaytdik. Nima uchun? Chunki biz sizning go'zalligingiz hammomdagi tarozining mili qaysi sonda to'xtashiga bog'liq degan afsonani qo'llab-quvvatlamoqchi emasmiz. Haqiqiy go'zallik tashqi parametrlar bilan belgilanmasa-da, tashqi ko'rinishingizga etibordan chetda qoldirmaslik kerak, chunki siz baribir Xudoning suratida yaralgansiz. Eng yaxshi ko'rinish va o'zingizni qanday his qilishning siri oddiy: sog'lom ovqatlanish va tanangizni mashq qildirish kerak. Agar siz shunchaki kerakli miqdorda kerakli ovqatni istemol qilsangiz va to'g'ri metabolizm va mushak tonusini saqlab qolish uchun mashq qilsangiz, tanangiz o'z-o'zidan siz uchun optimal bo'lgan vaznga ega bo'ladi.

Ammo sizning go'zalligingiz mukammal vaznga erishguningizcha "kutish holatida" bo'lmaydi. Siz o'zingizni har qanday vaznda ham chiroyli his qilishingiz mumkin, yoki o'zingizni baxti tarozining miliga bog'liq bo'lgan kambag'al, xunuk his qilishingiz mumkin - va siz uni orzu qilgan raqamingizga etkaza olasizmi yoki yo'qmi, hali nomalum, agar siz buni uddalasangiz ham, bu raqam ham sizni qoniqtirmasligi mumkin. Shuning uchun o'zingiz tanlang.

Bu haqda yaxshilab o'ylab ko'ring. Tanishlaringiz orasida, shubhasiz, jinsi shimlari ajoyib o'tiradigan qiz topiladi, lekin uning o'zi shu qadar xudbin yoki butunlay buzuq odamki, "chiroyli" so'zi unga umuman mos kelmaydi. Boshqa tomondan, siz, ehtimol, modellar uyining agentlari ostonasini bezovta qilmaydigan qizni bilasiz, lekin u juda ajoyib inson, bundaylar kam.

Shunday ajoyib qizlardan biri bilan tanishmiz. Uning ismi Treysi, yoshi yigirmada.

Mano bilan erkalash

Uning bo'yi besh fut-u o'n dyuym (177 sm.), egnida o'n oltinchi o'lchamli (56) kiyim, lekin shu o'lchamda ham Treysi har qanday modeldan, hatto eng nafis, hatto papiros qog'ozdek yupqa modeldan ham chiroyli. U yassi qorin bir umrlik baxt garovi degan afsonaga ishonish uchun juda aqlli va tashqi ko'rinishiga ortiqcha etibor bermaydi (garchi u juda chiroyli bo'lsa ham). Siz hech qachon Treysining sonlari kattaligidan shikoyat qilganini yoki bolaligida o'tkazilgan operatsiyadan keyin ko'kraklarida qolgan katta chandiqlardan noliganini eshitmaysiz.

Uning ichki go'zalligi Masihning beqiyos go'zalligini aks etadi. Doimiy optimizm va xayrixohlik, Xudoga xizmat qilish va odamlarga yordam berish istagi bu yosh ayolni mutlaqo go'zal qilib qo'yadi.

Treysi kosmetolog bo'lishni va o'z salonini ochishni orzu qilsa-da, boshqa ayollarga o'zining tabiiy go'zalligini kashf etish va takidlashda yordam berishga intiladi, ularni Xudo yaratganidan xursand bo'ladi va nafaqat jismoniy, balki ruhiy holatini ham yaxshi tomonga o'zgartiradi. Shuning uchun u ayollar klinikasining mijozlariga xizmat qiladi: ularning sochlarini yuvadi va tartibga keltiradi, manikyur qiladi, qisqasi, ular kasalxona to'shagiga bog'lab qo'yilganiga qaramay, o'zlarini jozibali his qilishlariga yordam beradi. Mana buni mano bilan erkalash deyiladi!

Treysi haqiqiy go'zallik ichkaridan kelishini va bu oxir-oqibat Xudoni ulug'lashini tushundi, chunki odamlar biz bilan muloqot qilib, Uni bilishga intilishadi. Masihni sevib, Unga sidqidildan xizmat qilsangiz, Treysi kabi chinakam go'zallik manbaini kashf etishingiz mumkin.

Hozir esa sizga boshqa bir go'zal qizni tanishtiramiz. Uning ismi Tina. Bir paytlar u ko'zguda o'z aksini ko'rganda juda xafa bo'lardi, lekin endi u Yaratganning u haqida aytganlariga ishonib, o'z go'zalligiga qanday ishonish mumkinligining tirik guvohiga aylandi.

Yaratuvchidan kompliment

O'smirlik davrida Tina yog' bezlarining kuchli yallig'lanishidan aziyat chekdi. Husnbuzarlardan nafaqat yuzida, balki qalbida ham chuqur chandiqlar qoldi. Tengdoshlari uni ayovsiz masxara qilishardi, ustidan kulishardi va Tina o'zini xunuk ekanligiga ishontirgandi.

Faqat o'n sakkiz yoshga to'lganida, masihiy yoshlar bilan yozgi oromgohga borgach, asta-sekin bu noto'g'ri tushunchadan xalos bo'la boshladi va o'ziga boshqacha qaray boshladi. Mana uning oromgohdan qaytganidan bir necha hafta o'tgach, kundalik daftariga yozgan yozuvi:

«Qo'shiqlar 4:7 da shunday deyiladi: «Har jihatdan go'zaldirsan, sevgilim, Senda hech qanday nuqson yo'q». Xudo meni go'zal deb biladi! Quyosh, oy va yulduzlarni yaratgan Koinotning Yaratuvchisi meni go'zal deb ataydi! Bu so'zlarning hayratlanarli manosi hech qachon tushunmaganman. Agar Xudo birgina So'z bilan - dunyo paydo bo'ldi, demak, Uning Kalomi hokimiyatdir. Xudo: "Yorug'lik bo'lsin!" - dedi-yu, yorug'lik bo'ldi, demak, u meni go'zal deyaptimi, demak, shunday. Ehtimol, men o'zimga Uning ko'zi bilan qarashga darrov o'rganmasman, lekin Xudo shunday degan ekan, demak, bu haqiqat. Agar Xudo meni chiroyli deb bilsa, demak, odamlar mening tashqi ko'rinishim haqida nima deb o'ylashlari unchalik muhim emas."

Bugungi kunda odamlar har qadamda plastik jarrohlik, liposaktsiya va rekonstruktsiya qilishning turli xil "ekstremal" usullari yordamida o'zlarining tashqi ko'rinishlarini "tuzatishayotgan" bir vaqtda yosh ayollarga Tina kabi o'zlariga Xudoning ko'zi bilan qarash vaqti keldi. Zabur 138: 13 - 18 dagi mana bu so'zlarga etibor bering:

Ichki azolarimni Sen yaratgansan,
Onamning qornida menga shakl bergansan.
Senga shukrona aytaman.
Axir, qanday ajoyib qilib yaratilganman!
Sening barcha ishlaring naqadar ajoyib,
Buni men juda yaxshi bilaman.
Men pinhon yaratilganimda,
Yerning tubida mahorat ila to'qilganimda,
Suyaklarim Sendan yashirin emas edi.
Ko'zlaring ko'rgandi homila ekanimni.
Menga ajratilgan kunlar kelmasdan,
Hammasi kitobingga yozilgandi.
Sening niyatlaring, ey Xudo, menga qadrlidir,
Niyatlaringning son-sanog'i naqadar ko'pdir.
Qumdan ham ko'p bo'lardi agar ularni sanaganimda,
Uyg'onganimda qarasam, hamon men bilan ekansan birga.

Ushbu bobni yakunlar ekanmiz, siz hurmat qiladigan va faxrlanadigan ayollar haqida o'ylab ko'rishingizni istardik. Muqaddas Kitobdagi qahramonlarni, taniqli tarixiy shaxslarni yoki hayotingizda alohida o'rin tutgan ayollarni eslang va sizda kuchli taassurot qoldirganlarning ro'yxatini tuzing. Shundan so'ng sizga quyidagi savollarni berishga ruxsat eting.

Hikoya siz haqingizda nima deydi?

Siz ro'yxatingizga kiritgan ayollar sizni nima bilan hayratga solganlar? Ularning har biri ijtimoiy hayotga yoki shaxsiy hayotingizga qanday hissa qo'shgan? Ularning nimasi sizni faxrlantiradi - jismoniy jozibasimi, vaznimi, xatti-harakatlarining go'zalligimi yoki boshqalarning hayotiga qo'shgan hissalarining qadr-qimmatimi?

O'zingiz haqingizda nima deya olasiz? Siz nima bilan odamlarning yodida qolishni istardingiz? O'z tashqi ko'rinishi va vazniga mahliyo bo'lgan inson sifatidami yoki odamlarni sevish, ularga xizmat qilish ishtiyoqidagi inson sifatidami? Hayotingizni nima bilan to'ldirishni xohlaysiz - oyna oldida vaqt o'tkazish bilanmi, bugun qanday ko'rinishingiz va siz bilan solishtirganda boshqalar qanday ko'rinishi haqida doimiy qayg'urish bilanmi yoki siz orqali Xudoning sevgisini anglashi mumkin bo'lgan odamlarga g'amxo'rlik qilish bilanmi?

Iso Masihning: "Yaqinimizni o'zimizni sevganday seveylik", - degan so'zlarini yodda tuting (Matto 22: 39).

Shundan kelib chiqib, boshqa odamlarni chinakamiga sevish uchun, avvalo, har kuni ertalab bizga oynadan qarab turgan insonni sevimiz kerak. Nafrat va shuhratparastlik o'rtasidagi oltin o'rtalikni izlang. O'zingizga: "Men o'zimni sevaman, chunki meni Xudo yaratgan va men kundan-kunga go'zalroq bo'lib boryapman, chunki men Isoga ko'proq o'xshayman," deb takrorlang.

Ko'zgu sizning do'stingizga aylanganida va siz asta-sekin haqiqatan ham muhim narsalar haqida o'ylashni o'rganganingizda, sizda kino yulduzlari va mashhur modellarning tushiga ham kirmagan go'zallik porlaydi. Hayotingizda tarozidagi qadrlil raqamdan ko'ra ko'proq quvonch bag'ishlaydigan maqsad borligini ko'rasiz.

Jamolingga shoh maftun bo'lgandir, Tazim qil unga, u xo'jayiningdir.

Saroyda malika naqadar go'zal! Liboslari oltin bilan bezatilgan.

Naqshli libosida uni shoh huzuriga olib kelishadi, Ortidan qizlar, uning dugonalari ergashib keladi.

Ular shod-xurramlik ichra keladi, Shohning saroyiga ular kirib keladi.

Zabur 44:12, 14-16

7-BOB

Haqiqatga taqqoslab

Aksincha, sirli va uyatli ishlar qilishdan, makr-hiyla ishlatishdan bosh tortib, Xudoning kalomini buzmay gapiramiz. Haqiqatni ochiq-oydin aytib, Xudoning huzurida o'zimizni boshqa odamlarning hukmiga topshiramiz.

2 Korinfliklar 4:2

2002 yil 22 mayda Nyu-York Tayms jurnalisti Kori Kilganon shunday deb yozgan edi:

Kunduzi u Kristina Long, mehrobda xizmat qiluvchi o'n uch yoshli qizaloq va Denverdagi Avliyo Pyotr Rim-katolik maktabining muxlislar jamoasi sardorlaridan biri edi. Direktor uni "namunali xulq-atvorli yaxshi o'quvchi" deb tariflaydi.

Ammo kechqurunlari, tergov paytida malum bo'lishicha, u Internetga "qaynoqqina qizaloq" nomi bilan va "Hamma narsa, hech bo'lmaganda bir marta" shiori ostida chiqqan. Uning yotoqxonasi kompyuter turardi; u muntazam ravishda turli xil chatlarga kirar va katta yoshli erkaklar bilan tanishib, keyinchalik ular bilan jinsiy aloqaga kirishgandi. "Oilaviy ahvoli" bo'limida u shunday yozgan edi: "Balki yolg'izdir, balki yolg'iz emasdir."

Dushanba kuni ertalab Kristinaning jasi Grinvichga olib boradigan qishloq yo'lidan tashqaridagi chuqur jarlikdan topildi. Malum bo'lishicha, qizaloq chatlardan birida tanishgan yigirma besh yoshli grinvichlik erkak tomonidan bo'g'ib o'ldirilgan.

Sol Dos Reys Kristina bilan bir necha marta jinsiy aloqada bo'lgan, juma kuni tunda esa uni o'ldirib, jasadini jarga tashlab yuborgan."

Agar siz: "Men bilan bunday bo'lishi mumkin emas!" deb o'ylasangiz, unda o'ylab ko'ring: "Nega bunday bo'lishi mumkin emas?" Agar siz Internetda notanish odamlar bilan muloqot qilsangiz, unda biror

yomon voqeaga duch kelmasligingizga kafolat bormi? Yoqimli suhbatdoshingiz haqiqatan ham sizga faqat yaxshilik tilaydi, degan fikrni qayerdan oldingiz? Siz uning haqiqatan ham o'zini kim deb tanishtirayotganini qayerdan bilasiz? Nima uchun bu odam sizning ozgina etiboringizga, ayniqsa, vaqtingiz va hissiy quvvatingizni qurbon qilishga arziydi, deb o'ylaysiz? Siz qayerdan bilasiz - u ommaviy qotil, ommaviy zo'ravon yoki bolalar pornografiyasini tarqatuvchi bo'lib chiqishi mumkinmi?

Haqiqiy emas

Internet orqali tanishuv ko'pchilik uchun xavfsiz ko'ngilxushlik bo'lib tuyuladi. Aslida, bu unchalik to'g'ri emas. Kibernetik munosabatlar ko'pincha siz bolaligingizda o'qigan sehrli ertaklar kabi real hayotdan uzoq bo'ladi. Albatta, Zolushka yoki Oppog'oyga o'xshagan go'zal shahzodani sevib qolish, unga turmushga chiqib, u bilan uzoq va baxtli yashash ajoyib bo'lardi. Ammo aslida hammasi boshqacha bo'ladi va bu tasodifiy emas.

Zolushka bilan Oppog'oy o'z shahzodalariga tegishga rozilik berayotganlarida (albatta, ularning go'zal va maftunkor ekanliklaridan tashqari) shahzodalar haqida nimalarni bilishardi? Umuman hech narsa. Nol. Agar o'shanda siz, kichkina qizaloq uchun bu narsa maftunkor tuyulgan bo'lsa, endi siz etarlicha ulg'ayib, aqlli bo'lib qoldingizki, bunday ertaklar g'irt xomxayol ekanligini, ularni haqiqatga aylantirishga urinishlar esa buyuk muhabbat tarixidan ko'ra ko'proq fojiaga aylanishini tushunib etdingiz.

Internetda real vaqt rejimida yozishmalar qanchalik mashhurligini bizziz ham bilasiz. Siz buni bilishingiz kerak, chunki agar o'zingiz hech qachon tanish qidirib internetga kirmagan bo'lsangiz ham, bu bilan shug'ullanadigan tanishlaringiz bor. Ehtimol, siz yoki tanishlaringiz bu o'yin-kulgi bilan shu qadar chuqur shug'ullangansizki, hatto "kiberseks," yani Internet orqali jinsiy aloqa mavzusida suhbatlar olib borgandirsiz.

Jon Eldrij o'zining "Istak yo'li" kitobida kibermakonga bo'lgan bu ommaviy qiziqish haqida shunday yozadi:

"Kibernetik munosabatlar ideal erkak yoki ayolni izlashni yangi bosqichga olib chiqdi, chunki ular jozibali sirlilikni uzoqroq saqlab qolish imkonini beradi. Elektron o'ynashning og'zidan hech qachon hid kelmaydi, terminaldan tanosil kasalligi yuqmaydi, bundan tashqari, bu aloqangiz haqida hech kim hech qachon bilmaydi."

Buning nimasi jozibali?

Nega odamlar romanlarni "jahon o'rgimchak to'ri"dan qidirishadi? Virtual munosabatlar nima uchun bu qadar jozibali?

Internet orqali tanishuv haqida eshitgan turli fikrlarimizni keltirib o'tamiz va ularga izoh beramiz.

<i>Virtual munosabatlar</i>	<i>Real munosabatlar</i>
Fantaziyaga asoslangan	Real hayotga asoslangan
Ko'p harakatni talab etmaydi	Ma'lum bir harakatlarni talab etadi
Atrofdagilarga hisobot berish shart emas	Atrofdagilar ko'z o'ngida rivojlanadi
Soxta sirlilik va da'vogarlikni nazarda tutadi	Yaxlitlik va o'zaro ishonchni talab etadi
Shaxs haqida bir tomonlama tasavvur beradi	Shaxs haqida to'liq tasavvur beradi

7.1 Jadval

- *Notanish odam bilan yaqinlashish juda qiziqarli!* Roziman - yangi tanishlar orttirish qiziqarli bo'lishi mumkin, lekin o'zingizni aldamang. Qachondan beri klaviatura oldida o'tirib, bosma xabarlar almashish "yaqinlashish" deb ataladigan bo'lib qoldi? Hozirgina tanishgan odamingiz haqida yangi malumot olish yaqinlashishni anglatmaydi: bu shunchaki yangilik. Yaqinlashish boshqa odamning ichki dunyosini bilishni nazarda tutadi, bu faqat uzoq va yaqin muloqotda mumkin bo'ladi. Siz yigit bilan tanishasiz va u bilan kompyuter orqali soatlab suhbatlashasiz - bu haqiqatan ham qiziqarli va yoqimli bo'lishi mumkin. Ammo ehtiyot bo'ling: qizg'in muloqotni intim muloqot deb qabul qilmang. Yangilik o'tib ketishi bilan intensivlik pasayadi; intimlik esa insonni qancha uzoqroq bilsang, shuncha gullab-yashnaydi.
- *Onlayn rejimda men o'zim xohlaganimdek bo'lishim mumkin.* Bu javob o'zini etarli darajada hurmat qilmaslikni ko'rsatadi. Siz o'zingizning haqiqiy "men"ingiz hech kimni qiziqitirmasligidan qo'rqasiz, shuning uchun o'zingizni aslingizdan ko'ra boshqacha, jozibaliroq yoki kulgiliroq qilib ko'rsatasiz. Ammo siz o'zingiz bo'lmasangiz, o'zligingizni yashirsangiz yoki o'zingizga xos bo'lmagan rolni o'ynasangiz, yigitning his-tuyg'ularidan nima zavq olasiz? Axir u sizni tanimaydi-ku. Darvoqe, shuni unutmangki, u ham o'zini istagan odam qilib ko'rsatishi mumkin!
- *Ko'rinishim qanday bo'lishidan qati nazar, men bilan qiziqishlarini yoqtiraman.* Faqat u hech qachon sizning tashqi ko'rinishingizga qiziqmaydi, deb o'ylamang! Erkaklarning tabiati shunaqa - ular sizning tashqi ko'rinishingizga qiziqishadi. Unda nima qilasiz? Bunday voqealarga aralashib nima qilasiz? Qarmoqqa ilinib qolmang!
- *Men shunchaki yigit bilan suhbatlashishni yoqtiraman, jismoniy yaqinlikni uzoqdan nishonga olmayman.* Avvaliga siz u bilan jismoniy yaqinlik haqida o'ylamasligingiz mumkin, lekin unga qalbingizni to'kib solib, u sizga bergan har bir satrdan zavqlanib, siz, albatta, sof hissiy muloqot chegarasidan chiqishni xohlaysiz. Unga qalbingiz bilan bog'lanib, u bilan uchrashish, uning quchog'ida bo'lish, lablarining tamini his qilish ehtiyojini his qilasiz, u yerda esa tobora tezroq pastga, jinsiy kelishuvga tushib borasiz.

Bizningcha, ayollarni internet orqali tanishishga nafaqat o'zini past baholash, balki yana ikkita holat ham undashi mumkin:

- *Yolg'izlik hissi.* Agar sizda yaqin do'stlar umuman yo'qdek tuyulsa va yosh yigitga ega bo'lish umidi kam bo'lsa, siz o'zingizning kichkina dunyongizdan tashqarida, ulkan "butunjahon o'rgimchak to'ri"da o'z baxtingizni sinab ko'rishni xohlaysiz. Ammo internet aloqalari ko'pincha haqiqiy munosabatlar uchun mo'ljallangan quvvatni tortib olgani sababli, siz to'ldirmoqchi bo'lgan chelakda teshik ochasiz va yanada mazmunli do'stlik o'rnatish imkoniyatini qo'ldan boy berasiz.
- *Poda tuyg'usi.* "Hamma shunday qiladi" degani bu to'g'ri yoki xavfsiz degani emas. Agar dugonalarigiz yigitlar bilan internetda tanishib qolishsa, ularga ushbu kitobni o'qishga imkon bering va ayniqsa, mana bu bobni o'qishni maslahat bering. Do'stlaringizning yomon yo'lga kirib ketishiga yo'l qo'yishdan ko'ra, ularga sog'lom munosabatlarga olib boradigan to'g'ri yo'lni topishga yordam bering.

Bir umrlik saboqlar

Biz, albatta, kibermakonda o'rnatilgan barcha tanishuvlar yomonlik bilan tugaydi, demoqchi emasmiz, ammo virtual munosabatlar haqiqiy munosabatlarga qaraganda ko'proq boshi berk ko'chaga olib kiradi. Ushbu kitob ustida ishlash jarayonida biz 120 nafar yosh ayol bilan so'rovnoma o'tkazib, ularning internetdagi muloqot tufayli nosog'lom munosabatlarga tortilgan-tortilmaganligini aniqladik. Biz ulardan o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishni so'radik va ko'pi bilan to'rt-beshta javob olamiz deb o'ylagan edik. O'n baravar ko'proq javoblar olgach esa juda hayratda qoldik! Albatta, biz olingan barcha javoblarni bu yerga sig'dira olmadik, ammo Amber, Eymi va Tiffani hikoyalarida ham ko'plab tengdoshlaringizning dildan do'st izlab internetni kezib yurgan achinarli tajribasi bir tomchi suvdek aks etgan.

O'n uch yoshida Amber ruhiy tushkunlikni boshdan kechirdi, ammo tez orada internet orqali najot topdi. U shunday deydi: "Men o'z qiyofamni o'zim o'ylab topishim va yaratishim mumkinligini angladim va hech kim mening o'tmishimni ham, qandayligimni ham bilmaydi." Yigitlar bilan suhbatlashar ekan, Amber soatlab kompyuter oldida o'tirardi, shuning uchun ota-onasi hatto xavotirga tusha boshlashdi. Amber ularga yolg'on gapirib, ulardan yashirincha onlayn rejimga chiqa boshladi.

"Bir kuni, shanba kuni, ota-onam uyda yo'qligida, men internetda ketma-ket sakkiz soat o'tirdim! Men tobora ko'proq odamlar bilan muloqotga kirishdim, bazilari bilan hatto telefon orqali gaplashdim. Vaqt o'tishi bilan haqiqiy odamlar meni unchalik qiziqtirmay qo'ydi va men faqat bir narsani - internetdagi do'stlarim bilan muloqot qilishni xohlardim. Ular menga qiziqarliroq tuyuldi, o'zimni mendan boshqacharoq qilib ko'rsatish o'zimga ham quvonchliroq tuyuldi. Internetda tanishgan bir yigitga shunchalik qiziqib qoldimki, u bilan uchrashishga qaror qildim. Men Kaliforniyaga qarindoshlarimni ko'rgani bordim, u yaqin atrofda yashagani uchun uchrashuv joyi va vaqtini kelishib oldik. Men amakivachcham bilan keldim, uni uzoq kutdik, lekin u kelmadi. Xudo menga rahm qildi, deb o'ylayman, chunki bu yigit qotil yoki zo'ravon bo'lishi mumkin edi. Axir men uning o'zi haqida ham, fel-atvorining o'ziga xos xususiyatlari haqida ham hech qanday tasavvurga ega emasdim-ku."

O'zini aslidan boshqacha ko'rsatib, notanish odam bilan uchrashishga rozilik berib, qanday xavfli o'yin boshlaganini Amber endi tushunib etdi. Uning aytishicha, bu xayoliy muloqot u to'lagan narxga arzimagan va vaqt behuda sarflangan.

Eymi ham Zak bilan bo'ydoqlar va turmushga chiqmaganlar uchun mo'ljallangan masihiy chatda tanishgan. Avvaliga u qizga Xudoni astoydil izlayotgan ajoyib yigit bo'lib tuyuldi. Ammo voqelik unga hushyor torttiruvchi tasir ko'rsatdi. Eymi shunday deb hikoya qiladi:

"Biz Zak bilan tobora uzoqroq muloqot qila boshladik, keyin esa bir necha soat ketma-ket suhbatlashib o'tirdik. Bir necha haftadan so'ng u menikiga mehmonga kelishga qaror qildi. Men uni ko'rganimda, u menda kutganimdek taassurot qoldirmadi. Agar ko'chada uchratib qolsam, unga qayrilib ham qaramasdim. Ammo u mening mehmonim bo'lgani uchun men unga shaharni ko'rsatdim va o'z jamoatimga olib bordim. Men o'ylardim: "Nega u bu yerda? Men endigina o'n sakkizga kirdim va hali bunday jiddiy munosabatlarga tayyor emasman!" Bu tashvishli fikrlarga, hatto do'stlarim va qarindoshlarimning ogohlantirishlariga qaramay, men u bilan yaqinlashdim va hatto ancha uzoqqa borishiga yo'l qo'ydim. To'g'ri, o'shanda o'zimni juda yolg'iz his qilardim, shuning uchun kimdir menga etibor berayotganini ko'rish yoqimli edi. Biz u bilan haqiqatan ham jinsiy aloqa qilmagan bo'lsak-da, yaqinlashib qolgan edik. Uchrashganimda butunlay jozibasiz bo'lib ko'ringan odamga o'zimni topshirib qo'yishimga sal qoldi, degan o'ylardan ham qo'rqaman.

Eymi bundan buyon ham cheksiz fantaziya qo'yadigan chigalliklarga tushib qolmaslik uchun haqiqiy munosabatlarni saqlab qolishga qaror qildi.

Tiffani Ueys bilan virtual muloqot qilish uchun ikki yil vaqt sarfladi, shundan so'ng bu munosabatlar u kutgan yaqin do'stlikka aylanmaganini tan olishga majbur bo'ldi. Bo'sh vaqtining asosiy qismini oilasi va do'stlari bilan o'tkazish o'rniga Ues bilan muloqot qilish uchun kompyuter oldida o'tkazganligi sababli, ular bilan munosabatlar ham boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Tiffani quyidagilarni tan oladi:

"Ues meni maqtovlarga ko'mib tashladi va bu yigitdan bunday gaplarni eshitish menga juda yoqdi, ayniqsa, otam mening xatti-harakatlarimdan norozi bo'lib, meni qo'pol va asabiy deb hisoblagan bir vaqtda bu juda yoqardi. Ammo Ues hech qachon mening qo'polligimdan shikoyat qilmagan, chunki u hech qachon bunday holatga duch kelmagan. Asta-sekin men barcha do'stlarimdan ajralib ketdim, chunki men butun vaqtimni internetda o'tkazadigan bo'ldim va faqat Ues bilan muloqot qilardim. O'qishni butunlay tashlab qo'yganim uchun baholarim ham yomonlashdi.

Bir necha oy o'tgach, Ues menga bo'lgan qiziqishini yo'qotishidan qo'rqa boshladim, chunki u uchratgan boshqa qizlar haqida gapira boshladi. Men unga o'zimga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash uchun qayerga borishim va nima qilishim haqida gapira boshladim. Shunday bo'lsa-da, u o'ziga "haqiqiy" qiz kerak degan qarorga kelgach, muloqotimiz asta-sekin barbod bo'ldi.

Yozishmalarimiz to'xtaganida, ichimda dahshatli bo'shliqni his qildim, chunki men u bilan turmush quramiz deb o'ylashga odatlanib qolgan edim. O'zimni juda yomon his qildim. Bundan tashqari, oilamdagi buzilgan munosabatlarni deyarli bir yil davomida tiklashga to'g'ri keldi, Uesga ishqiboz bo'lgan vaqtimda do'stlarimni ham yo'qotgandim."

Ehtimol, ko'pchiligingiz Amber, Eymi va Tiffani kechinmalarini yaxshi tushunarsiz, chunki ular sizning Internet orqali yoshlar bilan muloqot qilish tajribangizga mos keladi. Agar shunday bo'lsa, biz sizga yordam berishni istardik...

"O'rgimchak to'ri"dan qutulmoq

Agar siz allaqachon nosog'lom virtual munosabatlarga bog'lanib qolgan bo'lsangiz yoki bu siz bilan sodir bo'lishi mumkinligini his qilayotgan bo'lsangiz, "jahon o'rgimchak to'ri"dan qanday qutulish bo'yicha bir nechta yaxshi maslahatlarni qabul qiling.

- Maxfiy va hech kimga ko'rinmaydigan elektron pochta qutisini yaratmang. Siz, albatta, begonalar sizning virtual olamdagi hayotingiz va tarmoqdagi muloqotlaringizdan xabardor bo'lishga haqli emas, deb o'ylashingiz mumkin, lekin unutmang: sirlar yo'q joyda yolg'onga ham o'rin yo'q. Kristina (kompyuterdagi sherigi tomonidan o'ldirilgan qiz) kabi ikki tomonlama hayot kechirish vasvasasiga berilmang. O'zining sirlari uchun u nihoyatda qimmatga tushdi.
- Hech qachon shaxsan uchrashmagan odamlar bilan kompyuterda muloqot qilmang. Ularning shaxsiyati va xatti-harakatlari haqida to'liqroq tasavvurga ega bo'lish uchun haqiqiy odamlar bilan haqiqiy munosabatlarni saqlab qoling.
- Agar siz muloqotni to'xtatgan odam muloqot vositasi yoki elektron pochta orqali virtual makoningizga bostirib kirishda davom etsa, "blok qilish" tugmasini bosing. Javob berishga majbur emasligingizni unutmang. Sizning sobiq suhbatdoshingiz vaqt o'tishi bilan shamani tushunadi yoki darhol sizga bo'lgan qiziqishini yo'qotadi. Bu qo'pollik emas, balki shunchaki o'zingizni himoya qilish usuli.

Haqiqiy yaqinlikka intiling

Ehtimol, siz virtual munosabatlar haqiqiy munosabatlardan ancha yaxshi ekanligini bir necha bor eshitgan bo'lsangiz kerak, lekin bu to'g'rimi? Yo'q, unday emas. Ehtimol, xayoliy munosabatlarga intilgan odamlar hech qachon haqiqiy, jonli muloqot quvonchini his qilmaganlar.

Kimdir sizning butun ikir-chikirlaringiz bilan tanish bo'lsa, siz haqingizda bilishi kerak bo'lgan hamma narsani bilsa-yu, baribir sizga nisbatan sevgidan aqlini yo'qotgan bo'lsa - bu juda ajoyib.

Bunday yaqinlik - haqiqiy yaqinlik! - sizni o'z ko'zingiz bilan ko'taradi, hayotingizni boyitadi, chinakamiga baxtli qiladi.

Bilasizmi, yana nima? Kimdir sizni yaxshi biladi va juda yaxshi ko'radi. U sizni tug'ilishingizdan oldin ham bilgan. U siz yo'l qo'yadigan har bir xatoni, har bir isyonkor fikrni, har bir gunohni oldindan bilardi, shunday bo'lsa-da, sizni shu qadar sevardiki, siz uchun o'limga ham bordi.

Masih O'zining xochdagi o'limi bilan sizning barcha gunohlaringiz uun to'lov to'ladi. Shunday qilib, sizlar endi Xudodan ajralmas bo'libgina qolmay, balki Muqaddas Ruh orqali kecha-yu kunduz Xudoga yaqinlasha olasizlar. Xabaringizni qabul qilish uchun U kompyuterini yoqishini kutishingiz shart emas.

Undan xat bor yoki yo'qligini tekshirish uchun elektron pochtangizga har daqiqada qarashingiz shart emas, chunki Uning ko'plab xabarlarini allaqachon Muqaddas Kitobda sizni kutmoqda.

Haftada yetti kun va bir kecha-kunduzda yigirma to'rt soat ibodat qilish - Xudoga cheksiz yaqinlashish imkonini beradi. Shunday qilib, agar siz yaqinlik va ruhiy aloqaga intilsangiz, virtuallikka emas, reallikka murojaat qiling!

“Mening toat–ibodatlarim quyidagichadir: Xudo O'zining ulug'vor boyligi bilan sizlarga kuch–qudrat berib, O'z Ruhi bilan ichki borlig'ingizni baquvvat qilsin. Imoningiz orqali Masih yuragingizdan joy olsin. Sizlar ildizi chuqur daraxtday bo'ling, Xudoning sevgisi sizlarni barqaror qilsin. Xudoning barcha azizlari bilan birga, Masihning aql bovar qilmas sevgisi qanchalik keng, qanchalik cheksiz, qanchalik yuksak va teran ekanligini to'la anglab, bilib olinglar. Shunda hayotingiz Xudoning kamolotiga to'lib–toshadi”
(Efesliklar 3:16-19).

8-BOB

Buzuq doirani uzish

Axir, bizning kurashimiz insonlarga qarshi emas, balki samoviy olamdagi yovuz ruhiy kuchlarga, ruhiy hokimiyat va hukmronlikka hamda bu qorong'i dunyoni boshqarayotgan ruhiy hukmronlarga qarshidir. Shu sababdan, Xudoning qurol–aslahalari bilan qurollaning, deb aytyapman. Shunda yovuzlikka to'la kunlarda mahkam tura olasiz, qurollanib tayyor turgan bo'lasiz.

Efesliklar 6:12-13

Hech to'y sovg'asini tanlaganmisiz? Ehtimol, siz turli universal do'konlarga kirib, kelin-kuyovlar uchun mahsulotlarni ko'zdan kechirgandirsiz. U yoki bu juftlik etiborini tortgan narsalar ro'yxatini varaqlash qanchalik qiziqarli! Bu odamlarning didi va moyilligi haqida tasavvur hosil qilish mumkin - ayniqsa, ular qaysi chinni, billur va kumush idishlarni tanlashiga qarab. Ular mehmonlarni kutib oladigan ziynatli stolni shunday tasavvur qilasan!

Bu ro'yxatlarga qaraganda, kelin-kuyov sotib oladigan idish-tovoqlar arzon emas: tarelka, piyola yoki salat idishining narxi bazan yigirma besh dollardan oshib ketadi. To'liq chinni servis yuzlab dollar turishi mumkin - oshxona billur va kumushni hisobga olmaganda! Endi shunday manzarani ko'z oldimizga keltiraylik: to'y ziyofatidan so'ng kelinchak it va mushuk idishlari o'rniga qimmatbaho chinni likopchalar qo'ya boshlaydi, er billur qadahlarni garajga olib borib, unga har xil chiqindilarni to'kadi, yap-yangi kumush pichoq, qoshiq va sanchqilar esa bog' anjomlari sifatida ishlatiladi. Kulgili? Albatta!

Ammo qimmatbaho buyumlarning bunday bemani qo'llanilishi ularning qiymatini pasaytiradimi? Ularni yuvib, tozalab qo'yilsa, yana yarqirab, porlab, bayram dasturxonini bezamaydimi? ALBATTA, shunday! Ularga qanchalik yomon munosabatda bo'lishmasin, ularni suiistemol qilishmasin, baribir ulardan qanday maqsad uchun yaratilgan bo'lsa, shunday foydalanish mumkin. Afsuski, go'zal va bebaho bo'lgan ko'plab yosh ayollar o'zlarining ahamiyati haqida tasavvurni yo'qotib, o'zlarini iflos yoki past deb hisoblashadi, chunki ularni suiistemol qilishdi va Xudoning maqsadiga zid ravishda foydalanishdi.

Biz jinsiy zo'rvonlikka uchragan yosh ayollar haqida gapiryapmiz, bundaylar esa oz emas. Mana bu dahshatli statistika bilan tanishing:

- Taxminan uchta qizdan biri o'n sakkiz yoshga to'lmasdanoq zo'rlanadi.
- Bazi tadqiqotlarga ko'ra, yigirma yil davomida o'n ikki million ayollar va bolalar, yani Qo'shma Shtatlardagi ayollar aholisining taxminan 10 foizi zo'rlangan.
- Har to'rttala talabadan biri zo'rlanadi yoki zo'rlashga urinib ko'rilgan.

Jinsiy zo'rvonlik o'z-o'zidan ayol uchun katta zarba bo'lsa-da, agar jabrlanuvchi tegishli psixologik yordam olmasa, vaziyatning fojialiligi yanada kuchayadi. Manaviy jarohatlar davolanmasa, jabrlanuvchining o'zi ko'pincha zo'ravonga aylanadi. Ammo shuni yodda tutishingiz kerakki, bunday oqibat muqarrar emas va to'g'ri davolanish bu zararli doiradan chiqishga yordam beradi.

Quyida keltirilgan hikoyalarni o'qib, zo'rvonlik jismoniy, og'zaki va jinsiy bo'lishi mumkinligini va turli odamlar - begonalar, sevishganlar, ish beruvchilar, xodimlar, do'stlar va qarindoshlar tomonidan sodir etilishi mumkinligini bilib olasiz. Zo'rvonlik turlari bir-biridan farq qilsa-da, barcha zo'rvonlar bir narsada o'xshash: ular xudbin bo'lib, boshqalarga Xudoning aziz farzandlariga nisbatan munosib munosabatda bo'lmaydilar.

Shellining hikoyasi

2000 yil 7-aprelda nomalum erkak Shellining kvartirasiga bostirib kirib, uni qo'pol ravishda zo'rlagan. Shundan so'ng u bir hafta kasalxonada yotib, tirik qolganidan xursand bo'lgan. Lekin ko'p o'tmay qiz g'alati ruhiy karaxtlikka tushib qoladi.

"Uzoq oylar davomida men hech qanday his-tuyg'ularni boshdan kechirmadim, o'zimga ham, atrofdagilarga ham befarq edim. Asta-sekin men tashqi ko'rinishi zo'rvonimga o'xshagan erkaklarga etibor bera boshladim va ularni jozibali deb topdim. Men ilgari amal qilgan va bundan juda faxrlangan axloqiy qoidalar hamda qadriyatlar menga befarq bo'lib qoldi. Men o'sha erkaklar bilan yota boshladim. Bu bilan men zo'rlanganimda yo'qotgan hokimiyat va o'zimni nazorat qilishni qaytarib olgandek bo'ldim. Kim bilan, qachon va qanday bo'lishni o'zim tanlardim. Men erkaklarga ham, o'zimga ham tupurib qo'ygandim, hayotimni saqlab qolgan Zotni hech qachon tan olmadim va izlamadim."

Oxir-oqibat, Shelli psixologga murojaat qildi va jinsiy qaramlik kabi hodisa haqida bilib oldi. Vaqt o'tishi bilan u jinsiy aloqa uning uchun ichki og'riqni bosish va o'zini yana o'ziniki deb his qilish vositasiga aylanganini tushundi. Garchi Shelli o'tmish endi uning ustidan hukmronlik qilmasligini bilsa-da, u bilan sodir bo'lgan voqealarni eslamagan kun yo'q edi. O'z xatti-harakatlari va his-tuyg'ulari haqida gapirishga jurati etgani uchun Shelli zo'rvonlik tufayli etkazilgan jarohatlardan asta-sekin tuzalib bormoqda. Bundan tashqari, Xudo uni kechirganini, uni sevishini va har doim yonida ekanligini tushundi. Hech narsa - unga qilingan zo'rvonlik ham, uning avvalgi tartibsiz aloqalari ham buni o'zgartira olmaydi.

Afsuski, faqat begonalar zo'rlamaydi. Bazan bu ishni kutmagan, ishongan, sevgan odaming qiladi.

Meganning hikoyasi

Megan o'n yetti yoshida Bobni yaxshi ko'rardi. U masihiy edi va turmushga chiqqunga qadar yaqin munosabatda bo'lishni xohlamadi. Bob bilan ular butun yoz davomida uchrashib turishdi va ular o'rtasidagi munosabatlar tobora jiddiylashib bordi: ular tobora ko'proq vaqtlarini birga o'tkazishar, suhbatlashishar va o'pishishardi. Bir kuni kechqurun ular yana bir yosh juftlik bilan sayrga chiqishdi. Do'stlar ketib, Bob va Megan yolg'iz qolgach, ularning munosabatlarida kutilmagan burilish yuz berdi.

"Avval biz shunchaki o'pishdik va to'satdan Bob meni yerga yiqitib, zo'rladi. Men go'yo boshqa olamga tushib qolgandek edim. Undan to'xtashni so'rardim, lekin u quloq solmadi. Keyin ich kiyimimdagi qonni ko'rib, nima bo'lganini tushundim. Shundan so'ng menda aralash tuyg'ular paydo bo'ldi. Demak, men unga chindan ham yoqamanmi? Agar begona odam bo'lganida, albatta, unga yon bermagan bo'lardim, lekin u Bob edi-ku... men unga ishonardim. Qanday qilib men bu qadar sodda bo'ldim? Biroz vaqt o'tgach, do'stlarim mendan Bob bilan jinsiy aloqada bo'lganimiz rostmi, deb so'ray boshlashdi. Men hammasini rad etdim. Bobga bo'lgan barcha nozik his-tuyg'ularim uning bu bilan maqtanishini bilganimdan so'ng yo'qoldi. U bu haqda hammaga gapirib berayotganida kiyinish xonasiga kirib: "Nega ularga haqiqatni aytmayсан, Bob? Kim bo'lsayam, bu zo'rlash ekanini o'zing yaxshi bilasan-ku! deyishimni tasavvur qilardim.

Men shunchalik g'azablandimki, undan nafratlanardim! Homilador emasligimga ishonch hosil qilish uchun hayz ko'rishni kuta olmadim. O'sha voqeadan keyin juda o'zgarib ketdim. Duch kelgan odam bilan yota boshladim, boshqa yigitdan homilador bo'lib, abort qildirdim. Men endi romanlarsiz yashay olmasdim va bir yigitdan ikkinchisiga o'tib, u bezor qilganida aloqani uzardim.

Bobni qanday kechirishni va o'zimni sevib yashashni ko'rsatgani uchun Xudoga juda minnatdorman."

Megan "Klub 700" ko'rsatuvida yigiti tomonidan zo'rlangan qiz bilan bo'lgan intervyuni ko'rganida, unda nimadir o'zgarishi mumkinligini tushuna boshladi. U o'z dilozorini kechirib, ozod bo'lganini his qilganini aytdi. Megan ham doimiy g'azab va tartibsiz aloqalarga bo'lgan ishtiyoq tuyg'usidan xalos bo'lishni xohladi. U xudoga iltijo qilib, yuragidagi alamni ketkazishini so'radi. Maslahatchi yordamida u o'sha paytdagi Bobga adashgan o'n sakkiz yoshli boladek qarashni o'rgandi. Oxir-oqibat, Megan uni kechirishga muvaffaq bo'ldi va unga bo'lgan nafratidan xalos bo'ldi. U o'zini ham boshqacha idrok eta boshladi, bundan engil tortib, xotirjam bo'ldi.

Mening shaxsiy hikoyam

Men Meganni yaxshi tushunaman va unga hamdardman, chunki o'zim ham qiz bola bo'lganimda jinsiy zo'ravonlikni boshdan kechirganman. Men ulg'ayib, jismonan gullab-yashnaganimda, men chin dildan yaxshi ko'rgan va ishongan ikki amakim uyalmay-netmay meni taqib qila boshlashdi, menga noz-karashma qilishdi va qaltis vaziyatlarga solib qo'yishdi. Garchi qo'rquv ular bilan jinsiy aloqaga kirishishga yo'l qo'ymasa-da, ular bilan noz-karashma qilish menga kuch bag'ishlaganini his qilish menga yoqardi. Ularning har biri menga "bu bizning kichkina sirimiz bo'ladi," deb vada berishdi, lekin ular o'zaro men haqimda ochiq gapirishardi. Bittasi keyinroq, ular hatto garov o'ynashganini tan oldi (ulardan qaysi biri meni birinchi bo'lib to'shakka sudrab kirishi haqida). Garchi unisi ham, bunisi ham buni uddalay olmagan bo'lsa-da, men o'zimni qandaydir iflosday his qila boshladim.

Oxir-oqibat, aytganlaridek, men noto'g'ri joyda, noto'g'ri vaqtda noto'g'ri odam bilan bo'ldim. O'n to'rt yoshimda ota-onamdan yashirincha o'n sakkiz yoshli yigit bilan uchrashishga rozi bo'ldim. U meni zo'rladi, men esa bu haqda og'iz ochmadim, chunki janjal chiqishidan qo'rquydim: axir uyda hech kim yo'qligidan foydalanib, uni o'zim chaqirdim-ku. Men shu qadar tubanlashib ketdim va aftidan, hissiy aloqaga shunchalik muhtoj edimki, xoh ishonimg, xoh ishonmang, bir muncha vaqt zo'ravonim bilan munosabatlarimiz yanada rivojlanishiga umid bog'ladim. Lekin u istagan narsasini qo'lga kiritdi va men endi unga kerak emasdim. Shunday qilib, bo'lib o'tgan voqeadan tasirlanish ustiga, meni rad etishganidan achinish ham qo'shildi.

Yigitlar bilan ochiqchasiga uchrasha boshlaganimda, ularning jinsiy hujumga osonlikcha berilardim. Yigitlar bilan yaqinlik ishqiy munosabatlarni boshlab berishiga umid qilsam, ularning tegajog'liklariga unchalik qarshilik qilmasdim. Besh yil davomida bu zararli zanjirni uzishga qodir bo'lmadim, nihoyat, ajoyib kunlarning birida o'zimdan foydalanishga yo'l qo'yib berayotganimni va boshqa odamlardan Xudoning irodasiga zid ravishda foydalanayotganimni anglab etdim.

Jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha bazi amaliy maslahatlar:

1. Iloji bo'lsa, qorong'i tushgandan keyin yolg'iz sayr qilmang.
2. Uyda yolg'iz bo'lsangiz, eshiklarni qulflab o'tiring. Agar uyda tez-tez yolg'iz qolsangiz, bu haqda hammaga va har kimga gapirib yurmang.
3. Yigit bilan uchrashganda, odamlar gavjum joylarda bo'lishga harakat qiling, shunda yordamga chaqirganingizda sizni eshitishlari mumkin.
4. Jinsiy qo'zg'alishni keltirib chiqaradigan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymang: noz-karashma, chuqur ehtirosli bo'salar yoki intim erkalashlar.
5. Qat'iy chegaralar o'rnating va ularga rioya qiling. Agar kimdir sizni jinsiy aloqaga moil qilmoqchi bo'lsa, darhol ruxsat etilgan chegaradan o'tishga yo'l qo'ymasligingizni bildiring. Buni baland ovozda va qat'iyat bilan ayting, kerak bo'lsa, butunlay keting.

Yetti foydali maslahat

Xudo xohlasa, na jinsiy va na boshqa zo'ravonlikni hech qachon boshdan kechirmang. Ammo ko'pchiligingiz bilan shunday bo'lganini tushunamiz. Agar siz zo'ravonlik qurboniga aylangan bo'lsangiz, ruhiy jarohatni engishga va bu zararli zanjirni uzishga yordam beradigan maslahatlarni qabul qiling.

1. Bu haqda kimgadir gapirib bering! Jimgina azob chekmang. Onangiz yoki otangizga, o'qituvchingizga, cho'ponga, professional psixologga, o'smirlar uchun "ishonch telefoni" operatoriga yoki shunchaki ishonchli do'stingiz bo'lgan katta odamga ishonib. Yuz bergan voqeadan omon qolishingizga yordam bera oladigan va sizni sog'ayish yo'lga boshlay oladigan insonga yuragingizni oching. Agar sizga ishonishmasa, sizga yordam bera oladigan odamni topmaguningizcha, bu haqda boshqa birovga ayting. Buni darhol amalga oshirgan maqul, ayniqsa, zo'rlash holatida, shunda jinoyat dalillarini to'plash va jinoiy ish qo'zg'atish mumkin bo'ladi. Agar sizga qilingan zo'ravonlik haqida hech kimga aytmagan bo'lsangiz, buni endi qiling.

2. Hech qachon og'zaki, jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka toqat qilmang. Agar odamlar sizga yomon munosabatda bo'lishsa, shuni yodda tutingki, siz ularni boshqacha emas, balki shunday munosabatda bo'lishga o'rgatasiz. Agar qo'pollikka indamay bardosh bersangiz, yigitingiz sizni qo'pollik qilishingiz yoki haqorat qilishingiz mumkin deb o'ylaydi. Agar siz do'stsiz qolmaslik uchun eng g'ayriinsoniy muomalaga chidashga tayyor bo'lsangiz, 4-bobga qayting va "3-afsona" deb nomlangan bo'limni qayta o'qing. Keyin qo'pol do'stingizga uzoqroqqa ketishni taklif qiling va bundan buyon yigitlarni munosib muomalaga o'rgating.

3. Zo'ravonlikka loyiqman, degan yolg'on fikrga ishonib qolmang. Hech kim va hech qachon zo'ravonlikka loyiq emas. Ko'pgina ayollar ehtiyotsiz so'zlar yoki xatti-harakatlar bilan o'zlariga jinsiy zo'ravonlik qilgan erkaklarga qarshi ayblovlarni qo'ymaydilar. Hech bir ayol qanday kiyinishi, qayerga borishi va nima ish qilishidan qati nazar, zo'ravonlikka loyiq emas. Ushbu iborani yana bir bor o'qing va bu muqaddas haqiqat ekanligiga ishonib. Agar siz erkakni jismoniy yaqinlashishga undagan bo'lsangiz ham, har doim fikringizni o'zgartirish va keyingi jinsiy faoliyatga yo'l qo'ymaslik huquqiga egasiz. Albatta, boshidanoq xavfli vaziyatlardan qochgan ma'qul, lekin siz shunday vaziyatga tushib qolgan bo'lsangiz ham, bu boshqa odamning sizga nisbatan zo'ravonlik qilishiga yo'l qo'ymaydi.

4. Zo'ravonligingizga qo'pollik qilishdan qo'rqmang, lekin g'azabingizni boshqa odamlarga sochmang. Zo'ravonlikka uchragan ko'plab ayollar boshqa erkakni "jazolash" bilan birga, zo'ravon bilan "hisob-kitob qilish" istagini his qilishadi. Odatda ular jinsiy vaziyatlarni sahnalashtirib, o'zlarini haqorat qilish paytida yo'qotilgan xotirjamlik tuyg'usini tiklashga intiladilar. Bunday xatti-harakatlar boshqa erkaklarga nisbatan hurmatning mutlaqo yo'qligini ko'rsatadi, ammo bu sizning muammolaringizni hal qilishga yordam bermaydi, balki sizni boshi berk ko'chaga kiritib qo'yadi.

5. Yodingizda bo'lsin, zo'rqlash va jinsiy buzuvchilik - boshqa-boshqa narsalar. Agar siz zo'rqlangan bo'lsangiz, pokligingizni yo'qotdim, endi o'zingizni ehtiyot qilishning hojati yo'q, deb o'ylamang. Sizning axloqiy holatingiz jinsiy azolaringizga kimdir kirgani yoki sizni o'z ixtiyoringizga qarshi nimadir qilishga majbur qilgani bilan emas, balki o'z tanangizni boshqa bironing jinsiy rag'batlantirilishi yoki jinsiy lazzat olishi uchun berishga tayyorligingiz bilan belgilanadi. Agar siz hech qachon bunday qarorni ongli ravishda va ixtiyoriy ravishda qabul qilmagan bo'lsangiz, zo'rqlangan yoki buzuvchi harakatlar qurboni bo'lgan bo'lsangiz - siz hali ham poksiz.

6. Xafa qilgan kishingizni kechirishga harakat qiling. Bu siz qilishni istagan oxirgi narsa bo'lib tuyuladi, lekin shunga qaramay, faqat shu narsa sizni shafqatsizlik va xafalik tuyg'usidan xalos qilishi mumkin. Og'riqni azob chekayotganlar keltirib chiqaradi va ehtimol, kimdir sizning zo'ravonligingizga nisbatan qachondir shafqatsiz munosabatda bo'lgandir. Bu, albatta, uni aslo oqlamaydi va sizning og'rig'ingizni kamaytirmaydi, lekin u nimalarni boshdan kechirganini va nima uni bu ishga undaganini tushunish kechirim sari qadam tashlash demakdir. Axir siz haqorat qiluvchingiz bu ishni qanday og'riq tasirida qilganini va o'zi qanday zo'ravonlikka duchor bo'lganini bilmaysiz. Agar u qachondir sizdan kechirim so'rasa yoki hech bo'lmaganda sizni xafa qilganini tan olsa, uni kechirishga harakat qiling. Bu sizni butun umr ko'tarib yurish juda og'ir bo'lgan g'azab va nafrat tuyg'ularidan xalos qiladi.

7. Sizga nisbatan qilingan zo'ravonlik hech qachon unutilmaydi, lekin baribir og'ir xotiralarni engishni va nima bo'lishidan qati nazar, yashashni davom ettirishni o'rganing. Jinsiy zo'ravonlik qurboni bo'lgan ko'plab ayollar sog'-salomat turmushga chiqib, to'laqonli hayot kechirmoqdalar; bundan tashqari, ular ko'pincha baxtsiz do'stlariga shafqatsiz munosabat tufayli yuzaga keladigan his-tuyg'ularni engishga yordam berishadi. Boshqalar bilan omon qolish retseptini baham ko'rib, siz nafaqat ularning shifo topishiga yordam berasiz, balki o'zingiz ham katta quvonchga ega bo'lasiz, chunki sizning hamdardlik va dalda so'zlaringiz odamlarga Xudo tomonidan tasalli beradi.

Yodingizda bo'lsin: siz Xudoning farzandi, Masihning kelini, borliq Podshohining aziz qizisiz. Hatto kimdir sizga nisbatan nojo'ya munosabatda bo'lsa yoki sizdan Xudo buyurganidan boshqa maqsadda foydalansa ham, aslida kim ekaningizni hech qachon unutmang.

Siz munosib munosabatga va hurmat bilan muomala qilishlariga loyiqsiz. Shuni ham unutmangki, boshqa odamlar ham shunday hurmatga loyiqdirlar. Zo'ravonlikning buzuvchi doirasi hayotingizni va munosabatlaringizni buzishda davom etishiga yo'l qo'ymang. O'tmishingiz ostiga chiziqli torting va uning kelajakka soya solishiga yo'l qo'ymang. Xudo siz uchun ko'plab quvonchli onlarni tayyorlab qo'ygan - faqat siz yaratilishingizning asl maqsadi - ilohiy maqsadni tushunishga harakat qilishingiz kerak!

“Axir, Men sizlar to'g'ringizda tuzgan rejalarimni bilaman, — deb aytmoqda Egamiz. — Bu rejalarim sizlarga kulfat emas, farovonlik olib keladi, yorug' kelajagu umid beradi.” (Yeremiyo 29:11)

III-QISM

BOSHQALARNI VASVASAGA TUSHIRMASLIK

9-BOB

Hukmronlik qilishga tashna bo'lganimizda

Rabbimiz Iso Masihning Xudosi, ulug' Otamiz, O'zini tanib-bilishingiz uchun Muqaddas Ruh orqali sizga donolik va aql-idrok ato qilsin. Xudo sizlarning qalbingizni nurga to'ldirsin, toki Xudo sizlarni davat qilib, sizlarga qanday umid berganligini, Xudoning xalqi U uchun naqadar boy mulk ekanligini tushunib olinglar. Xudoning biz — imonlilarga ko'rsatgan tengi yo'q qudrati naqadar buyukligini ham bilib oling.

Efesliklar 1:17-19

“Uni oyoqlaring ostiga emaklab kelishiga yurishga majbur qil”. “U sendan ajralganiga pushaymon esin”. “U sen nimani xohlasang, shuni qiladi”.

Bugungi kunda etiboringizni tortishga urinayotgan ko'plab jurnallarning muqovalari shunday sarlavhalar bilan to'lib-toshgan.

Ommaviy axborot vositalari agar xohlasangiz, har qanday yigitni qo'lga olishingiz mumkinligini miyangizga to'xtovsiz singdirmoqda: buning uchun sizga tabiatan tegishli qobiliyat berilgan - shuning uchun undan foydalaning! "Qizlar hokimiyatining 30 kuni," yoki "Ikki kuragini yerga tekkizishning 428 usuli," yoki "Uni yondiradigan kiyimlar," yoki "Uni bugunoq qo'ng'iroq qilishga majbur qil" kabi maqolalar beixtiyor shunday fikrga olib keladiki, agar siz bor kuchingiz bilan erkaklarning etiborini jalb qilishga urinmasangiz va shu orqali xudbinligingizni oziqlantirsangiz, demak, sizda nimadir noto'g'ri.

Biz shunday zamonda yashayapmiz - ko'plab ayollar qarama-qarshi jinsga o'z shuhratparastligini qondirish vositasi sifatida qaraydilar: bu yirtqichlar buzuvchi erkaklardan ham qo'rqinchliroq bo'ladi. Ko'pchilik o'zining jozibadorligini tasdiqlash uchun jon-jahdi bilan harakat qiladi va bu yo'lda ko'pincha boshqa odamlarni ezib qo'yadi. Ayolning erkaklar istibdodi qurboni bo'lishni istamasligi mutlaqo tabiiy va sog'lom, ammo ayol qarama-qarshi chegaraga - erkak ustidan to'liq hukmronlik qilishga intilganda mutlaqo nomaqbuldir.

Bazi ayollar erkaklar ustidan hukmronlikni qo'lga kiritishga urinayotgan ayyorona manipulyatsiyaga bir nechta misollar keltiramiz:

- Liza ertalab kiyinar ekan, albatta, bugun yigitlardan qaysi biri uni ko'rishini hisobga oladi va ularning etiborini tortish, ular bilan noz-karashma qilish umidida ataylab jozibali kiyimlarni tanlaydi. (Liza o'z hokimiyatini suiistemol qilib, behayo kiyimlar yordamida o'zining jinsiy jozibadorligini ko'rsatatmoqchi bo'ladi. U erkaklarni o'ziga qiziqtirish orqali manipulyatsiya qiladi.

- Marissa yigit unga qiziqib, tez-tez ko'ziga ko'rinib tursa, darhol unga nisbatan qiziqishini yo'qotishini payqadi. Aksincha, yigitning unga befarqligini ko'rib, uni xayolidan chiqarib tashlay olmaydi va unga yoqish uchun bor kuchini sarflaydi. (Marissa ruhiy yaqinlikdan manfaatdor emas. U yigitlarni o'ziga o'girilib qarashga majbur qilish va ularni jozibadorligi bilan o'ziga jalb qilish orqali o'z izzat-nafsini qondiradi.)
- Jeyson Ketini maqtovlarga ko'mib tashlashiga qaraganda uni sevishiga qaramasdan, u Jeysonni unchalik yoqtirmaydi. Shunga qaramay, agar u restoranda birga ovqatlanishni taklif qilsa, u yo'q demay keladi, bazida esa shunchaki u bilan odamlar oldida ko'rinish berish uchun boradi. (Keti uyalmasdan Jeysonning va uning hamyonidan foydalanadi, chunki unga javob qaytarishni xayoliga ham keltirmaydi.)

Ko'p qizlar (Muqaddas Kitob nuqtai nazari bilan) to'g'ri bo'lgan emas, balki umumetirof etilgan narsalarga amal qilishadi. Ayolning erkakdan ustunligi g'oyasi, afsuski, jamiyatimizda tobora ko'proq tarqalmoqda va ildiz otmoqda. Ehtimol, sizda bir necha bor: "Hamma shunday qilar ekan, demak, menga ham mumkin," degan fikr paydo bo'lgandir. Ammo keling, bolaligimizda onamiz har birimizga aytgan iborani eslaylik: "Agar hamma tomdan kalla tashlasa, sen ham sakraysanmi?" Ona haq. Hamma qilayotgan ishlar har doim ham to'g'ri yoki oqilona bo'lavermaydi.

Yangi bebosh qabilami yoki katta xatomi?

"Nyu-York Taym" gazetasi uchun "Macho qizlar" sarlavhali maqolani tayyorlayotib, jurnalist turli odamlardan yoshlarni hech bir xijolatsiz taqib qiladigan va o'zaro munosabatlarda etakchilik rolini o'z zimmasiga oladigan jozibali va hukmron yosh ayollarning yangi qabilasi haqidagi fikrlarini so'radi. Maqolada har oyda yigirma-o'ttiz nafar o'smirlarga maslahat beradigan psixolog Tebi Uptonning javobi keltirilgan: "O'smir yigitlar ko'pincha qizlar ularni jinsiy aloqaga undashini va ulardan jinsiy zo'ravonlik kutishlarini aytishadi va kutmasdan, tashabbusni o'z qo'llariga olishadi. G'alati o'zgarish yuz berdi, natijada qizlar o'zlarini buzuq deb hisoblaydilar, shuning uchun ularning erkaklarga bo'lgan munosabatini "Men taklif qila oladigan narsa shu" iborasi bilan ifodalash mumkin edi.

O'n olti yoshli Liza Tsimmermannning fikricha, jinslar o'rtasidagi munosabatlarda har doim tengsizlik bo'lgan, chunki erkaklar dastlab tanlash huquqiga ega bo'lishgan. "Ular rad etilishidan qo'rqishlari shart emas edi, - deydi u. - Lekin endi bizning navbatimiz keldi!"

Tebi Upton, shuningdek, zamonaviy pop-madaniyatning sevimli turi bo'lgan bunday bebosh, sho'x go'zalning roliga qiziqib qolgan o'n besh yoshli qizcha haqida ham hikoya qiladi. "Bunday qizlarni kinoda, musiqiy kanallarda ko'rib, bir yo'la bir necha yigitlar bilan yaqinlik qilishga ikkilanmadi." Uptonning aytishicha, bu qiz homilador bo'lgan va hatto chaqalog'ining otasi kimligini aniq bilmagan. Bundan tashqari, u jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasallikka chalingan. Qiz o'tmishga nazar tashlab, o'zidan so'raydi: "Nega bunday qildim?" Uptonning xulosasiga ko'ra, yosh bemor shunchaki muhabbatni juda xohlagan, bundan tashqari, u jasur va beparvo ko'rinishni xohlagan. "Kino va videokliplarda bu juda zo'r va chiroyli ko'rinadi! Lekin hayotda unday emas..." Upton bolasini asrab olishga berdi.

Hokimiyatga bo'lgan chanqoqlik sizni bu qadar qiyin ahvolga solib qo'ymasa ham, u sizni yoshlar bilan munosabatlarga bo'lgan talablaringizni deyarli muqarrar kamaytirishga majbur qiladi. Kerri shunday deb hikoya qiladi:

"Men birorta yigitning menga qiziqishini kutib o'tirmaslikka qaror qildim. Menga do'st kerak ekan, ishni o'z qo'limga olib, uni o'zim topishim mumkin. O'n yetti yoshimda yoshlar guruhida bir bolani uchratib qoldim va o'yladim: "Mana bu yigit men uchun juda yoqimtoy va buning ustiga masihiy." Garchi men ham unga yoqishini bilsam-da, u mendan telefon raqamimni so'ramadi. Shunda dugonam bilan uning raqamini malumotnomadan o'zimiz topib, unga qo'ng'iroq qilishga qaror qildik. Uning familiyadoshlari juda ko'p ekan.

- naq qirq kishi! Tan olish biroz uyat, lekin biz uni topgunimizcha hammaga qo'ng'iroq qildik.

U bilan munosabatlarimiz bor-yo'g'i bir yil davom etdi va bu vaqt ichida men ko'plab qayg'u va qiyinchiliklarni boshdan kechirdim. Tez-tez yig'lab ham turardim, chunki u menga g'amxo'rlik qilishini juda xohlardim, lekin men uni tashabbus ko'rsatishga va ozgina romantika ko'rsatishga qancha ko'p harakat qilsam, u shunchalik "orqa o'rindiqlarda qolishga" intilardi, meni esa "rulga o'tkazib qo'yardi". Men unga qo'ng'iroq qilardim; uni uchrashuvlarga taklif qilardim; men hamma narsani o'z zimmamga olardim; biror joyga borsak, mashinani men haydardim; ko'pincha, o'yin-kulgi uchun o'z hamyonimdan pul to'lardim; har doim va hamma joyda men tashabbuskor edim - shu jumladan jismoniy aloqalarimizda ham. U o'zini men xohlagandek tutmasdi, men esa uni majbur qilardim. Qanday xato!

Qachonlardir qiz uchun tashabbus ko'rsatishning yagona imkoniyati "oq raqs"ga taklif bo'lgan. Hozirgi yosh ayollar nafaqat yigitlarni taqib qilishadi, nafaqat o'zlari ularni uchrashuvga taklif qilishadi, hatto jinsiy aloqani ham o'zlari boshlashadi. Qachonlardir jinsiy zo'ravonlikka yo'l qo'ygan qiz o'zini qurbon, xo'rlangan va haqoratlangan his qilgan. Bugungi kunda esa yosh ayollar erkaklarni o'zlarining shuhratparastlik qurboniga aylantirmoqdalar, ularni kamsitmoqdalar va haqorat qilmoqdalar. Biz bir nechta yoshlardan yigitlarni taqib qiladigan va ular bilan munosabatlarda etakchi rolini o'z zimmasiga oladigan qizlar haqida qanday fikrda ekanliklarini so'radik. Ular shunday javob berishdi:

Brent, 16 yosh: "Qizlar yigitlarga qaraganda o'zlarini ancha agressiv tutishadi va hamma narsani o'zlari boshqarishga harakat qilishadi. Juda qo'rqinchli bo'lib ketyapti!"

Viktor, 17 yosh: "Qiz ortimdan yugurganida, menda undan qochib ketish istagi paydo bo'ladi. Bir qiz menga xat yozib, kiyinish xonamdagi shkafchamga solib qo'yardi. Men unga javob bermadim - u imo-ishorani tushunadi deb umid qildim, lekin buning o'rniga u menga qo'ng'iroq qilib, uyim yonidan o'ta boshladi. U menga o'z o'yinini tiqishtirayotgani aniq edi, lekin men bo'sh kelmadim. Menimcha, oxir-oqibat u shunchaki charchagan, chunki u menga boshqa yozmadi va qo'ng'iroq qilmadi. Lekin endi birorta qiz menga qiziqqa boshlasa, u ham meni taqib qila boshlaydi, deb qo'rqaman. Sevgilim menga buyruq berishini emas, menga bo'syunishini istayman."

Ched, 19 yosh: "Bizning davrimizda bokira bo'lish urf emas... Meni yo'ldan urmoqchi bo'lgan qizlar shu qadar ko'p ediki, men bir marta taslim bo'ldim va bokiraligimni yo'qotishimga sal qoldi. Bo'lajak rafiqam uchun hamma narsani - quchoqlashni ham, o'pishni ham, hatto qo'llarini ham faqat u bilan ushlashni juda xohlayman. Lekin qandaydir boshqacha bo'lib chiqyaptiki, atrofimda mutlaqo boshqa qizlar o'rab turibdi va men ulardan qochib qutulolmayapman..."

Tartibli yigit hech qachon qizning qo'lida o'yinchoq bo'lishni istamaydi. Xuddi siz-u bizga o'xshab, yoshlar ham o'zlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishlarini xohlashadi.

Orqaga: Eram bog'iga qaytamiz

Bir qarashda biz qandaydir yangiliklarni boshdan kechirayotgandek tuyulsa-da, aslida jinsiy aloqa azaldan ayollar uchun erkaklar ustidan hukmronlikni qo'lga kiritish vositasi bo'lib kelgan. Bu Muqaddas Kitob zamonlaridan

beri davom etib keladi. Eram bog'ida nima bo'lganini eslaysizmi? Ilon Momo Havoni aldab: "Yo'q, o'lmaysizlar. "Chunki Xudo biladi, sizlar bu mevalardan esangiz, ko'zlaringiz ochilib, sizlar ham barcha yaxshi va yomon narsalarni biladigan bo'lib, Xudoga o'xshab qolasizlar" (Ibtido 3:4,5) dedi. Momo Havo Xudoning amrlariga bo'ysunishiga to'g'ri kelayotganidan norozi edi. U donolik va hokimiyatga ega bo'lish uchun Xudoga o'xshashni xohladi va shuning uchun taqiqlangan mevdan tatib ko'rdi. Shunda Xudo bu gunoh uchun qanday jazolanishini aytdi: «...Ammo eringni qo'msayverasan, Ering esa *hokim bo'ladi sening ustingdan.*» (Ibtido 3:16, kursiv meniki. - Sh.E.).

Yaratilishning dastlabki kunlaridanoq ayolni erkak bilan muhabbat/nafrat munosabatlari bog'laydi. U kuchli jins muhabbatini istaydi, lekin unga o'z ustidan hukmronlik berilganligi haqidagi fikrga ham qarshilik ko'rsatadi. Uzoq yillar davomida ayollar huquqlari uchun shiddatli kurash olib borildi va bazan mutlaqo oqilona (ayollarga nisbatan zo'ravonlik, xurofot yoki kamsitishga qarshi), bazan esa ishonchsizlik, qo'rquv, ochko'zlik, mag'rurlik yoki xudbinlik tuyg'ulari bilan bog'liq noroziliklar bildirildi. Hokimiyatga bo'lgan chanqoqlik va erkak ustidan hukmronlik bizga etishmayotgan narsani berishga qodirligiga ishonch, yani o'ziga ishonch, sevgi, o'z ahamiyatini his qilish - bazida ayolni jinsiy aloqadan o'ziga yon berish vositasi sifatida foydalanishga majbur qiladi.

Jinsiy hokimiyat yosh ayolga oson o'rganib qoladigan giyohvand modda kabi tasir qiladi. Tengdoshingizning boshini aylantirish yoqimli, lekin bundan ortiq emas; katta yoshli erkak - futbol jamoasi sardori, kollej professori yoki bo'lim boshlig'i sizni sevganidan aqldan ozsa, bu sizning "men"ingizga ulkan zavq bag'ishlaydi. Hokimiyatni bunday suiistemol qilish odatda obro'sizlantiruvchi yoki hatto taqiqlangan munosabatlarga olib keladi, bu haqda 18-bobda batafsil to'xtalamiz.

Hokimiyatga intilishingiz ortida nima yashiringan?

Agar siz jinsiy daxlsizlikka qarshi bo'lsangiz, buning ortida erkaklar ustidan ongsiz ravishda hukmronlik qilish istagi yashiringan bo'lishi mumkin. Menda ham shunday bo'ldi. Tajribali psixolog menga erkaklar bilan bo'lgan barcha munosabatlarimning harakatlantiruvchi sababini ochib berdi: men ona qornidagi kichkina qizaloq edim, menga etishmayotgan muhabbatni topish uchun ongsiz ravishda otasining timsolini izlayotgan edim.

Turmushga chiqishdan oldin tashqi ko'rinishimdan yoshlarni o'ziga jalb qilish uchun xo'rak sifatida foydalanganman. Ular mening jozibadorligimga mahliyo bo'lishar va bu mening shuhratparastligimga taskin berardi.

Navbatdagi qurbonni ilintirishga muvaffaq bo'lganimda, ichimda o'zimni qudratli his qilardim. Ammo mening mamnunligim, odatda, uzoqqa cho'zilmasdi va tez orada o'zimga yangi yigit izlay boshlardim, u meni baxtli qiladi, deb umid qilardim.

To'ydan keyin erkaklarga munosabatim o'zgaradi, degan o'y bilan ovunardim, ammo umidlarim puchga chiqdi. Shunda men masihiy ruhshunosga murojaat qilib, vasvasalar nega meni tark etmayotganini tushunmoqchi bo'ldim. Bir seansda shifokorim mendan keyingi safar jinsiy aloqada bo'lgan yoki hissiy jihatdan intilgan barcha erkaklar ro'yxatini tuzishimni so'radi.

Keyingi tashrifimda u menga kelasi hafta ibodat qilishni taklif qildi va o'zimga shu savollarni berishimni: "Bu odamlarning o'rtasida qanday umumiylik bor?" Va Xudo menga har safar bu mening ustimdan qandaydir hokimiyatga ega bo'lgan katta yoshli odam bilan - o'qituvchim, boshlig'im, advokatim va boshqalar bilan aloqa ekanligini ko'rsatdi.

Bu qonuniyatning mohiyatini tushunishga urinib, men bir narsani aniqladim: erkak ustidan hukmronlik qilishga intilish ekan. Meni qattiqqo'llik bilan boshqargan otam bilan munosabatlarda o'zimni mutlaqo o'jiz his qilishim meni g'ayrushuriy ravishda erkaklar bilan munosabatlarda avtoritarlikka intilishga majbur qilar ekan. Har safar kuchli jins bilan munosabatlarda ustunlikka erishganimda, men go'yo shunday derdim: "Ko'ryapsizmi, dada? Meni chinakamiga sevisadi! Men etibor va mehrga MUNOSIBMAN!"

Qalbmida otam qoldirgan bo'shliqni to'ldirishga va o'zimni hurmat qilishga urinishlarim bilan o'zimga zarar etkazardim. Shaxsiy tajribamdan bilamanki, faqat jinsiy aloqaga asoslangan munosabatlar haqiqiy ruhiy yaqinlikdan mahrum qilib, hokimiyatga bo'lgan chanqoqlikni va uning etishmasligini yanada kuchaytiradi.

O'shandan beri menga qoniqish va o'z-o'zini hurmat qilishning yagona haqiqiy manbai ochildi - Samoviy Otam bilan yaqin munosabatda bo'lish. Uni birinchi navbatda izlay boshlaganimda, Iso nafaqat mening asosiy muhabbatimga aylandi, nafaqat menga hech bir erkak bera olmaydigan qadr-qimmat tuyg'usini berdi: U mening yerdagi otam bilan munosabatlarimni tikladi va turmush o'rtog'imga sodiq qolishimga yordam berdi.

Albatta, muhabbat istagi erkak ustidan hukmronlik qilishga intilish ortida yashiringan yagona motivatsiya emas. Misol uchun, agar siz jinsiy zo'ravonlikka uchragan bo'lsangiz yoki erkaklar tomonidan hissiy etiborsizlikni his qilgan bo'lsangiz, g'azablanish, xafa bo'lish yoki ozgina bo'lsa ham sizni xafa qilgan odamga o'xshash har qanday insonni jazolash istagi tufayli ular ustidan hukmronlik qilishga intilishingiz mumkin. Shelli shunday qilgan - uning hikoyasini 8-bobda o'qigansiz. Yana bir sabab - erkakning oyog'i ostiga tushib qolishdan qo'rqish. Ehtimol, siz uning sizdan ustun kelishga urinishidan qo'rqayotgandirsiz va shuning uchun uning oldini olishga shoshilyapsiz. Balki hamma gap oddiy kibrdadir: hamma sizni kuchli ayol deb bilishini xohlaysiz, shuning uchun ham sizni zaif jinsga qo'shmasliklari uchun munosabatlarda hukmron bo'lishga intilasiz!

Erkaklarning etiborini tortish uchun jon-jahdingiz bilan harakat qilib, malum vaqt bunga erishishingiz mumkin, ammo axloqiy poklikni saqlashni istagan yoshlar sizdan qochishni boshlaydilar (bu sizning rejalarangizga umuman kirmaydi), chunki vaqt o'tishi bilan siz ularning pokligi va Masih bilan munosabatlari haqida g'amxo'rlik qilish uchun haddan tashqari xudbin ekanligingiz malum bo'ladi.

Neyl

Siz yoshlar bilan munosabatlarda haddan tashqari shiddatkorlikni, ularni o'z huzur-halovati va xudbin maqsadlari yo'lida manipulyatsiya qilishga moyilligini sezasizmi? Agar shunday bo'lsa, bu gapning tagida, shubhasiz, boshqa gap ham bor. Xudodan bu yashirin istaklarni aniqlashda yordam berishini so'rang va yaxshi psixologga murojaat qiling, u sizning ko'zingizni ochib, qarama-qarshi jinsga nisbatan sog'lom munosabatda bo'lishni o'rgatadi. Dono ustoz yoki shunchaki sog'lom fikrli kattalar yordamisiz siz har qanday yo'nalishni yo'qotishingiz va butunlay adashishingiz mumkin. Bu xatoga yo'l qo'ymang.

Hokimiyat muvozanatini tiklash

Ushbu bobni yakunlar ekanmiz, suhbatimizga yakun yasaymiz. Biz sizga ixtiyoriy ravishda o'zingizni kuchsizlikka mahkum etishni va barcha huquqlaringizni erkakning oyoqlari ostiga tashlab, qadr-qimmatingizni oyoq osti qilishni taklif qilmaymiz. Har bir inson o'zining shaxsiy hokimiyatini anglashi kerak. Sizni zo'ravonlik bilan bosim o'tkazmoqchi yoki jinsiy aloqaga majburlamoqchi bo'lgan erkakdan himoyalaniish uchun bu kuchdan foydalanish tabiiy va normal holatdir. Zararli tasir yoki yomon muomaladan saqlanish uchun o'z kuchingizdan foydalaning. Ammo o'zingiz odamlarga salbiy tasir ko'rsatish yoki ularga yomon munosabatda bo'lish uchun unga murojaat qilmang. O'zingizga qanday munosabatda bo'lishlarini istasangiz, boshqalarga ham shunday munosabatda bo'ling (Matto 7:12). Boshqalarni hurmat qiling va o'zingizga ham shunday munosabatda bo'lishni talab qiling.

Xulosa o'rnida sizga bir sirni ochamiz. Faqat Xudo sizning sevgi va hokimiyatga bo'lgan ehtiyojingizni to'liq qondira oladi. Xudo O'z sevgisi va hokimiyatini erkaklarga beradimi? Ha. Ammo bularning barchasini qo'lga kiritish uchun ularning qo'lidan o'tishingiz shartmi? Yo'q. Xuddi shu narsani Xudo ayollarga ham beradi. Muqaddas Ruhning qudratli muhabbati hissiy jihatdan sog'lom, hushyor, to'laqonli hayot kechirishga yordam berishini tushunganingizda, vasvasaga solish kuchi uning oldida xiralashadi.

«Biz inson bo'lib, bu dunyoda yashasak ham, bashariy kuch bilan jang qilmaymiz. Bizning qurol-aslahalarimiz bashariy manfaat uchun emas, balki ilohiy manfaat uchun ishlatiladi. Bizning qurol-aslahalarimiz bu dunyoning qurol-aslahalariday emas. Xudoning qudrati bilan bu qurol-aslahalarimiz qaladay mustahkam bo'lgan insoniy o'y-xayollarni hamda quruq safsatalarni yo'q qilishga qodir. Xudoni tanib-bilishga to'sqinlik qilayotgan takabburona dunyoqarashga biz barham beramiz. Har qanday o'y-xayolni Masihga bo'ysundirib, asir qilamiz. Shunday qilib, o'zlaringiz ham to'la bo'ysunganingizdan keyin, biz birgalikda har xil itoatsizlikni jazolashga tayyor bo'lamiz». 2 Korinfliklar10: 3-6

Taassurot uyg'otish uchun kiyinamizmi?

... Rabbimiz Iso Masihga burkaninglar va bashariy tabiatigingizning ehtiroslarini qondirishni hatto xayolingizga ham keltirmanglar.

Rimliklar 13:14

Gurmanlar uchun teleko'rsatuvlarda siz oshpazlardan taomni to'g'ri tortish muvaffaqiyatning yarmini taminlashini ko'p marta eshitgandirsiz. Etibor bering: bu juda adolatli, nafaqat ovqatga nisbatan, balki tanangizga nisbatan ham. Biz bu haqda ilgari ham gapirgan edik, endi esa, bu juda muhim bo'lgani uchun, yana takrorlaymiz: siz odamlarni o'zingizga shunday munosabatda bo'lishga o'rgatasiz, boshqacha bo'lishi mumkin emas. Siz ularga sizni hurmat qilish yoki qilmaslikni o'rgatasiz. Qanchalik istamasangiz ham, sizning kiyinish uslubingiz - xoh qo'zg'alishni keltirib chiqaradigan tana qismlarini kamtarona yashirish, xoh "boshqa joyi yo'q" yalang'och bo'lish bo'lsin - atrofda qilarga siz haqingizda malum bir malumotni uzatadi. Bizga ishonmasangiz - tengdoshlaringizga ishonang.

Bir radioeshittirishda kamtar bo'lish qanchalik muhimligi haqida gapirganimdan so'ng, Kristi ismli yigirma yoshli qiz menga shunday deb xat yozdi:

"Birinchida marta yozgi masihiy oromgohda tarbiyachi bo'lib ishlay boshlaganimda, men o'zimga yigitlar bilan hech qanday munosabatda bo'lmaslikka vada berdim va butun etiborimni kottejdagi qizlar bilan ishlashga qaratdim. Ularga yoqishni, meni yaxshi qiz deb hisoblashlarini juda juda istardim. Shu maqsadda yoshlar modasining "so'nggi chiyillashi"ga ko'ra kiyinishni boshlaganim... beldan pastroq kamarli tor jinsi shimlar, kalta shortilar, tasmali spagetti maykalar yoki etarlicha kalta va tor, shu bilan birga, noto'g'ri kiyinayotganim haqidagi ayblovlardan qochish uchun etarlicha uzun topiklar. Kechqurunlari qizlarimni o'qitardim, hammamiz bu mashg'ulotlarni intiqlik bilan kutardik va juda zavqlanardik.

Men o'z maqsadimga erishdim: qizlar meni chindan ham qadrdon dugona sifatida qabul qilishdi, lekin shu bilan birga men bazi erkak tarbiyachilarning etibori va hayratiga sazovor bo'ldim. Men bunga xotirjam munosabatda bo'lishga va bu yigitlarni jiddiy qabul qilmaslikka qaror qildim. Ular esa meni suv to'pponchalaridan o'qqa tutishar, elkamdan oshxonaga sudrab borishar, bo'ynimga muz parchalari va shunga o'xshash narsalarni tashlashardi. Ulardan meni tinch qo'yishlarini iltimos qildim, lekin iloji boricha qatiyroq va keskinroq gapirishga harakat qilsam-da, so'zlarimni quloqlariga olishmadi.

Shunda men katta tarbiyachilardan biriga, bolalar menga yo'l berishmayapti, shuning uchun xotirjam ishlay olmayapman, deb shikoyat qildim. U qo'limni ushlab, mehribonlik bilan dedi: "Kristi, sening harakatlaring so'zlardan ko'ra balandroq gapiradi. Garchi sen bolalarning etiborini tortmoqchi bo'lmasang-da, ular seni bunday kiyininganda payqamasliklari mumkin emas. Agar sen miyasida faqat o'yin-kulgi bo'lgan engiltak o'smir qizga o'xshasang, o'g'il bolalar seni o'yinchoq deb qabul qilishadi! Keyingi yili oromgohda uzunroq shortik va ichiga tiqilgan ko'ylak kiyib yurardim. Bolalar menga unchalik yopishib olishmadi, shuning uchun qizlarim bilan bemalol shug'ullanaverardim. Bu safar oromgohdan butunlay boshqacha kayfiyatda ketayotgan edim!

Kristini tabriklaymiz: u o'zining kiyinish uslubi atrofda qilarning unga bo'lgan munosabatiga tasir qilishini tushuna oldi, odamlar unga munosib hurmat bilan munosabatda bo'lishlari uchun u gardierobini o'zgartirdi.

O'zini ko'z-ko'z qilishdan charchab, maktabga yangi qiyofada kelganida Roz ham xuddi shunday saboq olgandi.

- "O'n olti yoshga kirgan bo'lsangda, yigiting haligacha yo'q" degan maqolni bilasizmi? Bu deyarli men haqimda edi, farqi shundaki, men o'sha paytda allaqachon o'n sakkizga kirgan va o'rta maktabni tugatayotgan edim. Men nuqul: "Menga nima bo'lgan o'zi?" deb o'ylardim. Men hech qachon hech kim bilan uchrashmaganman va hech kim meni uchrashuvga taklif qilmagan. Yigitlar meni payqashmasdi, ko'rishsa ham, faqat "do'st sifatida" ko'rishardi.

Shunday qilib, pul yig'ib, o'zimga kalta qora yubka, ustidan qora shaffof bluzka kiyiladigan tasmali qora mayka va tizzagacha tushadigan qora etik sotib oldim. Ertasi kuni sochlarimni tepaga ko'tarib, odatdagidan ko'ra yorqinroq bo'yanib, lablarimni yaltiroq lab bo'yog'i bilan bo'yab qo'ydim. Avvaliga o'zimni biroz noqulay his qildim va hatto ustimdan futbolkamni kiyib oldim, lekin bundan butun tasir yo'qoldi, shuning uchun uni echishga majbur bo'ldim. Ko'chada ketayotib, orqamda odamlar fohishaga o'xshaydi, deb pichirlashayotganini eshitdim. Qalbimning qayeridadir men ularning fikriga qo'shildim, lekin baribir menga etibor qaratishdi, axir men aynan shunga intilayotgan edim-ku! Kun oxirida yo'lakdan ketayotgan edim, bir yigit to'xtatdi. U men bilan gaplasha boshladi va beixtiyor elkamni, qo'llarimni silay boshladi. Men qo'limni bo'shatib, darhol to'xtating, desam, u: "Nima gap o'zi? Sen shuni xohlamaganmiding?" - dedi Shundagina qanday ahmoqlik qilganimni tushundim... Yo'q, men buni xohlamagandim.

Mendan nafratlanishlarini emas, balki meni payqashlarini va hurmat qilishni boshlashlarini orzu qilgandim. U yigitdan qutulishim bilan darhol kiyinish xonasiga yugurdim va futbolkamni kiyib oldim."

Agar siz nomus uchun urushda mudofaa tizimingizga putur etkazadigan malumotlarni doimiy ravishda istemol qilsangiz, biz sizga ochlik parheziga o'tishni maslahat beramiz. Gunohimizni ochlik bilan o'ldirib, uni o'zimiz ustidan hukmronligidan mahrum qilamiz. Shunda to'g'rilik va poklik ishtiyoqi fikrlarimiz, xatti-harakatlarimiz va kayfiyatlarimizni boshqara boshlaydi.

Bunday parhezga o'tish uchun quyidagilar kifoya:

- Endi kunduzi va kechqurunlari seriallarni tomosha qilmaslikka qaror qiling. O'smirlar orasida mashhur bo'lgan ko'plab seriallar odatda nikohdan tashqari jinsiy aloqani keng tarqalgan va to'liq qabul qilinadigan narsa sifatida tasvirlaydi. Biroq, ushbu shoularning qahramonlari istalmagan homiladorlik, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar, o'zini hurmat qilmaslik, ruhiy tushkunlik, o'zlarining gunohkorligini anglash va nikohdan oldingi jinsiy aloqa bilan bog'liq boshqa narsalar bilan kamdan-kam duch kelishadi. Albatta, sovunli operalar nikohsiz jinsiy aloqani targ'ib qiluvchi yagona televizion sanat turi emas va keyingi bobda biz bu haqda, shuningdek, maqbul teledasturlarni nomaqbullaridan qanday ajratish haqida gaplashamiz.

- Xudoning rejasidagi jinsiy aloqaga oid tamoyillarini masxara qiladigan teleko'rsatuvlarni tomosha qilmang. Ehtimol, turli dasturlarda boshqa odamlarning intim hayotidan qiziqarli tafsilotlarni tinglash juda qiziq bo'lsa kerak, lekin biz bunday shoularning mohiyati vaqtini behuda sarflash deb hisoblaymiz, chunki ular foydadan ko'ra ko'proq zarar keltiradi. "Kimning soxta ko'kraklari yaxshi ko'rnadi?", "Kim kim bilan yotadi?", "Bolajonimning dadajonisi kim?" kabi mavzularning nomlari nimaga arziydi? Agar bizga: o'sha ko'rsatuvlarni ko'rish yoki o'lguncha zerikish tanlovi berilsa, har safar zerikishdan o'lishni tanlagan bo'lardik. Siz, shubhasiz, bu bemani narsalarni tomosha qilishdan ko'ra mazmunliroq mashg'ulot topishingiz mumkin.

- Axloqsiz sevgi romanlarini o'qimang. Biz bunday adabiyotlarni ayollar uchun pornografiya deb hisoblaymiz. Kitobda tasvirlangan shahvoniy sahnalar ongimizga singib, his-tuyg'ularimizni qo'zg'atadi, bu esa ayollar uchun ko'zga ko'rinadigan tasvirlardan ham jozibaliroq bo'ladi. Bunday adabiyotlarda, odatda, nikohdan tashqari jinsiy aloqalar bo'rttirib ko'rsatiladi, bu esa qo'zg'alishni keltirib chiqaradi. Shuningdek, ular sizni kelajakdagi ishqiy munosabatlardan va hatto keyingi nikohdan hafsalangizni pir qilishga undaydi, chunki sevgi kitoblari hayot haqiqatini aks ettirmaydi. Shuni yodda tuting: agar sizning ideal munosabatlar haqidagi tasavvuringiz bunday adabiyot yordamida shakllansa, siz o'zingizni illyuziyalarning abadiy halokatiga oldindan mahkum etgan bo'lasiz.

- MTB tomosha qilmang, chunki MTBda namoyish etiladigan videofilmlarning 75 foizi shahvoniy tasvirlarni o'z ichiga oladi; 50 foizdan ortig'i zo'ravonlik sahnalarini o'z ichiga oladi va 80 foizi ikkalasini birlashtirib, ayolga nisbatan zo'ravonlik tamini singdiradi. Shu holatning o'ziyoq MTB ko'rishdan butunlay voz kechish uchun etarli sabab bo'ladi - axir bu chiqindi ongimizga kirib, hayotimizni zaharlashini istamaymiz-ku. Buning evaziga yaxshi masihiy musiqasini uzatuvchi kanallarni toping. Masihiy qo'shiqlari zamonaviy musiqaning yurakni ezuvchi sadolari oldida xiralashib qolgan zamonlar o'tib ketdi. Bugungi masihiy qo'shiqchilar rok, pop, kantri, xevi-metal va hokazo yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi har qanday guruh bilan muvaffaqiyatli raqobatlashmoqda. Ushbu videokanallar ko'ngilochar bozordagi boshqa dasturlardan aslo qolishmaydi, bazan esa ulardan ustun ham turadi.

- Pornografiyani har qanday shaklda - bosma, kino yoki fotoplyonkaga olingan, virtual ko'rinishda bo'lishidan saqlanib. Pornografiya - bu tuban his-tuyg'ularni qo'zg'atish uchun behayo sahnalarni jozibali tasvirlash. Erotik jurnallar, kinofilmlar, veb-saytlar va hatto telefon "ishonch telefonlari" ham mavjud.

Zabur 100:3 da shunday deyilgan: "Hech qanday yovuzlikka yo'l qo'ymayman. Qing'ir ishlardan nafratlanaman, Men ularga hech qo'shilmayman". Bunday tasvirlarni tomosha qilish ongingizda butun umr hal qilishingiz kerak bo'lgan ziddiyatni yaratish demakdir. Turmushga chiqqach, turmush o'rtog'ingiz bilan to'liq bog'lanish uchun xotirangizda to'plagan tasavvurlaringizdan juda qiyinchilik bilan voz kechasiz. Nikohdan oldin jinsiy maylingiz uyg'onishini istamaysizmi? Eringiz bilan intim hayotingizga erotik sahnalar haqidagi xotiralar suqilib kirishini istamaysizmi? Unday bo'lsa, pornografiyaning ustingizdan hukmronlik qilishiga yo'l qo'ymang, aksincha, bunday tasvirlar bilan tanani oziqlantirish istagingizni jilovlang.

Siringiz bilan bo'lishing

Jinsiy aloqa bilan to'yingan malumotlarni qabul qilish, o'qish va tinglashdan bosh tortish orqali siz vasvasaga qarshi turish qobiliyatingizni mustahkamlaysiz. Ongingizga faqat sog'lom va siz intilayotgan normal, to'laqonli, Xudoga maqul hayotni olib borishga yordam beradigan narsalarni kiriting.

Afsuski, tengdoshlaringizning ko'pchiligi bunday hayot kechirish siridan bexabar. Doktor Enn Kirni-Kuk shunday deydi:

"MTV kanalida namoyish etilayotgan videokliplar va teleko'rsatuvlar o'smir qizda uning muvaffaqiyati siri doimo jinsiy tomonlama jozibador ko'rinishida va tez-tez uchrashuvlarga borishda ekanligi haqida tasavvur uyg'otadi... O'rta maktabda o'z tengdoshlaridan oldin o'g'il bolalar bilan uchrasha boshlagan qiz hammaning havasini keltiradi. O'smirlar ota-ona mehri va etiboriga zor bo'lib, ommaviy axborot vositalari ularga taqdim etayotgan obrazlarga mahliyo bo'ladilar. Hozirgi bolalar maktabdan uyga qayttganlarida ko'pincha ota-onalari uyda bo'lmaydilar. Ular MTB va tok-shoularni tomosha qilishadi, Internet bo'ylab sayohat qilishadi va aynan shu manbalardan erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlar haqida malumot olishadi."

O'z ongingizni qanday asrash va aqliy kurashda g'alaba qozonish sirini do'stlaringiz bilan bo'lishing. Ularga sog'lom munosabatlarni real hayotdan izlashni va yordam so'rab ommaviy axborot vositalariga emas, balki Xudoning Kalomiga murojaat qilishni maslahat bering. Ularni jamoatingizga taklif qiling, u erda ular nikohda baxtli va to'laqonli hayot kechiradigan odamlar bilan tanishishlari mumkin. Barcha do'stlaringiz va dugonalarigizga o'rnak bo'ling. Shunday qilib, siz bir vaqtning o'zida uchta buyuk maqsadga erishasiz: o'zingizni asraysiz, boshqalarni asraysiz va Xudoni ulug'laysiz.

"...Sizlar Masihning so'zlarini eshitib, Uning talimotini olgansizlar, chunki haqiqat Masihda jamdir. Oldingi yashash tarzingizga tobe bo'lmang, eski o'zligingizdan voz keching, chunki u aldovchi ehtiroslar tufayli buzilib ketgan. Yangichasiga fikr-zikr qiladigan bo'linglar. Xudoning suratida yaratilgan, haqiqiy solihlik va muqaddaslikdan iborat bo'lgan yangi tabiatga burkaninglar."
Efesliklar 4:21-24

OAV va u bilan qanday kurashish kerak

Shunday qilib, ey birodarlarim, Xudoning marhamati haqi sizlarga yolvoraman. O'z tanangizni tirik, muqaddas va Xudoga manzur bo'ladigan qurbonlik sifatida bag'ishlang. Xudoga loyiq bo'lgan asl xizmat mana shudir. Bu dunyoga moslashmanglar, fikr–zikringizni yangilab, tubdan o'zgaringlar. Shunda Xudoning irodasini tushuna oladigan bo'lasiz, yani nima yaxshi, Xudoga manzur va mukammal ekanligini bila oladigan bo'lasiz.

Rimliklar 12:1-2

Qurbaqa va issiq suv tajribasi haqida hech eshitganmisiz? Qurbaqani qaynoq suvli idishga tashlang - u darhol u yerdan sakrab chiqadi, bu joy uning uchun xavfsiz emasligining isbotidir. Uni xona haroratidagi suvli idishga solib, past olovda suvni qaynash haroratigacha etkazilsa-chi? Nima bo'ladi? Siz "qaynatilgan qurbaqa oyoqlari" nomli taomga bo'lasiz. Gap shundaki, uning tanasi asta-sekin atrof-muhit haroratiga ko'nikib boradi. Qurbaqa xavfni sezmay qoladi.

Xuddi shunday, biz ham asta-sekin tahdidlarga befarq bo'lishimiz mumkin - faqat qaynoq suvda yashiringan narsalarga emas, balki ommaviy axborot vositalari orqali pokligimizga tasir qiladigan narsalarga befarq bo'la boshlaymiz. Jamiyatimiz jinsiy axborotni qabul qilmaydigan bo'lib qoldi, ko'pincha biz, majoziy manoda, boshimizni burab, yumshoq yostiqqa qo'yib, televidenie va boshqa ommaviy axborot vositalariga xohlagan narsa bilan to'ldirish imkonini beramiz.

Bir kuni men ikki soat davomida teleko'rsatuvlarni yozib oldim, ular kechqurun, tomoshabinlarning maksimal soni ekranlar oldida o'tirganda efirga uzatilardi. Kichik tahrirdan so'ng, butun yozuv 12 daqiqalik videoklipga aylandi, u tomoshabinlarni zeriktirmaslik uchun oddiy syujet chizig'i bilan bir-biriga bog'langan jinsiy aloqaga ishoralardan iborat edi. Ushbu yozuvni o'smirlarga ko'rsatib, ularga videoklip davom etayotgan 12 daqiqa davomida eshitgan yoki ko'rgan barcha jinsiy ishoralarni hisoblashni taklif qilaman.

Nima bo'lganini toping-chi? Tomoshabin dastlabki uch-to'rt lahzani ilg'ab oladi, ammo keyin kulgili sahnalarga shunchalik berilib ketadiki, sanashni to'xtatadi. Eng ko'pi bilan 10-11 ta jinsiy ishora sanaladi. Ular aslida nechta ekanligini bilmoqchimisiz? - Qirq bitta! Hatto namoyish paytida ishtirok etayotgan kattalar ham odatda bu jinsiy ma'lumotlarning 50% dan ko'pini "sezmaydilar."

Oldingi bobda biz umuman nimadan qochish kerakligi haqida gapirdik: sovunli operalar, past darajadagi tok-shoular, sevgi romanlari, MTV dasturlari va pornografiyaning har qanday shakli, ammo boshqa axborot tashuvchilar haqida nima deyish mumkin? Har kuni bizni turli xil xabarlar bilan bombardimon qilishadi, bazan tarbiyali, bazan esa tarbiyali bo'lmagan xabarlar. shular jumlasidan. Ushbu bobda biz sizga ommaviy axborot vositalari - televidenie, musiqa, kino, jurnallar, Internet xabarlarining tagmanosini anglashni o'rgatishga harakat qilamiz, shunda siz har qanday ma'lumotni tushunib, nimani ongingizga kiritish va kiritmaslikni o'z vaqtida hal qila olasiz.

Dastlab, televidenie, jurnallar va musiqa sanoati tomonidan uzatilgan bazi xabarlarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Televidenie orqali uzatiladigan xabarlar

Yaqinda telekanallarni "aylanib", bugun nima ko'rishayotganini bilmoqchi bo'ldik. Biz quyidagilarni aniqladik:

"Do'stlar" serialining epizodlaridan birida Reychel (aktrisa Jennifer Eniston) kino yulduzi Vaynona Rayderga yoshlik paytlarida bir-birlarini erkalashganini eslatib, uni ehtiros bilan o'padi.

- Buning nimasi boshqacha ekanligiga qiziqib, Fibi (aktrisa Liza Kudrou) kutilmaganda Reychelning bo'sa olishini to'xtatadi, shundan so'ng u shunday deydi: "Buni qarang! Menda bundan yaxshirog'i ham bo'lgan!"
- "Men u bilanman" komediya shousining dastlabki epizodlaridan birida o'qituvchi Patrik maftunkor kino yulduzi Aleks Yang bilan uchrashishni boshlaydi. Syujetga ko'ra, Aleks Patrikni xuddi shu kvartirani ijaraga olgan sobiq sevgilisidan rashk qiladi. Butun shouning o'ziga xosligi shundaki, hamma (shu jumladan, Patrik va Aleks ham) uchinchi sevgilisi tufayli "o'zgacha tun"ni o'tkazishini va "so'zdan ishga o'tish" vaqti kelganida aynan u "jinsiy sham"ni yoqishini intiqlik bilan kutishadi.
- "Hammasi nisbiy" serialining epizodlaridan birida unashtirilgan juftlik uning poyabzalini yoqtirmagani va uning tungi ko'ylagi yoqmagani uchun janjallashadi. "Men bo'lsam, quyonchalar solingan shinamgina ko'ylagim senga yoqadi deb o'ylabman!" - deydi u, yigit esa: "Men quyonchani iniga kirmoqchi bo'lganim uchun shunday dedim!" - deb javob beradi. Kelinga qasdma-qasd, u botinkasida uxlashga yotadi, shunda u: "Botinkangni echmasang, iningga kiritmayman!" deydi.

Ko'plab shoular nafaqat nikohdan oldingi jinsiy aloqani rag'batlantiradi, balki munosabatlarni o'rnatish uchun hech qanday mehnat talab qilinmaydi degan tasavvurni ham yaratadi. "Bo'ydoq qiz" teledasturi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Uch yuztasi Rayanni kutib oladi va ikki haftadan so'ng u tiz cho'kib, unga brilliantli uzukni uzatadi va unga turmushga chiqishni so'raydi, atrofda esa yuzlab shamlar yonib, atirgul barglari xushbo'y yomg'ir bo'lib yog'adi.

Bunday turdagi dasturlar "haqiqiy televidenie" deb ataladi, ammo aslida ular boshidan oxirigacha prodyuserlar tomonidan ishlab chiqariladi, televidenie tarmog'i tomonidan to'lanadi va faqat tomoshabinlarni jalb qilish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Adolat yuzasidan shuni takidlash kerakki, bazi joylarda hayot haqiqati haqiqatan ham bu ko'rsatuvlarga jinsiy yo'l bilan yuqadigan ko'plab kasalliklardan biri bo'lgan herpesga qarshi dorilarning reklamasi sifatida kirib keldi (bu haqda 19-bobda yana gaplashamiz).

Teleko'rsatuvlar sizni aqlan, qalban va jismonan poklik uchun kurashda mag'lubiyatga oldindan tayyorlaydi. Jurnallar ham sizga shunday nopok nojo'ya xizmat ko'rsatishga tayyor.

Jurnallar tasiri

"Kosmoqiz!" "YM," "O'n yetti" - bular sizning qulog'ingizga qanday qilib jinsiy jozibador va o'ziga ishongan bo'lish haqida shivirlaydigan ko'plab jurnallardir. Sahifalar ketma-ketligida sizning oldingizda yomon qiz rolini qanday o'ynash kerakligi haqidagi maslahatlar to'plami paydo bo'ladi.

"Teen people" o'smirlar jurnalining 2003 yil noyabr sonidagi atigi o'nta maqolaning sarlavhalariga baho bering:

- "Mur bilan tanishing: Mendi Mur - sevgilisi, uning "buferlari" va superyulduz bo'lishni istamasligi haqida"
- "A dan Ya gacha bo'lgan jinsiy aloqa: erotika dunyosi sensatsiyalari"
- "Uchrashuvlar kundaligi: siz butunlay ajralishni xohlaysiz, lekin sizning jinsiy magnitingizni tuzatish kerak"
- Jinsiy jozibadorlik testi. O'zingni sinab ko'r: sen yonyapsanmi yoki seni yondirish ham kerakmi?
- Maxsus jinsiy sharh: chiroq o'chganida nima qilasiz va nima uchun?"

Baxtga qarshi, ko'p qizlar hayotiy yo'l-yo'riq izlab, Muqaddas Kitobdan ko'ra, bunday jurnallarga tez-tez murojaat qilishadi. Shuning uchun ham biz yaltiroq jurnalni ko'rib, hayratda qoldik.

"Revolve" - tushuntirishlar, savolnomalar va "Maslahatlar" rukni bilan to'ldirilgan o'smir qizlar uchun Yangi Ahdning rasmi ommaviy nashridir. Quyida biz "Revolve"da ko'rgan sarlavhalardan bazilari keltirilgan:

- Uchrashib yurgan yigiting Xudoga ishonadimi?
- Sen hali eshitmagan go'zallik sirlari"
- Etiqodingizni amalda qo'llashning 1001 usuli"
- Yigitlar har doim "ish yuzasidan" gapirishadi.

Qizlarimiz va ularning dugonalari bu jurnalni nafaqat Xudo bilan yolg'iz muloqot daqiqalarini, balki sirli ravishda va shunchaki o'z xonasida dam olayotganda ham juda yaxshi ko'rishadi va katta qiziqish bilan o'qishadi.

Televidenie va jurnallardan tashqari, yosh qizning jinsiy qarashlariga musiqa ham kuchli tasir ko'rsatadi.

Musiqa sanoatining tasiri

Bir necha yil muqaddam onasining iltimosiga ko'ra o'n olti yoshli qiz bilan uchrashdim. Melodi bilan suhbatimiz, boshqa narsalar qatori, uning sevimli musiqasi, kiyadigan kiyimlari va onasi bilan eng ko'p kelishmovchiliklarga sabab bo'ladigan narsalar haqida bo'ldi. Qizning takidlashicha, onasidan hech qachon kiymaydigan "har qanday mayda-chuyda narsalarni" sotib olish o'rniga uni o'ziga jalb qiladigan kiyimlar uchun pul berishini so'rash eng qiyin ish. "Men shunchaki jozibali kiyinishni yaxshi ko'raman. Bu hali meni fohisha qilib qo'ymaydi," - deb mulohaza yuritardi u.

Nega aynan shunday ko'rinishni yoqtirishini so'raganimda, Melodi Madonnani, u ijro etadigan qo'shiqlarni va uning "aqlidan ozdiruvchi" kiyinish uslubini juda yaxshi ko'rishini tan oldi. Melodining pardozi stolida "People" jurnalining soni yotardi. Muqovada Shon Penn, Dennis Rodman va Maykl Jekson kabi mashhurlarning portretlari ramkasida Madonnaning yuzi tasvirlangan. Bu yerda shunday yozuv bor edi: "Madonnaning erkaklari: u sevgan, undan qo'rqqan, unga soatiga o'ttiz marta qo'ng'iroq qilganlar."

Yoshligimda yosh qizlarni aqlidan ozdirgan rok yulduzi fenomeni bilan qiziqib, "Oshiq ayol" nomli maqolaga murojaat qildim. Unda men Madonna har doim "o'g'il bolalarni qo'lqop kabi almashtirgani" va hozir ham ko'pincha erkaklardan jozibali hamroh sifatida foydalanishi haqida o'qidim. Ko'plab ishqiy munosabatlar (bazilari uylangan erkaklar yoki lezbiyan ayollar bilan) va ikkita abort - shunchaki "o'sha paytda farzand ko'rish vaqti emas edi" - bo'lsa-da, maqola Madonnani taqlid qilish uchun namuna deb elon qildi.

"O'tgan qishda Madonna tarjimai holi uchun material to'plash jarayonida Endryu Morton uning 43 yoshli pop-musiqa yulduziga bo'lgan muhabbati odatiy fanatlik chegarasidan ancha tashqariga chiqqan muxlislaridan biri bilan uchrashdi. [Mortonning xotirlashicha] "U menga shunday dedi: "Hayot qiyinchiliklariga duch kelganimda, men o'ylayman: "Mening o'rnimda Madonna bo'lganida, u qanday yo'l tutgan bo'lardi?"

Bu sizga hech narsani eslatmayaptimi? Bunday fikrlash tarzini qayerga olib borishni tasavvur qila olasizmi? Mening o'rnimda bo'lganida, Madonna nima qilgan bo'lardi! Bu juda qo'rqinchli fikr! "People"ning keyingi xatboshida shunday deyilgan:

"Mortonning kitobiga ko'ra... muxlislar o'z kumirlarining izidan borishdan oldin yaxshilab o'ylab ko'rishlari kerak - hech bo'lmaganda sevgi haqida gap ketganda... [Morton] [Madonnani] muhabbatga chanqoq bo'lgan va bu bilan ko'plab sevgilisini qo'rqitgan xavfli manipulyator sifatida tasvirlaydi, ularning aksariyatiga u xiyonat qilgan. Deyarli har doim Madonna tomonidan qabul qilingan qarorlar aqlsizlik edi."

Bizni to'g'ri tushuning: biz na Madonnaga, na Melodiga tosh otmoqchi emasmiz. Agar kimdir siz bilan mening beboshligimiz haqida biografik ocherk yozishga jazm qilganida edi, manzara ham xuddi shunday xunuk bo'lib chiqardi. Xudoga iltijo qilamizki, Madonna va Melodi Unga, ularning haqiqiy muhabbatga bo'lgan intilishlarini qondira oladigan Zotga kelsin - bu muhabbatni ko'plab aloqalar, "balandparvoz" garderob, "super-xit" qo'shiqlar, dunyo miqyosidagi shon-shuhrat yoki boylik tufayli ham qo'lga kiritib bo'lmaydi.

Xuddi shu "People" jurnalida to'shakka ko'ndalang yotgan va belidan pastroq kamarli jinsi shim kiygan, oq charm nimcha kiygan, kindigida uzuk taqqan va kipriklarida tush surilgan Britni Spirsning surati chop etilgan. "Mikki Maus" klubining sobiq azosi Britni tez orada eng mashhur yosh yulduzlardan biriga aylandi; uning yuzi futbolkalardan tortib bloknotlar va nonushta uchun tunuka qutilargacha bo'lgan hamma narsani bezab turardi. Shunga qaramay, yozuvchi Chak Arnold takidlaganidek, Britni "Men sening qulingman" "Yolg'izlik", "O'g'il bolalar", "Oldindan zavqlanish" va "Puflab shishirilgan sevgi" qo'shiqlari kabi qo'shiqlarni kuylaganida, Mikki Maus uyatdan quloqlarini berkitib olsa kerak.

Bu ochiqdan-ochiq erotik rasmda Britnining bo'ynida osilib turgan kumush xoch eng dahshatli ko'rinadi. Albatta, qo'shiqchi bu bilan o'zida mavjud bo'lgan Isoga bo'lgan ishonchni namoyish etishi mumkin, ammo uning yosh masihiy muxlislari bu xochni ko'rib, bunday xatti-harakatlar masihiy uchun to'liq joiz degan xulosaga kelishlari mumkin. Yo'q, yana bir bor yo'q!

Afsuski, musiqa sanoati pop-yulduzlarni haddan tashqari maqtaydi, ularning fikricha, ular "to'g'ri" ko'rinadi, harakat qiladi va kiyinadi. Bu ayollarning ko'pchiligi odobsizlik, jinsiy poklik, aqliy, qalbiy va jismoniy iffatdan yiroq bo'lgan, Muqaddas Kitobga zid xulq-atvor namunasini ko'rsatishadi. Shuning uchun biror-bir pop-yulduzning kumiri bilan bahslashishga shoshilmang; avvalo, uning qo'shiqlarini tinglang va so'zlarini Xudoning Kalomi bilan solishtiring, keyin esa bularning barchasini chindan ham ongingizga singdirishni xohlaysizmi yoki yo'qmi, hal qiling.

Ommaviy axborot vositalarini qanday engish mumkin

Ommaviy axborot vositalari orqali singdirilayotgan shahvoniy g'oyalar haqida yana uzoq gapirish mumkin, lekin asosiy fikr sizga ayon. Bundan qochib qutulib bo'lmaydi, shuning uchun shunchaki tan olish kerakki, dunyo tom manoda bizni yomon maslahatlar va yomon misollar bilan bombardimon qilmoqda va tezda boshingizni egib, boshpanaga shoshilishni o'rganish kerak.

Agar siz jinsiy va hissiy jihatdan yaxlit ayol bo'lishni istasangiz, quyidagi qadamlarni bajarishni maslahat beramiz:

1.Siz mamnuniyat bilan murojaat qiladigan barcha malumot tashuvchilarni xayolingizdan bir-bir o'tkazing: siz o'qiydigan jurnallar va kitoblar, sevimli kinofilmlar va teleko'rsatuvlar, qo'shiqlar hamda musiqachilar ro'yxatini tuzing. Kirgan veb-saytlaringizni ham kiriting.

2.Ro'yxatingizdagi har bir band bo'yicha o'zingizga quyidagi savollarni bering:

- Masihiy do'stlarim, ruhoniy yoki ota-onam bu ish bilan shug'ullanayotganimni bilib qolishsa, o'zimni noqulay his qilarmidim? Ulardan buni sir tutishga ehtiyoj sezyapmanmi?
- Bu mening masihiy etiqodimga zid bo'lgan g'oyalar, qadriyatlar yoki vaziyatlarni ulug'laydimi?
- Bu kitob (shou, qo'shiq, film, veb-sayt) menda tushkunlik yoki o'zimdan norozilik hissinini qoldirdimi, menda nosog'lom munosabatlarga intilishni uyg'otdimi?

Agar ushbu savollarning birortasiga ijobiy javob bergan bo'lsangiz, buni ogohlantirish sifatida qabul qiling: demak siz noto'g'ri yo'lga qadam qo'ygansiz.

3.Nihoyat, bu haqda ibodat qilib, o'zingizga quyidagi savollarni bering:

- Iso mening o'rnimda bo'lganida nima qilgan bo'lardi?
- Iso nimalarni tomosha qilgan bo'lardi?
- Iso nimani tinglagan bo'lardi?
- Iso nimani o'qigan bo'lardi?

Takror aytamiz, o'z fikrlaringizni zararli tasirlardan himoya qilishning asosiy usullaridan biri - jinsiy qo'zg'alishni keltirib chiqaradigan yaramas xayollar va manzaralarni ongingizga kiritmaslikdir. O'qish, ko'rish va eshitishga odatlangan narsalarga diqqat bilan qarang. Avvaliga bunday o'z-o'zini nazorat qilish sizga qiyin tuyuladi, lekin vaqt o'tishi bilan u sizning ikkinchi tabiatigingizga aylanadi.

Qayerdan panoq qidirayman

Oldingizda nimani ko'rish va tinglashim kerakligi haqidagi shaxsiy etiqodlarim ro'yxati, shuningdek, nima uchun bunday qarorga kelganimning izohlari turibdi. Bu tamoyillar menga notinch, tartibsiz dunyomizdan panoq topishga yordam beradi. Ular tufayli men engib bo'lmas vasvasalarga duchor bo'lmasdan, hayotdan zavqlana olaman. Umid qilamanki, ular sizni ham ongingizni vasvasalardan himoya qilish yo'llarini izlashga undaydi.

- Men jinsiy aloqa haqida o'ylashga undaydigan teleko'rsatuvlarni ko'rmayman. Ular odatda qo'pol hazillarga boy bo'ladi, lekin ularda ilgari surilayotgan g'oyalar, muhokama qilinayotgan mavzular na aqlga, na yurakka foyda keltiradi va faqat qimmatli vaqtimni oladi. Muqaddas Kitob nopok narsalarga qarashni taqiqlaydi (Matto 6:22,23), bu xabarlar odatda nikohsiz jinsiy aloqa haqida gapiriladi. Agar televizorda sog'lom va foydali tasir ko'rsatadigan shou ko'rsatilsa, men o'tirib tomosha qilaman. Lekin u tugashi bilan mening televizor oldida o'tirishim ham tugaydi. Men o'rnimdan turib, foydaliroq va unumliroq mashg'ulot bilan shug'ullanaman. Yaxshisi, bu kechki soatlarni o'zingiz uchun qadrlil bo'lgan insonlar - oila va do'stlaringizga bag'ishlang.
- Men nosog'lom jinsiy intilishni uyg'otadigan yoki odamlarni salbiy (jinsiy nuqtai nazardan) ko'rsatadigan musiqalarni tinglamayman. O'smirligimda shunga o'xshash gaplarni eshitganman va keyinchalik ular jinsiy hayotimga salbiy tasir qilganiga amin bo'ldim. 1980 yillarda shaxsiyatimni shakllantirgan (va unchalik yaxshi emas) behayo qo'shiqlar hali ham esimda. Endi men faqat masihiy qadriyatlarimga putur etkazmaydigan musiqalarni tinglayman.
- Ayollar jurnallariga ham juda ehtiyotkorlik bilan yondashaman. U yerda nashr qilingan narsalarning ko'pi menga hech qanday foyda keltirmaydi. Qanday qilib ozg'inroq bo'lish haqida sahifama-sahifa o'qib, bir xil ichki kiyimdagi nozikkina go'zallarni tomosha qilar ekanman, o'z tanamdan norozilik va hatto o'zimdan jirkanish hissini tuyishim mumkin. Qachonki men o'zimni modellar bilan solishtirishga emas, balki menga bergan mustahkam va sog'lom tana uchun Xudoga minnatdorchilik bildirishga harakat qilsam, o'zimni ancha yaxshi his qilaman.

Unutmang: shahvoniy mazmundagi xavfli malumotlarni ongingizga singdirish orqali siz asta-sekin hayotingizda uchraydigan va sizni gunohga undaydigan vaziyatlarga befarq bo'lib qolasiz. Bunday g'oyalardan himoyalaniish orqali siz o'z qalbingiz va hayotingizni himoya qilgan bo'lasiz.

O'ttiz kunlik tajriba

O'z ustingizda tajriba o'tkazing: 30 kun davomida televidenie, kino, jurnallar, musiqa va Internet orqali keladigan barcha shahvoniy malumotlardan qoching. Yangiliklarni yoki mutlaqo beziyon ko'rsatuvlarni tomosha qilishingiz mumkin, ammo ko'rsatuvning tabiati haqida ozgina shubha paydo bo'lsa, darhol televizorni o'chiring. O'ttiz kun shunday qiling. Ommaviy axborot vositalari tomonidan to'xtovsiz berilayotgan shahvoniy malumotlardan ongingizga dam berasiz. Qarshilik ko'rsatish orqali siz ancha sezgir bo'lasiz va ommaviy axborot vositalari sizni har xil axlatlar bilan to'ldirayotganini darhol taniy olasiz.

Bu tajribani o'zida sinaganlarning ko'pchiligi shunday deyishadi: "Aksariyat teleko'rsatuvlarni endi ko'ra olmayman va buzuvchi qo'shiqlarni eshitishni ham xohlamayman. Meni hayvon darajasiga tushirib, or-nomusimni behayolarcha yerga urishlariga toqatim yo'q! Keyinchalik bu odamlar o'z do'stlariga xuddi shunday tajribani o'tkazishni maslahat berishdi.

Xo'sh, rozimisiz? O'ttiz kun davomida faqat masihiylik qadriyatlarini qo'llab-quvvatlaydigan kitoblar, ko'rsatuvlar, musiqalar bilan shug'ullanishga urinib ko'rasizmi? Xudodan yordam berishini so'rab, ibodat qiling. Shunda siz OAV ustidan g'alaba qozonasiz!

Ehtiyotkorlik va donolik ko'rsating, shunda pop-madaniyatning tajovuzkor hujumlari siz uchun qo'rqinchli bo'lmaydi, ongingiz shaxsiyatingizni emiradigan va jinsiy hamda hissiy poklik uchun kurashda g'alaba qozonish qobiliyatingizga putur etkazadigan zararli, kamsituvchi malumotlardan xalos bo'ladi. Siz qurbon qilgan arzimasi narsani sizni kutayotgan ulkan mukofot bilan o'lchab bo'lmaydi.

*"Ammo Men, Egangiz, odamning yuragini bilaman, Uning o'y-fikrlarini tekshiraman. Qilmishiga yarasha jazolayman, Qilgan ishiga yarasha taqdirlayman."*Yeremiyo 17:10

V-QISM

O'Z QALBINGIZNI HIMOYA QILISH

15-BOB

His-tuyg'ular bilan kurashishda g'olib chiqish

*Bor kuching bilan qalbingni asra,
chunki u hayot bulog'idir.*

Hikmatlar 4:23

Kimningdir: "Qizlar uchun jinsiy mayl yigitlarnikidek muammo tug'dirmaydi" degan chuqur manoli gapini eshitsam, "Qaysi sayyoradan kelib qoldingiz?" deb so'ragim keladi. Shahvoniy vasvasaga berilgan har bir yigitga u bilan birga shunday gunohga botgan qiz to'g'ri kelmaydimi? Ehtimol, bunday deyish bilan odamlar qiz bola uchun shahvoniylikning jismoniy tomoni yigit uchun muhim emasligini nazarda tutishsa kerak.

Unutmang: yigitlar ham, qizlar ham jinsiy mayllarga qarshi turlicha tarzda kurashadilar. Yigit o'z iffatini saqlab qolish uchun ko'zini fitnalardan asrashi, Xudo hissiyotga beriluvchan qilib yaratgan qiz esa qalbini avaylab asrashi kerak. Siz o'zingizning jinsiy va axloqiy pokligingiz uchun kurash olib borasiz, chunki agar siz yuragingizni saqlab qola olmasangiz, tanangiz jismoniy vasvasalarga ancha zaif bo'lib qoladi.

Siz ayol bo'lib yaratilgansiz, ruhingiz esa tabiatan qarama-qarshi jins vakillarining etibori va mehrini qo'msaydi. (Agar ko'nglingiz boshqa ayolning muhabbatiga tashna bo'lsa - xotimani o'qing.) Biroq, sizning boshqa birovga moyilligingiz bu odam sizga mos keladi degani emas.

Muhabbat izlab

Har bir odam muhabbat ishtiyoqida yonadi, buning hech yomon joyi yo'q. Hamma gap uni qayerdan izlashda. Agar sizga har birimiz olishga haqli bo'lgan joyda, yani oilada, sog'lom do'stlik munosabatlarida muhabbat berilmasa, siz uni izlashga shoshilishingiz mumkin. Lekin Xudo sizga boshqa, yaxshiroq yo'lni ko'rsatadi. Sizni sevishlarini xohlaganingiz uchungina qalbingiz va tanangizni xavf ostiga qo'yishingiz shart emas. Siz sog'lom, to'laqonli munosabatlarni izlashingiz va shu bilan birga ruhingizni xavf-xatardan himoya qilishingiz mumkin. Shu va keyingi uchta bobda quyidagilarni bilib olasiz:

- Xudo yurak haqida nima deydi va nima uchun uni asrashingiz kerak;
- sog'lom muloqotda his-tuyg'ularingizga qanday "tus berish" haqida;
- nosog'lom munosabatlar ostonasida turganingizni qanday aniqlash mumkin va agar shunday bo'lsa, nima qilish kerak;
- qalbingiz intizor bo'lgan muhabbatni qayerdan topasiz?

Hamma narsaning markazi


Xudo bizga qalbimizni - hayotimizdan, etiqodimizdan, munosabatlarimizdan, pullarimizdan, orzularimizdan, biz uchun qadri bo'lgan hamma narsadan ustun qo'yishni buyuradi. Muqaddas Kitobda shunday deyilgan (va bu oyatni ushbu bobning epigrafiga kiritganmiz): "Bor kuching bilan qalbingni asra, chunki u hayot bulog'idir" (Hikmatlar 4:23).

Xo'sh, nega bu Xudo uchun muhim? Javob "manbalar" so'zida. Yurak - hayot manbai. Xudo insonni yaratar ekan, uning jismi, ruhi va hissiyotining qoq markaziga yurakni joylashtirgan. Jismoniy jihatdan bu azo qon aylanish tizimining markazida joylashgan. U kislorodga to'yingan qonni butun tana bo'ylab haydaydi. Agar yurakda nuqsonlar paydo bo'lsa, butun tana bu hayotbaxsh oqimdan mahrum bo'lishi mumkin. Ruhiy manoda yurak Muqaddas Ruhning maskani bo'lib, biz Undan hayotimizga kirishini so'raymiz (Efesliklarga 3:16,17). Hissiy manoda, bu bizning his-tuyg'ularimiz jamlanmasidir: biror narsadan yoki kimdandir xursand bo'lganimizda qalbimiz quvonchdan titraydi va umidsizlikka tushganimizda yoki yo'qotishdan qayg'urganimizda qattiq og'riydi. Qalb barcha his-tuyg'ularimizning markazida turadi, shuning uchun Xudo uni hamma narsadan ustun qo'yishni buyurganida, u aslida shunday deydi: "Hayotingizning manbai - jismoniy, manaviy va hissiy farovonligingizni himoya qiling.

Ko'lining manbasi iflos bo'lsa, u toza bo'lmaganidek, qalbingiz gunohkor bo'lsa, fikrlaringiz, so'zlaringiz va amallaringiz ham to'g'ri bo'lmaydi. Yujin Peterson Muqaddas Kitob amrini qayta ifodalab, bu haqda shunday deb yozadi:

Quyidagi amr ham sizga tanish: "Birovning eri yoki xotini bilan yotma." Lekin o'zingizni bunday qilmadim, degan xayolga bormang, demak, sizning pok nomingizga dog' tushmagan. Shahvat qalbni badandan ham ko'ra ko'proq buzadi. Sizning etiqodingizcha, hech kim ko'rmaydigan hirsli qarashlar [yoki fikrlar] ham buziladi."

Shunday qilib, agar siz jinsiy va hissiy jihatdan pok qiz bo'lishni istasangiz, yuragingiz harakatlanishiga imkon beradigan yo'nalishni ehtiyotkorlik bilan tanlang. Nikohgacha bo'lgan jismoniy aloqalar qachon haddan oshib ketganini aniqlash bir masala, ammo hissiy munosabatlarda "haddan oshib ketish" nimani anglatishini kim ayta oladi? Qarama-qarshi jins bilan hissiy munosabatlarning chegaralari qayerda joylashganligini tushunish uchun 15.1-rasmga qarang.



15.1-Rasm: Hissiy bog'liqlik darajalari

Ushbu sxema sizga hissiy aloqaning oltita darajasini aniqlashga yordam beradi:

- 1) etibor;
- 2) mayl;
- 3) moyillik;
- 4) bog'liqlik;
- 5) muhabbat munosabati;
- 6) ehtiros

(Har bir bandni alohida muhokama qilganimizda bu sxemaga yana bir necha bor qaytamiz.) Garchi Xudoning niyatiga ko'ra, biz qarama-qarshi jins vakili bilan munosabatlardan zavq olishimiz kerak bo'lsa-da, U bizni "taqiqlangan" yoki jinsiy va hissiy yaxlitligimizga putur etkazadigan kishiga yuragimizni bermasligimizdan ogohlantiradi. Ushbu sxemani yodda tutgan holda, siz xavfli vaziyatlardan qochish uchun his-tuyg'ularingizga qayerda chek qo'yish kerakligini hal qila olasiz. Hissiy aloqaning turli darajalarini aniqlashni o'rganib olgach, qayerda xavfsiz yurish mumkinligini ("svetofohimiz"ning yashil chirog'i), qayerda juda ehtiyotkorlik bilan harakatlanish kerakligini (sariq), qayerda orqaga burilib, teskari tomonga yugurish kerakligini (qizil) bilib olasiz.

Ushbu sxemani yodlab olishingizni maslahat beramiz. Keyingi uchta bobga o'tishdan oldin, ibodat qiling va Xudodan bu uch darajani yaxshilab tushunishga yordam berishini so'rang va ular sizning yuragingizni xavfdan himoya qilishga qanday yordam berishini tushuning. Keyin bu boblarni xuddi hayotingizdagi eng muhim imtihonni topshirishga tayyorlanayotgandek o'qing. Bu malumotlarni tushunish, o'zlashtirish va qo'llashga qarab, qachondir oldingizda paydo bo'lishi muqarrar bo'lgan hissiy sinovlardan muvaffaqiyatli o'ta olish yoki o'ta olmasligingizni - aytish mumkin bo'ladi.

«Egamni olqishlayman, U menga yo'l ko'rsatadi, Tunda ham qalbim menga o'git beradi. Men doim Egamga ko'z tikaman, U o'ng tomonimda bo'lgani uchun Meni hech narsa qo'zg'ata olmas. Shu bois, ey Egam, yuragim quvonchga to'la, Jonim ham quvonadi. Tanam xavf-xatarsiz yashaydi» Zabur 15:7-9

16-BOB

Ketish mumkin

[Qizim], so'zlarimni eshit, aytganlarimga quloq sol. Ularni ko'z oldingdan qochirma, yuragingning qarida saqlagin. Chunki ularni topganlarga hayot, butun tan-joniga malham bo'ladi.

Hikmatlar 4:20-22

Har birimiz u yoki bu sababga ko'ra kimdir nigohimizni o'ziga qaratgan holatni eslashimiz mumkin.

Balki rok-guruhning kontsertida ajoyib gitarachiga etibor bergandirsiz, balki dugonangizning akasi shunchalik yoqimtoyki, uni shunchaki tomosha qilish mumkin. Ehtimol, sizning xaridlaringizni mashina oldiga olib keladigan supermarketdagi chiroyli yugurdak yigitning ajoyib tabassumi bordir va siz uning xayrlashuv so'zlarida "Hammasi yaxshi bo'lsin. Yana biznikiga keling!" - degan yashirin manolar bordir.

To'satdan biror yigit sizga yoqimtoy bo'lib ko'rinsa, bundan qo'rqish kerakmi? Xavfli yo'lga qadam qo'ymayapsizmi? Balki kimnidir chiroyli deb topib, qalbingizni asrab qolmagandirsiz? Aslo unday emas! Siz Muqaddas Yozuvlarga zid keladigan hech qanday ish qilmadingiz, hech qanday qasamni buzmadigingiz va bu vaziyatlarda har qanday aybdorlik hissi yolg'on bo'ladi. Bo'ling

Mutlaqo xotirjamsiz: ko'zlaringiz sizga sadoqat bilan xizmat qilmoqda, shuning uchun bunday go'zallikni yaratgani uchun Xudoga minnatdorchilik bildirishingiz mumkin. Yigitning etiboringizni tortishida hech qanday jinoyat yo'q va bu bobda biz hissiy aloqaning "yashil darajasi" haqida gaplashamiz, uning birinchi bosqichi diqqatdir.

U sizning etiboringizni tortganda

Birinchi kurs talabasi Sara universitet kutubxonasida o'tirganida, eshik ochilib, juda yoqimtoy bir erkak kirib keldi. "Voy, sen-ey! Bu mening bo'lajak erim shekilli! - deb hazilomuz xitob qildi u dugonasiga, shunda yonida turgan ayol xotirjamlik bilan javob berdi: - Kechirasan, jonim, bu mening erim! Garchi bunda qizarishning hojati bo'lmagan va u mutlaqo hech qanday gunoh qilmagan bo'lsa-da, bu so'zlarni eshitib, Saraning qanchalik qizarib ketganini gapirib o'tirishning hojati yo'q.

Chiroyli yigitni payqaganimizda, u bizning etiborimizni tortadi. Bu mutlaqo normal, sog'lom va tabiiydir, - hatto keyinchalik u bilan yaqinroq uchrashish yoki tanishishning iloji yo'qligi malum bo'lsa ham. Hissiy aloqangiz darajasi chegaradan chiqmaguncha "yashil signal," siz o'zingizni ayblashingiz shart emas.

Ko'pchilik yosh qizlar bizdan: "Chiroyli erkakka boshqalarga bo'lgani kabi etibor bermaydigan vaqtim kelarmikin?" deb so'rashadi. Ha, vaqt o'tishi bilan, balog'atga etish bilan qarama-qarshi jinsga bo'lgan qiziqishingiz kamayadi, lekin u izziz yo'qolib ketmaydi. Yodingizda tuting: muhabbat, etibor, mehribonlik va ruhiy yaqinlik istagi inson tabiatiga xosdir. Maktabni bitirganingiz, barmog'ingizga nikoh uzugini taqqaningiz, farzandli bo'lganingiz, keksayganingiz, sochingiz oqargani va ajinlar bilan qoplanganingiz bilan u o'zgarmaydi. Bu istakning yo'qligi faqat bir narsani bildiradi: siz o'lgan bo'lasiz.

Shu kuni jang maydonidan ziyofat dasturxoniga o'tasizlar. U yerda, Iso bilan birga bo'lganingizda, eng yaxshi taomlar bilan oziqlanasiz (Zabur 62:5).

Keyingi bosqichga o'tishdan oldin diqqat darajasi bilan bog'liq keng tarqalgan bir afsonani bartaraf etmoqchimiz.

Agar bu sevgi bo'lsa-chi?

Siz yigitga tikilib qoldingiz va o'zingizdan so'ratingiz: "Balki bu bir qarashdagi muhabbatdir?" Bo'lmagan gap.

Bunaqa narsa umuman yo'q. Bir qarashda faqat etibor bo'ladi. Muhabbat to'satdan mast bo'lib, boshni aylantirib yuboradigan narsa emas. Bu odam bilan uzoq va yaqin muloqotdan so'ng paydo bo'ladigan jiddiy ishonchdir. Agar kimdir sizning etiboringizni qozongan bo'lsa, bu uning allaqachon qalbingizni zabt etganini anglatmaydi. Bu faqat vaqt o'tishi bilan va faqat sizning ruxsatingiz bilan sodir bo'lishi mumkin.

Etibor ko'rgan narsangizga asoslanadi va garchi sizning nigohingiz chiroyli erkakka to'xtashi mumkin bo'lsa-da, bu hali sizni unga tortishiga kafolat bermaydi. Odam bilan bir necha bor gaplashib, uni yaxshiroq bilib olganingizdan keyingina etibor qiziqishga aylanadi.

Buning isboti uchun bir misol keltiramiz. Aytaylik, siz yoqimtoy yigitni ko'rib qoldingiz va darhol uning singlisiga baqirganini, mashinasi bilan maqtanayotganini yoki kimnidir g'azab bilan so'kayotganini eshitdingiz. Sizda bunday odamga nisbatan mayl paydo bo'ladimi? Bo'lishi mumkin emas! U qanchalik basavlat bo'lmasin, sizda unga nisbatan mehr uyg'onmaydi. U sizning etiboringizni tortdi, lekin u sizni o'ziga tortmadi. Boshqa tomondan, siz tashqi ko'rinishidan hech qanday etiborga loyiq bo'lmagan yigitni uchratishingiz va dastlab unga umuman etibor bermasligingiz mumkin, ammo uni yaqindan taniganingizdan so'ng, uning nimasi sizga yoqishini his qilasiz. Buning sababi shundaki, ularga ayol kerak, ayol esa "ko'zlari bilan emas, quloqlari bilan sevadi."

Endi hissiy aloqaning ikkinchi darajasi - maylga o'tamiz. (15.1-rasmga qarang).

Diqqat-etibor qiziqishga aylanganda

Agar yigitni etarlicha yaxshi tanisangiz, u sizga haqiqatan ham yoqishini tushunsangiz, etibor - maylga aylanadi. Yana bir bor aytamanki, mayl tuyg'usida hech qanday gunoh yo'q. Biroq, bu yigit bilan uchrashish yoki yaqinlashishni boshlash uchun u sizga allaqachon yashil chiroqni ko'rsatyapti deb o'ylamang.

Agar sizda kimgadir moyillik paydo bo'lgan bo'lsa, bu zudlik bilan bu borada qandaydir choralar ko'rishingiz kerakligini anglatmaydi (garchi ommaviy axborot vositalari sizni aksincha ishontirsa ham). Agar siz do'stlaringizdan biriga moyil bo'lsangiz, u bilan o'ynashishni boshlashingiz va shu bilan munosabatlaringizni sifat jihatidan yangi, shahvoniy darajaga olib chiqishingiz kerak deb o'ylamang. Siz hissiyotlarning ojiz quli emassiz. Siz u bilan yaqinlashishga, ayniqsa, jinsiy aloqa qilishga "mahkum" emassiz, go'yo bu yerda endi hech narsa qilib bo'lmaydigandek. Aslida, agar kerak bo'lsa, siz uni umuman etiborsiz qoldirishingiz mumkin - yoki yoshingiz o'rtasidagi farq juda katta, yoki u bilan qiziqishlaringiz va qadriyatlaringiz butunlay farq qiladi, yoki bazi holatlar o'rtasidagi munosabatlarni imkonsiz qiladi. (Taqiqlangan munosabatlar haqida 18-bobda batafsil to'xtalamiz.)

Shunday qilib, siz yigitga bo'lgan ishtiyoqni his qilishingiz mumkin va shunga qaramay, bu tuyg'uni noto'g'ri rivojlantirishdan voz kechib, qalbingiz va tanangizni jinsiy nuqsonlardan himoya qilishda davom etishingiz mumkin.

Nima uchun bir odamga etibor beramiz-u, ikkinchisiga bermaymiz, buni tushuntirish qiyin emas. Nima uchun bizni u tomonga emas, bu tomonga tortishini tushunish qiyinroq. Bu yerda juda ko'p sabablar bo'lishi mumkin, ularning har biri o'zimizga xos va ko'pincha yosh o'tishi bilan orttirgan tajribamizga asoslanadi.

O'z hayotimdan misol keltiraman. Bir kuni oilamizning bir do'stiga ko'nglim qattiq tortib qoldi. Men "imago-terapiya" nima ekanligini tushunib olmagunimcha, nima uchun bunday bo'lganini tushunolmadim ("imago-terapiya" - bu bazi odamlar shunchaki "sizning modelingizga mos keladi" va har bir shaxs o'ziga xos "model" ekanligini o'rgatadigan usul). Shunday ham bo'ladiki, dugonangiz sizga yangi yigitini zavq-shavq bilan maqtaydi, siz esa uni ko'rib, hayron bo'lasiz: "U yigitdan nima topdi ekan?" Hamma gap shundaki, u qizning ichki ideallariga mos keladi, siznikiga esa to'g'ri kelmaydi.

O'z "modelim"ni biroz tushunib olgach, bu oilaviy do'st akamga juda o'xshashligini, o'zini tutishi esa otamning xatti-harakatlarini eslatishini angladim. Uni jozibali deb topganimdan ajablanishim kerakmi? U mening modelimga mos kelardi. Lekin u meni shunchalik o'ziga jalb qilgan ekan, o'rtamizda muqarrar ravishda ishqiy va jinsiy aloqa paydo bo'ladi, degan fikrdan qo'rqdimmi? Yoshligimda ko'p xatolarga yo'l qo'yishim mumkin edi, lekin baxtinga, qarama-qarshi jinsga etibor va moyillik inson tabiatiga xos ekanligini allaqachon bilardim. Men shunchaki bu odamning oldida o'zimni qanday tutishimni kuzata boshladim va u bilan suhbatlashish uchun mavzu tanlashda meni nima harakatga keltirayotganini tekshira boshladim. Aslida ukam va otam bilan muloqot etishmasligini tushungan holda, ular bilan munosabatlarni yaxshilashga va mustahkamlashga harakat qildim.

Oliyroq bo'lgan maqsad

Xudo bizga hissiy aloqaning "yashil" darajalarini - etibor va maylni - zavqlanish mumkin bo'lgan sovg'alar sifatida berdi. U O'zi yaratgan narsalarning go'zalligini, shu jumladan, qarama-qarshi jins vakillarini ham ko'rishimiz uchun ko'z ato etgan. U bizga eshitish, so'zlash va fikrlash qobiliyatini ato etganki, biz atrofigimizdagi odamlar bilan muloqotda bo'lganimizda ular haqida tasavvurga ega bo'lamiz va ular bilan yaqinlashamiz. Xudo bir-birimizni qadrlashimiz va Masih sevgisida bir-birimizga intilishimizni istaydi.

Ammo Rabbimizning bundan ham oliyroq maqsadi bor, shu maqsadda u qalblarimizga bir-birimizga etibor va moyillik tashnaligini joylagan. U aqlimiz va qalbimiz bilan Unga murojaat qilishimizni istaydi. Biz Xudoni anglab etganimizda va payqaganimizda, mo'jizaviy Yaratuvchimizni bilish uchun vaqtni ayamasaq, U bizga ajoyib Er sifatida namoyon bo'ladi, biz bilan chuqur hissiy aloqaga kirishadi va yuragimizni to'ldirishga qodir bo'lgan O'zining mehr-muhabbatiga intilish hissini uyg'otadi. Biz Isoni bu fazilatda taniganimizda, yer yuzidagi barcha sevgi va aloqalar Uning oldida ahamiyatsiz bo'lib qoladi.

“Ey Egam, sodiq sevging falaklarga etgaydir, Ey Egam, sadoqating samolarga cho‘zilgaydir.
Odilliging buyuk tog‘larga o‘xshaydi, Adolating tubsiz dengizga o‘xshaydi,
Ey Egam, insonu jonivorlarni Sen saqlagaysan. Sodiqlik sevging, ey Xudo, naqadar bebahodir!
Qanotlaring soyasida insonlar panoh topadi. Ular uyingdagi nematlardan eb to‘yadi,
Lazzat to‘la daryoingdan ularga ichirasan.” Zabur 35:6-9

17-BOB

Ehtiyotkorlik bilan harakatlanish

Shuning uchun mahkam turibman, deb o‘ylagan odam ehtiyot bo‘lsin, tag‘in qoqilib yiqilmasin.

1 Korinfliklar 10:12

Bu kitobning vazifalaridan biri sizni echinmasdan sevishtirishga o‘rgatish ekanligini bilasizmi? Hayronmisiz? Xijolat bo‘ldingizmi? Kulyapsizmi? Ehtimol, siz o‘zingizdan: "Bu hazilmi?" deb so‘rarsiz. Xo‘sh, bu holatda "sevmok" so‘zining jinsiy aloqaga hech qanday aloqasi yo‘q. Siz o‘zingizni obro‘sizlantirmasdan, lekin ayni paytda sevimli insoningiz muhabbatigiz va chuqur g‘amxo‘rligingizni his qilishini o‘rganishingiz mumkin.

Biz sizning ongingiz, qalbingiz va tanangizni xavf-xatardan asrashingizni istaymiz, lekin shu bilan birga, o‘g‘il bolalar bilan normal do‘stona munosabatlardan va hatto uchrashuvlar hamda uchrashuvlardan (albatta, iffatli) zavqlanishingizni xohlaymiz, chunki bularning barchasi sizni kelajakdagi birgalikdagi hayotga tayyorlaydi. Ammo bu yerda juda tezlashib, juda uzoqqa ketish oson, shuning uchun sekin va ehtiyotkorlik bilan harakat qilish kerak. Agar siz u yoki bu yigit mehr-muhabbatigiz va sadoqatingizga loyiq yoki loyiq emasligini aniqlashni o‘rgansangiz, his-tuyg‘ularingizni jilovlab tursangiz, tuyg‘ularingizning to‘satdan va boshqarib bo‘lmaydigan portlashlari sizga tahdid solmaydi. Keyinchalik: "Qanday qilib bunga qo‘l qo‘ydim?" - deb qayg‘urib o‘tirmaysiz.

Ushbu bobda biz hissiy aloqaning "sariqlik darajasi"ga etibor qaratamiz, bu yerda juda ehtiyot bo‘lish kerakligini eslaymiz (15.1-rasmga yana bir bor etibor berishingizni so‘raymiz). Bu darajaning birinchi pog‘onasida turib (bu pog‘ona "do‘stlik" deb ataladi), siz do‘st bo‘lgan va ko‘nglingiz tortgan yigitga nisbatan o‘z his-tuyg‘ularingizni qanday to‘g‘ri ifodalashni bilishingiz kerak. "Sariqlik daraja"ning ikkinchi bosqichiga o‘tib (u "sadoqlik" deb ataladi) siz kimga qalbingizni berishga tayyorligingizni bilishingiz kerak.

Mayli bog‘liqlikka aylanganida

Siz bir yigitga etibor berdingiz. U bilan tanishganingizdan so‘ng, sizga nima yoqishini bilib olasiz. Endi nima bo‘lishini toping-chi?

Unga o‘z mehrini shunday ko‘rsatishni xohlaysizki, u siz uchun oddiy do‘st emasligini tushunsin.

Munosabatlarning ko‘p turlari uchun yoqtirishni ifodalash tabiiy bo‘lsa-da, ular bilan muloqotda qarama-qarshi jins bilan buni juda ehtiyotkorlik bilan bajarish kerak. Qachon va qanday qilib o‘z xayrixohligini ko‘rsatishni bilish oson ish emas. Agar siz ishqiy munosabatlarga qiziqsangiz, samimiy bo‘lishni biling, lekin bu yaqinlashishga jon-jahdingiz bilan intilayotgandek ko‘rinmasin va albatta, hech qachon g‘azablantiruvchi harakatlarni qilmang.

Xo‘sh, sizni o‘ziga jalb qilgan yigitga qachon mehr bildirish o‘rinli bo‘ladi? Bu qachon noo‘rin? Farqni qanday ilg‘ash mumkin? Bu ingichka chegara chizig‘i qayerda joylashgan?

Garchi biz siz uchun har xil "mumkin" va "mumkin emas" ro‘yxatini tuzishga qodir bo‘lmasak-da, o‘zingizni tekshirish uchun bazi savollarni tavsiya etamiz. Ko‘nglingiz tortgan yigitga xayrixohlik bildirishga qaror qilishdan oldin ibodat qilib, bu savollarni o‘zingizga bering.

- Men bu odamni yaxshi bilamanmi? Uning xarakteriga ishonchim komilmi? Unga mehr qo‘yganimgan keyin afsuslanmaymanmi?
- Uni yaxshi ko‘rishga meni nima undayapti? Nima maqsadda shunday qilmoqchiman? Bu maqsad yaxshimi?
- Agar u meni uchrashuvga taklif qilishi uchungina menga juda yoqishini bildirmoqchi bo‘lsam, ota-onam (va uning ota-onasi) bunga qanday munosabatda bo‘lishadi?

- Men unga samimiy xayrixohlik ko'rsatishga harakat qilyapmanmi yoki buni behuda qilmayapmanmi? Men o'z izzat-nafsimni qondirish uchun maqto'v so'ramayapmanmi?
- U erkinmi? Mening iltifotimdan ranjishi mumkin bo'lgan biror qizi yo'qmi?
- Mening iltifot ko'rsatishim noto'g'ri talqin qilinmasmikin: u xijolat tortmasmikin, vasvasaga tushmasmikin, meni qandaydir yashirin niyatda deb shubhalanmasmikin?
- Unda menga nisbatan - men unga nisbatan his qilmagan tuyg'ular yo'qmi? Agar shunday bo'lsa, unga men shunchaki do'stlikdan ko'ra ko'proq narsani xohlayotgandek tuyulmadimmi (aslida unday emas)?
- Agar bu iltifotni boshqa odamlar (qarindoshlarim yoki yaqin do'stlarim) bilib qolishsa, uyalgan bo'larmidim?
- Xushmuomalalikning bu ko'rinishi vasvasa deb talqin qilinishi mumkinmi yoki u masihiy ayolga xosmi?

Agar siz Xudodan sizning asl niyatlaringizni ochib berishini so'ragan bo'lsangiz, agar har bir savolga to'g'ri javob berilgan va hech qanday xavf alomatlari topilmagan bo'lsa, demak, hammasi joyida va siz o'z mehringizni munosib tarzda ko'rsatishingiz mumkin.

Ammo bu savollarning hech bo'lmaganda bittasiga javoban qalbingizda qizil chiroqcha paydo bo'lgan bo'lsa, to'g'ri va rost harakat qilayotganingizga to'liq ishonch hosil qilmaguningizcha, har qanday iltifot ko'rsatishdan o'zingizni tiying. Muloqotingiz do'stona bo'lib qolsin, lekin sizni kim boshqarayotganini to'liq tushunmaguningizcha, unga alohida munosabat bildirmang. Bu haqda ibodat qiling, etuk masihiy dugonalaringiz bilan maslahatlashing va qalbingizni doimo tekshirib turing. Bu odamni yaxshiroq bilib olganingiz sari "qizil bayroqchalar" yo'qolib ketmayaptimi yoki aksincha, ko'payib ketmayaptimi, kuzatib boring. Shunday bo'lishi ham mumkinki, ichimizda u bilan munosabat o'rnatish kerak emasligiga ishonch paydo bo'ladi.

Agar siz uchrashmoqchi bo'lgan yigitga xayrixohlik ko'rsata olaman deb o'ylasangiz, buni qanday amalga oshirishni o'ylab ko'ring. "Sevgining besh tili" kitobi muallifi Geri Chapmenning fikricha, biz sevgimizni beshta "til" yordamida namoyon qilamiz: sovg'alar, yordam, rag'bat so'zlari, shaxsiy vaqt va jismoniy teginish. Bu model bizda 17.2-rasmda aks ettirilgan. Uni o'rganib chiqing va shunda siz yoqtirgan yigitni yoqtirishning maqbul va nomaqbul usullarini ajrata olasiz.

Siz o'zingiz bu ro'yxatni sezilarli darajada kengaytirishga qodirsiz. Bu juda qiziqarli mashg'ulot, shuning uchun unga dugonalaringizni jalb qilishingiz mumkin.

	Mumkin	Mumkin emas
Sovg'alar	• maktabda tushirilgan kichkina rasm • uyda pishirilgan pechene • yordam uchun minnatdorchilik xati	• ramkaga solingan rangli rasm • xushbo'y atir sepilgan uzun xat

Yordam	• u qoldirgan dars bo'yicha uy vazifasini aytish • singlisining tug'ilgan kuniga sovg'a tanlashda yordam berishni taklif qilish	• unga futbol o'yinidan keyin orqasini massaj qilishni taklif qilish • unga cho'milish kiyimi va kalta shorti kiyib, mashinasini yuvishga yordam berish
Rag'bat so'zlari	• uning xarakterini maqtamoq • uning kiyimidagi biror buyumni baholamoq (masalan: "Chiroyli ko'ylak ekan." deya)	quyidagi kabi maqtovlarni aytish: - Bu ko'ylakda juda jozibali ko'rinyapsan!
Shaxsiy vaqt	• referat ustida kutubxonada birga ishlash • uni yoshlar guruhingizga taklif qilish	• shanba oqshomlarini yolg'iz o'tkazmoq • hamma joyda va har doim siam egizaklari kabi ajralmas bo'lish
Jismoniy teginish	• yaxshi baho olgani uchun uning yelkasiga qoqib qo'yish • yo'lakda uchrashganda, yo'l-yo'lakay kaftni kaftga urish	• butun gavidani gavidaga tekkizib quchoqlashish • uning tizzasida o'tirish • yonida o'tirib sonini silash

17.2-Rasm

Juftlik bo'lishingizdan avval

Yodingizda bo'lsin: agar siz yigitga moyillikni his qilsangiz va uni yoqtirsangiz, bu siz u bilan albatta juft bo'lishingiz kerakligini anglatmaydi. Bunday qarorni juda ehtiyotkorlik bilan qabul qilish kerak.

Siz va u yigitga do'stlik bosqichida iloji boricha uzoqroq qolishni va keyingi bosqichga o'tishga shoshilmaslikni maslahat beramiz. (Yana 15.1-rasmga murojaat qilishingizni so'raymiz) Bu bosqichda siz tez-tez birga bo'lasiz, bir-biringizga ko'nglingizni ochasiz, bir-biringizni yaxshiroq bilasiz va o'zingizni faqat bir-biringiz bilan uchrashish majburiyati bilan bog'lamay, o'zingizni yaxshi do'stlardek tutasiz. Siz shunchaki o'zingizning ehtimoliy kelajagingiz va jiddiyroq munosabatlaringizni o'rganasiz, ularga o'zingizni urmaysiz.

Do'stlashish bosqichida bo'lganingizda, uning do'stlari va oilasi bilan tanishing. Uning fel-atvoriga etibor bering, shunda keyinchalik juftlik bo'lishga qaror qilsangiz, qabul qilgan qaroringizdan pushaymon bo'lmaysiz.

Bu daraja o'ziga xos "izlanish" bo'lganligi sababli, yolg'izlik bilan bog'liq vasvasalarga duchor bo'lmaslik uchun yigit bilan faqat do'stlar davrasida uchrashishni va faqat odamlar tashrif buyuradigan joylarga borishni tavsiya etamiz. Agar siz uning uyiga borishga rozi bo'lsangiz (yoki uni o'zingizga taklif qilsangiz), uyda kattalar yoki xonadoshlar borligiga ishonch hosil qiling va yotoqxona eshigi ortida yolg'iz qolmasdan, mehmonxonada qoling. Agar siz talabalar yotoqxonasida yashasangiz, uni jamoat joylarida qabul qiling yoki juda bo'lmaganda, noaniq xatti-harakatlarning eng ehtimolini bartaraf etish uchun xona eshigini ochiq qoldiring.

Agar ikkalangiz ham bir-biringizga yoqishingizni bilsangiz, buning hech yomon joyi yo'q. Ammo uni yaqindan bilganingizda pushaymon bo'lishingiz mumkin bo'lgan kelajak vadalarini berishga shoshilmang. Svetoforming sariq ishorasi tezda qizil ishorasi bilan almashadi; xuddi shunday, nomunosib odamga bog'lanib qolish juda tez orada munosabatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Bu bosqichda, to'g'risini aytganda, muhabbat ko'pincha ko'r-ko'rona bo'ladi. Siz undagi fazilatlarga

shunchalik maftun bo'lishingiz mumkinki, uning barcha kamchiliklari qayerdadir uzoqda, orqa fonda yo'q bo'lib ketadi. Mana nima uchun sizda unga nisbatan hissiy bog'liqlik paydo bo'lishidan va siz juft bo'lishingizdan oldin odamni yaxshi bilish juda muhim. Avvaliga uning barcha kuchli va zaif tomonlarini taroziga solib ko'ring, keyin esa uni hammadan ustun qo'yish-qo'ymasligingizni va bundan buyon faqat u bilan uchrashish-uchrashmasligingizni hal qiling.

Garchi hissiy bog'liqlik mutlaqo tabiiy va bizga xos bo'lsa-da, yoshlarga butun qalbingiz bilan qayta-qayta yopishib olishingiz oqilona qaror bo'lmaydi (go'yo siz uchrashgan har bir yigit aynan o'shaday).

Misol uchun biri qizil, ikkinchisi qora bo'lgan ikkita qog'oz yurakchani tasavvur qiling. Ularga elim surting va elim yaxshi yopishishi uchun ularni bir-biriga mahkam bosib ushlab turing. Yurakchalar bir-biriga mahkam yopishib olgach, ularni yiriting. Nima bo'ladi? Qizil yurakda qora tolalar, qora yurakda esa qizil tolalar qoladi. Xulosa: kimgadir qattiq bog'lanib qolganingizda, o'sha odamning bir qismi sizga abadiy yopishib qoladi; u haqidagi xotiralar sizning hissiy boyligingizda qoladi va oxir-oqibat er-xotinlik hayotingizga o'tadi. Keyin esa o'z erini boshqa birov bilan yoki hatto avvalgi barcha yoshlar bilan taqqoslash vasvasasi paydo bo'ladi. Shuni ham unutmangki, qachonlardir judo bo'lgan yuragingizning bir parchasini endi hech kimga bera olmaysiz: birinchi muhabbat, birinchi bo'sa, birinchi jinsiy tajriba.

Ammo butun qalb bilan qayta-qayta bog'lanish odatida yashiringan yagona xavf bu emas. Yana bir misol: yopishqoq lentaning uzun bo'lagini tasavvur qiling. U qo'li tekkan hamma narsaga yopishib oladi. U qutiga yopishib qolib, kartonga zarar etkazmasdan ko'tarilmaydi va qog'oz parchalarini o'zi bilan olib ketadi. U bilan yana biror narsani yopishtirish mumkin bo'ladi, lekin tasmani qanchalik ko'p yopishtirsangiz va ko'chirib tashlasangiz, unda elim shunchalik kam qoladi. Oxir-oqibat, u qadoqni yopishtirishni butunlay to'xtatadi.

Shunga o'xshash holat bizning qalbimizda ham sodir bo'ladi. Vaqti-vaqti bilan turli odamlarga bog'lanib, biz hissiy "yopishqoqligimizni" yo'qotamiz. Shuning uchun, agar siz shunchaki, odatga ko'ra, ketma-ket yigitlarni o'zingizga jalb qilsangiz, bir umr bir kishiga sodiq qolish qobiliyatingizni yo'qotishingiz mumkin. Zerikishning ozgina belgisi bo'lishi bilanoq, navbatdagi "oyning ifori"dan bahramand bo'lish uchun birini tashlab, boshqasiga o'tish, ammo yangi narsaga doimiy chanqoqlik hissini uyg'otadi. Keyinchalik, yaxshi yigitni uchratib, yakuniy tanlovni amalga oshirganingizda, eski odatlaringiz hali ham eslatib turadi. Er-xotinlik munosabatlarida yangilik hissi o'tib ketgach, biz biror yangi narsani tatib ko'rishni juda xohlaymiz.

Mana, to'rt yil oldin turmush qurgan Linnetning hikoyasi:

"Edimda, yuqori sinflarda ko'p o'g'il bolalar bilan gaplashib yurardim. Bazan ertalab, o'quv kuni tugamasdanoq boshqa yigit bilan munosabatga ega bo'lish uchun boshqasidan voz kechardim. Bir hafta - Jeyms, ikkinchi hafta - Uendel, uchinchi hafta - Kris, keyin yana Jeyms. O'shanda bu haqda o'ylab ko'rmagandim, ammo hozir, turmushga chiqqanimda, tan olishim kerakki, ko'pincha yangi munosabatlar yoki yangi olov bilan alanga olgan uzoq yillik aloqalar olib keladigan hayajonli quvonchni qo'msayman. Oilaviy hayotimda nimadir o'xshamasa, hammasini tashlab, o'zimga yangi qiziqarli yigitni topish istagini zo'rg'a engaman. Malum bo'lishicha, nikoh majburiyatlariga sodiq qolish men o'ylagandan ko'ra ancha qiyinroq ekan, chunki men har hafta bir yigitdan ikkinchisiga yugurishga odatlangandim"

Kelajakda siz va eringiz o'rtasida o'rnatiladigan hissiy aloqa mustahkamligini qanday oshirish mumkin? Yigit o'zining fel-atvori bilan sizga munosib umr yo'ldoshi ekanligi malum bo'lmaguncha unga bog'lanib qolmaslikka harakat qiling.

Quyida u yoki bu yigitni alohida afzal ko'rish kerakmi yoki yo'qligini aniqlashga yordam beradigan bir nechta amaliy maslahatlar keltirilgan:

- Siz uni do'stingiz sifatida bilasiz (kamida bir yil davomida), uning ruhiy fazilatlariga ishonasiz va uning xarakteridan mamnunsiz.

- Ikkalangiz ham Iso Masih bizning Rabbimiz va Najotkorimiz ekaniga ishonasizlar.
- Unda siz tuzatmoqchi bo'lgan jiddiy kamchiliklar yo'q (u ichmaydi, giyohvand moddalarni qabul qilmaydi, yolg'on gapirishga moyil emas, jinsiy moyilligi yo'q va hokazo).
- Siz o'rta maktabni tugatyapsiz (Bitiruvchi sinfga o'tishdan oldin yigit bilan hissiy aloqaga yo'l qo'ymaslik kerak.)
- Xudo sizni nimaga davat etayotganini tasavvur qilasiz va nikoh qurish chaqiruvingizga xalaqit bermasligiga, aksincha, bunga yordam berishiga aminsiz.
- Sizning keyingi talimingiz yoki kelajakdagi ishingiz haqidagi niyatlaringiz uning rejalariga zid kelmaydi.
- Oilangiz bu tanlovni maqullaydi va hissiy bog'liqligingizni ehtiyotkorlik bilan qo'llab-quvvatlaydi.
- Siz uning yaqin qarindoshlari bilan tanishdingiz va ular sizning munosabatlaringizga qarshi emasligiga aminsiz.

Yoqtirish bog'liqlikka aylanganda

Vaqt-soati kelib, o'zingizga kerakli insonni topganingizga ishonchingiz komil bo'lsa, mehringiz hissiy bog'liqlikka aylanadi (ayniqsa, do'stingiz ham siz kabi ishqiy munosabatlarga intilsa). Siz yuragingizning tez-tez urishini va titrashini his qilasiz.

Bazan uning xotini bo'lish haqida xayol surasiz. Bazan esa shunchaki uning qanday ko'rinishini tomosha qilish uchun ismingiz va familiyangizni yonma-yon yozib qo'yasiz. Hayotingizda ajoyib davr keldi: siz va aziz insoningiz "rasmii" juftlik bo'lishga qaror qilasiz.

Shunday bo'lsa-da, uning fel-atvorini diqqat bilan kuzatishingiz kerak, shunda u haqiqatan ham siz dam olish kunlari uchrashishni emas, balki hayotingizni o'tkazishni xohlagan odammi yoki yo'qligini aniqlaysiz. Garchi uni etarlicha yaxshi biladigandek tuyulsa-da (axir anchadan beri uchrashib yuribsiz-ku), ehtimol, asta-sekin o'ylashga majbur qiladigan noxush tafsilotlar yuzaga chiqa boshlar.

Odatda qizlar yo'l qo'yadigan xatoga yo'l qo'ymang, chunki yigitlarning fel-atvorida jiddiy nuqsonlar borligi malum bo'ladi. Ular: "Men bu munosabatlarga juda ko'p pul sarfladim, endi ularni buzishim kerakmi?" deb o'ylashadi. Mayli, siz uning sevgilisi hisoblaning, lekin agar u haqida bo'lajak eringiz haqidagi tasavvurlaringizga to'g'ri kelmaydigan narsalarni bilib qolsangiz, u bilan nikohdan o'tishingizni kutib o'tirmasdan, munosabatlarni darhol uzganingiz maqul.

Yangi munosabatlar uchun sarflaydigan hissiy quvvatingiz miqdori ayollar turmushga chiqishi kerak bo'lmagan erkaklarga sodiq qolish uchun sarflaydigan ulkan axloqiy harakatlar oldida hech narsa emas.

Shuningdek, siz jinsiy his-tuyg'ularingiz va istaklaringizni qattiq nazorat ostida ushlab turishingiz, ayniqsa, jismoniy pokligingizni ehtiyot qilishingiz kerak bo'ladi. Shuni unutmangki, ayolning tanasi uning qalbi qayerga joylashgan bo'lsa, o'sha tomonga intiladi. Hissiy aloqaning bu bosqichidagi qizlar ko'pincha hushyorlikni pasaytiradilar, chunki ularning his-tuyg'ulari ko'tarilishda bo'ladi. Ko'p hollarda nikohgacha bo'lgan jinsiy yaqinlikni oqlash uchun "biz shunchaki o'zimizni tuta olmadik. Muhabbatdan boshimizni yo'qotibmiz!" deyishadi. Munosabatlarning bu bosqichidagi oqilona chegaralar haqida 22-bobda yana gaplashamiz, 23-bobda esa bazi foydali maslahatlarni topasiz: ular sizga qalban bog'lanib qolgan yigitga turmushga chiqish-chiqmasligingizni hal qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, hissiy aloqaning "yashil" darajasidan "sariq" darajasiga o'tar ekansiz, vaqt siz uchun ishlayotganini yodda tuting.

Vaqt sizning ittifoqdoshingiz

Barcha munosabatlar dastlab juda ajoyib tarzda shakllanadi. Dastlabki haftalar yoki oylarda yoshlar shunchalik xushmuomala va maftunkor bo'ladiki, yuragingiz quvonchdan erib ketadi. Lekin ularning muhabbati, hurmati, sadoqati chinmi yoki chin emasligini vaqt ko'rsatadi. O'zingizga yaxshilik qiling - sabrli bo'ling. Atirgul g'unchasini zo'rlab ochish bilan siz faqat gulni nobud qilasiz; xuddi shunday, munosabatlar rivojini suniy ravishda tezlashtirib bo'lmaydi: ularning haqiqiy go'zalligi asta-sekin ochilishi kerak. Sog'lom ishqiy munosabatlarda shoshqaloqlikka o'rin bo'lmasligi kerak. O'z tabiatiga ko'ra, ular shoshilmasdan ochilish va Xudo tomonidan berilgan salohiyatga erishish uchun vaqt talab qiladi.

Agar qizlar kimga ko'ngil qo'yimoqchi bo'lsa, har biriga bittadan mayda tanga berishsa, ko'p odamlar ancha-muncha boyib ketardi. Ammo voqealarni shoshiltirmaydigan va nikohgacha bo'lgan munosabatlarda o'zini ehtiyot qiladigan oqila ayol qurbongohga hech qanday boylik bilan tenglashtirib bo'lmaydigan xazinani - bo'lajak eri bilan bir umrga qovushishga tayyor omon qolgan yurakni ko'tarib boradi.

«Bolaligimda otam menga shunday derdi: "So'zlarimni yuragingga jo qilib, amrlarimni bajargin, shunda yashaysan. Dono bo'l, idrokli bo'l, ularni unutma, so'zlarimdan chiqma. Donolikdan yuz o'girma, seni himoya qiladi, uni sevgin, seni asraydi. Donolikning boshi shudir, dono bo'l, bor-yo'g'ingni berib bo'lsa ham, idrok ol. Uni hurmat qil, seni ko'kka ko'taradi. Uni quchgin, seni shon-shuhratga erishtiradi. Boshingga iltifot gulchambari, shuhrat tojini kiydiradi.»

Hikmatlar 4:4-9

18-BOB

Qayerda to'xtashni bilish

Lekin adashmanglar, axir, "yomon ulfatlar yaxshi axloqni buzadi", deyishadi—ku! Ko'zlaringizni ochib, o'zingizga kelinglar! Bas endi, gunoh qilavermanglar. Ko'rinib turibdiki, bazilaringiz Xudoni bilmaysizlar. Sizlarni uyaltiray deb, bularni aytyapman.

1 Korinfliklar 15:33-34

Siz uchun svetofoarning yashil chirog'i yonganda, qandaydir mashina tezlikni oshirib, chorrahadan qizilga uchib o'tgani uchun svetofo oldida to'xtashingizga to'g'ri kelmadimi? Bu tez-tez sodir bo'lib turadi va haydovchilarning bunday nooqilona xatti-harakatlari natijasida ko'pincha yirik avariya sodir bo'ladi. Ehtimol, rulda o'tirgan odam shunday mulohaza yuritir: "To'liq tezlikda tormozlash faqat pokriishkalarini yuvishdir. Yaxshisi, men bu chorrahadan o'tib ketaman!" Lekin..."sochi to'kilgan" pokriishka majaqlangan mashinalar va mayib-majruh odamlar bilan taqqoslanadimi?

Hissiy manoda "qizil chiroqqa chiqish" ham bizga xuddi shunday qimmatga tushadi. Biz sizga sog'lom muhabbatdan bahramand bo'lishingizni tilaymiz, ammo zararli va nosog'lom munosabatlar ham borligini unutmang: bu "taqiqlangan meva"ga intilish va moyillikdir. (Yana 15.1-rasmga murojaat qilishingizni so'raymiz).

"Taqiqlangan meva"

Shunday ishqiy munosabatlar borki, ayol ularni hech qanday ko'rinishda qo'llab-quvvatlamasligi kerak, chunki Xudo O'z Kalomida ularni amalga oshirishni qatiyan taqiqlaydi. Mana shunday "taqiqlangan meva"ga bir nechta misollar:

- imonsizlar - «Imonsizlar bilan sherik bo'lmanglar. Solihlik bilan qabihlikning orasida qanday aloqa bor?! Nur bilan zulmat orasida qanday umumiylik bo'lishi mumkin?!» (2 Korinfliklar 6:14)

• uylangan erkaklar - «Nikohni hammangiz ezozlanglar. Er–xotinlik munosabatini beg‘ubor saqlanglar. Fahshu zinoga berilganlarni Xudo hukm qiladi» (Nikohni hammangiz ezozlanglar. Er–xotinlik munosabatini beg‘ubor saqlanglar. Fahshu zinoga berilganlarni Xudo hukm qiladi (Ibroniylar 13:4).

• boshqa ayollar - Gomoseksualizmga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, chunki u Parvardigor huzurida qabihlikdir(Levi 18:22 ga qarang).

Agar qalbingizni xavf-xatardan saqlashga intilsangiz, sanab o‘tilgan holatlarning barchasi siz uchun nomaqbul bo‘ladi. Masalan, Samanta bunday munosabatlarga unga qanday tasir qilishini oldinroq o‘ylab ko‘rmaganidan qattiq afsuslanadi.

U maktabda o‘qib yurgan kezlari dayoq Rendi bilan tanishgandi. Bu uning qo‘shimcha ish bilan shug‘ullanadigan kasalxonasida bo‘lgandi. Garchi u o‘n ikki yosh katta bo‘lsa-da va ota-onasi bu tanishuvni maqullamasa-da, Samanta hamda Rendi ko‘p vaqtlarini birga o‘tkazib, yaqin do‘stlarga aylandilar. Biroz vaqt o‘tgach, kimdir unga Rendining uylanganini aytdi, lekin kech bo‘lib bo‘lgandi: Samanta allaqachon uni sevib qolgan edi. Samanta quyidagilarni tan oladi:

"Albatta, men u bilan uchrashishni darhol to‘xtatishim kerak edi, lekin men bunday qilmadim. U menga ajrashishini aytdi va dastlab begunoh bo‘lgan sevgimiz jinsiy aloqaga aylandi. Bu voqea men ota-onamning uyidan chiqib, kollejga o‘qishga kirganimda sodir bo‘ldi. Men birinchi jinsiy yaqinligimni u ajrashgandan keyin sodir bo‘lganligi bilan oqladim. Bilaman, hatto uylangan odamni shunchaki sevish ham noto‘g‘ri, lekin u yonimda bo‘lganida, bu men uchun ahamiyatsiz edi.

Kollejdagil birinchi semestrni o‘rtacha darajada yakunladim, chunki dars qilish o‘rniga deyarli barcha vaqtimni Rendi bilan o‘tkazdim. To‘g‘risini aytsam, muvaffaqiyatsizlikka uchramaslik uchun bir nechta fanlardan voz kechishga majbur bo‘ldim. Ikkinchi semestrda keyin yomon baholarim tufayli stipendiyadan mahrum bo‘ldim. Endi tibbiyot hamshirasi bo‘lish haqidagi orzuim bilan umuman xayrlashishga to‘g‘ri keladimi, deb qo‘rqaman. Agar o‘tgan yillarni qaytarish mumkin bo‘lganida, men bunga yo‘l qo‘ymasdim, albatta. Men Rendini hayotimdan o‘chirib tashlagan bo‘lardim.

Agar Samanta yuragini ehtiyot qilganida edi, bu uylangan erkakdan jon-jahdi bilan qochgan bo‘lardi, keyin esa na jismoniy iffati, na baholari, na stipendiya, na kelajakdagi rejalari haqida tashvishlanishiga to‘g‘ri kelardi. Ehtimol, siz qandaydir "taqiqlangan meva"ga intilayotgandirsiz va siz vaqti-vaqti bilan bu munosabatlarning tami qanchalik shirin bo‘lishi mumkinligi haqida tasavvur qilib turarsiz. Hatto hozir bunday odam bo‘lmasa ham, qachondir u sizning ufqingizda paydo bo‘ladi - yo imonsiz kursdoshingiz, yo uylangan xodimingiz, yo yaqin dugonangiz bo‘ladi. (Lesbiy munosabatlar haqida 20-bobda va xotimada gaplashamiz.) Bu yerda sizni hissiy aloqaning “qizil” darajaga olib bormasligiga ishonch hosil qilish uchun o‘zingizga bir nechta amaliy savollar berishingiz mumkin:

- O‘sha odamga yoqadigan tarzda kiyinyapmanmi?
- Uning etiborini tortish uchun ko‘proq uning ko‘ziga tushishga harakat qilyapmanmi?
- Boshqa munosabatlarni etiborsiz qoldirib, bu odam bilan birga bo‘lish uchun har qanday imkoniyatdan foydalanyapmanmi?
- Bu odam bilan do‘stligimni atrofdagilardan yashirishim kerakmi?
- Uning ovozi eshitish uchun qo‘ng‘iroq qilishga bahona izlayapmanmi?
- Do‘stligimiz haqida hech kim bilmasligi uchun bu odam bilan elektron pochta orqali gaplashyapmanmi?
- Meni o‘sha odam bilan gaplashish yoki yolg‘iz qolish, begona ko‘zlardan, quloqlardan yiroq bo‘lish fikri taqib etyaptimi?

Agar ushbu savollarning birortasiga ijobiy javob bergan bo‘lsangiz, orqaga o‘girilib, bu munosabatlardan qoching. Faqat tanangizni emas, balki yuragingiz, aqlingiz va og‘zingizni ham bu ofatdan asrashini Xudodan so‘rang, toki bu odamga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan yaqinlik yo‘lini ochadigan biror narsa qilmang va gapirmang.

Har safar o'zingizni zaif his qilganingizda Xudoga iltijo qilishda davom eting, lekin ehtiyot bo'lingki, bu odam ibodatlarining asosiy mavzusiga aylanmasin.

Yaqinlaringiz va do'stlaringiz bilan bo'lgan munosabatlaringizni ham marhamatlashini Xudodan so'rang. Agar kerak bo'lsa, keyingi xavfdan himoyalaniş uchun ularning yordamiga murojaat qiling. Avvalo, ruhan ulg'ayishingizga ko'maklashishini va taqiqlangan rishtalardan qochishga bo'lgan qaroringizni mustahkamlashini so'rab, Xudo bilan bo'lgan munosabatlaringizga etibor qarating. Shuni yodda tutingki, istagingizni oziqlantirmasangiz, kim bilandir hissiy yaqinlashish istagini asta-sekin nobud bo'ladi. Siz nosog'lom aloqalarga bo'lgan intilishingizni qanchalik ko'p cheklasangiz, shunchalik sizda o'z qadr-qimmatingiz va jinsiy hamda hissiy jihatdan pok yosh ayol bo'lishga qodir ekanligingizdan qoniqish hissi ortadi.

Agar siz nosog'lom ishqiy munosabatlarga moyilligingizni Xudoning irodasiga bo'ysundira olmasangiz, tez orada nafaqat muhabbatga bo'lgan kuchli istak bilan, balki boshqariladigan bazi kuchliroq va ancha murakkabroq narsalar bilan kurashishingizga to'g'ri keladi.

Muhabbat ehtirosiga aylanganda

Ehtirosga, yani biror narsaga kuchli moyillikka muhtalo bo'lgan odam odatda yoki o'z ehtirosi tufayli zaifligiga beriladi yoki yon beradi. Agar o'zingizni qo'lga olmasangiz, har qanday narsaga - spirtli ichimliklarga, xarid qilish uchun do'konlarga borishga, giyohvand moddalarga va hatto ishqiy munosabatlarga ham o'rganib qolishingiz mumkin. Oshiq-mashuqlik va jinsiy aloqaga kirishish odati giyohvandlik yoki ichkilikbozlikdan ham battar bo'lishi mumkinligini bilarmidingiz?

Gretxen voqeasi buning isbotidir. U bir vaqtning o'zida uchta turli yigit bilan munosabatda bo'ladi va ularning hech biri qolgan ikkitasi borligini bilmaydi. Gretxen shunday deb hikoya qiladi:

"Mening "rasmiy" yigitim - maktabimiz basketbolchisi Tom. U meni sinfga kuzatib qo'yadi, oshxonada yonimga o'tiradi va darsdan keyin darslari bo'lmaganda mashinasida uyga olib ketadi. Ikkinchisining ismi Ronni. U bilan internet orqali tanishganman. Biz u bilan deyarli har kuni elektron pochta orqali yoshishamiz. Umuman olganda, men uni o'zimning yigitim deb hisoblamayman, lekin baribir qolgan ikkitasi haqida unga hech narsa demayman. Birinchi kurs talabasi Oyzek ham bor. U amakivachcham bilan birga o'qiydi. Dam olish kunlari uni ko'rish uchun universitet shaharchasiga borganimda, Ayzek har doim talabalar ziyofatlarida mening yigitim bo'ladi. Bu yig'inlarda hamma narsa juda romantik bo'ladi va Ayzek chiroyli o'pishadi. Vaqti-vaqti bilan xat yozishib turamiz, bo'sh vaqti bo'lganida esa menga qo'l telefoni orqali qo'ng'iroq qiladi. Men bu bolalar bilan ikki tomonlama (yo'q, hatto uch tomonlama!) o'yin olib borayotganimni bilaman, lekin uchalasi ham menga juda yoqadi va ularning birortasi bilan aloqani uzishga to'g'ri kelishini o'ylashni ham istamayman."

Gretxen nafaqat bolalarning qalbini o'ynayotganini, balki o'ziga ham qayg'uli kelajakni tayyorlayotganini anglamaydi. Ko'pchilikning muhabbati bilan - hatto o'smirlik davrida ham - o'ynashish orqali siz kelajakdagi xiyonatingiz uchun poydevor qo'yasiz, chunki siz o'zingizni yaqin munosabatlarga emas, balki yuzaki munosabatlarga o'rgatasiz. Bitta odam bilan hissiy aloqani chuqurlashtirish o'rniga, siz jamiyatda yangi va yangi muxlislarning yangi o'tkinchi his-tuyg'ularini taqib qilasiz.

Yosh qizni ishqiy munosabatlarga yoki jinsiy aloqaga muhtalo bo'lishga nima majbur qiladi? Xudo uning eng yashirin istaklarini amalga oshira olishiga nisbatan shubha yoki ishonchsizlikmi.

Bu haqiqatga shubha bilan qaraydigan ayol odatda taqiqlangan munosabatlardan qoniqish izlaydi, lekin ertami-kechmi kutganlari amalga oshmaganini anglaydi. Bunday bog'liqlik inson qanchalik etiborli, chiroyli va ajoyib bo'lmasin, to'liq qoniqish keltirmaydi. Doimiy ravishda bir yigitdan ikkinchisiga o'tib, bazida yangi aloqalarni oldingi aloqalar bilan kesishishiga yo'l qo'yib, siz shunchaki noto'g'ri joyda muhabbat izlayapsiz. Sizning romantik munosabatlaringiz oddiy "fitnalar"dan iborat bo'lib, ular yordamida qalbingizdagi bo'shliqni to'ldirishga muvaffaqiyatsiz urinasiz.

Qalbmiz Xudo tomonidan shunday yaratilganki, insoniy munosabatlar bizga to'liq qoniqish bera olmaydi. Bu chanqoqni - faqat U bilan muloqot qondira oladi.

Xudoning sevgisiga to'lib-toshganimiz sayin, chinakamiga sevish qobiliyatiga ega bo'lamiz. Munosabatlarimiz pok va iffatli bo'lsa, izzat-nafsimizni ular hisobiga ovutish yoki his-tuyg'ularimizga etkazilgan navbatdagi zararni qoplash emas, balki boshqa odamlarni hurmat qilish va ularning qalbini asrashga qodir bo'lamiz.

Xudo xohlasa, hech qachon hissiy ehtirolarni boshdan kechirmang va ushbu kitob sizni "qizil" darajadan o'tmaslikni qat'iy nazorat qilish zarurligiga ishontirsin.

Biroq, agar siz allaqachon xavfli chiziqdan o'tib bo'lgan bo'lsangiz, bilingki, hali hammasi yo'qotilmagan. Ko'p qizlar yuragidagi bo'shliqni to'ldiradigan narsani izlab, umidsizlik qariga cho'kib ketishdi, ammo jarlik ular tasavvur qilganidan ham chuqurroq, qoraroq va dahshatliroq ekanligi malum bo'ldi. Men ulardan biri edim, lekin ko'p yillar davomida birinchi muhabbatim - Iso Masihga bo'lgan etibor va mehrdan so'ng, mening hayotim Xudoning marhamati hamma narsani tubdan o'zgartirishga qodir ekanligiga guvoh bo'ldi. Qanchalik pastkashlik qilmaylik, Xudoning mehrli qo'li biz tasavvur qila olmaydigan darajada uzoqqa etadi.

Bitta kitob doirasida jinsiy aloqa va sevgiga moyillik bilan bog'liq barcha masalalarni batafsil muhokama qilishning iloji yo'qligi sababli, agar jinsiy aloqa, sevgi, ishqiy munosabatlar va aloqalarga chanqog'ingiz boshqarib bo'lmaydigan darajada bo'lib qolsa, ota-onangizga, yoshlar ruhoniysiga, maktab o'quvchisiga yoki hatto professional psixologga murojaat qilishingizni maslahat beramiz.

Yordam so'rang. Agar siz zararli ehtirolardan xalos bo'lishni va ularning sababi va natijasi bo'lgan yaralarni davolashni istasangiz, u sizga juda foydali bo'ladi. Indamay azob chekish kerak emas. Shuningdek, Stivning "Sevgiga berilganlar" kitobini o'qib chiqishni tavsiya qilamiz, bu sizga sevgi va jinsiy mayllarni engishga yordam beradi.

Donolik uchun mukofot

Ehtimol, siz qachonlardir yuragingizni asrashni o'rganish mumkin emas, chunki bu qorong'i va umuman foydasiz ish, deb hisoblagandirsiz. Umid qilamizki, o'qigan boblaringiz siz uchun hissiy yaxlitlik masalasini qizil, sariq va yashil ranglarga "bo'yadi" va endi siz qayerda qo'rqmasdan yurish mumkinligini, qayerda ehtiyotkorlik bilan harakat qilish kerakligini va qayerda sinmaslik uchun tezroq tormozni bosish kerakligini bilasiz. Bu yangi tushuncha sizni xatolardan, soxta aybdorlik hissidan, bevaqt hissiy bog'lanishdan, taqiqlangan munosabatlardan va hokazolardan xalos etadi. Ammo eng muhimi - Xudo qalbingizni asrab-avaylayotganingizni ko'rganida, U sizga O'zini va o'zining buyuk muhabbatini ochib berib, mukofotlaydi.

«Pokdil bo'lganlar baxtlidir, Chunki ular Xudoni ko'radilar». Matto 5: 8

VI-QISM

O'Z TANANGIZNI HIMOY^a QILISH

O'z tanangiz ustidan g'olib kelish

Shunday qilib, endi gunoh sizlarning foni tanalaringiz ustidan hokimlik qilmasin, xudbin istaklaringizga itoat etmanglar. Tanangizning hech bir azosini yomonlik quroli qilib, gunohning izmiga topshirmanglar. Aksincha, o'zingizni Xudoning izmiga topshiringlar, chunki sizlar oldin o'lik edingizlar, endi esa yangi hayotga egasizlar. Sizlarning tanangiz Xudoning solihlik quroli bo'lsin.

Rimliklar 6:12-13

Maktabdan so'ng men patologoanatomlikka o'qimoqchi va murdalarni yorib, o'lim sababini aniqlamoqchi edim. Ammo tibbiyot kollejida o'qishga qurbim etmagani uchun, ko'p o'ylab o'tirmay, turdosh o'quv yurtini tanladim va dafn xizmatlari sohasida mutaxassislar tayyorlaydigan kollejga o'qishga kirdim.

U yerda o'qiyotganimda, Dallasdagi eng yirik dafn marosimi idorasida ishlardim. Bundan tashqari, biz shahar atrofidagi boshqa o'n uchta shunga o'xshash muassasada buyurtma qilingan balzamlashni amalga oshirardik. Garchi men shug'ullangan marhumlarning aksariyati, odatdagidek, umri tugagan qariyalar bo'lsa-da, mening balzamlash xonamda ko'plab yoshlar va o'smirlar paydo bo'lgani meni hayratda qoldirdi. Ularning o'limiga odatda nima sabab bo'lgan? Kimdir OITS asoratlaridan vafot etgan, kimdir OIV bilan kasallanganini bilib, o'z joniga qasd qilgan. Bu odamlarning bevaqt hayotdan ko'z yumishlari ularning jinsiy tanlovi xususiyatlari tufayli ekanligini tushunish uchun peshonangizda yetti qarich bo'lishingiz shart emas edi va men o'z turmush tarzim haqida o'ylay boshladim. O'zimga-o'zim tez-tez: "Xaqat Xudoning rahm-shafqati bilan men bu mumlangan stol ustida turibman, unda yotmayman!" - derdim.

Bir necha yil o'tgach, turmushga chiqib, birinchi farzandimni dunyoga keltirganimda, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar va ularning ayollar reproduktiv tizimiga tasiri haqidagi maruzalarda qatnashishga to'g'ri keldi. Maruza slaydlar namoyishi bilan birga olib borildi. Men OITS va OIV haqida ko'p narsani bilardim, lekin bu yo'l bilan ko'plab kasalliklar - herpes, xlamidiya, gonoreya, zaxm, odam papillomasi virusi va yana ko'plab boshqa, talaffuzi qiyin bo'lgan nomlar yuqishi xayolimga ham kelmagan. Men kasallangan jinsiy azolarning suratlarini tomosha qilib, bunday kasalliklarga chalingan yosh ayollar haqidagi hikoyalarni tinglab o'tirardim va ko'zlarimdan yosh oqardi. Bemorlarning ko'pchiligi jinsiy tizimning qaytmas shikastlanishi natijasida farzand ko'rish qobiliyatini yo'qotgan. O'rnimdan irg'ib turib, uyga yugurgim, qizalog'imni mahkam quchoqlab olgim, bu dahshatli kasalliklardan birini orttirib, o'z farzandimni dunyoga keltirish imkoniyatidan umrbod mahrum bo'lishimdan oldin hayotimni o'zgartirib yuborgani uchun Xudoga ming bor shukronalar aytgim kelardi.

Men Xudodan so'rardim: "Qanday qilib men OITSdan o'lmadim? Meni bepusht qilib qo'yadigan kasallikdan qanday qilib qutulib qoldim? Nega menga rahm qilding? Rahm-shafqating uchun chuqur minnatdorchiligimni qanday izhor eta olaman? Qalbimda Xudoning javobi aniq jarangladi: "Ana, xalqim Meni bilmagani uchun nobud bo'lmoqda [Xo'sheya 4:6] Sen o'z bilimingni boshqalarga etkazishing kerak, toki ular halok bo'lmasinlar."

Bir kun kelib sevimli insoningizga turmushga chiqish uchun yashashni xohlaysizmi?

Yangi tug'ilgan chaqaloqlaringizni qo'lingizda ko'tarib yurish uchun;

Farzandlaringiz qanday ulg'ayib, o'z farzandlariga ega bo'lishlarini ko'rish uchun;

Sevimli turmush o'rtog'ingiz bilan birga umr kechirish va keksayish uchun;

Unda keyingi aytiladigan gaplarga diqqat bilan qarang.

Hozir biz siz bilan jinsiy pokligimiz uchun kurashda yutqazganimizda nima bo'lishini ko'rib chiqamiz. Bizni ikkita mavzu qiziqtiradi: sizning sog'lig'ingiz va bo'lajak farzandlaringizning sog'lig'i. Ammo avvalo, Xudo nikohdan tashqari munosabatlar haqida nima deyishini bilib olaylik.

Nega Xudo uchun bu shunchalik muhim?

Mana, Xudo zinokorlik va fohishabozlik (nikohsiz jinsiy aloqani aks ettiruvchi so'zlar) haqida nima deyayotganiga bir nechta misol.

«Jinsiy axloqsizlikdan o‘zingizni olib qochinglar! Jinsiy axloqsizlik bilan gunoh qilgan o‘z tanasiga qarshi gunoh qilgan bo‘ladi, qolgan hamma gunohlar esa tanaga bevosita bog‘lanmagan holda qilinadi. Nahot bilmasangiz?! Qalbingizda maskan qilgan Muqaddas Ruhni Xudo sizlarga bergan. Tanangiz Muqaddas Ruhning mabadiidir. Sizlar o‘zlaringizga tegishli emassizlar. Sizlar qimmat bahoga sotib olingansizlar. Shuning uchun o‘z tanangiz bilan Xudoni ulug‘langlar». (1 Korinfliklar 6:18-20)

«Xudbinlashmoq istaklarga erk berish quyidagilarni keltirib chiqarishi hammaga ayon: fahsh–zino, harom–harishlik, axloqiy buzuvchilik, butparastlik, folbinligi issiq–sovuq qilishlar, dushmanlik, janjalkashlik, rashk, jahldorlik, g‘alamislik, nizolaru har xil guruhlariga bo‘linish, baxillik, ichkilikbozlik, aysh–ishratga berilish va shularga o‘xshash ishlar. Sizlarni oldin ogohlantirgandim, yana ogohlantirayapman: bunday ishlarni qiluvchilar Xudoning Shohligidan bahramand bo‘lmaydi». (Galatyaliklar 5:19-21)

Ehtimol, siz hayron bo‘layotgandirsiz: "Nikohdan tashqari jinsiy aloqaning nimasi qo‘rqinchli? Ko‘pchilik bu bilan shug‘ullanadi! Nega Xudo uchun bu shunchalik muhim?

Xudo uchun bu juda muhim, chunki U bizning tanalarimizni yaratdi va ularni bir kishi - turmush o‘rtog‘i yoki rafiqasi bilan sof jinsiy aloqada birlashtirish uchun mo‘ljalladi.

U biladiki, bizning organizmimiz tabiatan mikroblar va bakteriyalarning bazi turlarini engishga qodir emas. Shuningdek, tanamiz o‘zimizga ham, Uning "ko‘payish va nasl qoldirish," yani jinsiy hayot kechirib, farzand ko‘rish buyrug‘ini bajarish qobiliyatimizga ham katta zarar etkazadigan jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklarga dosh berolmaydi.

Xudo jinsiy aloqaning bazi turlarini taqiqlaydi, chunki u bir-birimiz bilan munosabatlarimizda sog‘ligimiz va farovonligimiz haqida qayg‘uradi.

Qisqasi, Xudo bizga faqat yaxshilik tilaydi, shuning uchun Muqaddas Kitob orqali nikohsiz jinsiy aloqa Uning niyatiga zid ekanini va katta xavf tug‘dirishini aytadi. Shuning uchun ham...

O‘z tanangiz haqida nimalarni bilishingiz kerak?

Jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar haqida gap boshlashdan oldin, Xudo bizning tanamizni farzand ko‘rish uchun qanday yaratganini ko‘rib chiqaylik. Ayollar jinsiy sohasiga ko‘plab tarkibiy qismlar kirsa-da, biz bu yerda yuqorida aytib o‘tilgan kasalliklardan eng ko‘p aziyat chekadigan reproduktiv yoki tug‘ish tizimining eng muhim elementlarini ko‘rib chiqamiz: bular tuxumdonlar, fallopiy naylari, bachadon, bachadon bo‘yni va vaginal kanal.

- Tuxumdonlar. Bu ikkita kichik bodomsimon organ bo‘lib, ularda tuxum hujayralari deb ataladigan minglab urg‘ochi reproduktiv hujayralar mavjud. Qiz bola tuxum hujayralari zaxirasi bilan dunyoga keladi, bu tuxum hujayralar unga butun umrga beriladi, ular jinsiy balog‘atga etganda har oyda bittadan ajralib chiqa boshlaydi. Bu jarayon ovulyatsiya deb ataladi. Jinsiy aloqada spermatozoid (yani erkaklik jinsiy hujayrasi) tuxum hujayra ichiga kirsa, tuxum hujayra urug‘lanadi va shu tariqa bo‘lajak bola paydo bo‘ladi.
- Fallopiy naylari. Tuxumdonlarni bachadon bilan bog‘laydigan bu ikkita ingichka naychalar ichkaridan ingichka, tuklarga o‘xshash xivchinlar bilan qoplangan bo‘lib, ular "kiprikchalar" deb ataladilar. Ularning vazifasi tuxumni tuxumdondan, urug‘ni esa bachadondan bir-biriga qarab haydashdir, shunda ular uchrashib, urug‘lanish sodir bo‘ladi.
- Bachadon. Bu - bo‘lajak bolaning uyi, chunki u to‘qqiz oy davomida aynan shu yerda o‘sadi va rivojlanadi. Bachadon shaklan to‘nkarilgan nokka o‘xshaydi. Har oyda bachadonning ichki devorlari qon bilan mo‘l-ko‘l to‘yinib, urug‘langan tuxum hujayraning devorga yopishib, o‘sa boshlashi va tug‘ilajak bolaga aylanishini kutadi. Chaqaloq dunyoga kelguncha ozuqa moddalarni shu qondan oladi. Agar urug‘lanish sodir bo‘lmasa, qon qatlami asta-sekin parchalanadi va hayz tsikli davomida organizmdan chiqib ketadi, bu odatda uch kundan yetti kungacha davom etadi.

- Bachadon bo'yni. Bu bachadonni qin kanalidan ajratib turadigan yumaloq mushakdir. Uning asosiy vazifasi ayol homilador bo'lganida qisqarish, yopilish va shilliq tiqin hosil qilishdir. Shunday qilib, bolaning butun rivojlanishi davomida uni o'rab turadigan suyuqlik bilan to'ldirilgan amniotik qopning himoyasi yaratiladi. Agar chaqaloq allaqachon tug'ilishga tayyor bo'lsa, bachadon bo'yni ochila boshlaydi yoki kengayadi va shilliq tiqin chiqadi. Bachadon bo'ynining diametri o'n santimetrga etganda, bola boshi va tanasi o'tishi mumkin bo'lgan yo'l hosil bo'ladi.
- Qin kanali. Bu uzunligi uch-to'rt dyuym (7-10 sm) bo'lgan elastik mushak yo'lagidir. Agar hayz paytida tamponlardan foydalansangiz, ular aynan qinga joylashtiriladi. Jinsiy aloqa paytida bu kanalga erkak jinsiy azosi kiradi. U tug'ruq kanali deb ham ataladi, chunki u orqali bola dunyoga keladi.

Endi tanangiz haqida ko'proq bilib olganingizdan so'ng, nikohdan oldingi jinsiy aloqadan o'zingizni tiymasangiz nima bo'lishi mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar haqida nimalarni bilish kerak?

1970 yillargacha jinsiy aloqa orqali yuqishi mumkin bo'lgan kasalliklarning faqat ikkita asosiy turi malum edi: sifilis va gonoreya. Ikkalasi ham penitsillin inektsiyasi davolash kursi yordamida osongina tuzalardi, shuning uchun ular kamdan-kam odamlarni jinsiy faollikdan tiyilishiga yordam bermasdi.

Bugungi kunda tibbiy tadqiqotlar malumotlariga ko'ra, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarning yigirmadan-yigirma beshtagacha asosiy turlari mavjud. Ularning bazilari haqida siz bilan suhbatlashamiz. Bu kasalliklar haqida AQShdagi mutaxassislar shunday deydilar:

- Har yili amerikaliklar orasida 15 mln. yangi Jinsiy yo'l orqali yuqtirilgan kasalliklar holatlari qayd etiladi.
- AQShda 68 milliondan ortiq odam Jinsiy yo'l orqali yuqtirilgan kasalliklar bilan kasallangan.
- Har yili Jinsiy yo'l orqali yuqtirilgan kasalliklar Amerikaga 8 milliard dollardan ortiq zarar keltiradi.
- Hozirgi vaqtda genital herpes bilan boshqa barcha Jinsiy yo'l orqali yuqtirilgan kasalliklarga qaraganda ko'proq amerikaliklar (45 million) kasallanmoqda.
- Yangi infeksiyalar orasida har yili eng ko'p odam papilloma virusi (OPV) bilan kasallanish holatlari qayd etilmoqda - 5,5 mln.

Barcha Jinsiy yo'l orqali yuqtirilgan kasalliklar orasida OIV (odam immuniteti tanqisligi virusi) eng katta tashvishga sabab bo'lmoqda. U tanani kasalliklarga qarshi turish qobiliyatidan mahrum qiladi, natijada odatda OITS (orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi) rivojlanadi, bu immunitet tizimini yo'q qiladi va odamni ko'plab kasalliklar oldida butunlay himoyasiz qiladi: u leykemiya ham, o'pka yallig'lanishidan ham vafot etishi mumkin. OITS onaning qoni orqali uning qornidagi homilaga o'tishi mumkin, bu esa bolaga erta yoshda o'lim xavfini tug'diradi. Bazi malumotlarga ko'ra, OITSdan allaqachon 20 mln. dan ortiq odam vafot etgan, hozirda esa 42 mln. OITSning oldini olish choralari asosan o'smirlar orasida amalga oshiriladi, chunki ular kattalarga qaraganda turli sheriklar bilan ko'proq xavfli jinsiy aloqaga kirishadilar.

Agar OIV butun diqqat-etiborimizni band qilmaganida edi, biz OIV (odam papillomasi virusi) haqida ko'proq eshitgan bo'lardik. Ushbu kasallik har yili eng yuqori infeksiya darajasiga ega (eslatib o'tamiz, birgina Qo'shma Shtatlarda har yili 5,5 million kishi kasallanadi!). Bakterial infeksiyalar antibiotiklar yordamida davolanadi, ammo OPV, herpes va OIV kabi viruslarning davosi yo'q. Ushbu kasalliklarning alomatlari davolanadi, ammo virusning o'zi sizda bir umrga qoladi. Mana Jinsiy salomatlik tibbiyot instituti (JSST) ning OPV haqidagi malumotlari:

- OPV bosh miya saratonining barcha holatlarining 93% dan ortig'ida mavjud.
- Har yili Qo'shma Shtatlarda bachadon bo'yni saratonidan OITSdan ko'ra ko'proq ayollar vafot etadi.
- Ko'pchilik amerikaliklar, shu jumladan sog'liqni saqlash xodimlari, OPVning qanchalik keng tarqalganligi haqida xabardor emaslar. Bachadon bo'yni saratonidan tashqari, OPV qin, jinsiy olat, to'g'ri ichak (anal jinsiy aloqa natijasida) yoki og'iz bo'shlig'i (oral jinsiy aloqa natijasida) saratonini keltirib chiqarishi mumkin.
- Milliy onkologiya instituti doktori Richard Klausner shunday deydi: "Prezervativ vositasi OPVdan samarasiz himoyadir, chunki bu virus nafaqat shilliq [nam] to'qimalarda, balki qorin va chov sohasining quruq terisida ham ko'payadi, u bu joylardan qin va bachadon bo'yniga [ko'chishga] qodir."

OPV papillomalar (o'tkir uchli so'gallar) paydo bo'lishini rag'batlantiradi, shifokorlar ularni lazer yordamida kuydirib, ko'pincha shikastlangan to'qimalarni qoldiradi (odatda, bunda qinning bo'yni yoki tashqi sohasi, vulva deb ataladigan qismi zarar ko'radi). Ko'pincha bunday operatsiya natijasida bachadon bo'yni mushagi zaiflashadi va homiladorlik paytida u bu organni yopiq holda ushlab tura olmaydi, bu esa homila tushish xavfini oshiradi.

Hatto sizda hech qanday alomatlar bo'lmasa ham...

Jinsiy yo'l orqali yuqtirilgan kasalliklar haqidagi barcha ogohlantirishlarga qaramay, ko'plab odamlar vaginal, anal va oral jinsiy aloqa qilishda davom etmoqdalar. Ular o'zlariga: "Men sog'lomman, chunki menda hech qanday kasallik alomatlari yo'q!" yoki: "Men har doim "xavfsiz jinsiy aloqa" bilan shug'ullanaman, shuning uchun bu kasalliklardan qo'rqishimning hojati yo'q." deyishadi. Yoki bo'lg'usi sherigidan ehtiyotkorlik bilan: "Sen kasal emasmisan?" deb so'ralsa, u: "Albatta, yo'q!" deb javob beradi.

Xavf yo'qligiga o'zingizni ishontirishdan oldin, MISZ malumotlariga ko'ra, 70-80% hollarda Jinsiy yo'l orqali yuqtirilgan kasalliklarni tashuvchilarda hech qanday alomatlar kuzatilmasligini yodda tuting. Tegishli tibbiy ko'rikdan o'tmasdan turib, siz bilan muloqotga kirishgan har bir yangi hamkorga yuqishi mumkin bo'lgan u yoki bu kasallikka chalinganligingizga shubha qilmaysiz. Bazi Jinsiy yo'l orqali yuqtirilgan kasalliklarlar - masalan, OPV ni - hatto tibbiy tekshiruvlar yordamida ham aniqlash qiyin. Kasallik umringizning oxirigacha sizga hamroh bo'ladi va siz jinsiy aloqaning har qanday turi bilan: vaginal, oral, anal yoki o'zaro masturbatsiya bilan shug'ullangan har qanday odamga yuqtirasiz.

Bugungi kunda yoshlar "xavfsiz" jinsiy aloqa bilan shug'ullanib, kasalliklardan qo'rqmasligi mumkinligiga qattiq ishontirilmoqda. Darhaqiqat, prezervativdan foydalanadigan odam kamroq tavakkal qiladi, lekin bu jinsiy aloqani "xavfsiz" qilmaydi. Doktor Syuzan Ueller shunday deydi: "Prezervativ OIV yuqishidan saqlaydi, degan fikrni qo'llab-quvvatlagan odam boshqalarga ziyon etkazgan bo'ladi." Prezervativ OIV tarqalishining oldini olishga qanchalik qodirligini aniqlash uchun maxsus tadqiqotlar o'tkazildi va undan foydalanish yuqtirish xavfini atigi 69 foizga kamaytirishi aniqlandi. Bunday yuqori xavf omilida - 31%! - prezervativ sizni OIVdan himoya qilishiga umid qilish olti o'qli revolvenga ikkita o'q joylab, rus ruletkasini o'ynashga o'xshaydi. Unchalik oqilona emas, to'g'rimi?

Agar siz haqiqatan ham o'zingizni himoya qilmoqchi bo'lsangiz, tartibsiz jinsiy aloqalardan saqlaning. Hech bir prezervativ sizni nikohdan tashqari jinsiy aloqaning mumkin bo'lgan jismoniy oqibatlaridan to'liq himoya qila olmaydi. Hech qanday prezervativ sizni gunohning manaviy oqibatlaridan - Xudo bilan munosabatlarning buzilishidan himoya qila olmaydi. Hech qanday prezervativ sizni hissiy oqibatlardan - ruhiy og'riqdan, singan yurakdan himoya qila olmaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jinsiy aloqaga erta kirishgan o'smir qizlar bokiraligini saqlab qolganlarga qaraganda uch baravar ko'proq o'z joniga qasd qilishadi. Qiz bola bokiraligini yo'qotar ekan, odatda, o'ziga bo'lgan hurmatini yo'qotadi, achchiq afsus-nadomatlar va qattiq iztirob chekadi. Shuning uchun "xavfsiz jinsiy aloqa" haqida emas, balki nikohdan oldin jinsiy aloqani kechiktirish haqida o'ylash kerak.

Agar siz bu haqiqatni jismoniy chegaralaringizni buzishga yo'l qo'yganingizdan keyin o'zingiz uchun kashf etgan bo'lsangiz, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasallik yuqtirgan-yuqtirmaganingizni tekshirish uchun albatta shifokorga boring. Sizga qiyin yoki noqulay bo'lishini tushunamiz, ammo to'g'ri davolanish nafaqat sizning, balki bo'lajak oilangizning ham hayotini saqlab qolishi mumkin.

Bo'lajak farzandlaringiz uchun

Agar siz ko'pchilik tengdoshlaringizga o'xshasangiz, demak, qachondir farzandli bo'lmoqchisiz. Hayotni qayta tiklash va o'z avlodlariga mehr-muhabbat meros qoldirish istagi deyarli barcha odamlarga xosdir. Zabur 126:3-5 da shunday deyilgan:

«O'g'illar Egamizdan merosdir, Farzandlar Undan mukofotdir. Yoshligingizda tug'ilgan o'g'illaringiz Jangchining qo'lidagi o'qlardaydir. O'qdoni to'la shunday inson baxtlidir! Shahar darvozasi oldida Dushmani bilan davolashganda, U sharmanda bo'lib qolmaydi.

Agar qachondir farzand ko'rishni istasangiz, bu kitobni diqqat bilan o'qib chiqishingiz kerak. Farzand ko'rish qobiliyatingiz ko'p jihatdan iffat uchun kurashda g'alaba qozonishingizga bog'liq bo'ladi. Gap shundaki, jinsiy yo'l bilan yuqadigan bazi kasalliklar fallopiy naylarida chandiqlar hosil bo'lishiga sabab bo'ladi, bu chandiqlar ayol tuxum hujayrasining erkak spermasi bilan qo'shilishiga to'sqinlik qiladi. Siz o'zingizga: "Buni qarang-a! Men esa bepushtlikni davolaydigan klinikaga boraman va u yerda menga homilador bo'lishimga yordam berishadi." dersiz. Ammo, bilasizmi, tibbiy muolajalar homiladorlik bilan muvaffaqiyatli yakunlanishi va sizda sog'lom bola tug'ilishiga hech qanday kafolat yo'q; bundan tashqari, suniy urug'lantirish katta mablag', vaqt va hissiy xarajatlarni talab qiladi. Ko'pchilik buni tasdiqlashlari mumkin edi.

Shuni yodda tutingki, abortlar ham farzand ko'rish qobiliyatiga salbiy tasir ko'rsatadi. Ko'pincha nikohsiz homilador bo'lgan yosh ayollar buni vaziyatdan chiqishning oddiy va oson yo'li deb bilishadi. Na omma oldida sharmanda bo'lasan, na do'stlaring va qarindoshlaring oldida uyalasan - shunchaki istalmagan homiladan xalos bo'lasan va buni hech kim hech qachon bilmaydi. Ammo o'z xatolarini qilish o'rniga o'z xatolaridan saboq olishingizni istaydigan Debra shunday hikoya qiladi:

"O'n to'qqiz yoshimda homilador bo'ldim. Yigitim menga uylanishdan qatiyan bosh tortdi va bo'lajak farzandimni tarbiyalashda menga yordam bermoqchi emasligini aytdi. Shunda men abort qilishga qaror qildim. Nazarimda, bu fojiali xatoni tuzatishning eng oson va tez yo'li edi. Yigirma yildan ko'proq vaqt davomida, ayniqsa, Mavlud bayramlarida va aprel oyida, bu bolaning tug'ilgan kunini nishonlashimiz mumkin bo'lganida, meni qiynagan uyat va og'riqni tasvirlay olmayman. O'sha mashum abort natijasida bachadonim qattiq shikastlandi, endi tug'olmayapman, vaholanki, erim, ajoyib inson, farzand ko'rishni juda-juda istardi. O'sha bemani qarorimdan qanchalik afsusdaman - undan ko'ra nikohsiz homiladorlikdan uyat va xo'rlikni boshdan kechirishni afzal ko'rardim, bu bolani tug'ib, uni asrab olishga bergan bo'lardim, menga ancha engil bo'lardi. Lekin hozir o'z bolamni o'ldirib, bepusht bo'lib qolganim uchun yuragimda og'ir yuk borligini doimo his qilaman. Bu hasratni o'zim bilan go'rga olib ketaman".

"Abort. Aldangan umidlar" maqolasida Meggi Gallagerning malum qilishicha, statistik malumotlarga ko'ra, homilador bo'lgan to'rtta boladan bittasi o'limga mahkum: onasi uni abort qilib o'ldiradi. U shunday deb yozadi:

"Abort ayollarga birinchi duch kelgan odam bilan hech qanday majburiyatsiz manosiz jinsiy aloqa qilish imkoniyatini beradi... Qizig'i shundaki, bu jinsiy beboshlik ayolga unchalik zavq ham bermaydi. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayolning jinsiy qoniqishi, birinchi navbatda, u tanasiga yaqinlashtirgan erkak bilan munosabatlarining hissiy sifati bilan belgilanadi."

Meggi mutlaqo haq. Nikohsiz jinsiy aloqa jozibali tuyulishi mumkin, ammo nikohdan oldin jinsiy aloqada bo'lganlar bunday munosabatlar ayolning sevgi, yaqinlik, ishonchlilikka bo'lgan ichki intilishini qondirmasligini tasdiqlaydilar. Bu faqat Xudo tomonidan belgilab qo'yilgan yaqinlikni, yani ayolni nikoh rishtalari bog'lab turgan sevgan, sadoqatli, vafodor erkak bilan bo'ladigan yaqinlikkina berishga qodir.

G'alabaga tayyormisiz?

Jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar haqida bilib olganingizdan va Xudo nima uchun jinsiy aloqaga faqat er-xotin munosabatlari doirasida yo'l qo'yishi haqida tushunchaga ega bo'lganingizdan so'ng, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar, rejalashtirilmagan homiladorlik va bepushtlikka qarshi mudofaa chizig'ini qurishga tayyormisiz? Ajoyib!

Keyingi boblarda biz tanangizni jinsiy xavfdan himoya qilishning bazi aniq usullarini ko'rib chiqamiz.

"O'zlaringizni aldamanglar! Xudoni laqillatib bo'lmaydi. Inson nima eksa, shuni o'rib oladi. Xudbin istaklarini qondirish uchun urug' ekanlar o'sha xudbin istaklari tufayli halokatni o'rib oladilar. Ruhni mamnun qilish uchun urug' ekanlar esa Ruhdan abadiy hayot o'rib oladilar" Galatyaliklar 6:7-8

BOB 20

Texnik bokiralik

...ammo badanimiz zino uchun xizmat qilmasligi kerak, aksincha, badanimiz bilan Rabbimiz Isoga xizmat qilishimiz kerak.

1 Korinfliklar 6:13

Bu lahzani anchadan beri, bir necha haftadan beri kutardim, mana, nihoyat, u etib keldi - men uchun juda qadrli bo'lgan inson bilan yangi, qiziqarli joyda o'tkazishim kerak bo'lgan oqshom. Biz "Teksas Reynjers" jamoasi ishtirokidagi beysbol o'yini bo'lib o'tishi kerak bo'lgan yangi qurilgan stadion to'xtash joyiga keldik. Biz - men va jiyanimiz. Men uning o'n yoshga to'lishi munosabati bilan bu o'yin-kulgini uyushtirdim. Stadiongga borguncha gurunglashib, kulishib, rosa xursand bo'ldik. Keyin tantanavor ohangda dedim: "Peyj, sen o'n yoshdasan va shubhasiz, kimdandir so'rashing kerak bo'lgan turli savollaring bor. Bilib qo'y: sen mendan nimani xohlasang va qachon xohlasang, shuni so'rashing mumkin, men senga albatta javob beraman!" Bu tantanali vadamning oqibati nima bo'lishini oldindan bilganimda edi! Jiyanim o'sha zahoti: Shennon xola, og'zaki jinsiy aloqa nima o'zi? - deb so'radi.

Soch turmagi, maktab, balki o'g'il bolalar haqidagi savollarni kutgandim. Lekin og'zaki jinsiy aloqa haqidami?.. O'n yashar qizcha bergan bu savol, yumshoq qilib aytganda, meni g'aflatda qoldirdi. Men undan og'iz orqali jinsiy aloqa haqida qayer

da eshitganini so'radim, u shunday javob berdi: "Bu haqda radioda doim gapirishadi!"

1998-yilda, sizda jinsiy munosabatlar haqidagi tushunchalar va shaxsiy fikrlaringiz shakllanayotgan bir paytda, AQSh Oq uyda sodir bo'lgan jinsiy mojaroni larzaga keltirdi. U, albatta, barcha ommaviy axborot vositalari tomonidan faol muhokama qilindi. O'sha paytdagi prezident Bill Klinton o'zining Monika Levinski bilan ishqiy aloqasi borligini rad etib, og'zaki jinsiy aloqani jinsiy aloqa sifatida tasniflash mumkin emasligini takidladi. Garchi bu dalil uning qoralovchilari uchun etarlicha asosli bo'lmasa-da, baxtga qarshi, ko'pgina yoshlar uni ishonarli deb topdilar.

Statistika shuni ko'rsatadiki:

- 1999 yil kuzida "Seventeen" jurnali tomonidan o'tkazilgan so'rov malumotlariga ko'ra, savdo markazlarida so'rov o'tkazilgan ikkala jinsdagi (723 nafar) o'smirlarning (15 yoshdan 19 yoshgacha) 49 foizi og'zaki jinsiy aloqani jinsiy aloqadan "beozorroq" deb hisoblaydi, 40 foizi esa uni to'liq manoda "jinsiy aloqa" deb hisoblamaydi.
- Yaqinda 15 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan qizlar va o'g'il bolalar o'rtasida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, ularning 55 foizi og'iz orqali jinsiy aloqa qiladi.
- Manxettenlik bir psixologning so'zlariga ko'ra, ko'plab o'smirlar uchun og'zaki jinsiy aloqa "xayrli tun tilab bo'sa olish"day gap: uning yettinchi va sakkizinchi sinf o'quvchilari nikohgacha bokiralikni saqlab qolishga qaror qilganlar, ammo og'zaki jinsiy aloqada bo'lgan, chunki bu usulni xavfsiz deb hisoblaganlar.

"Og'zaki jinsiy aloqa jinsiy aloqa emas" degan afsona ortida nima yashiringan?

So'nggi paytlarda og'zaki jinsiy aloqa o'smirlar va yoshlar orasida sevimli ko'rinishga aylangani, qizlar ko'pincha "oluvchi" emas, balki "beruvchi" tomon ekanligi haqida ko'p gapirilmoqda. Xo'sh, nima uchun bu mashhurlikka erishdi?

Xoh ishonang, xoh ishonmang, ammo ko'plab yosh ayollar og'iz orqali jinsiy aloqani foydali kelishuvga o'xshatishadi. Nima uchun? Buning asosiy sabablari:

- Homilador bo'lish xavfi yo'q. Biroq, ehtiros juda tez o'sib boradi va ko'plab yoshlar og'iz orqali jinsiy aloqa qilishni boshlaganlaridan ko'p o'tmay jinsiy aloqaga kirishadilar. Shunday qilib, homilador bo'lish xavfi to'liq haqiqatga aylanadi.
- Og'iz orqali jinsiy aloqadan kasallik orttirilmaydi. Siz shunday deb o'ylaysizmi? Odam papillomasi virusi, pufakli temiratki virusi va gepatit V - nafaqat jinsiy yo'l bilan, balki og'iz orqali ham yuqadigan kasalliklar; so'zak, zaxm, xlamidiya va yumshoq shankr - og'iz orqali jinsiy aloqa paytida yuqishi mumkin bo'lgan bakterial infeksiyalar. Ehtimol, buni qinga emas, balki og'izga olib yurish yaxshiroq deb o'ylayotgandirsiz, ammo bu yo'l bilan jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarni yuqtirib olgan bo'lsangiz, kasalligingizni bo'sa orqali yuqtirishingiz mumkin, siz uni mukofotlagan odam esa siz bilan og'iz orqali jinsiy aloqa qilish orqali uni qiningizga o'tkazishi mumkin. Avvalgi bobda aytib o'tganimizdek, sizga jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarni yuqtirish uchun qin orqali kirish umuman shart emas.
- O'g'il bolalar orasida ko'proq shuhrat qozonaman. Og'iz orqali jinsiy aloqa qilish uchun oson nishon bo'lish mashhurlikdir! Shubha yo'qki, bu turdagi xizmatlarni ko'rsatib, siz mashhur bo'lasiz va yoshlarning etiborini qozonasiz, lekin ularning hurmati, sevgisi va sadoqatini qozonishga umid qilmang.

• Men uni "baxtli qilishni" istayman. Agar yigit og'iz orqali jinsiy aloqa qilish uni baxtli qilishini aytsa, bilingki, u sizni sevmaydi. U faqat sizdan foydalanadi va siz undan jon-jahdingiz bilan qochishingiz kerak. Agar uni baxtli qilish uchun og'iz orqali jinsiy aloqa qilish g'oyasi va istagi sizga tegishli bo'lsa, keyin pushaymon bo'ladigan ishlar qilmasdan oldin bu masalani hal qilishda yordam berish uchun tezroq jamoat yoki maktab psixologiga boring. Bunday lazzatlar tezda odat tusiga kiradi va oxir-oqibat jinsiy mayllarga aylanadi.

• Og'zaki jinsiy aloqa paytida men uning ustidan hukmronlik qilaman (albatta, jinsiy aloqa paytida u sizning ustingizdan hukmronlik qiladi deb taxmin qilinadi). Ko'pgina yosh ayollar zo'ravonlikka duchor bo'lganliklari yoki o'zlari xohlamagan jinsiy harakatlarga majburlanganliklari sababli, og'zaki jinsiy aloqa paytida erkak ustidan hukmronlik qilish illyuziyasi ular uchun juda jozibali tuyuladi. Lekin bu sizning tasavvuringiz mahsuli, xolos. Agar og'iz orqali jinsiy aloqa qilish taklifi sizdan chiqsa, siz uni ko'pi bilan ikki-uch daqiqa "boshqarasiz," lekin eyakulyatsiya sodir bo'lishi bilan va zo'riqish pasayishi bilan siz darhol bu xayoliy kuchni yo'qotasiz. Agar bu g'oya unga tegishli bo'lsa va siz bunga qo'shilsangiz, demak, siz undan ustun emas, u sizdan ustun.

Yuqorida aytilganlarni inobatga olgan holda, siz nikohdan tashqari og'zaki jinsiy aloqa jinsiy faollikning bir turi ekanligini tushunasiz, siz - jinsiy va hissiy poklikka intilayotgan yosh ayol - undan voz kechishingiz kerak.

Tiyilish va u haqidagi noto'g'ri tushunchalar

4. Kelajak haqida aniq tasavvur. Bu hayotda Xudo uni nimaga undayotgani haqida tushunchaga ega bo'lgan, nima bilan shug'ullanishni xohlayotganini biladigan va bunga qanday erishish bo'yicha aniq rejasi bo'lgan odamni izlang. Uning hayotiy rejalari sizning rejalaringizga zid kelmasligiga ishonch hosil qiling. Agar siz unga xotin bo'lsangiz, unga yordamchi bo'lib, Xudo qayoqqa boshlasa, o'sha yoqqa borishingiz kerak bo'ladi. Garchi qiziqishlaringiz bir-biridan keskin farq qilsa-da, ular baribir bir tomonga intilishi kerak. Keyin nima qilishini aniq bilmay turmush quradigan engiltak yigitlarga o'xshamang. Ularning kelajak haqidagi tasavvurlari ozmi-ko'pmi aniq-ravshan shakllangunga qadar, ular er yoki xotinning rejalari mutlaqo to'g'ri kelmasligi malum bo'ladi. Bunday holat yuz berganda, er-xotindan biri o'z orzularini qurbon qilishga majbur bo'ladi yoki vaqt o'tishi bilan nikoh buziladi.

5. Jismoniy jozibadorlik. Etibor bering: garchi bu fazilat bizning ro'yxatimizda oxirgi o'rinda tursa-da, shunga qaramay, u ro'yxatda mavjud. Tanlagan odamingiz sportchi yoki kino yulduzi bo'lishi shart emas, lekin u sizni jismonan o'ziga jalb qilishi kerak. Agar u Xudoni sevsa, ajoyib, mustahkam oilada o'sgan bo'lsa, pul topishni va uni oqilona boshqarishni bilsa va uni porloq kelajak kutayotgan bo'lsa ham, lekin jismonan u siz uchun jozibador bo'lmasa, unga turmushga chiqmang. To'g'riso'zligim uchun uzr, lekin sizni jismonan o'ziga jalb qilmaydigan erkakka hadeb taslim bo'laverishni istamaysiz. Siz o'z taqdiringizni bunday odam bilan bog'lashingiz ham aqlsizlik, ham shafqatsizlik bo'lardi. Turmush o'rtog'ingizning sizga nisbatan hech qachon jismoniy mayli bo'lmaganini bilish siz uchun dahshatli emasmi? Erkaklar ham xuddi shunday his qilishadi.

Haqiqiy sevgini qanday aniqlash mumkin?

Bunday savol sevgi hissiyot ekanligi haqidagi noto'g'ri tasavvuringizni oshkor qiladi. Er-xotinlarning ko'pchiligi sizga bazida bir-birlarini sevishlarini "his qilishlari"ni, bazida esa hech narsani "his qilmasliklarini" aytishadi. His-tuyg'ular o'zgaruvchan, ammo muhabbat - bu boshqa narsa. Bu sadoqatdir. Agar siz yigitni chindan ham yaxshi ko'rishingizni bilmoqchi bo'lsangiz, o'zingizdan so'rang:

"Men bu odamga sodiqmanmi?" Agar bu noto'g'ri bo'lsa yoki sizning sadoqatingiz juda shartli bo'lsa, demak, siz uni sevmaysiz. Agar siz unga hech qanday shart va oqlashlarsiz sodiq bo'lsangiz (hatto bu sizga juda qiyin bo'lsa ham), demak, bu chinakam muhabbatdir.

Havoriy Pavlus Korinfliklarga birinchi maktubida shunday deb yozgan:

«Sevgi sabr-toqatli va mehribondir. Sevgi hasad qilmaydi, maqtanmaydi, kekkaymaydi. Sevgi odobsizlik qilmaydi, xudbinlik qilmaydi, achchiqlanmaydi, kek saqlamaydi. Sevgi nohaqlikdan sevinmaydi, aksincha, haqiqat qaror topganda shodlanadi. Sevgi har narsani ko'taradi, hech qachon ishonchini yo'qotmaydi, har qanday sharoitda umid saqlaydi, har narsaga toqat qiladi. Xudoning so'zini etkazish inomi ham, nomalum tillarda gapirish inomi ham yo'q bo'ladi, bilim ham bartaraf bo'ladi. Sevgi esa aslo ado bo'lmaydi»

Agar uning muhabbati vaqt sinovidan o'tsa, sizga o'zgarmas hurmat bilan munosabatda bo'lsa, siz belgilagan chegaralarga rioya qilsa, sizni asrab-avaylasa, sizga ishonsa va doimo siz uchun faqat yaxshilik istasa, amin bo'lingki, u sizni sevadi. Agar u bunday qilmasa, demak, unga turmushga chiqmasligingiz kerak. O'zingizni ham kuzatishni unutmang - sevgingiz vaqt sinovidan o'tyaptimi va hokazo.

Sevgingizni qanday himoya qilishingiz mumkin?

Kerakli odamni topib, u bilan "sadoqat mavsumi"ni boshlaganingizda, siz uchta qoidaga rioya qilishingiz kerak (agar sevgingiz yo'qolishini emas, balki mustahkamlanishini istasangiz):

1. Uning shaxsiy hayotini hurmat qiling. Doimo yoningizda bo'lishga majbur qilib, unga yopishib olmang. U sizning sevgilingiz, lekin siamlik egizagingiz emas-ku! Sizning hissiy ehtiyojlaringizni qondirishda u butun bo'sh vaqtini faqat sizga bag'ishlaydi, deb kutmang. Unda sevimli mashg'ulot bilan shug'ullanish va yaqin do'stlaringiz bilan vaqt o'tkazish istagini rag'batlantiring va o'zingiz ham shunday qiling. Uni hozirgi paytda uning uchun juda muhim bo'lgan mashg'ulotlardan: qunt bilan o'qish yoki unga qo'shimcha daromad keltiradigan ishdan ataylab chalg'itmang. Sizning sabr-toqatingiz ertami-kechmi mukofotlanadi, chunki u sizning o'zini, uning munosabatlarini, shaxsiy maqsadlarini qo'llab-quvvatlashga bo'lgan intilishingizni albatta qadrlaydi. Keyinchalik, u siz bilan birga bo'lish uchun kelganida, siz uning zarurat tufayli emas, balki o'z xohishi bilan shunday qilayotganini bilib olasiz.

2. Tashabbusni unga qo'yib bering. Yigitni o'zidan uzoqlashtirishning eng ishonchli va tezkor usullaridan biri - uni hali qodir bo'lmagan majburiyat tomon qattiq turtkilashdir. Agar u hali uylanishga tayyor bo'lmasa, ehtimol, bu fikrga ko'nikishi uchun vaqt kerakdir. Buni odatiy hol sifatida qabul qiling va sabrli bo'ling... yoki u sizga kerakli odam emas, degan taxminga yo'l qo'ying va qidirishda davom eting. Darhaqiqat, uning bevaqt, chala majburiyatining sizga nima keragi bor? Kim bilsin, - bordi-yu, u tayyor

emasman desa, ehtimol, bu bilan u sizga buyuk bir xizmat ko'rsatib, sizni ko'pdan-ko'p azob-uqubatlardan xalos etgandir? Agar siz uning o'zi "ha" deyishini kutsangiz, u haqiqatan ham rozi ekanligini bilasiz.

3. U bilan birga yashamang va har qanday shakldagi jinsiy aloqani rad eting. "Christianity Today" jurnali tomonidan o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, o'smirlarning 70 foizi umuman va masihiy o'smirlarning 50 foizi nikohdan oldin birga yashashni maqbul deb hisoblashadi. Ko'pgina yosh ayollar yigit bilan jinsiy aloqa qilish orqali munosabatlarini mustahkamlashga harakat qilishadi: ular tanani berib, sevgilisini abadiy bog'lab qo'yaman deb o'ylashadi. Aldanmang! Yodingizda bo'lsin: jinsiy aloqa odatda erkak intiladigan asosiy narsadir va agar u allaqachon xohlagan narsasiga erishgan bo'lsa, nima uchun u o'z erkinligidan voz kechib, uylanishi kerak? Onam aytganidek: "U shundoq ham sutni tekinga olayotgan bo'lsa, sigir sotib olishning nima keragi bor?" Mukofotni kutishni biladigan odam oladi, intim munosabatlar esa bunga arziydi. Bugun ularni kechiktirish bilan siz o'zingizga bir umrlik mukofot tayyorlaysiz.

Sizga hammadan ko'ra ko'proq kerak bo'lgan Zotni unutmang!

Xulosa o'rnida sizga dunyodagi hamma narsadan ko'ra ko'proq kerak bo'lgan, sizning etiboringiz va mehringizni kutayotgan, sizni tasavvur ham qilolmaydigan darajada sevishtayyor bo'lgan Zotni eslatib o'tamiz. Sizga bu beminnat muhabbatni ko'rsatish uchun U allaqachon ulkan qurbonliklar berdi. U tasavvur qilish mumkin bo'lgan eng mustahkam oiladan chiqqan va Uning Otasi bizga O'g'liga bo'lgan mukammal sevgining namunasini ko'rsatadi. Osmonlaru yerdagi narsalar Unikidir. U zot sizlarni ulug' nematlar bilan rizqlantiradi. Sizning birgalikdagi kelajagingiz Uning uchun ochiq kitobdir va bu kitobda sizning jannatdagi tuganmas asal oyingiz tasvirlangan.

Modomiki siz dunyoviy nikoh rishtalari bilan bog'lanmagan ekansiz, nega Iso Masihning beqiyos muhabbatidan har soatda bahramand bo'lmaysiz?

«... Imoningiz orqali Masih yuragingizdan joy olsin. Sizlar ildizi chuqur daraxtday bo'ling, Xudoning sevgisi sizlarni barqaror qilsin. Xudoning barcha azizlari bilan birga, Masihning aql bovar qilmas sevgisi qanchalik keng, qanchalik cheksiz, qanchalik yuksak va teran ekanligini to'la anglab, bilib olinglar. Shunda hayotingiz Xudoning kamolotiga to'lib-toshadi».
Efesliklar 3:17-19

24-BOB

Unga kerak bo'lgan qiz bo'lish

Yana Xudovandi Karim: «Odamning yolg'iz bo'lishi yaxshi emas, endi unga munosib madadkor yarataman», – dedi.

Ibtido 2:18

Tasavvur qiling, siz xonaga kirdingiz, u yerda oltita chiroyli yosh masihiy o'tiribdi va har biri navbati bilan qaysi xotinni orzu qilayotganini aytmogda. Siz pashshaga aylanib, devorga suyanib o'tirib, ularning samimiy suhbatini tinglashni istarmidingiz? Bo'lmasam-chi! Mana shu haqda gaplashamiz.

Biz oltita yigitdan so'radik: "Bo'lajak rafiqangizda qanday o'nta asosiy fazilatni ko'rishni xohlaysiz?". Ularning javoblari bu yerda ushbu fazilatlarni qanday rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalarimiz bilan birga joylashtirilgan. Bu fazilatlar ro'yxatini biz suhbatdoshlarimiz bilan oldindan kelishib olgan holda ixtiyoriy tartibda keltiramiz, bu kitobda ular eng muhim deb hisoblaydigan narsalar haqida nimalar aytilishi kerak. Albatta, boshqa fazilatlar ham muhokama qilindi, ammo har bir kishi quyida keltirilgan mezonlarga qo'shildi.

1. U "Iso Masihda" yashaydi.

Siz jamoatga yoki yoshlar guruhiga borasizmi? Masihning sadoqatli shogirdi bo'lish uchun o'z ustingizda ishlab, Unga xizmat qilish yo'llarini izlayapsizmi? Xudoning Kalomini o'qiyapsizmi va Xudoni yanada yaxshiroq bilish uchun ibodat qilyapsizmi? Butun qalbingiz bilan Xudoga intilsangiz, U sizni hayratlanarli tarzda o'zgartiradi, odamlar intiladigan va yaqinroq bilishni xohlaydigan shaxsga aylantiradi. Agar yigit sizning masihiylik mohiyatingizga moyil bo'lsa,

demak, u ham Xudoni sevadi.

2. U o'zini parvarishlaydi va hurmat qiladi.

"O'zini parvarish qiladigan" qiz deganda nimani nazarda tutishgan? Bu shuni anglatadiki, uning vazni ozmi-ko'pmi bo'yiga mos kelishi kerak; terisi toza, sochlari va tirnoqlari parvarishlangan bo'lishi kerak. Bunday ayol o'zining qanday kiyinganidan mamnun bo'ladi va o'z ko'rinishidan uyalmaydi.

Haqiqatdan qochib qutulib bo'lmaydi: erkaklar "tashqi ko'rinishga tumshug'ini suqadi." Biz suhbatga tortgan yigitlar bu fikrni iloji boricha nozik ifodalashga harakat qilishsa-da, jozibali qizlarni yoqtirishlarini hech kim inkor etmadi. Ulardan biri: "U go'zallik qirolichasi yoki jurnal muqovasidagi model bo'lishi shart emas, shunchaki chiroyli bo'lsin," dedi. Yana biri qo'shimcha qildi: "Uning ichki jozibasi men uchun tashqi jozibadan ko'ra muhimroq bo'ladi." Bazilar o'tmishda stereotip "go'zallar" bilan uchrashganliklaridan shikoyat qilishdi, ammo vaqt o'tishi bilan aniqlangan yoqimsiz xarakter xususiyatlari ulardagi jozibadorlikni yo'q qildi. Boshqa qizlarning reytingi ular o'ziga ishonmagani uchun tushib ketdi va ularni doimo yaxshi ekanliklariga ishonitirishga to'g'ri keldi. Yigitlar, shuningdek, qizlarning maqtovlarga "ko'milib ketishini" yoqtirmasliklarini aytishdi. Ularga o'ziga bo'lgan ishonchi tashqaridan emas, ichkaridan keladigan yosh ayol kerak.

3. U engil, quvnoq xarakterga ega bo'lishi, hayotga optimistik ko'z bilan qarashi kerak.

Yig'loqi va vaysaqilarni hech kim yoqtirmaydi. Biz tabiatan boshqalarning kayfiyatini ko'tara oladigan quvnoq odamlarga intilamiz. "O'zimga kerakli insonni topsam bo'ldi, o'sha yerda ham quvnoq, ham baxtli bo'laman," deb adashmang. O'n besh yil davomida yigirma to'rt ming kishining munosabatlarini o'rgangan psixologlar shuni aniqladilarki, "Er-xotinlik kamdan-kam odamlarni baxt bilan to'ldiradi - bundaylar o'n bir bo'linma shkalasining o'ndan bir qismini egallaydi... Ko'pchilikni nikohdan keyingi hayoti nikohdan oldingi hayotidan ko'ra ko'proq qoniqtirmaydi... Er-xotinlik ahd-paymonlaridan so'ng baxt tuyg'usi ortsa-da, ko'pchilikda ikki yil ichida nikohgacha bo'lgan darajaga qaytadi." Xullas, to'y insonni abadiy tushkunlikdan chiqarish vositasi emas. O'zingizni va umuman hayotni haddan tashqari dramatik qabul qilmang. Narsalarga optimizm bilan qarashni o'rganing. Yaxshiliksiz yomonlik bo'lmaydi, degan gapni tez-tez eslab turing. Tez-tez kuling, ayniqsa o'z ustingizdan. Agar tushkun kayfiyatingiz ketma-ket ikki oydan ortiq vaqt davomida hayotingizni zaharlayotgan bo'lsa, ota-onangiz, ruhoniy yoki shifokor bilan suhbatlashing va tushkun kayfiyatingiz sabablarini aniqlashga harakat qiling.

4. Boshqa yigitlar davrasida u o'zini vazmin tutishi kerak.

Ajablanmang, lekin aksariyat bolalar o'zlarining juda rashkchi ekanliklarini tan olishadi. Agar qiz ularga yoqsa, boshqa yigitlarga haddan tashqari do'stona munosabatda bo'lishini xohlamaydilar. Bir yigit shunday dedi: "Agar qiz bilan jiddiy munosabatda bo'lsam, u uchun faqat men borligimni bilishini istayman! Uning boshqa yigit bilan o'ynashishini yoqtirmayman va u meni unga almashtiradi, deb xavotirlanishni xohlamayman." Aytgancha, yigitlar sevgilisining erkak do'stlari bo'lishi mumkinligini tan olishadi va qiz bilan rasman uchrashishni boshlaganlarida ular bilan do'stlashishga ham qarshi emaslar.

5. U tejankor bo'lishi va oilaviy byudjetni oqilona rejalashtira olishi kerak.

Ko'pchilik yoshlarni bo'lajak oilani munosib taminlay olamanmi, degan o'y tashvishga soladi. Ular non uchun javobgarlik va hisob-kitoblar bo'yicha to'lovlar majburiyati katta ehtimol bilan ularning elkasiga tushishini tushunishadi. Suhbatdoshlarimizdan biri shunday dedi: "Agar men pul topish uchun ko'p harakat qilishim kerak bo'lsa, xotinim uni iloji boricha uzoqroq sarflashga harakat qilsin!" Turmush qurganingizdan so'ng pulni tejab-tergab, oqilona ishlatishingizga ishonch hosil qilishning bir yo'li - qancha pul yoki daromadga ega bo'lishingizdan qati nazar, bu ajoyib fazilatni darhol mashq qilishni boshlashdir. Bu shuni anglatadiki, ota-onangiz sizga kerakli narsalarni likopchada olib kelishlariga umid qilmasligingiz kerak. Agar shu paytgacha o'zingizni shunday

tutgan bo'lsangiz, demak, eringizdan ham shuni talab qilasiz. Pulni isrof qilmang va duch kelgan narsani sotib olmang. Agar siz kredit kartochkasidan foydalansangiz, undan har oyda qat'iyl belgilangan summani echib oling, undan ko'p emas. Hech qachon kredit olmang va qarzga botmang, aks holda faqat foizlar bilan xonavayron bo'lasiz. Qarz ko'rinishida eriga moliyaviy "mahr" olib keladigan xotin yaxshi! Shunday qilib, bugunoq tejashni boshlang - va siz bo'lajak turmush o'rtog'ingiz uchun zarar emas, balki qimmatli yutuqqa aylanasiz.

6. U oilasi bilan yaxshi munosabatda bo'lishi va yaqin do'stlariga ega bo'lishi kerak.

Nikohda yashashni o'rganmoqchimisiz? - Oilangiz bilan yashang! Qarindoshlaringiz bilan tinch-totuv yashashni bilmaysizmi va yaqin do'stlaringiz yo'qmi? Ehtimol, bu sizning qo'pol fel-atvoringiz bilan ajralib turishingiz tufaylidir - va bu normal yigit uchun

"qizil bayroqcha" darrov ko'zga tashlanadi. Ammo siz va ota-onangiz o'rtasida "otalar va bolalar" o'rtasida tez-tez kuzatiladigan o'zaro tushunmovchilik bo'lsa ham, ular bilan muloqot qilish yoki birgalikda biror mashg'ulot sizga zavq bag'ishlaydimi? Nohaqligingizni tan olib, kechirim so'rashni bilasizmi? Boshqalarning barcha nuqsonlariga qaramay, ularni kechira olasizmi va seva olasizmi? Munosabatlarda yon berishga qodir bo'lganingiz tufayli odamlar siz bilan do'stlashadimi? Unga kerakli bo'lishni istasangiz, o'zingizda bu fazilatlarni rivojlantiring.

7. U g'amxo'r va vaqt o'tishi bilan yaxshi ona bo'ladi.

Yoshlar farzandlarining baxtli bo'lib o'sishini xohlashadi, shuning uchun ular bolalariga g'amxo'rlik qiladigan va yaxshi ona bo'ladigan rafiqaga ega bo'lishni orzu qilishadi. Albatta, ularning ko'pchiligi o'zlari ham eng yaxshi ota bo'lishni niyat qilishadi va bola tarbiyasida xotiniga yordam berishga astoydil tayyorgarlik ko'rishadi. Ammo bu ish ko'p vaqt va kuch talab qiladi, shuning uchun Xudo otaga ham, onaga ham farzandlarining jismoniy, hissiy, aqliy va manaviy ehtiyojlari haqida g'amxo'rlik qilishni buyurgan. Ehtimol, siz karera qilishga qat'iyl qaror qilgandirsiz, ammo oila qurmoqchi bo'lsangiz, hissiy jihatdan sog'lom farzandlarni tarbiyalash uchun bazi shaxsiy manfaatlaringizni qurbon qilishga yoki hech bo'lmaganda ularni kelajakka qoldirishga tayyor bo'lishingiz kerak.

Turmush o'rtog'im bilan birinchi farzandimiz bo'lishidan oldin men tibbiyot kolleji qoshidagi tayyorlov kursida o'qiganman. Esimda, qizimiz bir yoshga to'lganida rosa yig'laganman: axir, bir yillik tirishqoqlik bilan o'qishim behuda ketgandek edi! Tibbiyot kollejiga o'qishga kirsam, hayotimni yanada murakkablashtirishimni tushundim va o'shanda hayotimda uchragan eng og'ir qarorlardan birini qabul qildim. Men bakalavr darajasi uchun imtihon topshirdim, lekin o'qishni davom ettirish fikridan qaytdim. Men buni oilam nomidan qildim va keyinchalik yoshlar xizmatchisi va maruzachi sifatida yarim stavkada ishlagan bo'lsam ham, bundan hech qachon afsuslanmadim. Ammo men farzandlarim bilan ko'proq vaqt o'tkazishim mumkin edi va o'rtamizda ruhiy aloqa o'rnatildi, buni hatto eng yorqin martaba ham o'rnini bosa olmaydi.

8. U mening hayotiy rejalarimni qo'llab-quvvatlashi, menga dalda berishi va ruhlantirishi kerak.

Eng muhimi, er xotining samimiy yordamiga muhtoj. Siz uning ashaddiy muxlisi bo'lishingiz kerak. Ha, bazida sizga qiyin bo'ladi. Bu hayotda hech birimiz yo'qotishlardan - ishsiz qolishdan, yaqinlarimiz va sevimli insonlarimizning, balki farzandimizning o'limidan ham sug'urtalanmaganmiz. Bazida eri ishini o'zgartirib turadi, bu esa katta moliyaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Hayot qiyinchiliklari va umidsizliklarni engib o'tayotganda, erkakka har narsada uni qo'llab-quvvatlaydigan sodiq hamroh - yonida turadigan ayol kerak. Men huquqshunosga turmushga chiqqan bir ayolni bilaman - qisman amaliy mulohazalarga ko'ra: unga yuqori maosh oladigan mutaxassisga turmushga chiqish har qanday moliyaviy muammolardan butunlay xalos etadigandek tuyulgan. Ammo qirq yoshga kirganida eri juda charchaganini his qildi va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishni xohlamadi. U o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanishga qaror qildi, garchi bu uning maoshi sezilarli darajada kamayishini anglatardi. Xotini ularning hayotidagi keskin o'zgarishni qabul qilmadi va bir necha yillik kelishmovchilik va janjallardan so'ng ular ajrashishdi.

Uning eriga bo'lgan muhabbati chek daftarchasi tufayli edi. Sizga kerak bo'lgan Tom haqida o'ylar ekansiz, o'zingizdan shunday deb so'rang: "Men bu odamga qanchalik sodiqman? Uni hurmat qilamanmi, unga eng sodiq muxlisi bo'la oladigan darajada ishonamanmi?" Unutmang, turmush o'rtog'ingizni hayot yo'lining har bir qadamida qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish sizning burchingizdir.

9. Uning orzulari va maqsadlari bo'lishi kerak, ularni amalga oshirishda men unga yordam bera olaman.

Nima bilan shug'ullanasiz? Sevimli ishingiz bormi? Sizga nima kuch va harakat qilish istagini beradi? Yuqori sinflarda o'qiyotganingizda, qaysi mashg'ulotlar sizni qiziqtirishi va ruhlantirishi mumkinligini aniqlay olasiz. Kollejda o'qiyotganimda, jismoniy tarbiya bo'yicha imtihan topshirish zarurati meni juda qiynardi. Alamimdan akvalang bo'yicha suzish to'garagiga azo bo'ldim va kutilmaganda suv ostiga sho'ng'ishni sevib qoldim. Bundan tashqari, ona tili mashg'ulotlari meni juda bezor qilardi. "Ingliz tilini qancha topshirish mumkin! - deb o'yladim. - Har yili shu ahvol!" Lekin keyin nima bo'lganini toping-chi? Bu menga yaxshi yozuvchi va suhbatdosh bo'lishimga yordam berdi, umuman olganda, sevimli mashg'ulotimga aylandi. Bolalar psixologiyasi kursi menga o'z farzandlarimni yaxshiroq tushunishga va ular uchun yaxshi ona bo'lishga yordam berdi - bu har doim mening asosiy maqsadim bo'lib kelgan. Dunyoqarashingizni kengaytiring, o'zingiz uchun yangi qiziqishlarni kashf eting va sizdan qiziqarli, ko'p qirrali, baxtli inson chiqadi!

10. U sarguzashtlarni yaxshi ko'rishi va mening bazi qiziqishlarimni baham ko'rishi kerak.

Yigitlar umuman qiziquvchan bo'ladilar, shuning uchun ularga hech bo'lmaganda bazi qiziqishlarini baham ko'ra oladigan dugonalar kerak. Siz sarguzashtlarni yaxshi ko'rasizmi? Agar sizda hech qanday sevimli mashg'ulot bo'lmasa, o'zingizda u yoki bu mashg'ulotlarga moyillikni rivojlantirishga harakat qilishingiz mumkin. Boshlang, sanat festivallariga tashrif buyuring, muzeylarga boring yoki qandaydir g'ayrioddiy mahoratni egallashni boshlang - yog'och o'ymakorligi yoki interer dizayni. Teatr sinfiga yoziling. Chet tilini o'rganishni boshlang, haykaltaroshlik yoki veb-saytlarni ishlab chiqish bilan shug'ullaning - qisqasi, qayig'ingizni ushlab turadigan biror narsa bilan shug'ullaning. Yopiq dunyongizdan chiqib, yangi quvonch va zavqlarni topishni o'rganing. Albatta, o'yin-kulgi haqida har bir insonning o'z tushunchalari bor. Bo'lajak turmush o'rtog'im bilan uchrasha boshlaganimda, u softbol o'ynashni, men esa do'kon aylanishni yaxshi ko'rishim malum bo'ldi. Shunday qilib, hech kim xafa bo'lmasin deb, juma kunlari ishdan keyin xaridga chiqardik, shanba kunlari esa tribunada o'tirib, sevimli futbolchimga muxlislik qilardim. Necha martalab: "Kel, shanba kuni men do'kon aylanaman, sen softbol o'ynaysan, kechqurun uchrashamiz," deb taklif qilmoqchi bo'ldim, lekin bu "yolg'izlikdagi lazzat" ikkalamiz birga bo'lganimizdan oladigan ulkan zavq bilan tenglasha olarmidi! Do'stingiz nimaga qiziqmasin, ikkalangiz uchun ham qiziqarli bo'lgan narsani topishga harakat qiling va bundan birgalikda quvoning. Hayot o'yin-kulgidan voz kechish uchun juda qisqa, birgalikdagi zavq esa har qanday munosabatlarni mustahkamlaydi.

11. Xudoga sodiq do'st bo'lish.

Ehtimol, siz hali yosh yigitning qizi bo'lishga tayyor emasdir, lekin yolg'izlik paytida ham, hayotingizning har qanday davrida ham Xudoga yaxshi do'st bo'lish mumkin. Xudo do'stga muhtoj degan fikr g'alati tuyulishi mumkin, lekin taxmin qiling, Unga ishonadigan va Uning jamoatiga azo bo'lganlarni nima deb atashadi? - Masihning kelinchagi! Garchi Xudo bizning yordamimizsiz ham uddasidan chiqishi mumkin bo'lsa-da, U O'z ishlarini biz orqali amalga oshirishni afzal ko'radi. Uning eng buyuk istagi shuki, odamlar Uning qo'llari bo'lib, qalblari Uning shifobaxsh teginishiga muhtoj bo'lganlarni Unga etkazsinlar, Uning oyoqlari bo'lib, U qayerga olib borsa, o'sha yerga borsinlar, Uning og'izlari bo'lib, o'z birodarlariga Uning so'zlari va irodasini bildirsinlar. Unga Uning maqsadlarini ko'zlaydigan va Uning niyatlarini U bilan birga amalga oshiradigan yordamchilar va ko'makchilar, sodiq do'stlar va dugonalar kerak. Xudoga yordam berish orqali siz har qanday mashg'ulot bera oladiganidan ko'ra yuqoriroq mukofot va o'zingizni

anglash tuygʻusiga ega boʻlasiz. Yahovaga sadoqatli doʻst boʻlish haqida keyingi bobda gaplashamiz.

“Sevinib xursand boʻlaylik, Hammamiz Uni ulugʻlaylik! Axir, Qoʻzining nikoh kuni keldi, Uning kelini oʻzini toʻyga tayyorladi.” Kiyishi uchun kelinga yarqiragan, pok, mayin zigʻir libos berildi. Bu libos — Xudo azizlarining odil ishlaridir».

Vahiy 19:7,8

25-BOB

Isoga oshiq boʻlish

*Men sevgilimniki, sevgilim esa
menikidir! U nilufarlar terib, oʻz
bogʻidan zavq oladi.*

Qoʻshiqlar 6:3

Nikoh marosimidan soʻng mehmonlar zaliga kirgan kelinchak oʻzida yoʻq xursand boʻlib, mehmonlarni ochiq chehra bilan kutib oldi. U oq koʻylagining etagi pol boʻylab choʻzilib ketgan, toʻr parda esa orqasiga shiddat bilan tushib turgan holda zal boʻylab nazokat bilan yurib borardi.

U har bir mehmonning yonida toʻxtab, u bilan bir-ikki ogʻiz shirin soʻzlashar va saxiy maqtovlardan mast boʻlardi: "Siz ajoyib koʻrinasiz!," "Sizning libosingiz juda ajoyib!," "Men hech qachon bunday goʻzal kelinni koʻrmaganman!," "Marosim ajoyib oʻtdi!" Kelin tom manoda olomonning hayratiga choʻmadi. Bu hayajonli xitoblarni u hatto tungacha eshitishga tayyor edi. Aslida u shunday qilardi ham.

Lekin kuyov qayerda edi? Hammaning diqqat-etibori kelinga qaratilgan bo'lib, hech kim uning yangi turmush o'rtog'ini eslamasdi. Qiz esa uning yonida yo'qligini sezmasdi ham. Atrofga sinchiklab qararkanman, o'z-o'zimdan: "Qayerda bo'lishi mumkin?" deb so'rardim.

Nihoyat, men uni topdim, lekin kutgan joyimda emas. Kuyov boshini egib, xona burchagida turardi. U yaqindagina kelinchak barmog'iga taqib qo'ygan oltin uzukni beixtiyor aylantirar, ko'zlaridan duv-duv yosh oqardi. Yonoqlarida tirnoq izlari borligini endigina payqadim. Kuyov Iso edi. U kutdi, biroq kelin unga biror marta ham yuzini o'girmadi. Qiz unga qo'lini uzatmadi. Unga mehmonlarini tanishtirmadi. Undan mustaqil ravishda ish tutdi.

Ko'nglim behuzur bo'lib uyg'ondim va tush ko'rayotganimni angladim. "Ey Rabbim, men muhabbatni o'z o'rnimdan qidirganimda Senga qanchalar ozor etkazgan ekanman!" Uni shunchalik qattiq ranjitganimni o'ylab, yig'lab yubordim.

Afsuski, bu tush Xudo va Uning millionlab odamlari o'rtasida sodir bo'layotgan voqealarning aniq tasviridir. U biz bilan unashtiriladi, biz Uning ismini olamiz, keyin esa o'z hayotimiz bilan yashaymiz, sevgi, etibor, mehrni, faqat bizni chin dildan sevadigan Xudoning O'g'lidani emas, istagan joyimizda izlaymiz.

Iso Uni eslashimizni, do'stlarimizga Uni tanitishimizni, U bilan yolg'iz qolish uchun hammadan uzoqlashishni, Unga sodiq qolishni, Uning ko'zlariga tashnalik bilan qarashni, Uni butun qalbimiz, butun yuragimiz bilan sevimizni qanchalik xohlaydi!

Xo'sh, siz-chi? Masih bilan qanday munosabatlar sizni bog'lab turadi? Sizni shunchalik chuqur, shunchalik kuchli sevgan, yer yuzidagi hech bir inson boshdan kechira olmaydigan O'sha Zot bilan yaqin muloqot qilishning so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan quvonchini bilasizmi? Siz bu quvonchni his qilishingiz mumkin - biz buni o'z tajribamizdan bilamiz.

Bu yerdan u yoqqa qanday o'tish mumkin?

Siz Iso Masih bilan muloqotning chuqurroq va quvonchliroq darajasiga qanday o'tishni so'rayapsiz. Keling, bu ruhiy sayohat nimadan boshlanishini va manaviy etuklik yo'lidan borar ekanmiz, Xudo bilan bo'lgan munosabatimiz qanday rivojlanishini ko'rib chiqaylik.

Jek Xill, ustoz va xalqaro maruzachi, Xudo bilan munosabatlarning oltita progressiv darajasi mavjudligini tushuntiradi va ularni Muqaddas Kitobdan olingan o'xshatishlar yordamida tasvirlaydi:

- "kulol va loy" munosabati
- "cho'pon va qo'y" munosabati
- "xo'jayin va xizmatkor" munosabati
- "do'st bilan do'st" munosabati
- "ota va qiz" munosabati
- "kelin-kuyov" munosabatlari

Menimcha, bu o'xshatishlar bizga Xudo tomonidan Uning murakkab shaxsini yaxshiroq tushunish va Uning bizga bo'lgan mukammal sevgisini chuqurroq his qilish uchun berilgan. Ushbu o'xshatishlar bizning o'zaro bog'liqligimiz darajalarini aks ettiradi. Bolalar balog'at yoshiga etguncha jismonan rivojlanib borganidek, Masihga ishonuvchilar ham ruhan ulg'ayib, etuklik yo'lidan borishadi.

Biz har bir bosqichning rivojlanishini alohida ko'rib chiqamiz, siz esa hozir ularning qaysi birida ekanligingizni aniqlashga harakat qiling.

"Kulol va loy" munosabatlari

Xudoga kelganimizda, bizning ruhiy hayotimiz hali juda noaniq va noaniq bo'ladi. Biz Xaloskorimiz Iso Masihga bo'ysunamiz va Rabbimizdan bizdan Uning xohlaganini yasashini so'raymiz. "Sen bizning Otamizsan; biz loymiz, Sen bizning tarbiyachimizsan va barchamiz Sening qo'lingning ishimiz" (Ishayo 64:8). Yumshoq loy parchasiga o'xshab, biz Kulolga o'zimizni yaratishga va shakllantirishga imkon beramiz, lekin hali Unga o'z sevgimizni bildirishga qodir emasmiz. Agar biz Unga bo'ysunib, Uning irodasi bizni harakatga keltirayotganini his qilsak, ichki uyg'unlikni his qilamiz. Agar biz yo'ldan adashsak yoki u yoki bu ishni nima uchun qilayotganimizni yaxshi tushunmasak, Xudodan uzoqlashayotganimizni his qilamiz. Ko'pincha biz Undan uzoqlashamiz, chunki U bizning nomukammalligimiz tufayli g'azablanayotgandek tuyuladi. Efesliklarga 2:10 da shunday deyilgan: "Biz Xudoning ijodimiz. Xudo bizni Iso Masih orqali ezgu ishlar qilish uchun yaratgan".

Mana nima uchun Xudoga bo'ysunish va U bizni hayotimiz bilan Unga sharaf keltirishimiz uchun

o'zgartirishiga qarshilik qilmaslik juda muhimdir. Ammo bu bilan Xudo biz bilan munosabatlarini cheklab qo'ymaydi. U bizning muloqotimiz chuqurroq va yaqinroq bo'lishini istaydi.

"Cho'pon va qo'y" munosabati

Qo'yga o'xshatish sizga unchalik yoqimli tuyulmasligi mumkin, ammo bu majoz Xudoning O'z xalqiga g'amxo'rlik munosabatini ko'rsatadi: mehribon cho'pon o'z podasini shunday asraydi va unga g'amxo'rlik qiladi.

«Egamiz Rabbiy shunday demoqda: ey cho'ponlar, Men O'zim qo'ylarimni qidirib topaman. Adashgan suruvni qidirgan cho'ponday qo'ylarimni izlayman. Bulutli, qorong'i kunda har yoqqa tarqalib ketgan qo'ylarimni hamma joydan xalos qilib olib kelaman. Yaxshi yaylovlarda o'tlataman, Isroil tog'lari ularning yaylovi bo'ladi. Ular o'sha yerdagi maysazorlarda yotib, Isroil tog'larining ko'm-ko'k yaylovlarida o'tlab yuradi. Men O'zim qo'ylarimga cho'pon bo'laman. Ularga orom beraman, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy». (Hizqiyol 34:11,12, 14,15; shuningdek Yuhanno 10:1-18 ga qarang).

Garchi qo'ylar o'z cho'ponining ovozi bilsa-da, uning ortidan ergashsa-da, uning qalbi ular uchun qanchalik qayg'urayotgani va tashvishlanayotganidan bexabar. Qo'ylar uning orzu-umidlariga sherik bo'lolmaydi. Ularning ishi - to'yib eb-ichish. Ha, qo'y cho'ponga ishonib topshirilganidek, Xudoning yo'l-yo'rig'i va g'amxo'rligiga berilib, Unga ergashishimiz juda muhim. Ammo Xudo biz U bilan insoniy va shaxsiy munosabatlarga ega bo'lishimizni xohlaydi.

"Xo'jayin va xizmatkor" munosabati

Qo'ylar qo'rada yashaydi. Xizmatkorlar o'z xo'jayinlarining uyida yashaydilar va biror ish haqida gap ketganda u bilan gaplashish huquqiga egadirlar. Xizmatkor xo'jayin bilan juda yaqin munosabatda. Talantlar (Matto 25:14-30) va o'nta tanga (Luqo 19:11-27) haqidagi masallar aynan shu darajani tasvirlaydi.

Shunday bo'lsa-da, xizmatkorlar xo'jayinlarining hayotida nimalar bo'layotganidan kam xabardor: ular faqat o'z vazifalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan narsalarnigina biladilar. Xizmatkor xo'jayinning irodasini qanchalik yaxshi bajarayotganiga qarab qadrlanadi. Garchi qo'rquv tufayli emas, balki chin yurakdan Xudoga xizmat qilish va Uning irodasini bajarish biz uchun juda muhim bo'lsa - da, Yahova U bilan yanada yaqinroq bo'lishimizni istaydi.

"Do'st bilan do'st" munosabati

Xo'jayin va xizmatkorning muloqoti ishbilarmonlik asosiga quriladi. Do'stlarning munosabatlari o'zaro mehr va g'amxo'rlikka asoslanadi. Bunday daraja haqida Iso shogirdlariga murojaat qilib shunday degan edi:

"Men endi sizlarni qullar deb atamayman, chunki qul xo'jayinning nima qilayotganini bilmaydi; lekin men sizlarni do'stlar deb atadim, chunki men sizlarga Otamdan eshitgan hamma narsani aytdim" (Yuhanno 15:15). Bu bilan U go'yo: "Men sizlarni faqat Menga xizmat qilayotganingiz uchungina emas, balki Men bilan birga qayg'u va quvonchga sherik bo'lganingiz uchun ham qadrlayman", - demoqchi bo'lgan. Do'stning qadr-qimmatini uning siz uchun qilgan ishida emas, balki sizning o'zaro ishonchingizdadir.

Xudo bizning Do'stimiz bo'lishni istaydi. Biz Rabbimizga yaqin bo'lishning bu darajasiga erisha olamiz. Yoqub 2:23 da shunday deyilgan: "Ibrohim Xudoga imon keltirdi va bu unga solihlik bag'ishlab, Xudoning do'sti bo'ldi". Hikmatlar 2: 23 da ham shunday deyilgan:

"Kimki ko'ngli tozalikni sevsa, og'zida lazzat bo'ladi, shoh uning do'stidir."

"Ota va qiz" munosabati

Xudo uchun biz shunchaki loy, qo'y, xizmatkor yoki hatto do'st emas, balki farzand ekanligimizni anglab, haqiqatni qabul qilsak, bolalikdan qolgan ruhiy jarohatlar va umidsizliklardan mo'jizaviy tarzda davolanishga qodir bo'lamiz. Xudo biz uchun Ota yoki Ona bo'lishi mumkin (chunki U otalik va onalik fazilatlariga ega), biz bolaligimizda ularga juda muhtoj edik. Shunda Unga bo'lgan muhabbatimizni amalda isbotlashga urinib, jonimizni jabborga berishimizga hojat qolmaydi - axir U bizni qilgan ishimiz uchun emas, balki shunchaki biz Uning farzandlari bo'lganimiz uchun sevadi. Ammo ota va qiz munosabatlari qanchalik go'zal bo'lmasin, ular chuqurligi va yaqinligi jihatidan kelin-kuyov munosabatlariga tenglasha

olmaydi.

"Kelin-kuyov" munosabatlari

Qiz kelin bo'lgach, uning butun hayoti yangicha mazmun kasb etadi va butun qadriyatlar tizimi o'zgaradi. Sevgan odami va u bilan ruhiy bog'liqlik uning uchun boshqa barcha tanishuvlar va munosabatlardan ustun turadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu o'xshatish yanada chuqurroq haqiqatni aks ettiradi: Xudo bizni Uni butun qalbimiz bilan sevishimizni, Uning yonimizda ekanidan katta quvonch topishimiz, Uni tanishimiz va tan olishimizni istaydi. U maqsadlarimiz va qadriyatlarimiz Uning maqsadlari va qadriyatlariga mos kelishini istaydi.

Xudoni Ota, Xaloskor va Parvardigor sifatida ko'rish unchalik qiyin emas, ammo Xudoga yer sifatida munosabatda bo'lish mumkinligi ko'pchilikning aqliga sig'maydi. Kimgadir bu haqda o'ylashning o'zi ham hurmatsizlik bo'lib tuyuladi.

Shunday bo'lsa-da, Xudo O'zi va Uning xalqi o'rtasida shunday munosabatlar bo'lishini istaydi. U Ho'sheya payg'ambar orqalm shunday deydi: "Seni menga abadiy nikohlab qo'yaman, seni menga haq va adolatda, yaxshilik va marhamatda nikohlab qo'yaman. Va seni Menga sodiqlik bilan nikohlab qo'yaman, shunda Rabbimni taniysan" (2:19,20).

Xudo bizga O'zining abadiy muhabbat ahдини berdi - muhabbat shunchalik chuqur, shunchalik buyuk, shunchalik keng qamrovliki, biz uni aql bilan qamrab olishga qodir emasmiz. Bu bizni javob inomiga - inson qalbi nimaga qodir bo'lsa, shunga majbur qiladi. Bir paytlar Eram bog'ida Xudo va Uning ijodi o'rtasida nikoh o'qilishi sifatida boshlangan narsa, Iso Masih O'z jamoatiga qaytganida, Qo'zining nikoh marosimida to'liq amalga oshadi.

Xo'sh, Isoga Kuyovdek munosabatda bo'lishni va U istagan yaqinlikdan zavqlanishni qanday o'rganishimiz mumkin? Buning uchun Uni sevib, shuncha vaqtdan beri U bizni qo'lga kiritgandek, Unga erishish uchun jon kuydirish kerak.

Asosiy sevgingiz Iso bo'lsin

Agar siz Isodan qalbingizga joylashishini so'ragan bo'lsangiz, bilingki, U bo'sh qolgan xonani navbatdagi do'stingiz tark etganda ijaraga olishni emas, balki u yerda doimiy yashashni xohlaydi. Xudoni kimningdir ortidan "ergashishga" majburlamang! Mayli, yoshlar qalbingizda o'zlariga munosib o'rinni egallasinlar, lekin Iso siz uchun bosh bo'lishi kerak. Xudo boshqalarni sevishingizni istaydi (lekin siz Uni sevganingizdan ortiq emas). Ushbu oyatlar ustida mulohaza yuriting:

«Sizlar avvalo Xudoning Shohligi va Uning irodasini bajarish payida bo'linglar, shunda qolgan hamma narsa sizga beriladi.» (Matto 6:33)

«Egamizni o'zingning shodliging deb bil, Ko'nglingdagi orzularingga U etkazadi.» (Zabur 36:4)

Boshqacha qilib aytganda, birinchi navbatda Xudoni izlash kerak va U sizning boshqa istaklaringizni qondirish orqali sizga baraka beradi. Ushbu kitob sahifalarida bir necha bor takrorlaganimizdek, erkak kishining qo'ldan keladigan yagona narsa - bu sizning qalbingizdagi bo'sh joyni to'ldirishdir. Xudo Uni siz tashna bo'lgan muhabbat va yaqinlik hissi bilan to'ldirishga qodirdir.

Agar siz hali ham bu qanday bo'lishi mumkinligini tushunmayotgan bo'lsangiz, bir narsani o'ylab ko'ring: kimnidir sevib qolganingizni yaxshi eslasangiz kerak? Esingizdami, o'sha odamni eslashning o'ziyoq yuragingizni hayajonli mehrga to'ldirgan edi? Sevgan insoningiz haqida ertalab ham, kechqurun ham, kunduzi ham, kechasi ham tinimsiz o'ylar edingiz. U bilan loaqal bir og'iz gaplashishga qanchalik intilardingiz. Esingizdami, telefon jiringlaganda, hamma narsani tashlab, uning ovozi eshitish umidida go'shakka yopishardingiz. Siz u bilan birga qancha ajoyib voqealarni boshdan kechirishingizni, u bilan muloqot qilish sizga qancha ajoyib daqiqalarni vada qilishini tasavvur qilib, xursand bo'ldingiz. Qancha urinmang, uni xayolingizdan chiqarib tashlashning iloji yo'q edi! (Darvoqe, siz unchalik harakat qilmadingiz, to'g'rimi?)

Xudo siz ham Unga bo'lgan muhabbatingiz bilan band bo'lishingizni istaydi. Yo'q, U sizdan har kuni Unga nisbatan bir maromda, so'nmas ehtiros bilan yonishingizni talab qilmaydi (zero, har qanday tuyg'u o'z ko'tarilishlari va pasayishlarini boshdan kechiradi); U shunchaki siz uchun eng muhim bo'lishni istaydi. U xursandchilikda ham, g'am-qayg'uda ham Uni eslashingizni istaydi. U siz Undan maslahat va yordam so'rashingizni, U sizni kutayotganini his qilishingizni, Unga iltijo qilishingizni va Uning ijobatini tinglashingizni xohlaydi. Ha, Xudo boshqa odamlar bilan sog'lom munosabatda bo'lishingizni istaydi, ammo U bilan bo'lgan munosabatlar siz uchun eng qimmatli bo'lishi kerak.

Har qanday imkoniyatni Xudoga havola qiling

Ehtimol, siz shunday deb o'ylayotgandirsiz: "Men butun umrim davomida bir xil narsani eshitaman! Iso u, Iso bu, barcha muammolarningning echimi - Isoda! Men, albatta, Isoni bilaman, lekin ko'rish mumkin bo'lmagan va tegish mumkin bo'lmagan Zotda qanday qilib to'liq qoniqish topish mumkin? Agar siz haqiqatan ham shunday deb hisoblasangiz, unda sizning shubhalarangiz qayerdan kelib chiqayotgani bizga tushunarli bo'ladi. Agar shunday bo'lsa, siz chindan ham Xudo bilan to'laqonli munosabatlarga intilganmisiz? Keling, quyidagi savollarga to'g'ri javob berishga harakat qilamiz:

- Xudoni tanib-bilishga va U bilan yaqin munosabatlarga ega bo'lishga intilyapmanmi?
- Muqaddas Kitobni o'qib, Xudoning fel-atvorini va U hayotimni qanday rejalashtirganini tushunishga harakat qilapmanmi?
- Yosh yigitlarga berganim kabi Xudoga ham shuncha imkoniyat berdimmi? Unga o'z xayollarini bag'ishladimmi? U bilan suhbatlashishga intildimmi?
- Yolg'iz qolganimga, odatda qanday yo'l tutardim: telefonni qo'limga olishga shoshilib qo'ng'iroq qilardimmi yoki ibodat qilishni, hamdu sanolarni tinglashni yoki Muqaddas Kitobni o'qishni afzal ko'rardimmi?
- Hayotimda Xudoning mavjudligini etiborsiz qoldirib, o'zimni qondirishga harakat qiladigan (masturbatsiya, erotik xayollar, pornografiya va boshqalar yordamida) yolg'izlik holatlari bo'lib turadimi?
- Xudo mening barcha ehtiyojlarimni qondira olishiga ishonamanmi?
- Hayotimda sodir bo'layotgan barcha narsalarni Xudoning irodasiga topshirib, meni og'riq, qo'rquv va yolg'izlikdan davolash uchun imonimni sinovdan o'tkazishga tayyormanmi?

Xudo ham Uni sinashingizni istaydi. Shubha yoki oldingi xatolaringiz uchun aybdorlik hissi sizni U bilan jonli, shifobaxsh aloqaga intilishdan to'xtatishiga yo'l qo'ymang. U sizdan jirkanmaydi, chunki siz bir paytlar o'z qalbingizdagi bo'shliqni to'ldirishga harakat qilgansiz. U sizning qalbingizni tozalashni va uni bundan buyon og'riq va yolg'izlikdan asrashni o'rgatishni istaydi.

«...Qani, endi birgalashib o'ylaylik: Gunohlaringiz qizil rangga o'xshasa ham, Sizlar qorday oppoq bo'lasiz. Gunohlaringiz qirmizi rangga o'xshasa ham, Sizlar momiqday oppoq bo'lasiz». (Ishayo 1:18)

Biz o'z tajribamizdan bilamizki, Iso Masih bilan chuqur, yaqin munosabatda bo'lish mumkin va ko'plab yosh ayollar ham shunday fikrda. Ular nima deyishayotganiga qarang:

Tara: "Men ko'pincha Iso meni tiz cho'kishga, yuzimni ko'ksiga bosishga va Uning quchog'ida rohatlanib yig'lashga chaqirganini his qilaman. Men faqat Samoviy Otam doimo yonimda va meni hech qanday shartlarsiz sevishini, balki men Unga maqul ekanligimni bilaman, bu men uchun katta tasallidir."

Mishel: "Xudo bilan muntazam muloqot qilishni boshlaganimdan so'ng, Uni va o'zimni yaxshiroq bilib oldim hamda U men bilan qanday munosabatda bo'lishni istayotganini tushundim. Muqaddas Kitob Xudoning menga atab yozgan ulkan sevgi maktubiga aylandi. Yozuv go'yo jonlanib, alohida mano kasb etganday bo'ldi (bunday bo'lishi mumkinligini hech qachon xayolimga ham keltirmagandim!). Endi men Isoning oldiga "qochib kirib", U bilan yolg'iz qolishni sabrsizlik bilan kutapman va buning uchun har bir qulay fursatdan foydalanaman".

Diana: "Garchi Xudoni sevsam-da, ko'pincha Undan uzoqlashib ketardim. Esimda, shunday ruhiy "qurg'oqchilik"lardan birida men dugonamnikiga mehmonga borishga qaror qildim. Uning oldiga kirganimda xonada bitta sham yonib turar, dugonam esa qo'llarini ko'tarib, musiqa jo'rligida masihiycha qo'shiq aytardi. Men uning mashg'ulotini to'xtatmadim, aksincha, o'zim unga qo'shildim. Kutilmaganda o'zimni shunday engil va xursand his qildimki, go'yo Xudoning O'zi menga kulib

boqayotgandek edi. Uning borligini har qachongidan ham kuchliroq his qildim, go'yo U menga: "Mana, sevish nima degani!" deganday bo'ldi. O'shandan beri qo'limdan kelganicha Unga sevgimni izhor qilishga harakat qilaman, chunki bunga javoban Xudoning sevgisini his qilishim mumkinligini bilaman."

Uni izlang va Unga ega bo'ling

Samoviy Kuyovingizni yaqindan bilish uchun vaqtni ayamang. Har kuni Uning Kalomini oching. Avvaliga Ho'sheya payg'ambarning kitobini, Qo'shiqlar qo'shig'ini va Yuhanno Injilini o'qib chiqing - va siz Uning beqiyos sevgisi haqida birinchi tasavvurga ega bo'lasiz. Xudo bilan shunchaki suhbatlashish va U sizga nima deyishini tinglash uchun yolg'iz sayrga chiqing. Siz, albatta, Uning so'zlarini qulog'ingiz bilan eshitmaysiz, lekin qalbingiz bilan his etasiz. Uning muhabbatiga guvoh bo'lish uchun atrofingizga qarang: U siz uchun yaratgan daraxtlar va gullar, osmonda uchib yurgan qushlar, tinimsiz o'zgarib turadigan bulutlar naqshini ko'ring... Bularning barchasini ko'rib, Unga cheksiz shukrona keltirayotganingizni va Uni yaxshiroq bilishni juda xohlayotganingizni ayting.

Xudoga yaqin bo'lishni istasangiz, albatta, shunday bo'ladi. Agar ilgari ham Uni tanimagan bo'lsangiz, tashvishlanmang. U sizni qayerdan topishni biladi va albatta sizni qo'lga kiritadi. U hozirning o'zidayoq kutyapti. Iso Masih sizga har kuni, har soatda taklif etayotgan ishqiy yaqinlik - bu ko'plab ayollar butun umr izlaydigan, ammo yerdagi munosabatlardan topa olmaydigan narsadir. Endi, bu kitobni o'qiganingizdan so'ng, to'liq qoniqish u yoki bu yigit bilan jinsiy aloqada emasligini tushunasiz. Barcha umid va istaklarning ro'yobga chiqishi faqatgina aqlingiz, yuragingiz va tanangizni yaratgan, to'liq baxt uchun nima kerakligini aniq biladigan Isoni sevib qolganingizda mumkin bo'ladi.

Iso Masih bilan bo'lgan sevgi - vasvasaga qarshi turish uchun asosiy quroldir. U har doim ongingiz, yuragingiz va tanangizni qo'riqlaydi va har doim vasvasa ustidan g'alaba qozonishingizga yordam beradi (hatto bugungi jinsiy aloqaga to'la dunyoda ham). Siz uchun kurashishni Xudoga qo'yib bering va Uning cheksiz muhabbatini ochib berishini so'rang.

«So'rang, sizga beriladi. Izlang, topasizlar. Taqillating, eshik ochiladi. Chunki so'ragan har bir odam oladi, izlagan topadi, taqillatganga eshik ochiladi». Matto 7:7, 8

Agar siz boshqa ayollarga nisbatan moyil bo'lsangiz

Ehtimol, siz bu kitobni o'qiyotganingizda o'zingizga savol bergandirsiz: "Agar meni umuman yigitlar emas, balki qizlar qiziqtirsa, ularning menga nima aloqasi bor?" Keling, avvaliga bunday mayllar qayerdan paydo bo'lishini ko'rib chiqaylik, keyin esa Muqaddas Kitobda besoqolbozlik haqida nima deyilganini ko'rib chiqaylik va nihoyat, bu vasvasaga qarshi qanday kurashish kerakligi haqida gaplashaylik.

Muammoning ildiziga qaraymiz

Bizning fikrimizcha, gomoseksual istaklar va mayllar ko'pincha noto'g'ri oilaviy munosabatlarga asoslanadi. Ehtimol, bolaligingizda onangiz sizni juda yaxshi ko'rgani va himoya qilgani, otangiz tomonidan esa buni his qilmaganingiz uchun boshqa ayollarga moyilligingiz bordir. Balki siz otasiz o'sgansiz yoki u sizga sovuq va qattiqqo'l munosabatda bo'lgan hamda siz erkakdan sevgi, etibor va mehr kutishga o'rganmagandirsiz. Balki otangiz yoki boshqa birov sizga zo'ravonlik qilgandir va sizda kuchli jinsga nisbatan nafrat bilan ishonchsizlik paydo bo'lgandir.

Bizning madaniyatimiz ko'p jihatdan ayollarning bir-biriga intilishini rag'batlantiradi. Ushbu kitob nashr etilgunga qadar, televizor ekranlarida o'pishayotgan Madonna va Britni Spirs allaqachon eskirgan bo'ladi. Butun mamlakat bo'ylab reklama taxtalaridan bizga bir juft yarim yalang'och ayollar qarab turishibdi.

Kitobimizga malumot tayyorlar ekanmiz, o'smirlar uchun mo'ljallangan anchagina jurnallarni ko'rib chiqdik. Ko'pincha ularning muqovasida bir-birini quchoqlab turgan ikki betakalluf qizning tasviri ko'zga tashlanardi; yonma-yon qo'yilgan chaqiriq yozuvi lesbiyanlar muhabbati haqidagi maqola bilan xursand qilishga vada berardi. Kechki soatlarda namoyish etiladigan kinofilmlar va teleko'rsatuvlar ko'pincha gomoseksual munosabatlarni mutlaqo maqbul muqobil turmush tarzi sifatida tasvirlaydi. Ko'pgina maktablarda o'quv dasturlari "ikki ona" yoki "ikki ota" oilaviy stsenariylarini nazarda tutadi. Bazi tadqiqotchilar, shuningdek, gomoseksuallar va lesbiyanlar huquqlarini himoya qiluvchilar bizga majburlamoqchi bo'lgan narsalarga qarama-qarshi o'laroq, biz "gomoseksualizm geni" mavjudligiga va bazi odamlar shunday tug'ilishiga ishonmaymiz.

Jinsiy yoki etnik mansublikdan farqli o'laroq, gomoseksuallik genetik jihatdan belgilangan va homiladorlik paytida o'tadigan dastlabki belgi emas. Odamda bu xususiyatlar malum tajriba tufayli paydo bo'lishi mumkin, lekin u o'zida boshqa sog'lom mayllarni rivojlantira oladi. Yuzlab sobiq gomoseksualistlar va lesbiyan ayollar o'z hayot tarzini o'zgartirishga va o'zlarini yangi normal jinsiy maylda topishga muvaffaq bo'lishdi.

Muqaddas Kitobda nima deyilgan?

Agar Xudo besoqolbozlikka qanday munosabatda bo'lishini bilmoqchi bo'lsangiz, Rimliklarga yo'llagan maktubning birinchi bobini o'qing. Havoriy Pavlusning takidlashicha, bir jinslilar bilan jinsiy aloqa qilish Xudo oldida qabihlikdir. Shunga qaramay, siz shuni bilishingiz kerakki, har qanday gunoh kabi gomoseksualizm ham Xudoga yoqmasa-da, U bizni qanday vasvasalarga duch kelishimizdan qati nazar, hammani sevadi. Garchi siz boshqa ayollarga ishtiyoqmand bo'lsangiz ham, Xudo sizni juda yaxshi ko'radi va Uning o'zgartiruvchi kuchi gunohga qarshi turish uchun sizga ham, Uning ismini chaqirgan har bir kishiga ham yordam berishga tayyor.

To'g'ri yo'nalishda yurish

Birinchidan, ayol jinsi vakiliga bo'lgan har qanday kuchli hissiy bog'liqlik allaqachon gomoseksual mayl deb o'ylamang. Siz ko'chada chiroyli qizni tomosha qilishingiz, dugonangizni betakror go'zal deb hisoblashingiz, o'qituvchingiz, murabbiyingiz yoki tarbiyachingizni tom manoda yaxshi ko'rishingiz mumkin. Bu sizning lesbiyan ekanligingizni anglatmaydi.

Xudo bizga boshqa ayollar bilan munosabatda bo'lishimizni taqiqlamaydi. Do'stlashing, birga vaqt o'tkazing, yoqimli xotiralar to'plang. Dugonangizni samimiy quchoqlasangiz, yuziga shapillatsangiz yoki ko'ksida yig'lashiga yo'l qo'ysangiz, hechqisi yo'q. Ammo hech qachon ikki manoli suhbatlar va jinsiy aloqalarga yo'l qo'ymang. Agar siz o'zingizni shunga o'xshash xayollar bilan qo'lga tushirsangiz, darhol ulardan chalg'ishga harakat qiling. Shuni unutmangki, nafaqat tanani, balki aql va qalbni ham asrash kerak.

Agar ayol bilan munosabatlar noaniq xususiyat kasb etsa, bunday do'stlikni to'xtatgan maqul (ayniqsa dugonangiz siz belgilagan chegaralarga rioya qilish niyatida bo'lmasa). Muqaddas Kitobda zinodan saqlanish buyurilgani yodingizda bo'lsin (1 Korinfliklarga 6:18). Agar dugonangiz manaviyat va taqvoda o'sishingizga xalaqit bersa, hech ikkilanmay u bilan aloqani uzing. Gunohdan qochishning hech qanday uyatli joyi yo'q va Xudo, albatta, sizning adolat yo'lida keltirgan qurbonligingizni munosib baholaydi. Agar siz gomoseksual moyilliklarni mustaqil ravishda engishga kuch topa olmasangiz va yordamga muhtoj bo'lsangiz, Undan yordam so'rang. Bunday masalalar bilan shug'ullanadigan psixologga murojaat qiling yoki minglab masihiylarga turmush tarzini o'zgartirishga va sog'lom munosabatlarga intilishga yordam beradigan "Exodus International" tashkilotiga (www.exodus-international.com) murojaat qiling. G'urur yoki soxta uyatchanlik sizni davolanish umididan mahrum qilishiga yo'l qo'ymang.

Tanlov o'z qo'lingizda. Agar Masihda bo'lsangiz, Uning qudrati har qanday vasvasani engib, iffatli qiz bo'lishingizga yordam beradi. Xudo sizga har tomonlama ko'maklashishini va bu to'g'ri yo'lda sizni qo'llab-quvvatlashini so'raymiz.

Aziz do'stim!

O'qigan kitobingiz haqida fikringizni bilmoqchimiz. Taassurotlaringiz, nima yoqqan yoki yoqmaganligi, bu kitobni do'stlaringiz va tanishlarga tavsiya qilish istagi paydo bo'lgan-bo'lmaganligi haqida bizga yozing. Fikr-mulohazalaringizni quyidagi manzilga yuborishingiz mumkin:

Hope of Salvation Mission

"Najot umidi" missiyasi

P. O. Box 5022

Vancouver, WA 98668-5022, USA

books@hopeofsalvation.org

www.spasenie.org